

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI		REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY EDUCATION KARSHI STATE UNIVERSITY
---	---	---

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“O‘ZBEK ADABIY TILI TARIXI”
fanidan

MA‘RUZALAR MATNI



Qarshi-2020

Ma'ruzalar matnida "O'zbek adabiy tili tarizi" kursi mazmunida aks etuvchi hamda bo'lajak pedagoglarning faoliyatini samarali tashkil etish, pedagog va talaba urtasidagi ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, ularning O'zbek adabiy tili tarixlarini oshirish, darslarni tashkil etishning yangi uslublarini ishlab chiqish masalalariga e'tibor karatilgan. Ma'ruza matni mazmuniga pedagog kadrlarni tayyorlashga nisbatan kuyilayotgan bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondoshilgan bo'lib, unda har bir mavzuga oid ilmiy va uslubiy adabiyotlar ruyxati ham qayd etilgan. Ma'ruzalar matni oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchi: Shukurov O. f.f.n.

Tuzuvchi: Jumayev T. "O'zbek adabiy tili tarizi" fani (Ma'ruzalar matni),
Qarshi: QarsDU, 2020-yil

**1-ma'ruza: "O'ZBEK ADABIY TILI TARIXI "FANINING O'RGANISH
MANBAI VA VAZIFALARI**

Reja:

1. Adabiy til – umumxalq tilining oliy shaklidir.
2. "O'zbek adabiy tili tarixi" fanining o'rganish manbai.
3. "O'zbek adabiy tili tarixi" fanining oldiga qo'yiladigan vazifalar.
4. Adabiy til doirasiga kirmaydigan nutqiy unsurlar xususida.
5. Adabiy tilning taraqqiysi uchun xizmat qiladigan manbalar.

Tayanch tushunchalar: 1. Adabiy til haqidagi eng asosiy tushunchalar. 2. Adabiy tilning umumxalq tilining oliy shakli ekanligi. 3. Adabiy til tarixining o'rganish manbai, tarixiy grammatikadan farqlanishi. 4. Adabiy til doirasiga shevalar, ilmiy atamalar, jargon va argolar kirmasligi. 5. Adabiy tilning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi manbalar.

Adabiy til asos e'tibori bilan umumxalq tilining so'z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangan shaklidir. So'z ustalari butun yaratuvchilik jarayoni ustidan rahbarlik va boshqaruvchilik rolini olib boradi. SHuni esda tutish lozimki, tilni xalq yaratadi. Tilni adabiy va xalq tiliga bo'lish faqat "xom" til va yozuvchilar tomonidan ishlangan til borliginigina ko'rsatadi. Buni birinchi marta tushungan kishi Pushkin bo'ldi, xalqning so'z materialidan qanday foydalanish kerakligini, uni qanday qilib ishlash zarurligini ham birinchi marta u ko'rsatib berdi.

Umumxalq tilini qayta ishlash, undagi eng yaxshi unsurlarni saralab olish, fikr va his-tuyg'ularni juda sodda va ixcham qilib ifodalash sohasida buyuk so'z ustalarining tajribasi kattadir. Umumxalq tilini badiiy qayta ishlash metod va usullari turli davrlarda o'zgarib hamda takomillashib boradi. Nutq vositalari, hatto, eng qadimgi vaqtlarda ham qayta ishlandi va silliqashtirildi. Bunday qayta ishlashning namunasi

M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari misolida juda ravshan ko'rinadi.

Adabiy til tarixining eng muhim vazifalaridan biri buyuk so'z ustalari tomonidan umumxalq tilining qayta ishlanish xarakteri va rolini aniqlashdir.

Adabiy til – murakkab uslublar tizimidan (adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik, ilmiy, ishlab chiqarish – texnika, hujjat-qog'ozlar va boshqalardan) iborat. SHunday ekan, adabiy tilning ijodkori faqat yozuvchilar emas. SHuning uchun ilmiy bayon etish uslubini yaratishda faol ishtirok etgan buyuk olimlarni ham e'tibordan chetda koldirmaslik kerak. Masalan, Alisher Navoiy bir qancha badiiy asarlar yaratish bilan birga «Majolisun-nafois»da adabiy tanqid, «Mezonul-avzon»da adabiyot nazariyasi, «Muhokamatul-lug'atayn»da til bilimi haqida ilmiy fikrlar bildirdi, shuningdek, bu sohalar bo'yicha fikr bayon etish yo'llarini ham amalda ko'rsatib berdi.

Adabiy til leksikasi va frazeologiyasi faqat milliy til zahiralari hisobiga emas, balki boshqa tillardan so'z olish yo'li bilan ham boyib bordi.

Umumxalq tilining grammatik qurilishi va lugʻat tarkibidagi hamma faktorlar adabiy tilning meʼyori qilib olinavermaydi. **Hozirgi adabiy til meʼyoriga kirmay, chetda qoladigan soʻz va iboralar quyidagilar:**

a) dialektal soʻz va iboralar hamda ayrim shevalarga xos boʻlgan sintaktik qurilmalar va soʻz yasashning ayrim unsurlari. Misol: *shapish* (doʻppi, qalpoqcha), *inak* (sigir) kabi;

b) umumxalq soʻzlashuv tilida hamda badiiy adabiyotda obraz individualligini boʻrttirish uchun qoʻllaniladigan, adabiylik huquqiga ega boʻlmagan sodda soʻz va iboralar;

v) jargonlar leksikasi va frazeologiyasi hamda ularda ishlatiladigan soʻzlar;

g) ayrim ijtimoiy guruhchalarning shartli yasama tili (argo tili), masalan: oʻgʻrilar yasama tili, kartabozlar yasama tili.

d) maxsus professional atamalar leksikasi. Bular adabiy til doirasida qatnashish huquqiga ega boʻlsa ham, adabiy til uslubida qatnasha olmaydi, chunki ularning qoʻllanish doirasi tor. Masalan, kulolchilar leksikasi.

Yuqoridagilarga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkin: *oʻzbek adabiy tili muayyan meʼyorga, qolipga solingan, oʻzbek xalqining barcha madaniy ehtiyoji va talablariga xizmat qiladigan tildir, rasmiy davlat hujjatlari, fan va texnika, matbuot, radio, teatr va badiiy adabiyot tilidir.*

Soʻz ustalari umumxalq tilidagi har xil nutqiy shakllarni tanlab olish bilan birga, ularni badiiy qayta ishlaydilar. Badiiy qayta ishlash deganda nimani tushunish kerak? Bu quyidagi hollar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. **Umum ishlatadigan soʻz maʼnolarini yanada taraqqiy qildirish asosida.** Masalan. Oybekning «Qutlugʻ qon» romanidagi quyidagi gapga nazar tashlang: *Bilaman, tushunaman, kishanga tobing yoʻq.*

Qoratoyning Yoʻlchiga qarata aytgan bu gapida *kishan* soʻzi «boylar istibdodi, zulmi» maʼnolarini anglatib kelyapti. Darhaqiqat, boylar istibdodi, zulmi oddiy mehnatkash xalq uchun kishandir.

2. **Frazeologik novatorlik bilan.** Masalan, Said Ahmad asarlarida «*oʻtiga oʻzi yonib yotmoq*», «*miyasini parmalab turmoq*», «*ota er-xotin oʻrtasiga qora botir boʻlib tushdi*» kabi mohirona ijod qilingan frazeologizmlar mavjud.

3. **Taqqoslash, metafora, epitet, perifraza** kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanish assyuida. Masalan, Gʻ.Gʻulom «YAlovbardorlikka» sheʼrida shunday yozadi:

*Buxoro bir oltin kosa,
Qon-yosh bilan limmo-lim.*

Bu oʻrinda uch holat koʻzga tashlanadi: birinchidan, Buxoro oltin kosaga oʻxshatilyapti, ikkinchidan, kichraytib koʻrsatilyapti (litota), uchinchidan, bu oʻrinda koʻchma maʼno – metafora ham mavjud. Demak, bu metaforik kichraytishdir.

4. **YOʻzuvchilar, olimlar va publitsistlar ham yangi soʻzlar yaratadilar.** Bular umum ishlatadigan leksikantsng yutugʻi sifatida roʻyobga chiqadi: ...*Rus, ukrain, oʻzbek, qozoq va butun jangchilar doʻzaxning oʻt yoqar, oʻtkavlar shovvozlari kabi favqulbasha gʻayrat va gʻazab bilan ishladilar* (Oybek).

5. Adabiy til qurilishida bo'lgan o'zgarishlar uning ijtimoiy vazifasining kengayishi, uning taraqqiyotidagi ichki va tashqi faktorlar asosida yuz berdi. Masalan, bu hol Navoiy zamonidan hozirgi kunga qadar o'tgan davr ichida o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibida, fonetik qurilishida, so'z yasash tizimi va grammati qurilishida ko'zga tashlanadi.

Yozma va og'zaki adabiy til. Adabiy tilning ikki xil – *og'zaki* va *yozma* shakli bor.

Og'zaki shakl qadimiy bo'lib, qadimgi xalq qo'shiqlari, dostonlari, ertaklari, latifalari, maqollari va topishmoqlari shu shaklda yaratilgan va og'izdan-og'izga o'tib sayqallashgan.

O'zbek adabiy tili yozma shaklining shakllanishi va takomillashishi yozuvning paydo bo'lishi bilan boshlandi. Lekin adabiy tilning yozma shaklini og'zaki shakldan ajratmagan holda tekshirish lozim, chunki usiz adabiy tilning shakllanishini o'rganish mumkin emas. Ba'zi folklor asarlari esa keyinchalik ayrim kishilar tomonidan qayta ishlanib, yozma adabiyotga ham kiritildi («Farhod va SHirin», «Tohir va Zuhra» kabi). Adabiy tilning yozma shakli tilning orfografik, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga amal qiluvchi shakli bo'lib, yozuvda fikr va mulohazalar, abzatslar, gaplar tinish belgilari bilan ajratiladi.

Adabiy tilning yozma shakli kishilar o'rtasida bevosita aloqa vositasi bo'lmay, boshqa joy va zamonda yashovchi insonlar bilan aloqa bog'lash vositasidir.

YOzma adabiy til sintaktik qurilishining birmuncha murakkabligi hamda leksikasida mavhum so'zlar, atamalar va o'zlashma so'zlarning ko'pligi bilan og'zaki adabiy tildan farq qiladi. Bundan tashqari, yozma adabiy til fikr bayon etish uslublari bilan ham og'zaki adabiy tildan farqlanadi. Og'zaki va yozma adabiy tilning monologik va dialogik shakllari mavjud.

YOzma adabiy til va og'zaki adabiy til mustahkam birlikda rivojlanadi va bir hodisaning turli tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Og'zaki adabiy til leksik, grammatik tarkibi jihatidan yozma adabiy tilga mos keladi. Biroq og'zaki adabiy til so'z ishlatish uslubi va sintaktik qurilmalarni qo'llash nuqtai nazardan o'ziga xoslikka egadir.

Qadimgi davrlarda og'zaki adabiy til bilan yozma adabiy tilning aloqasi juda kuchsiz bo'lgan. Hozir adabiy tilning yozma shakli og'zaki adabiy tilga yaqinlashtirildi. Hozir yozma adabiy tildagi uzundan-uzoq oborotlar va qurilmalar o'rini og'zaki adabiy tilga xos qurilmalar egallamoqda. Hozirgi o'zbek nasrsida bu holni aniq ko'rish mumkin. Jumladan, Oybekning «Bolalik» povesti Musovoy tilidan, G'. G'ulomning «YOdgor» povesti Jo'ra tilidan, Asqad Muxtorning «Davri mening taqdirimda» romani Ahmadjon tilidan hikoya qilinadi. Asar ishtirokchilaridan birining hikoyasi asosida bayon qilish badiiy ijodda o'ziga xos usul bo'lish bilan birga, badiiy nutqda odzaki adabiy tillga xos bo'lgan so'z birikma va sintaktik qurilmalarni qo'llash imkonini beradi. Natijada badiiy asar tilida og'zaki tilning ta'siri yanada kuchaya boradi.

Adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyotida yozuv katta ahamiyatga ega. YOzuv bir necha asrlar davomida yaratilgan va yig'ilgan milliy so'z boyligini,

uning bosib o'tgan butun tarixiy taraqqiyot yo'lini, badiiy iboralarning shakllana borishini o'zida aks ettiradi.

YOzuvning roli haqida gapirganda «yozuv tili» atamani qaysi ma'noda qo'llash lozimligini ham aniqlashtirish kerak bo'ladi. Chunki bu atamasi ba'zi tilshunoslar qadimgi yozuv tiliga nisbatan ham ishlatadilar. Lekin «yozuv tili» atamasi faqat ayrim xalq ehtiyojini qondirish uchun vaqtincha ishlatilgan o'zga tilga nisbatan qo'llash mumkin. Masalan, Evropada latin tili bir necha asrlar yozuv tili bo'lib xizmat qildi.

O'zbek adabiyoti tarixi shu narsani isbotlaydiki, 1917 yilga qadar bo'lgan davrda, ayniqsa, XVI–XVII asrlargacha badiiy ijod namoyandalari o'zbek tilida ijod qilgan bo'lsalar ham, tarix, falsafa, meditsina, geografiya, huquqshunoslik kabi fanlarga doir asarlarini arab yo fors tillarida yaratganlar.

Adabiy til me'yorlashtirilgan tildir. Adabiy til grammatik qurilishi va leksik tarkibi jihatidan me'yorlashtirilgandir. Adabiy til dialekt, jargonlardan o'zining me'yorga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til so'zlarni qonun-qoidaga muvofiq ishlatishni, uslubda so'z ma'nosini leksik-semantik me'yorda qo'llashni, morfologik va sintaktik tuzilishi jihatidan to'g'ri ifodalashni talab qiladi. Bundan tashqari, u nutq vositalarini qo'llash yo'llari va usullarini, uslubiy me'yor asosida badiiy tasvir vositalarini yaratish metodlarini, orfoepik me'yor asosida talaffuz qilishni talab etadi.

Til taraqqiyoti jarayonida adabiy til me'yori ham o'zgaradi. Masalan, Navoiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdan beri o'zbek tili, uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar, albatta, adabiy til me'yoriga ta'sir etmasdan qolmadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topa bordi.

Adabiy tilning eng muhim vazifaladidan biri umumtil uchun hayotiy, tipik, yangi narsani saqlashdir. Tilni yaratuvchi ham, tarqatuvchi ham xalqdir. Shuning uchun adabiy til me'yori xalqchil, zamonaviy bo'lishi bilan birga tilning ilgariga qarab bo'ladigan harakatini aks ettirishi kerak.

Til me'yori tushunchasi *keng va tor* ma'noda tushuniladi. Keng ma'nodagi til me'yori adabiy til, yozma til, og'zaki til, so'zlashuv nutqi dialektal nutq kabilarning me'yorlariga nisbatan qo'llanadi. Bularning har biri o'z navbatida o'ziga xos belgilarga ega bo'lishi bilan boshqalaridan farqlanadi.

Tor ma'nodagi norma tushunchasi ma'lum nutq uslubining o'ziga xos me'yorini anglatadi.

Til normalarining barcha ko'rinishlari me'yorlashgan bo'lmaydi. SHu sababli mahalliy shevalar, ijtimoiy jargonlar tili me'yorlashmagan tildir. Lekin sheva va dialektlarning me'yoriy tizimiga kishilar ongli ravishda ta'sir etmaydi, yozuvchilar, olimlar ularni qayta ishlagan emas. SHEvalar o'zlarining tabiiy me'yorlari bilan yashaydigan, yashayotgan tildir.

Adabiy me'yor – ongli aralashish orqali qayta ishlangan, tanlangan, baholangan me'yordir. SHu sababli ba'zi olimlar adabiy tilni «sun'iy til», «yasama til», xalq tili va shevalarni esa «tabiiy til» deb yuritganlar.

Adabiy tilning belgisi unda ma'lum qoidalarga asoslangan me'yorlarning bo'lishidir. Bu me'yorlar til vositalarini nutqdagi qanday ko'llashni, bir xillikni

belgilab beruvchi qoidalar yig'indisidir. Bunday me'yorlar har xil bo'ladi. Leksik me'yorlar, fonetik me'yorlar, orfografik me'yorlar, grammatik me'yorlar kabi.

Adabiy me'yor tarkibida turli xil ijtimoiy-nutqiy uslublarga xos – sodda til, dialekt, so'zlashuv nutqidagi shakllar uchraydi: *oya* (kaft), *adaq* (oyoq), *shoti* (narvon). Bu so'zlar hozirgi adabiy til me'yori doirasiga kirmaydi. Bunday so'zlar badiiy asarda, biror tarixiy voqeani tasvirlash, asar qahramoniga nutqiy xarakteristika berishda ishlatiladi. Bunday qo'llash uslubiy normadir.

Ijtimoiy-nutqiy uslub umumxalq so'zlashuv nutqidan so'z ishlatishdagi o'ziga xos xususiyati va boshqa tomonlari bilan farqlanib turadi. So'zlashuv tili bir xil emas, chunki bu tilda so'zlashuvchilarning o'zlari ham turli-tuman xarakter xususiyatiga ega.

Har xil ijtimoiy tabaqalar o'zaro so'z ishlatish va tildan foydalanishi bilan farq qiladi. Ular tilga, o'zlari qiziqqan, sevgan so'z va jumllarini kiritadilar.

Bizga ma'lumki, *jargonlar* nutqi o'zini xalqdan yuqori qo'yuvchi, xalqdan ajralgan sinflar tomonidan yaratiladi. Xalqqa tushunarli, aniq bo'lmagan jargonlardan farqli ularoq, ijtimoiy-nutqiy uslubdagi so'zlashuv tili o'zining tarkibi va xarakteri hamda lug'at va grammatik material jihatidan umumxalq tushunadigan tildir. Lekin bularning o'ziga xos xususiyati bor. O'zbek nasrsida Oybek, A. Qahhor, G'. G'ulom kabi san'atkorlar qalamiga mansub bo'lgan asarlarda bunday xususiyat juda yorqin aks etib turadi.

Ijtimoiy-nutqiy uslub mediklar, artistlar, ilmiy xodimlar, o'qituvchilar va boshqa soha kishilarining so'zlashuv nutqi uchun, xarakterlidir. Bu uslub nutq vositalarining tarkibi va ulardan foydalanish me'yori jihatidan adabiy til me'yoridan chetga chiqmaydi. Masalan, o'qituvchilar nutqida: *dumlarni tugataylik*. kabi (dum – «2» baho ma'nosida).

Ijtimoiy-nutqiy uslub muammosini hal qilmasdan va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmasdan turib, personajlar tilini analiz qilish va uning tipiklik darajasini to'g'ri aniqlash, mumkin emas.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotiga dialektal nutq vositalarining ta'siri turli etaplarda turlicha bo'ldi. O'zbeklarning xalq va millat bo'lib tashkil topishi jarayonida mahalliy dialektlar umumxalq tilining asosi va muhim manbai bo'lib xizmat qildi.

O'zbek adabiy tili tarixi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri til taraqqiyotining qaysi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda shevaga xos birliklar adabiy til leksikasini boyitishda asosiy zaxira va manba bo'lib xizmat qilganini aniqlashdir.

O'zining grammatik qurilishi va asosiy lug'at fondiga ega bo'lgan dialektlar xalq tili taraqqiyoti tarixi davomida o'ziga xos xususiyatini yo'qotadi va xalq tili bilan qo'shib ketadi. Hamma hayotiy, tipik va til uchun kerakli bo'lgan narsalar dialektlardan umumxalq tiliga olingan. Dialektlarda shunday so'zlar saqlanib qoladiki, bular umumxalq tilidagi so'zlar bilan birga sinonim vazifasini o'taydi. Masalan, *narvon* – *shoti*, *duppi* – *kallapush* va boshqalar.

Ayrim dialektlarga, kasb-hunarga xos so'zlar mahalliy ruhni berishda, personajlar nutqini individuallashtirishda, dialoglarda muhim ahamiyatga ega. Ammo bunday so'zlarni muallif nutqida ishlatish maqsadga muvofiq emas.

SHunday qilib, adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyotiga asos bo'lgan manbalar tarixan o'zgaradi. O'zbek xalq tili rivojlanish XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda adabiy til tomonidan foydalanilgan zaxiralar keyinchalik xalq tilidan milliy tilga o'tish XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda manba bo'lib xizmat qilmaydi. SHu kundan boshlab adabiy til shevalarga katta ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Adabiy til o'z leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik unsurlarining turg'unligi bilan xarakterlanadi.

YAngi tushuncha va narsa-jismlarni ifodalovchi tildagi yangi so'zlar mahalliy dialektlardan olinmasdan, balki turli so'z yasash vositalari asosida hosil qilinadi yoki ayrim so'zlar ma'nosi o'zgartiriladi, yoki boshqa tillardan so'z olinadi.

Adabiy tilni tarixiy-uslubiy tomondan o'rganish masalasi. O'zbek adabiy tili tarixining vazifasi badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop hujjatlar hamda ish yuritish qog'ozlari tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonlarini hamda turli xil uslublarni o'rganishdan iborat. Adabiy tilning uslublar tizimi sifatida tarixiy taraqqiyotini, har bir uslub uchun xarakterli bo'lgan leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik vositalar shakllanishini o'rganish til tarixi kursining asosiy mazmunini va narsa-jismini tashkil etadi.

Bu kurs o'zbek tili tarixiy grammatikasidan o'zining vazifasi, materiali va tekshirish metodi jihatidan farq qiladi.

Tarixiy grammatikya eng qadimgi davrdan hozirgi davrgacha bo'lgan tilning tovush tarkibi va grammatik qurilishini har xil yozma va orzaki nutq materiallari asosida tekshiradi. ***Adabiy til tarixining vazifaasi esa grammatik vositalarning me'yorlashish masalalarini ularning uslubiy differentsiatsiyasi qonuniyatini o'rganadi.***

O'zbek adabiy tili tarixni o'rganish jarayonida o'zbek xalqi nutq madaniyatini takomillashtirish va rivojlantirishda katta hissa qo'shgan buyuk yozuvchilar ijodiga e'tibor beriladi. Ularning tili badiiy nutqning hamda milliy adabiy me'yorlarning namunasidir.

Adabiy til tarixi kursi me'yorlashtirilgan badiiy iboradar tarkibini va ularning turli nutq tiplarida ishlatilishini tekshiradi.

Adabiy tilning tabiati va tarakkiyota asosan ikki aspektda – *tarixiy* va *uslubiy* aspektda bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tarixiy-uslubiy aspektda faqat nutq vositalarining tarkibigina emas, balki ularning turli nutq ko'rinishlarida ishlatilishi qonuniyati ham o'rganiladi.

Adabiy til uslublar tizimidan iborat bo'lib, u turli davrlarda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda har xil bo'lishi mumkin.

Uslublar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko'rinishlari bo'lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Adabiy til uslublari taraqqiyotini adabiy janrlar taraqqiyotidan ajratgan holda qaramaslik kerak. Nutqiy vositalar tarkibi va ularni qo'llash me'yorlari asar janri bilan mustahkam aloqadordir. Adabiy til uslublari janrlar printsiipi asosida tasnif qilinadi. Masalan, adabiyotning asosiy janrlaridan biri bo'lgan publitsistika publitsistik uslub asosida ish ko'radi.

Har bir uslubning taraqqiyoti va uning boshqa uslublarga munosabatini aniqlash uchun dastavval adabiy tildagi mavjud uslub turlarini va ularning vazifa doirasini belgilash zarur bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi uslublarning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

1. *Adabiy-badiiy uslub*. Buning o'zi poetik uslub va nasriy uslub, deb ikkiga bo'linadi.

2. *Ijtimoiy-publitsistik uslub*. Bunga gazeta-jurnal, adabiy-tanqidiy asarlar, pamfletlar, maqolalar va ocherklar uslubi kiradi.

3. *Ilmiy bayon uslubi*. Meditsinaga oid asarlar uslubi matematik asarlar uslubidan, ular o'z navbatida ilmiy-falsafiy asarlar uslubidan tubdan farq qiladi. Idoraviy asarlar uslubi nutqni bayon etishi jihatidan o'ziga xos xususiyatga egadir. Ilmiy-ommabop asarlar, maqolalar, broshyuralarning uslubi ham o'ziga xos xususiyatga ega.

4. *Professional-texnik uslub*. Bu ishlab chiqarish va texnika adabiyotlari uslubidir. Bu uslub texnika sohasida, harbiy sohada va boshqa turli xil kasb-hunarlar sohasida ish ko'ruvchilar uchun xizmat qiladi.

5. *Qonunlashtiruvchi hujjatlar, buyruqlar, topshiriqlar uslubidan iborat rasmiy hujjatlar uslubi*.

6. *Har xil yozishmalar, kundaliklar va xatlarga xos bo'lgan maktubiy uslub*.

Adabiy til taraqqiyotining turli davrlarida adabiy uslublarning qo'llanish mavqei o'zgarib boradi. Masalan, 1917 yilga qadar o'zbek adabiyotida she'riyat uslubi birinchi o'rinda bo'lib kelgan bo'lsa, hozirgi kunlarga kelib nasr uslubi asosiy o'ringa ko'tarilmoqda.

Adabiy uslublar uchun umumiy xususiyatlar nimalar va ularning bir-biridan farqlari nimada?

Umum qo'llaydigan so'zlar turli nutq uslublarida turlicha ma'noda keladi. Masalan, *ruh* so'zining asosiy va umumiy ma'nosi bor. Badiiy nutq uslubida: *Qizning ruhi shod. U faqat va faqat o'ynagisi va yayragisi kelardi*. Publitsistikada esa boshqa ma'no kasb etadi: *maqola ruhi*, ya'ni g'oyaviy yo'nalishi ma'nosida kelsa, ilmiy-falsafiy uslubda *ruh* so'zi materiyaga qarama-qarshi ma'noda ishlatiladi. Diniy aqidalar uslubida bu so'z «xudo» ma'nosini ifodalaydi.

Bundan tashqari, uslublar bir-biridan o'ziga xos leksikasi va frazeologiyasi bilan ham farqlanadi. Masalan, publitsistik uslubda *sovuq urush, xotin-qizlar masalasi, tinchlik masalasi* ko'p ishlatiladi. Bu tipik publitsistik frazeologiya bo'lib, *masala* so'zi o'z ma'nosida emas, balki ijtimoiy-publitsistik ma'noda qo'llanilgandir.

Uslublar bir-biridan so'z va atamashunoslikdan foydalanish usullari va tarkibi jihatidan, badiiy to'qima, har xil gap qurilmalarini ishlatish bilan farq qiladi.

Nutqning ifoda maqsadiga va mazmuniga hamda ekspressivligiga ko'ra uslublar turli xil bo'ladi. SHunga asosan akademik L. V. SHcherba adabiy til uslubidagi so'zlarni to'rt guruhga bo'ladi: a) *tantanali so'zlar*; b) *betaraf (neytral) so'zlar*; v) *betakalluf so'zlar*; g) *vulgar so'zlar*. Buni misollar orqali quyidagicha ko'rsatish mumkin: *yuz, bet, aft, bashara* va boshqalar.

Uslublar, asosan, asarning janr xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Buyuk chex tilshunosi F. Travnichek hozirgi zamon chex adabiy tilidagi uslublar tizimini: *ilmiy, publitsistik, oratorlik (notiqlik), rasmiy, kundalik so'zlashuv, badiiy uslublar* tizimiga bo'ladi.

Uslublar aloqasi, birinchi navbatda, poetikaga xos uslublar bilan nasrga xos uslublarning arvlash holda qo'llanilishida ko'rinadi. Ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan nasriy asarlarda she'riyat uslubshshng ta'siri (masalan, inversiya) aniq ko'rinmoqda. Yana buning ustiga, hozirgi kundagi etakchi yozuvchilarimiz ham nasrda, ham she'riyatda, ham dramaturgiyada ijod qilayotganligi uslublar aloqasining kuchayishiga ta'sir etmoqda. SHuningdek, O.YOqubov, A. Muxtor, Tog'ay Murod, Erkin A'zamov kabi yozuvchilarning asarlari tilida publitsistikaning ta'siri boshqalarga nisbatan kuchliroqdir.

Publitsistik uslub uchun ijtimoiy-publitsistik leksika xarakterlidir. Bu leksika poetik asarda boshqacha, nasriy asarda boshqacha jaranglaydi. Publitsistika uslubi bir xil emas, chunki unda ijtimoiy yo'nalish va ideologiya kurashi aks etadi.

Badiiy adabiyotda ilmiy atamalardan foydalanish hollari ham mavjud. Bu ham o'z navbatida uslublarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Masalan, A. Muxtorning «Tug'ilish» romani, Primqul Qodirovning «Qadrim» povestida texnikaga doir atamalar ko'p qo'llangan.

Adabiy tilning turli uslublarida u yoki bu darajada sinfiy intilishlar o'z ifodasini topib, unda o'ziga xos so'z va ifodalar qo'llanadi.

Adabiy til va badiiy asar tilida-umumxalq tilining muhim yutuqlari umumlashgan. YOzuvchi tilining umumxalq tili bilan aloqasi – mana shu til xalqchilligining asosiy mazmunidir.

Mavzuni mustahkam lash uchun savo va topshiriqlar:

1. Adabiy tilning eng qisqa umumiy ta'rifini keltiring.
2. "O'zbek adabiy tili tarixi" fanini nimani o'rganadi?
3. Adabiy til va xalq jonli til orasidagi farq qachondan boshlab belgilana boshladi, uni birinchi marta anglab etgan adib kim?
3. "O'zbek adabiy tili tarixi" fanining oldiga qo'yiladigan vazifalar nimalardan iborat?
4. Adabiy til doirasiga kirmaydigan nutqiy unsurlar qaysilar?
5. Adabiy tilning taraqqiysi uchun xizmat qiladigan omillar nimadan iborat?

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. O'rinboyev, A. Aliyev. O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1995. 3–13-betlar.

2. A. Muxtorov, U. Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1995. 3–13-betlar.

3. A. Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "O'qituvchi", 1980.

4. SH. SHOabdurahmonov. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962, 14–22-betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Doniyorov X. Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 1976, 140 bet. 31–40-betlar.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 tom (Z. Ma'rufov tahriri ostida). M., , 1981.
3. Решетов В.В. Узбекский язык. Част 1, Ташкент, 1959, 43-46-betlar.

2-ma'ruza. O'ZBEK TILI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI

Reja:

1. O'zbek tilining boshqa turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni.
2. O'zbek adabiy tilining shakllanishida fors-tojik tilining tutgan o'rni.
3. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida arab tilidan olingan o'zlashmalarning ahamiyati.
4. Mo'g'ul, xitoy va boshqa so'zlardan qabul qilingan o'zbek adbiy tilining takomili uchun tutgan ahamiyati.
5. Arab kitobiy til an'anasining O'rta Osiyoga yoyilishi.

Tayanch tushunchalar: 1. O'zbek tilining boshqa tilardan uyg'unlashuvning unutilganligi bilan farqlanishi. 2. Fors-tojik tilining o'zbek tilining unlilar tizimiga ta'siri masalasi. 3. O'zbek tili leksikasiga qardosh bo'lmagan tillardan ko'plab so'zlar o'tganligi. 4. Adabiy til me'yorlarining belgilanishida arab tili grammatikasining ahamiyati katta bo'lganligi.

O'zbek tilining boshqa turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi. O'zbek tilidagi so'zlar boshqa turkiy tillardagi kabi asosan uch tovushlidir: *bil, dil, til, kel, qol, ko'z* kabi. Turkiy tillarda. jumladan, o'zbek tilida *ot, ov, oy* kabi bir bo'g'inli, *ikki, olti, etti, o'qi* kabi ikki bo'ginli so'zlar kam. Ayrim son va so'ng ko'makchilarni hisobga olmaganda, so'z oxirida undoshlar qator kelmaydi: *ost, ust, ort, turt, tort* kabi.

O'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi qo'shimchalar, asosan, undosh bilan boshlanadi, o'zakka birin-ketin qo'shiladi: *qishiloqlarimizdagilarni*.

Turkiy so'zlarning ko'pchiligi k'p ma'nolidir: *bosh, tosh, tish, et, yosh* kabi.

Ma'lumki, o'zbek tili fonetik tuzilishisi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibiga ko'ra O'rta Osiyo va Qozog'istondagi o'g'uz, qarluiq, qipchoq guruhlariga kiruvchi turkman, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, uyg'ur tillariga yaqin va o'xshash. Shularni hisobga olib, akademik A. N. Samoylovich turkiy tillar tasnifida o'zbek tilini o'g'uz guruhiga ham, qarluiq guruhiga ham, qipchoq guruhiga ham kiritadi.

Demak, adabiy til tarixining markaziy vazifalaridan biri ishlanmagan, normaga kiritilmagan «xom» umumxalq tilinnng ishlangan, normaga kiritilgan «pishiq» adabiy til bilan aloqasini o'rganishdan iboratdir. Adabiy til tarixi – bu umumxalq tili uzluksiz ijodiy qayta ishlash, boyitish va taraqqiy ettirish tarixidnr.

Adabiy til tarixini o'rganish turli nutq tiplarida leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik normalar va uslublarning qo'llanishini aniqlashdan iborat.

Shu bilan birga, o'zbek tili boshqa turkiy tillardan farq qiladigan o'ziga xos belgilarga ham ega.

O'zbek adabiy tili boshqa turkiy tillardan unlilarning qattiqlik-yumshirqligi, cho'ziq-qisqaligi va miqdor-sifati bilan farq qiladi. O'zbek tilida unlilar asosan oltita (*a, e, o, o', u, i*), qirg'iz tilida sakkizta (*a, e, o, e, u, ü, ĩ, i*), uyg'ur tilida ham sakkizta (*a, e, e, o, ö, u, ü, i*).

Hozirgi o'zbek adabiy tili singarmonizmniig zaifligi jihatidan birorta turkiy tilga mos kelmaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lmagan unlilar ohangdoshligi qirg'iz tilida juda kuchli: *Bolor-bolbos sozdor aytili.* (A. Tokomboyev).

Keltirilgan misol o'zbekcha tarjimasi bilan qiyoslansa, bu holatning yo'qligi yaqqol seziladi: *Bo'lar-bo'lmas so'zlar aytili.*

Eski o'zbek adabiy tilida unlilar garmoniyasi mavjud bo'lgan. Lekin eski o'zbek adabiy tilida asosan tanglay garmoniyasi amalda bo'lgan, ya'ni so'zlar unlilarning qattiq-yumshoqligiga qarab farqlangan. Lab garmoniyasi esa ma'lum qonuniyatga amal qiluvchi qonuniyat darajasidagi hodisa bo'lmagan. Qiyoslang: *bardīm – keldim, barduq – keldük.*

O'zbek tili undoshlar tizimi jihatdan boshqa turkiy tillarga asosan mos keladi. Ammo ba'zi turkiy tillarda undoshlar boshqacharoq ishlatiladi. Masalan, o'zbek va turkman tillarida so'z boshida keladigan y tovush qipchoq guruhidagi turkiy tillarda *dj* yoki *j* tovushi bilan beriladi: *yigit – jigit, yo'q – jo'q, etti – jetti* kabi.

O'zbek tilida *t, k* bilan boshlanadigan so'zlar o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda *d, g* bilan keladi: *temir–demir, tash– das, tevā–deva, tish–dish, ko'z–göz, kün–gün* kabi.

O'zbek tilidagi *ch* undoshi o'rnida qoraqalpoq va qozoq tillarida *sh, sh* o'rnida esa *s* undoshi ishlatiladi: *kuch – kush, och – ash, uch –ush, tish – tis, bosh – bas* kabi.

O'zbekcha so'zlar oxiridagi *g'* undoshi tatar, boshqird, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoqlarda *v(u)* undoshi bilan beriladi: *tog' – tav – tau, bog' – bav – bau, sog' – sav – sau* kabi.

O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy tillarning grammatik qurilishi ham: so'z turkumlari, so'z yasovchi, so'z o'zgartuvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar bir-biriga o'xshaydi. Ammo bu qo'shimchalar har bir tilning o'z fonetik tuzilishiga ko'ra turlicha ko'rinishlarda qo'llanadi. Masalan, o'zbek adabiy tilida ko'plik *-lar* qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Boshqa turkiy tillarda ham *-lar* bilan beriladi. Lekin *-lar* qo'shimchasining qozoq tilida oltita (*-lar, -ler, -dar, -der, -tar, -ter*), qirg'iz tilida o'n ikkita (*-lar, -ler, -dar, -der, -tar, -ter, -lor, -ler, -dor, -dor, -tor, -ter*) ko'rinishi bor. Xuddi yuqoridagi kabi o'zbek tilidagi kelishik, egalik, kesimlik, shaxs, zamon qo'shimchalari boshqa tillarning talaffuz qonuniga binoan turlicha fonetik ko'rinishlarda ishlatiladi.

O'zbek tili bilan boshqa turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlik hamda noo'xshashliklar ularning lug'at tarkibida ham ko'rinadi. O'zbek tili lug'at tarkibida umumturkiy yoki O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy tillar bilan

umumiylikni tashkil etuvchi juda ko'p so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat o'zbek tilining o'ziga xos so'zlar ham mavjud.

Umumturkiy so'zlar runik yozuv yodgorliklarida ham qo'llangan O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy xalqlarga tegishli so'zlar dastlab X–XII asr yodgorliklarida ishlatila boshlagan, O'zbek tilining o'zigagina xos bo'lgan so'zlar o'zbeklarning turkiy bo'lmagan elatlar bilan aralashuvi natijasida paydo bo'lgan.

O'zbek tili tarixini qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganish natijasida qo'shni qardosh turkiy tillarning leksik-grammatik va fonetik jihatdan umumiyliklari aniqlanadi. Tarixiy lingvistik ma'lumotlar, ya'ni tillardagi ba'zi umumiyliklar o'zbeklarning bir qismi bilan uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkmanlar orasida genetik yaqinliklar bo'lganidan dalolat beradi. Shu xalklar tillaridagi umumiy hodisalarning paydo bo'lishiga olib kelgan eng muhim sabablardan biri xalqlar tarkibidagi ayrim qabila va urug'lar orasida qardoshlik munosabatlarning mavjudligidir.

Tillarni chog'ishtirib o'rganish tilning leksik va grammatik xususiyatlarini yoritish uchun, uning taraqqiyot manbalarini aniqlash uchun keng imkon yaratadi.

Tillarning qarindoshligini qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganishni birinchi marta O'rta Osiyoda tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy boshlagan. Afsuski, M. Koshg'ariyning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan «Devoni lug'otit turk» asari haligacha etarli o'rganilmay qolmoqda.

Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodni asosiy metod sifatida XIX asr boshida g'arb va rus olimlaridan F. Bopp, Ya. Grimm, R. Rask, A. X. Vostokovlar qo'llay boshladilar. Lekin tilshunosligida qiyosiy-tarixiy metodga ko'p yillar e'tibor berilmay kelindi. Chunki tilshunosligida akad. N. Ya. Marrning analiz metodi hukmronlik qilar edi. N. Ya. Marrning faraz qilishicha, insonlarning tovush nutqi dastlab to'rt unsur dan **sal, ber, yon, rosh**) iborat bo'lgan emish.

N. Ya. Marrning stadial sxemasi har qanday qarindosh tillarning bir manbadan, bir o'zak tildan tarqalganligini inkor qiladi. Bu esa g'ayri ilmiy qarash bo'lib, qardosh tillarni taqqoslab o'rganishga monelik qiladi.

Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy metod yordamida hozirgi qarindosh tillar va hozirgi o'zbek adabiy tilini yozma holda saqlangan yodgorliklardagi til faktlari bilan qiyosiy o'rganish orqali o'zbek tili tarixi, hozirgi o'zbek tili va qardosh tillar orasidagi real aloqalarni aniqlash mumkin.

O'zbek adabiy tilining shakllanishida turkiy bo'lmagan tillarning ishtiroki. Ba'zi urug' va qabilalar orasidagi qardoshlik aloqalari xalqlarning etnik-lingvistik taraqqiyotiga, ayrim millatlar tilida turli til shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Turkiy va turkiy bo'lmagan tillar orasidagi aloqani va bu aloqaning kengayib borishi natijasida turkiy tillarda paydo bo'lgan ba'zi bir fonetik o'zgarishlarni Mahmud Koshg'ariy ham o'z vaqtida to'g'ri ko'rsatib o'tdi.

O'zbek tilining boshqa tizimdagi tillar bilan, birinchi navbatda, tojik tili bilan o'zaro munosabati juda muhim masalalardan biridir. Bu o'zbek tilshunosligi bilangina bog'liq bo'lmay, balki umumiy tilshunoslikka oid g'oyat muhim nazariy masaladir.

Ma'lumki, **metisatsiya** (qardosh bo'lgan tillarning aralashuvi) va **gibridizatsiya** (turli tizimdagi tillarning chatishuvi) masalasi umumlingvistik planda hal qilinishi zarur. O'zbek va tojik xalqlarining genetik va til aloqalarini belgilamasdan turib, o'zbek adabiy tilining shakllanishini aniqlash mumkin emas.

O'zbek xalqining tojik xalqi bilan aloqasi qadimdan buyon asrlar bo'yi davom etadi. Bunga bir necha tarixiy asoslar va sabablar bor.

O'zbek va tojik tillarining bir-biriga ta'siri ikki katta davrga bo'lish mumkin, deb ko'rsatadi prof. M. S. Andreev:

1. *Arablar istilosigacha bo'lgan qadimgi tojik tili yoki sug'diy tiliga yaqin bo'lgan til bilan munosabati davri.*

2. *Arablar istilosidan so'nggi tojik va o'zbek tillari munosabati davri.* Ana shu munosabatlarni o'rganish faqat til tarixi uchungina emas, balki hozirgi o'zbek va tojiklarning etnogenezisini aniqlash uchun ham zarur.

O'zbek xalqi bilan tojik xalqi O'rta Osiyoning eng qadimgi va mahalliy xalqlaridandir. Bu ikki xalqning turmush sharoiti bir xil va ular umumiy hududga ega bo'lganligi sababli hayotning turli sohalarida hamkorlik qilib keldilar. Bu hamkorlik o'zbek va tojik xalqlarining tillarida – fonetikasi, lug'at tarkibi va grammatik qurilishida o'z aksini topdi.

Tojik tilining ta'siri natijasida markaziy shahar shevalarida turkiy tillarning fonologiya tizimiga xos bo'lmagan **indefirent** unli tovushlar paydo bo'ldi. Natijada o'zbek tilida singarmonizm hodisasi yo'qola boshladi. Turkiy tillar fonetikasida ro'y bergan ba'zi o'zgarishlarni o'z vaqtida Mahmud Koshg'ariy ham ko'rsatib o'tgan edi.

O'zbek va tojik tillarining uzoq davom etgan hamkorligi ayniqsa o'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirdi. Prof. A. K. Borovkovning ta'kidlashicha, tojik tilidan kirgan so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibidan mustahkam o'rin oldi, chunki ular real narsa va narsa-jismga tegishli so'zlar hisoblanadi. O'zbek tiliga tojik tilidan faqat ot turkumiga oid so'zlarga balki sifat, ravish, bog'lovchi va yuklamalar ham o'zlashdi. Masalan: *shudgor, joy, chora, jon, jonajon, askar, devor, bekor, don, daromad, daryo, hamroh, hammom, poytaxt, qahramon, savdo, ozoda, otashin, dono, kamtar, shirin, baland, past, garchi, yoki, chunki* kabilar.

Tojik tilining ta'sirida o'zbek tili morfologiyasida ba'zi so'z yasovchi unsurlar paydo bo'ldi. Tojik tilidan qabul qilingan so'z yasovchi unsurlar suffiks va prefiks xarakteriga egadir.

O'zbek tilida tojik tilidan o'zlashtirilgan so'z yasovchi morfemalar sifatida **-bop, -bin, -bon, -boz, -do'z, -namo, -xona, -paz, -furush, -simon, -parvar, -xo'r** kabi qo'shimchalar ishlatiladi (*arizaboz, etikdo'z, kamnamo, oshxona, oshpaz, xudbin, odamsimon, g'amxo'r* kabi).

O'zbek tiliga tojik tilidan **-ser-, kam-, be-, bar, bo-, no-, xush-** kabi prefikslar ham o'zlashtirilgan: *sergap, beburd, badavlat, barvaqt, beodob, noto'g'ri, hamnafas* kabi.

Bu morfemalarning ko'pchiligi o'zbek tiliga forsha-tojikcha so'zlar tarkibida kirib kelgan bo'lib, o'zbekcha so'zlardan so'z yasashda ishtirok etmaydi.

O'z navbatida o'zbek tilidan ham tojik tiliga bir qancha so'z va iboralar o'zlashgan. Masalan, o'zbek tilida faol ishlatiluvchi *yo'rg'a, o'sma, quloqchin,*

qopqon kabi soʻzlar tojik tilida ham ishlatiladi. Baʼzi oʻzbekcha qoʻshimchalar, jumladan, *-lik*, *-chi* qoʻshimchalari tojik tilida ham qoʻllaniladi: *xomlik*, *donolik*, *jangchi* kabi.

Oʻzbek va tojik tillari orasidagi munosabat va ularning bir-biriga taʼsiri qanchalik kuchli boʻlmasin, bu tillar oʻzlarining lugʻat tarkibi va grammatik qurilishining negizini saqlab qoldi.

Oʻzbek va tojik tillarining uzoq davom etgan oʻzaro taʼsiri natijasida oʻzbek adabiy tilida forsiy til traditsiyasi yoyiladi.

Arablar istilosistilosigacha ham forsiy tilraditsiyasi mavjud edi. Lekin arablar mahalliy yozuvchilarni ham arab tilida ijod etishga majbur qildilar. Lekin xalq oʻz tilini saklab qoldi va ogʻzaki ijodda goʻzal asarlar yaratdi. Bu narsa mahalliy xalqlar adabiy tilining rivojlanishiga zamin hozirladi. Natijada IX–X asrlarda forsiy adabiy til vujudga keldi. Tohiriylar va safforiylar hukmronligi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda forsiy adabiy tilning taraqqiyot jarayoni tezlashdi. Somoniylar davriga kelib bu til yagona davlat tili boʻlib qoldi. Forsiy til madaniy hayotda, adabiyotda keng oʻrin egalladi.

Fors tili Movarounnahr va Xurosonda tojiklar elat boʻlib shakllangan davrda paydo boʻldi.

Somoniylarga Oʻrta Osiyoning katta qismi qaram edi. Shu hududda yashovchi va oʻzlarini turklar deb atovchi gʻaznaviylar, saljuqiylar ham forsiy tilni davlat tili va adabiy til sifatida qabul qildilar. Forsiy til anʼanasi Kavkazga ham tarqaladi. X–XII asrlarda forsiy til adabiy til sifatida katta hududda qoʻllandi. Bu hol moʻgʻullar hukmronligi va undan keyin ham davom etdi. Hatto XV asrgacha forsiy til bir necha xalqlarning adabiy tili sifatida xizmat qildi. Uning takomillashishida shu xalqlarning yozuvchilari oʻz ulushlarini qoʻshdilar.

Forsiy tildagi adabiyot X–XI asrlarda Oʻrta Er dengizdan tortib Hindistongacha boʻlgan juda katta hududni qamrab oldi, uni tojik, eron, ozarbayjon, hind, afgʻon, oʻzbek va boshqa xalqlar yaratdi, bu xalqlardan har biri unga oʻz hissasini qoʻshdi, biri ikkinchisining adabiy tajribasi bilan oʻrtoqlashdi, anʼanasini davom ettirdi va rivojlantirdi.

Oʻzbek va forsiy tillarning oʻzaro taʼsiri natijasida XIX asrga kelib adabiyotda ikki tillilik paydo boʻladi. Oʻzbek yozuvchilari ham turkiy, ham forsiy tilda ijod eta boshladilar. XV asrgacha forsiy tilning oʻzbek tiliga taʼsiri kuchli edi. Shuning uchun koʻpchilik turkiy shoirlar ham forsiyda ijod etdilar. Baʼzilar ikkala tilda ham ijod qildilar. Bu haqda Navoiy «Muhokamatul-lugʻatayn»da shunday yozadi: *«...turkning ulugʻidin kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, oʻz xurd ahvoligʻa koʻra ayta olurlar, balki baʼzi fasohat va balogʻat bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ashʻor va shirin guftor zohir qilurlar»*.

Umuman, oʻzbek va forsiy tilda yaratilgan adabiyot hamda madaniyat obidalari oʻzaro hamkorlikning mevasidir. Bu hamkorlik maʼlum darajada oʻzbek adabiy tilida iz qoldirdi. Forsiy tilga xos izofa qurilmalari va **u** bogʻlovchisining oʻzbek shoirlari ijodida ham ishlatilishi fikrimizning dalilidir.

Arab kitobiy til anʼanasining Oʻrta Osiyoda yoyilishi. Islom dini VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida Arabistonda paydo boʻldi. Bu davr arab

qabilalarining birlashib bir katta davlatga uyushish davriga to'g'ri keladi. Islom dini arab hukmdorlari tomonidan boshqa xalqlarning yerini bosib olishda vosita bo'ldi. Arab istilochilari islom dinini tarqatish va o'zlarining zo'ravonlik siyosatlarini amalga oshirish uchun kuch va qilich ishlatdilar. Shuning uchun ham hozirgacha ozarbayjon xalqida «*Biz qilich musulmanlari*» («Biz qilich musulmonlari») degan maqol bor. Bu o'sha davrni xarakterlovchi tipik maqoldir.

Arab bosqinchilari zo'rlik va kuch bilan islom dinini qabul qilish hamda arab tilini o'rganishni targ'ib qilsada, O'rta Osiyoda ikki xil yozuv tili mavjud edi. Bulardan biri ona tili zaminida rivojlanib, unda xalq orzu-istaklari shu til uslubida bayon etilardi. Ona tili zaminida rivojlangan adabiy til yodgorligi sifatida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarini ko'rsatish mumkin. Unda keltirilgan xalq qo'shiqlari, marosim va mavsum she'rlari xalq yozuv tili namunalaridir.

Usha davrda paydo bo'lgan ikkinchi yozuv tili arab kitobiy tilidir. Bu til islom dini dogmalarini targ'ib qilish bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Bundan tashqari, arab bosqinchilarining siquvi ostida o'sha davrning ko'pchilik olimlari, ilm ahllari o'z asarlarini arabcha kitobiy tilda yozishga majbur bo'ldilar. Shuning uchun o'sha davrda arab kitobiy tili ma'lum darajada ustun edi. O'rta Osiyoning o'sha davrdagi yirik olimlari: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abunabr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy va boshqalar o'zlarining shoh asarlarini boshqa Sharq mamlakatlarining olimlari kabi arab tilida yozdilar. Bu hol arabcha ba'zi so'z va iboralarning o'zbek tilida o'zlashib qolishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, arab va turkiy tillarning bir-biriga munosabati masalasi bilan turkolog olimlar o'sha davrdayoq shug'ullandilar, Bu masala hozir ham o'rganilmoqda. Bu sohada buyuk turkologlardan Mahmud Koshg'ariy va P. M. Melioranskiylarning xizmati kattadir.

Arab tilining O'rta Osiyodagi turkiy tillarga ta'siri forsiy tilga nisbatan ancha kuchsiz bo'ldi. Ta'sirning kuchsizligi natijasida o'zbek adabiy tiliga arab tilidan birorta ham tovush qabul qilinmaydi. O'zbek tilida arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning miqdori esa forsha so'zlarga nisbatan ko'proqdir.

Arab tilidan o'zbek tiliga asosan ot va fe'l turkumiga oid so'zlar o'zlashgan: *intizom, daftar, maktab, kashf, majlis, qaror, fan, g'ayrat, galaba, millat, musobaqa* kabilar.

Arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan ba'zi grammatik ko'rsatkichlar, jumladan, **-iy, -viy, -ot, -iyat, -an** kabilar o'sha til so'zlari tarkibida qo'llangan va shundayligicha o'zbek tiliga qabul qilingan: *amaliy, madaniy, ommaviy, hayvonot, qobiliyat, shaxsan, xususan* kabi.

Shu grammatik ko'rsatkichlarning ba'zilari ruscha-baynalmilal so'zlarga ko'shib, sifat yasash uchun xizmat qiladi: *texnikaviy, ximiyaviy* kabi.

O'z navbatida, arab tiliga turkiy va forsiy so'zlar ham o'zlashtirildi. Masalan, XII asrda yaratilgan arab tili yodgorliklarida: *alp* (botir), *qutlug'* (baxtli), *ulug'*, *jabug'a* (janob), *to'grultegin*, *bayg'u-sunqur* (burgut), *bilga* (olim), *chag'ri* (ov qushi), *buga* (buqa) kabi; XIV asr yodgorliklarida: *xatun* (xonim), *ag'a* (katta), *bek, chelebi, xoqon* kabi turkiy so'zlarni uchratamiz.

Zaruriy adabiyotlar:

- 1.U.Tursunov, B.O‘rinboyev, A.Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, "O‘qituvchi", 1995. 7-12-betlar.
2. A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, "O‘qituvchi", 1995. Z.SHoabdurahmonov SH. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. .Toshkent, 1962.
4. N.Mallayev O‘zbek adabiyoti tarixi. T., 1965.
5. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn", Toshkent, 1948.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

- 1.Vladimirtsov B.YA. Sravnitel'naya grammatika mongolskogo pismennogo yazyka xalxanskogo narechiya. L. 1929, 43-45-betlar.
- 2.Bartold V.V. Istoriya turetsko-mongolskix narodov. Tashkent, 1928, 3-10-betlar.

3-ma'ruza: QADIMGI GURKIY ADABIY TIL

Reja:

1. Qadimgi turkiy adabiy til haqida.
2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklari.
3. Uyg‘ur yozuvi va uning yodgorliklari.
- 4.Qadimgi turkiy adabiy tilning xususiyatlari.
5. Qadimgi turkiy tilning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli.

Tayanch tushunchalar: 1.Qadimgi turkiy tilning yuzaga kelishi va u tarqalgan hududlar xususida. 2.Runiy yozuvida bitilgan yodgorliklarning til xususiyatlari haqida. 3.Uyg‘ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning lisoniy xususiyatlari. 4.Qadimg turkiy tilning fonetik va morfologk xususiyatlar haqida. 5.Qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek tili orasidagi umumiyliklar.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududida topilgan yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning qadimdan o‘z madaniyati va o‘z adabiy tiliga ega ekanligidan guvohlik beradi.

Turkiy xalqlarning moddiy-madaniy hayoti va yozuvlari tarixi haqidagi tarixiy, .arxeologik ma’lumotlar turkiy tilda so‘zlovchi urug‘ .ha.mda qabilalarning eramizdan ilgari mavjudligini, jamiyat bo‘lib tashkil topganligini va birgalikda turmush kechirganligini ko‘rsatadi. Bu davr ilmiy adabiyotda «oltoy tili» davri deb yuritiladi¹. Bu haqda akad. B. Ya. Vladimirtsov shunday yozadi: «Mo‘g‘ul, turk va tungus tillari o‘zining umumiy o‘tmishdoshiga egaki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Hozir oltoy tili ma’lum emas, lekin oltoy tillari, ya’ni mo‘g‘ul,

¹ Б а с к а к о в Н . А. Тюркские языки. М., 1960, стр. 28.

turk va tungus tillari bilan, ular o'sha tilning taraqqiyoti na-tijasida paydo bo'lgandir»².

Oltoy tili davrining oxirida turk, mo'g'ul qabilalari o'rtasida differentsiatsiya bo'ldi. Oltoy tili XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda mo'g'ul qabila-lari r – I tovushlariga ega bo'lgan tilga asoslangan bo'lsa (masalan, chuvash tilida *shur* – botqoq, *hur* – o'rdak, *tel* – vaqt), turkiy qabilalar z – sh/s tovushlariga ega bo'lgan tilga asoslanadi: *saz* (botqoq), *qaz* (o'rdak), *tush\\tus* (vaqt) kabi.

Turkiy qabilalar ajralib chiqqach, ular o'zlarining Xunlar imperiyasini tuzadi. V. V. Bartoldning fikricha, bu davrning til xususiyatlarini tasdiqlovchi yozma yodgorliklar yo'q³.

Turkiy tillar taraqqiyotidagi uchinchi davr qadimgi turkiy adabiy til davri deb ataladi. U tukyu tili davri (V–VIII asrlar), qadimgi uyg'ur tili davri (VIII–IX asrlar), qadimgi qirg'iz tili davri (IX–X asrlar) deb uchga bo'linadi.

Ma'lumki, VI asrda turkiy qabilalar kuchayib, o'zlarining ko'chmanchi Tukyu imperiyasini tuzadi. Bu imperiyaning chegarasi Amudaryo, Marv, Balx, Hindistonga borib taqalar edi. O'zaro urushlar va arablar istilosi natijasida Tukyu davlati ikki qismga ajraladi. Biri markazi Ettisuv bo'lgan g'arbiy turklarga, ikkinchisi markazi Mo'g'uliston bo'lgan sharqiy turklarga ajraladi. Ettisuvdagi Tukyu davlati tirgeshlarga o'tadi. VIII asrda o'g'uz va qarluqlarning siquvi ostida bu davlat qarluqlarga o'tadi.

Qarluqlar dastlab sharqiy Tibetda yashaganlar, keyinchalik shimolga qarab yurganlar va ulardan oldin Turkistonni egallagan uyg'urlarga qarshi kurashib, IX asrning boshigacha Ettisuvni egallab turadi. Keyinchalik, ya'ni X asrda Toxariston, Balxga qarab suriladi.

O'g'uzlar VIII asrda Sirdaryoning quyi oqimida, ya'ni yag'mo, tuxsi qabilalari yashayotgan hududda o'z davlatlarini tuzadi.

Uyg'urlar 745 yilda dastlab sharqiy Tukyu eriga, so'ng g'arbiy Tukyu eriga hujum qilib, butun Tukyu davlatini bosib oladi. 840 yilda qirg'izlar uyg'urlarga qarshi kurashib, hokimiyatni qo'lga oladi va ular X asrgacha hokimiyatni qo'lda saqlaydilar. SHundan so'ng uyg'urlarning bir qismi qarluqlar tomoniga va bir qismi Tibetga ketadi.

Xuddi ana shu davrda sobiq Ittifoqda hozirgi vaqtda amalda qo'llanib kelayotgan turkiy tillardan birortasiga ham to'la mos kelmaydigan qadimgi turkiy adabiy til paydo bo'ladi.

Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari runiy (Urxun-Enisey) va uyg'ur yozuvi orqali bizgacha etib kyoldi. Bu yozuvlar orqali etib kelgan yodgorliklarni turkiy tillarning birortasiga tegishli deb bo'lmaydi. CHunki unda O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashovchi turkiy xalqlarga tegishli fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar uchraydi.

Qadimgi turkiy yodgorliklar tili hozirgi turkiy tillarning shakllanishida asos bo'ldi.

45. ¹ В л а д и м и р ц о в Б. Я. Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халханского наречия. Л., 1929, стр.

³ Б а р т о л ь д В. В. История турецко-монгольских народов. Ташкент, 1928, стр. 5.

Ma'lumki, yozma. yodgorliklar bizga yozuv orqali etib keladi. SHunday ekan, turkiy xalqlar qanday yozuvlardan foydalangan degan savol tug'iladi.

Arxeologik manbalarning ko'rsatishicha, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy xalqlar oromey, yunon, sug'd, xorazm, ko'shan, evfalit, pahlaviy, suriya, hind, runiy, uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalanganlar.

O'rta Osiyo va Eronda eramizgacha VI–IV asrlarda klinopis yozuvi bilan birga, oromey yozuvidan foydalanilgan. Oromey yozuvining asosida shakllangan sug'd va xorazm yozuvlari eramizning I–V asrlarida qo'llangan.

Oromey yozuvi asosida eramizning I asrida uyg'ur yozuvi shakllanadi. Eramizning V asriga kelib esa runiy nomi bilan atalgan o'rxun-enisey yozuvi paydo bo'ladi.

Runiy yozuvi va uning yodgorliklari. Runiy yozuvi oromey yozuvi ta'sirida paydo bo'lgan sug'diy va xorazmiy yozuvlari asosida shakllandi. Lekin bunga turkiy tillar tovushlarini ifodalovchi tamg'a shaklidagi harflar ham qo'shilgan. Avvalo bu yozuv Enisey qirg'izlariga, so'ngra sharqiy turklarga o'tib tarqaldi. SHarqiy xoqonlikning markazi Urxun daryosi vodiysida, g'arbiy xoqonlikning markazi Eniseyda edi. Urxun daryosi vodiysidagi xonlik 745 yildagi uyg'urlarning bilan tugatildi va uyg'ur yozuvi bilan almashdi. Enisey vodiysidagi yozuv namunalari IX asr yodgorliklarida ham mavjud edi.

Bu yozuvlar fan olamiga XVIII asrdagina ma'lum bo'ldi. Ular Ennsen daryosi bo'yidan topildi. XIX asr oxirida esa rus sayyohi va yozuvchisi N. M. YAdrintsev Urxun daryosi bo'ylaridan ham shu xildagi yozuvlarni topdi. Ular Urxun va Enisey daryolari bo'yidan topilgan shu daryolar nomi bilan ataladi. Tuzilishi jihatndan german runiy yozuvlariga o'xshaganligi o'chun runiy yozuvi deb yuritiladi.

Runiy yozuvini 1893 yilda daniyalik prof. V. Tomsen o'qishga muyassar bo'ldi. U bilan bir vaqtda rus olimi V. V. Radlov ham o'qndi. SHundan so'ng bu yozuvlarni o'rganish va topish, ularni o'qish ishida P. M. Meliorakskiy, S. E. Malov, I. A. Batmanov, S. V. Kiselev kabi turkologlar pleyadasi ham o'z ulushini qo'shdi va qo'shmoqda.

Umuman, runiy yozuvidagi yodgorliklar katta hududga tarqalgan bo'lib, ular feodal hukmdorlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo'yilgan toshlar, tayoqlar va qoyalarda saqlangan.

Runiy yozuvidagi yodgorliklarni grafik va lingvistik belgilariga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Enisey yodgorliklari. Bular Enisey daryosining yuqori oqimida – hozirgi Tuva Respublikasi va Xakas viloyatidan topildi. Enisey yodgorliklaridagi 50 dan ortiq matnlar o'qildi va nashr qilindi⁴. Bu yozuv tekshiruvchilarning fikricha, eramizning V–VII asrlariga tegishlidir.

2. Qirg'izistondan topilgan Talas yozuv yodgorliklari oltita toshda va bir cho'p tayoqda bitilgan. Uning grafik xususiyatlari Enisey yodgorligiga yaqin⁵.

⁴ М а л о в С. Е. Енисейская письменность тюрков. М.—Л., 1951; Б а т м а - н о в И. А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. Фрунзе, 1959.

⁵ М а л о в . С. Е. Таласские эпиграфические памятники. — «Материалы Уз-комстариса». Вьга. 6—7, Л., 1936.

3. Urxun yodnomalari. U eramizning VII–VIII asrlariga tegishli bo‘lib, Urxun daryosining Selenga havzasi va unga yaqin joylardan topildi. Ular Kultegin (731 yilda o‘lgan) va uning akasi Bilgaxon (734 yilda o‘lgan), Guduluxon (692 yilda o‘lgan), Tonyuquq (716 yilda o‘lgan), Kulichura qabrlaridagi toshlarga bitilgan yozuvlardir⁶. Bu guruhga Ixe-Asxet, Xoyto-Tamir, CHarish va Podkunin degan joylardan topilgan yozuv yodgorliklari ham kiradi.

4. Baykal ko‘li atroflaridan, Lena daryosi sohillaridan va SHimoliy Mo‘g‘ulistondan topilgan bir qancha tosh, tanga idishlarga bitilgan yozuvlar ham runiy yozuvidadir⁷.

Urxun-Enisey edgorliklarining tili umumiy belgilarga ega. Ular V–VIII asrlardagi turkiy tillarning xususiyatlarini aniqlashda qimmatli va muhim manba hisoblanadi. VIII asrga kelib uyg‘urlar hukmronligi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda runiy yozuvi uyg‘ur yozuvi bilan almashtiriladi.

Uyg‘ur yozuvi va uning yodgorliklari. Uyg‘ur yozuvi yangi sug‘diy yozuvi asosida shakllangan bo‘lib, u mo‘g‘ullarga va mo‘g‘ullardan manjurlarga o‘tdi. Uyg‘ur yozuvi VI asrdan XV asrgacha turkiy xalqlar va XVIII asrgacha buddistlar orasida ishlatildi.

Uyg‘ur yozuvida IX–X asrlarga tegishli turkiy tillarning yozma yodgorliklari paydo bo‘ldi. Ular diniy, falsafiy xarakterdagi asarlar edi.

Uyg‘ur alfaviti yozilgan yodgorliklarni xarakteri va mazmuniga ko‘ra quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1. Uyg‘ur yodgorligi.
2. Manixey yodgorliklari.
3. Budda yodgorliklari.
4. Xristian yodgorliklari.

Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar Suji, SHins-Usu va SHarqiy Turkistondan topilib, ular tosh va qog‘ozlarga bitilgan. Bu yozuv eramizning VIII asriga tegishlidir. YAg‘lag‘arxon qabridan topilgan namuna Suji yodgorligi deb, Mo‘yunchura qabridan topilgan namuna Selenga yodgorligi deb yuritiladi. Qog‘ozga yozilgani Turfon yodgorligi deyiladi.

Manixey madaniyati yodgorligi sifatida «Xuastuanift»ni ko‘rsatish mumkin⁸. Xristian madaniyati yodnomasi sifatida «Poklonenie volxvov» («Sehrgarlarning ibodati») asarini ko‘rsatish mumkin⁹.

Uyg‘urlarning ko‘pchiligi budda diniga ham sig‘inganlar va o‘z yodgorlyklarini yaratganlar. Bu yodgorlik «Suvarna» yoki «Oltin yorug‘» deb yuritiladi¹⁰.

Bulardan tashqari, X–XIII asrlar davomida uyg‘ur yozuvida bir qator Idraviy hujjatlar ham yaratilgan bo‘lib¹¹, bularda o‘sha davr so‘zlashuv tili unsurlari aks etgan.

⁶ М а л о в С. Е. Памятники-древнетюркской письменности. М.—Л., 1951.

⁷ М а л о в С. Е. К истории открытия древнетюркских рунических надписей в Средней Азии.— «Материалы Узкомсигариса». Вып. 6—7, Л., 1936. —

■ М а л о в С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.—Л., 1951, стр. 108—130.

⁹ Уша асар, 131—139-бетлар.

¹⁰ Уша асар, 139—200-бетлар.

¹¹ Уша асар, 200—222-бетлар.

Manixeylarga tegishli yodgorliklarni dastlab ingliz olimi A. SHteyn, nemis olimi A. Lekok, frantsuz olimi P. Pelli topib fan olamiga ma'lum qildilar.

Budda yodgorligi «Suvarna»dan ba'zi parchalarvi dastlab nemis olimi F. V. K. Myuller 1908 yilda e'lon qildi.

Uyg'ur yozuvi asosida paydo bo'lgan boshqa yodgorliklarni topish va ularni nashr etish ishida V. V. Radlov, S. E. Malovning xizmatlari kattadir. Ular tomonidan e'lon qilingan hujjatlar uyg'ur alfavitining keng miqyosda qo'llanganini ko'rsatadi.

Uyg'ur tili va yozuvi keyingi davrda shakllangan qoraxoniylar sulolasi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi adabiy tilga (X–XI asrlar), o'g'uz-qipchoq adabiy tili taraqqiyotiga (XII–XIII asrlar), chig'atoy tiliga (XIII–XIV asrlar), eski o'zbek tiliga (XV–XIX asrlar), eski turkman tiliga (XVII–XIX asrlar) ma'lum darajada ta'sir qildi.

XI–XV asrlarga oid ko'pgina yirik asarlar uyg'ur yozuvida tartib qilingan. Masalan, «Me'rojnomasi», «Tazkirai avliyo», «Baxtiyornoma», «O'g'uznoma» kabi bir qator asarlar shu yozuvda ko'chirilgan. «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Muhabbatnoma» kabi bir qator asarlarning uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxalari ham mavjud.

Qadimgi turkiy adabiy tilning xususiyatlari. Runiy va uyg'ur yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. Bu tadqiqot ishlarida yodgorliklar til xususiyatlarining quyidagi tomonlari yoritildi: turkolog va sharqshunos olimlarning ko'pchiligi eski yodgorliklarni nashr qilganda faqat ba'zi grammatik shakllarini izohlasalar¹², ba'zilar esa shu yodnomalarning grammatik xarakteristikasini yoritib berdilar¹³. Boshqa bir xil ishlarda qadimgi yodnomalarning ayrim morfologik, sintaktik va fonetik xususiyatlari analiz qilindi¹⁴.

Qadimgi turkiy adabiy tilining o'ziga xos dialektlarini o'rganib, birinchi marta tasnif qilgan olim akad. V. V. Radlovdir¹⁵.

V. V. Radlov qadimgi turkiy adabiy tilni shimoliy, janubin va aralash dialyokt deb uch guruhga bo'ldi. V. V. Radlov tasnifiga S. E. Malov ham to'liq qo'shildi.

Shimoliy turkiy adabiy tilga runiy yoki O'rxun-Enisey yozuvlari asosida vujudga kelgan til kiritiladi. Bu tilga xos xususiyatlardan biri so'z boshida va so'z oxirida jarangli undoshlar o'rnida ko'proq jarangsiz undoshlar kelishidir. Lekin bundan **b** undoshi istisnodir, chunki so'zning oxiri n va ng tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli **b** undoshi saqlanadi: *ben–men*, *bing–ming*, *bin–min* kabi. Masalan: *Tonuquq bengi aydi*–Tonuquq menga aytdi (*Tonuquq*). *Bangu tash tatsitdim*–Mangu tosh tikdim (*Kultegin*).

Bundan tashqari, t tovushi so'z boshida ko'p ishlatiladi: *Su barin tidi*–Qo'shin bilan bor dedi (*Tonuquq*).

¹² М а л о в С. Е. 1. Памятники древнетюркской письменности. М.—Л., 1951; 2. Енисейская письменность тюрков. М.—Л., 1952; Р а д л о в В. В., М ё л и о-р а н с к и й П. М. Древнетюркские памятники в Кошо-Цайдаме.— «Сборник трудов Орхонской экспедиции». Вып. IV. СПб., 1897.

¹³ Б а т м а н о в И. А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. Фрунзе, 1959; Н а с и л о в В. М. Язык орхана-енисейских памятников. М., 1960.

¹⁴ Щ е р б а к А. М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X—XIII вв. из Восточного Туркестана. М.—Л., 1961.

¹⁵ Radloff W. AltTurkische Studien. IV и V.— «Известия Академии наук». VI серия. №№ 5, 6, СПб., 1911.

Tushum kelishigi uchun asosan -g'/-g (-īg'/-ig/-ug' -vg) qo'shimchali shakl qo'llangak: *sabig'—so'zin (Tonuquq)*, *yag'ig'—dushmanni (Tonuquq)*, *on erig—o'n erni (Kultegin)*.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi -īng/-ing shaklida ishlatilgan: *Kultegining altunun, kumushun (Kultegin)*, *Qag'aning sabi—Xoqonning so'zi (Kultegin)*, *bizning cv~bizning askar (Kultegin)*.

O'rin-payt va chiqish kelishiklari uchun -**da/ -de/ -ta/ -te**-qo'shimchali shakl qo'llangan: *Turgesh qag'anta korug kelti* – Turgash xoqondan ayg'oqchi keldi. (*Kultegin*). *Qirqizda yantimiz* – qirg'izlardan qaytdik. (*Tonuquq*). *Kultegin ol so'ngushda otuz yashuyur erti—Kultegin o'sha urush vaqtida o'ttia yoshda edi (Kultegin)*. *Ilte bung yoq—ella g'amginlik yo'q (Kultegin)*.

O'rxun-Enisey yodgorliklarida o'tgan zamon fe'li ma'nosida -dī/-di/-tī/-ti, (mīsh\—**mish** (-mīs-mis). qo'shimchali shakllardantashqari -**duq/-duk** qo'shimchali shakl ham qo'llangan. -**duq/-duk** qo'shimchali shakl o'tgan zamon fe'li ma'nosida shaxs-son ko'rsatkichsiz uchala shaxsning birlik va ko'pligi uchun ishlatila bergan. Qiyoslang: *Qang'ing'a, isinga er kelti, qarluq isinge kg'lmeduk—Xon huzuriga va uning ittifoqiga odamlar kelishdi, lekin uning ittifoqiga qarluqlar kelmadi (Moyun-CHura)*. *Bukagukde sekiz og'uz, toquz tatar qalmaduq—Bukagukda sakkiz o'g'uz, to'qqiz tatarlar qolmadi (Moyun-chura)*. *Yag'ī bolīp itin yaratunu umaduq yana ichikmis—Dushman bo'lib, hech narsa qilolmadi, yana unga bo'ysundi (Kultegin)*. *Iteres qag'anta adirilmaduq, yan-īlmaduq, tangri bilge qag'anta adirilmalim,—İltaras xoqondan ajralmadik, (demak) yantlishmadik. (Endi) tangridek ulug' xoqondan (ham) ajramaylik (Ongan yodgorligi)*.

O'rxun-Enisey yodgorliklarida hozirgi turkiy tillarga xos so'zlar uchraydi: *el* (el), *ben* (men), *saz*, *ilig* (qo'l), *qīz*, *og'lan*, *yashi*, *am*, *tengra*, *altmish* kabi. Lekin semantik xususiyatlari bilan iste'moldan chiqqan so'zlar ham mavjud: *budun* (xalq), *bag'* (nttifoqchilik), *cv* (qo'shin), *sabim* (so'zim), *iti* (yubordi), *tosīq* (to'ygan), *ukush* (ko'p) kabi.

Qadimgi turkiy tilning janubiy guruh dialekti uyg'ur yozuvi asosida paydo bo'lgan. Bularga Selenga, Suji va Turfon yodgorliklari kiradi. Janubiy guruhdagi tillar fonetik jihatdan shimoliy guruhdagi tillardan oxiri n, ng bilan uchraydigan so'zlar boshidagi **b** tovushinng m tovushiga o'zgarishi bilan farqlanadi: *bengu—mengu* (mangu), *ben—men*, *bing* – ming kabi.

Qaratqich kelishigi -**nīng/-ning** qo'shimchasi bilan, chiqish kelishigi -**dīn/-din//—tīn/-tin** qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Fe'ning o'tgan zamon shakli har bir shaxs va son uchun alohida affikslariga ega.

Qadimgi turkiy tilning aralash dialektida shimoliy dialektning ham, janubiy dialektning ham. xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bu dialektga uyg'ur yozuvi bilan bitilgan manixey yodgorligi, Xuastuanift, budda yodgorligi – «Suvarna» («Oltin yorug'»), «Sehrgarlarning ibodati» va Idoraviy hujjatlar kiradi.

Aralash dialektning fonetik jihatdan o'ziga xos xususiyati **d** tovushining t tovushi bilan, ch tovushining z tovushi bilan almashinib ishlatilishidir: *achun* – *azun* (dunyo), *atun* – *adun* (boshqa) kabi.

. Ayrim soʻzlarda orqa qator undosh tovushi ishlatiladi: *yogʻ* (yoʻq), *qolmagʻ* – *qolmoq* (iltimos), *tamqa* – *tamgʻa* kabi.

Soʻz oʻrtasida va oxirida **gʻ**, **g** undoshlari keladi: *tagʻīqu* (tovuq), *agʻīp* (ogʻir), *ulugʻ*, *ilig* (qoʻl) kabi.

Otlarning oʻrtasida, feʼllarning oxirida **d** tovushi keladi: *adaq* (oyoq), *qidim* (kiyim), *qod* (qoʻy) kabi¹⁶.

Umuman, qadimgi turkiy adabiy til XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda turkiy tillar differentsiatsiya qilindi va d/t-belgili tillar, s/z-belgili tillar va y- belgili tillar guruhlariga boʻlindi. Oʻzbek tili taraqqiyotining ilk XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda y-belgili adabiy til shakllandi.

Qadimgi yodgorliklar tiliga fonetik jixatdan qaralsa, hozirgi adabiy tildagi e(e) unlisi e tarzida talaffuz etilishi, y undoshi oʻrnida d undoshi kelishi yaqqol koʻrinadi. SHuning uchun ham prof. S. E. Malov runiy va uygʻur yozuvlaridagi yodgorliklarning tilini d-belgili tillarga kiritadi¹⁷.

Qadimgi turkiy tilning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli.

Maʼlumki, X asrga kelib Oʻrta Osiyo hududida qoraxoniylar davlati vujudga keldi. Bu davrda oʻzbek elatining siyosiy tuzum, ijtimoiy munosabatlari va madaniyatidagina emas, balki etnik hamda lingvistik tarkibida ham jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. Qoraxoniylar davlati hududidagi turli qabila va elatlar birlashib ketdi. Uning tarkibida uygurlar, qarluqlar, chigillar, yagʻmo, tuxsi, argʻular, oʻgʻuzlar va qipchoqlar bor edi.

2. Koʻchmanchi turkiy qabilalarning oʻtroqlashishi tezlashdi. SHuning uchun bu haqda A. YU. YAkubovskiy shunday yozadi: «Agar qoraxoniylardan avvalgi davrlarda turklarning Oʻzbekiston tuprogʻiga kirishlari asosan mamlakatdagi koʻchmanchilar koʻchib yuradigan maydonlarni toʻldirish hisobiga borgan boʻlsa, qoraxoniylar zamonida bu hodisa sodir boʻlibgina kolmasdan, balki dehqonchilik rayonlarida turklarning oʻtroq hayot mehnatiga tadrijiy suratda koʻchganlari ham koʻrinadi»¹⁸.

3. Turkiy qabilalarning eron tilida soʻzlashuvchi sugʻdiy qabilalar bilan aralashishi va assimilyatsiyalashuvi ancha kuchaydi.

Yuqoridagi tarixiy sharoit asosida X–XI asrlarga kelib oʻzbek elatining etnik chegarasi aniqlandi, tili va madaniyati barqaror boʻldi. Bu haqda professor M. Vahobov shunday yozadi: «Oʻzbek elati turkiy tilda soʻzlashuvchi koʻchmanchi qabilalarning oʻtroqlik holatiga oʻtib, eron tilida soʻzlashuvchi dehqonlarga aralashyb ketishlari natijasida tashkil topgan. Natijada u oʻz tili bilan tojiklardan, oʻtroqligi bilan qozoq, qirgʻiz va turkmanlardan farq qildi»¹⁹.

Oʻzbek adabiy tilining shakllanishida qadimgi turkiy tilning taʼsiri qanday boʻldi, degan savol tugʻiladi.

Oʻzbek tili qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda CHu daryosi bilan Sirdaryo oraligʻidagi keng hududda va qisman Movarounnahrda yashagan

¹⁶ Т е н и ш е й Э. Р. Грамматический очерк. древнотуркского.-язика по сочин-ениюмго «Зблотой блеск». Автореферат канд. дисс. Л., 1953, стр. 6.

¹⁷ М а л о в С. Е. Памятники древнетюркской письменности, стр. 126.

¹⁸ Я к у б о в с к и й А. 10. Узбек халкининг юзага келиши масаласи хақида. Тошкент, 1941, 10-бет.

¹⁹ В а х о б о в М. Узбек элати,—Жури. «Гулистон». Тошкент, 1967, Д-сон, ; 12- бет,

turkiy qabilalarning integratsiyalashuvi natijasida qarluq-chigil kabila dialektlari asosida tarkib topdi. SHunday qilib, turkiy tillarning qarluq guruhidan ajralib chiqqan sharqiy qarluq dastlabki o'zbek tili uchun asos til rolini bajardi.

Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda X–XIII asrlardagi yozma yodgorliklar uyg'ur tili yodnomalari deb qaraladi²⁰. SHunga ko'ra o'zbek tiliga uyg'ur tili asos bo'lgan deb talqin etiladi. Holbuki, M. Koshg'ariy qadimgi uyg'ur tili bilan koshg'ariy tili, ya'ni qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi tilning bir-biridan farqini ko'rsatdi. Prof. N. A. Baskakov o'zining «Turkiy tillar» kitobida yozganidek, hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari qadimgi turkiy tillar bilan, birinchi navbatda esa, eski o'zbek tili bilan, so'ngra qarluq dialektlari asosida tarkib topgan qoraxoniylar davlatidagi til bilan, undan ham qadimroq genetik jihatdan qadimgi uyg'urlar va tukyular (o'g'uzlar) bilan aloqador bo'lgan qadimgi yag'mo, turgash dialektlariga borib bog'lanadi²¹.

Demak, qadimgi uyg'ur tili emas, balki sharqiy qarluq (qarluq-chigil-uyg'ur) tili o'zbek tili uchun o'zak til rolini o'ynadi.

SHunday qilib, turkiy tillarning g'arbiy hunn tarmog'ining sharqiy qarluq turkchasidan o'sib chiqqan o'zbek tilida qadimgi turkiy tilning bir qancha xususiyatlari saqlangan.

Bular dastavval o'zbek tili leksikasida ko'rinadi. Qadimgi turkiy tildagi ko'pchilik so'zlar qadimgi o'zbek tiliga ham qabul qilindi. Ular turmushning turli sohalariga oid so'zlardir: *ab* (ov), *abit-* (tinchitmoq), *abitu* (quvonch), *abuch* (hovuch), *adash* (o'rtoq), *adaq* (oyoq), *ajun* \ashun// *achun* \ azun (dunyo), *azg'ur-* (yo'ldan urmoq), *azig'* (milk), *azuq* (ozuq), *adir-* (ayir), *ay* (oy, aytmoq), *alti* (olti), (*oltmish*, *ancha*), *ev* \eb (uy), *er* (er), *bar* (bor), *beglig* (beklik), *idi* (janob, xudo), *izish* (idish), *ilgeri* (ilgari), *ille* (boshqa), *-ich* (ichmoq, ich), *ilig* (qo'l), *budun* (xalq), *yaril-* (yorilmoq), *yarín* (erta), *yeme* (yana), *yiq-* (yiqitmoq) kabi.

Keltirilgan misollardan qadimgi turkiy tildagi leksik unsurlar o'zbek tiliga juda yaqin bo'lganligi ko'rinib turibdi.

Uslubiya sohasida o'zbek tili qadimgi turkiy tildan bir qancha badiiy tasvir vositalarini, jumladan, epitetlar, o'xshatish, qiyoslash, metafora kabilarni qabul qildi. CHunki badiiy tasvir vositalari qadimgi turkiy til asosida shakllanib, shu tilda ma'lum darajada ishlangan edi. SHuni alohida qayd etish kerakki, o'zbek tilining badiiy tasvir vositalari o'zbek milliy tili asosida rivojlandi. Bular xalq og'zaki ijodida aniq ko'rinadi. Xalq og'zaki ijodidagi badiiy tasvir vositalarining adabiy tilga ta'siri qadimgi davrlardan boshlandi. Bu narsa M. Koshg'ariyning «Devon»ida, didaktik temada yozilgan dostonlarda, Rabg'uziy va Ali qissalarida ko'rinadi.

Umuman, qadimgi turkiy adabiy til ta'sirida o'zbek tilining lug'at tarkibi, grammatikasi va badiiy tasvir vositalari intensiv tarzda normalasha bordi. Natijada o'zbek adabiy tilining o'ziga xos normalari shakllandi. O'zbek xalqining tili **o'z**

²⁰ Б а с к а к о в Н . А. Тюркские языки. М., 1960, стр. 37—61.

²¹ Уша асар, 172- бет.

taraqqiyoti davomida turli xil nom bilan yuritildi. Bu esa, o‘z navbatida, ma’lum adabiy normani belgilash ishiga to‘sqinlik qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy qaysi hududlarda tarqalgan edi?
2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklarining eng asosiy belgilarini tushuntirib bering.
3. Uyg‘ur yozuvi va uning yodgorliklari runiy yozuvi yodgorliklaridan qanday farqlanadi?
4. Qadimgi turkiy adabiy tilning fonetik tizimi hozirgi o‘zbek tilidagidan qanday farq qiladi?
5. Qadimgi turkiy til hozirgi o‘zbek adabiy tiliga meros qilib qoldirgan unsurlarni tahlil qilib ko‘ring.

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. O‘rinboyev, A. Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
2. A. Muxtorov, U. Sanakulov. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
3. G‘. Abduraxmonov, A. Rustamov. Qadimgi turkiy til. Toshkent, “O‘qituvchi” 1982.
4. N. Abdurahmonov. Qadimgi turkiy til. Toshkent, “O‘qituvchi” 1989.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. SH e r b a k A. M. Grammaticheskiy ocherk языка tyurkskix matnov X–XIII vv. iz Vostochnogo Turkestana. M.–L., 1961.
2. Radlov V. V. YArliki Temur-Kutluga i Toktamisha. ZVO. RAO. Tom III. Vtp. 1–2. 1888, str. 2.

4-ma’ruza. O‘ZBEK XALQINING TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Reja:

1. O‘zbeklarning nomlanish tarixi
2. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan amalga oshirilgan turkiy tillar tasnifi xususida.
3. O‘zbek tili tarixini davrlashtirishga uringan rus va g‘arb olimlarining harakatlari haqida.
4. O‘zbek tilini tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganish.

Tayanch tushunchalar: 1. ”Turk”, ”chig‘atoy”, ”o‘zbek” va sart” atamalarining tarixiy etimologiyasi haqida. 2. O‘zbek xalqining nomlanishi haqida Alisher Navoiyning fikrlari. 3. O‘zbek tili tarixini davrlashtirgan rus va g‘arb

olimlarining fiklari. 4.O'zbek tili tarixini A.M.SHcherbak hamda O.Usmonov amalaga oshirgan davrlashtirish to'liq va to'g'ri ekanligi.

O'zbek xalqining etnik tarkibi, yuqorida aytib o'tilganidek, murakkab va xilma-xildir. Hatto o'zbek xalqining alohida tar-kibiy qismlari (qarluq-uyg'ur-chigil) o'rtasida ham til tafovuti mavjud. Buning asosiy sababi XX asrning boshigacha o'zbek xalq-ni-ning yagona nomi yo'qligidir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklarning bir qismi o'zlarini sartlar deb, boshqalari turklar deb atasalar, yana bir xillari o'zlarini o'zbek deyilar.

Qarluq, uyg'ur va eron tillarida so'zlashuvchilarning arala-shuvidan paydo bo'lgan va dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalar dastlab «sart» nomi bilan atal-gan. Lekin bu nom keyinchalik turli o'zgarishlarga uchradi. Arab-lar istilosi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda Movarounnahr-dagi barcha o'zbeklar «sart» nomi bilai yuritildi. Alisher Navoiy o'zining «Muhokamatul-lug'atayn» asarida tojiklarga va ularning tiliga nisbatan sart so'zini ishlatadi. SHayboniyxon o'zini o'zbek, O'rta Osiyodagi o'troq qabilalarni sartlar deb ataydi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun O'rta Osiyo xalqlari sart nomi bilan yuritildi. Hatto N. P. Ostroumov, N. S. Budzinskiylarning shu nom bilan grammatikalari nashr etildi. *Sart* so'zi sanskrit tilvdan olingan *sartavan* (karvonboshi) so'zining o'zagidir. SHuning uchun bu etnik nom bo'la olmaydi.

O'zbekistonning tog' bag'ri va tog' etaklarida yashovchi o'zbek xalqining bir qismi o'zlarini turklar deb ataganlar. Ular tar-kibiga turklar, qarluqlar, barloslar, mo'g'ullar, kaltatoylar, musobozorlar kabi qabilalar kiradi. Turk nomi o'tmishda o'zbek xalqi va uning tiliga nisbatan qo'llangan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Kavkaz, Volgabo'yi xalqlari ham turk deb atalgan. Ularning tili turk tili yoki turkiy til deb yuritilgan. Lekin o'tmishda o'zbek tilini boshqa turkiy tillardan farq qilish uchun u «turkcha», «turkistoncha», «chig'atoycha», «O'rta Osiyo turkchasi» kabi har xil nomlangan.

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida o'zbek xalqini turk va uning tilini turk tili deb ataydi. Amalda turk, turkiy, turk ulusi, turk tili, turk iborati, turkcha, turkiy til, turkiy alfoz kabi ifodalarni keng ishlatadi. Masalan: «...*mening ta'bim turk alfozig'a muloyim tushgan uchun ta'rifida mubolag'a izhor qilurmen. Bu g'arib ma'ni adosida turkchada bu matla' borkim*». Alisher Navoiydan keyin XVI asr boshlarida o'zbek xalqi va uning tili o'zbek nomi bilan yuritildi. SHayboniy O'rta Osiyoga kelgunga qadar unga tobe bo'lgan qabilalar «o'zbek» nomi bilan ataldi. Hatto bu fikrni M. Solih o'zining «SHayboniynoma» dostonida ham tasdiqlaydi:

Holi oning eri Turkistondur,

O'zbek eliga muazzam xondur...

SHayboniy Turkiston va Dashti Qipchoqdan bostirib kirgandan so'ng ko'chmanchilar bilan erli qabilalar aralashib ketdi va o'zbek iborasi ularning umumiy nomi bo'lib qoldi. Uning tili o'zbek tili deb atala boshlandi.

Demak, o'zbek tili Oktyabr to'ntarishigacha turk tili, sart tili, o'zbek tili kabi turli nomlar bilan ataldi. Biroq, u qaysi nom bilan atalmasin, o'zbek xalqining birdan-bir aloqa vositasi va fikr almashuv quroli bo'lib keldi va kelmoqda.

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa tillar bilan birgalikda turkiy tillar tizimini tashkil etadi, chunki ularning geniologiyasi birdir. O'zbek adabiy tilining hozirgi holatini ilmiy jihatdan o'rganish uchun uning uzoq tarixii taraqqiyot yo'llarini nazariy bilish zarur.

Til taraqqiyotining turli davrlarida amal qilgan qonuniyatlarni va shu qonuniyatlarga muvofiq tilda voqe bo'lgan fonetik, leksik, grammatik va semantik o'zgarishlarni o'rganishga qiziqish qadimgi davrlardayoq boshlandi.

Til tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri – davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'dosh bo'lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'liq. N. A. Baskakovning aytishicha, tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil mezoniga, ya'ni tarixiylik mezoniga asoslaniladi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Koshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham, XIX asrgacha turkiy tillarning mukammal tasnifi yaratilmadi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bu sohada V. V. Radlov, F. E. Korsh, E. D. Polivanov, A. N. Samoylovich, S. E. Malov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, N. A. Baskakovlar samarali ish qildilar.

Ularning ba'zilar turkiy tillarni territorial-geografik jihatdan tasnif qilsa, ba'zilar tillarning bir xil lingvistik belgisiga asoslanadi, boshqa bir xil tasniflarda turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan etarlicha bog'lanmaydi. SHular ichida N. A. Baskakov tasnifi ancha mukammal.

Tasniflarda bir xillik bo'lmaganligi sababli turkiy tillar tarixitsi davrlashtirish ham har xildir. O'zbek tili taraqqiyoti tarixini davrlashtirish asosan 1950 yillardan keyii boshlandi.

Birinchi marta o'zbek tili tarixini davrlashtirish sxemasini F. Kamolov ishlab chiqdi. Biroq bu ham kamchiliklardan xolv emas edi.

A.M.SHcherbak va O.Usmonov tomonidan taklif qilingan davrlashtirish sxemalari ancha mukammal. Ular qadimgi o'zbek xalqining o'zbek elati darajasiga, elatning o'zbek millati darajasiga o'sib chiqish jarayonini asos qilib oldilar. Bundan tashqari adabiy til tarixini davrlashtirishda tilning ichki taraqqiyot qonunlarini ham hisobga olish kerak. Jumladan, adabiy til bilan «xom til» (so'zlashuv tili)ning bir-biriga ta'sirini, turli tarixiy davrlarda adabiy til uslublarining bir-biriga munosabati va o'zgarishini xam nazarda tutish lozim.

SHu yuqoridagi kriteriyalar asosida davrlashtirishning quyidagi sxemasini tavsiya etish mumkin:

I. Ilk davr o'zbek xalq tili (X asrdan XIV asrning yarmigacha bo'lgan davr):

1) o'zbek adabiy tilida ikki xil funktsional tipning shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti (X–XII asrlar). Bu davrda o'zbek adabiy tilining kitobiy til va xalq adabiy tili kabi tiplari shakllandi. Xalq adabiy tilining shakllanishida xalq og'zaki

ijodi katta rol o'ynadi. Grammatik qurilishi va lug'at tarkibi nuqtai nazardan kitobiy til bilan xalq adabiy tili bir-biriga aktiv ta'sir qildi. SHu ikki tipli adabiy til sharqiy yoki sharqiy Turkiston adabiy tili deb ataladi. Bu davrning kitobiy til yodgorligi YUsuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (XI asr), adib Ahmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» -(XII asr) asarlaridir. O'sha davrda yaratilgan Idoraviy hujjatlarda kitobiy til bilan xalq adabiy tili aralashgan holda ko'rinadi;

2) adabiy tilda mahalliylik ruhining paydo bo'lishi va kuchayishi (XII–XIV asrning yarmi).

Bu davrga kelib CHig'atoy va Oltin O'rda davlatlari tuzildi, adabiy tilda territorial zlementlar o'z ifodasini topdi. Kitobiy tilda ham, xalq adabiy tilida ham, rasmiy hujjatlar tilida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. SHarqiy adabiy tilning ta'siri kamayib, g'arbiy adabiy til kuchaydi. G'arbiy adabiy til yodgorligiga qarluq-xorazm lahjasida yozilgan Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat»i (XII asr), «Qissai Rabg'o'ziy (XIV asr) asari, adabiy tilning Oltin O'rda tsiklida yozilgan «Nahjul farodis», «Muhabbatnoma», «Xisrav va SHirin», «Me'rojnom» kabi asarlar, adabiy tilning CHig'atoy ulusi tilida yozilgan «Muqaddimatul adab», «YUsuf va Zulayho», «Ravnaqul islom», «O'g'uznoma» kabi asarlar kiradi. XI–XIV asrlardagi aralash dialekt xususiyatlarini «Tafsir»da uchratamiz.

II. O'zbek xalq tilining takomillashish davri (XIV asrning oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha):

1) o'zbek xalq adabiy tilining to'la shakllanishi (XIV asrning oxiridan XVII asrgacha).

Bu davr xalq adabiy tilining roli oshganligi bilan xarakterlanadi. Bu til ma'lum darajada o'zbek xalqining og'zaki ijodi (folklor) bilan munosabatda bo'ldi. Xalq adabiy tilining lug'at tarkibi, grammatik qurilishi va tovush tarkibida o'zgarishlar yuz beradi. Kitobiy adabiy til ko'rinishlari arxaiklasha bordi. Rasmiy hujjatlar tili xalq adabiy tiliga yaqinlashdi. XIV asrning oxirida Movarounnahrda yagona Temur davlatining vujudga kelishi va bu davrda eski o'zbek adabiy tilining shakllanish taraqqiyoti Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobir, Muhammad Solih kabi ijodkorlar yaratgan asarlardan ma'lum;

2) xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvining tugallanishi va adabiy tilda so'zlashuv nutqi xususiyatlarining singishi (XVII asr va XIX asrning II yarmigacha).

Bu davrda xalq adabiy tili so'z san'atkorlari ijodi ta'sirida rivojlandi va mustahkamlandi. U kitobiy til va rasmiy hujjatlar tili bilan mustahkam aloqada taraqqiy qildi. Lekin rasmiy uslub hali o'rta asr darajasida edi.

Bu davrda yaratilgan yodgorliklar tilida so'zlashuv nutqi xususiyatlari ko'plab uchraydi. Xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvi shu davrda yashab ijod qilgan yozuvchilar – Abulg'azi, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Ogahiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalq tilining takomillashishi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ikki xil uslub – dardabali uslub va sodda so'zlashuv tili mavjud edi.

III. Milliy til unsurlarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi o'zbek adabiy tili (XIX asrning II yarmidan hozirgi kungacha bo'lgan davr):

1) XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tilining boyib borishi va taraqqiyoti.

Bu davrda o‘zbek adabiy tili tizimida gazeta-publitsistika tili va uslubi shakllandi. Gazeta-publitsistika uslubi va rus tili so‘zlarining demokrat shoirlar asarlari orqali tilimizga kirib kelishi tufayli o‘zbek adabiy tili leksikasi yanada boyidi.

O‘zbek milliy tili normalarini yaratish sohasidagi dastlabki jurashlar jarayonida shu milliy tilda arab, fors, turk va tatar tillariga xos til xususiyatlari paydo bo‘ldi. Milliy tilning dastlabki unsurlari vujudga keldi;

2) o‘zbek milliy tili va uning rivojlanishi. Adabiy til uslublari to‘la shakllandi va ularning hajmi ancha kengaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.1.O‘zbeklar qanday nomlar bilan atalgan?

2..Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni qanday tamoyilga asosan tasnif qilgan?

3.O‘zbek tili tarixini davrlashtirishga uringan rus va g‘arb olimlaridan kimlarni bilasiz?

4.O‘zbek tilini qanday tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin?

Zaruriy adabiyotlar

1.U.Tursunov, B.O‘rinboyev, A.Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.3–13-betlar.

2.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixi.O‘zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.3–13-betlar.

3.A.Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980.

4. Sh. Shoabdurahmonov. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962, 14–22-betlar.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.Doniyorov X. Eski o‘zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari.Ma’ruzalar matni. Toshkent, 1976, 140 bet. 3-10-betlar.

2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 tom (Z.Ma’rufov tahriri ostida). M., , 1981.

3.Reshetov V.V. Uzbekskiy yazyk. CHast 1, Tashkent, 1959, 43-46-betlar.

4-ma’ruza. O‘ZBEK XALQINING TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Reja:

1.O'zbeklarning nomlanish tarixi

2..Mahmud Koshg'ariy tomonidan amalga oshirilgan turkiy tillar tasnifi xususida.

3.O'zbek tili tarixini davrlashtirishga uringan rus va g'arb olimlarining harakatlari haqida.

4.O'zbek tilini tarixiy davrlarga bo'lib o'rganish.

Tayanch tushunchalar: 1."Turk", "chig'atoy", "o'zbek" va "sart" atamalarining tarixiy etimologiyasi haqida. 2, O'zbek xalqining nomlanishi haqida Alisher Navoiyning fikrlari. 3.O'zbek tili tarixini davrlashtirgan rus va g'arb olimlarining fikrlari. 4.O'zbek tili tarixini A.M.SHcherbak hamda O.Usmonov amalga oshirgan davrlashtirish to'liq va to'g'ri ekanligi.

O'zbek xalqining etnik tarkibi, yuqorida aytib o'tilganidek, murakkab va xilma-xildir. Hatto o'zbek xalqining alohida tarkibiy qismlari (qarluq-uyg'ur-chig'il) o'rtasida ham til tafovuti mavjud. Buning asosiy sababi XX asrning boshigacha o'zbek xalqining yagona nomi yo'qligidir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklarning bir qismi o'zlarini sartlar deb, boshqalari turklar deb atasalar, yana bir xillari o'zlarini o'zbek deyilar.

Qarluq, uyg'ur va eron tillarida so'zlashuvchilarning aralashuvidan paydo bo'lgan va dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalar dastlab «sart» nomi bilan atalgan. Lekin bu nom keyinchalik turli o'zgarishlarga uchradi. Arablar istilosi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda Movarounnahrda barcha o'zbeklar «sart» nomi bilan yuritildi. Alisher Navoiy o'zining «Muhokamatul-lug'atayn» asarida tojiklarga va ularning tiliga nisbatan sart so'zini ishlatadi. SHayboniyxon o'zini o'zbek, O'rta Osiyodagi o'troq qabilalarni sartlar deb ataydi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun O'rta Osiyo xalqlari sart nomi bilan yuritildi. Hatto N.P. Ostroumov, N. S. Budzinskiylarning shu nom bilan grammatikalari nashr etildi. Sart so'zi sanskrit tilidan olingan sartavan (karvonboshi) so'zining o'zagidir. SHuning uchun bu etnik nom bo'la olmaydi.

O'zbekistonning tog' bag'ri va tog' etaklarida yashovchi o'zbek xalqining bir qismi o'zlarini turklar deb ataganlar. Ular tarkibiga turklar, qarluqlar, barloslar, mo'g'ullar, kaltatoylar, musobozorlar kabi qabilalar kiradi. Turk nomi o'tmishda o'zbek xalqi va uning tiliga nisbatan qo'llangan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo, qozog'iston, kavkaz, Volgabo'yi xalqlari ham turk deb atalgan. Ularning tili turk tili yoki turkiy til deb yuritilgan. Lekin o'tmishda o'zbek tilini boshqa turkiy tillardan farq qilish uchun u «turkcha», «turkistoncha», «chig'atoycha», «O'rta Osiyo turkchasi» kabi har xil nomlangan.

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida o'zbek xalqini turk va uning tilini turk tili deb ataydi. Amalda turk, turkiy, turk ulusi, turk tili, turk iborati, turkcha, turkiy til, turkiy alfoz kabi ifodalarni keng ishlatadi. Masalan: «...mening ta'bim turk alfozig'a muloyim tushgan uchun ta'rifida mubolag'a izhor qilurmen. Bu g'arib ma'ni adosida turkchada bu matla' borkim». Alisher

Navoiydan keyin XVI asr boshlarida o'zbek xalqi va uning tili o'zbek nomi bilan yuritildi. SHayboniy O'rta Osiyoga kelgunga qadar unga tobe bo'lgan qabilalar «o'zbek» nomi bilan ataldi. Hatto bu fikrni M. Solih o'zining «SHayboniynoma» dostonida ham tasdiqlaydi:

*Holi oning eri Turkistondur,
O'zbek eliga muazzam xondur...*

SHayboniy Turkiston va Dashti qipchoqdan bostirib kirgandan so'ng ko'chmanchilar bilan erli qabilalar aralashib ketdi va o'zbek iborasi ularning umumiy nomi bo'lib qoldi. Uning tili o'zbek tili deb atala boshlandi.

Demak, o'zbek tili 1917 yilgacha turk tili, sart tili, o'zbek tili kabi turli nomlar bilan ataldi. Biroq, u qaysi nom bilan atalmasin, o'zbek xalqining birdanbir aloqa vositasi va fikr almashuv quroli bo'lib keldi va kelmoqda.

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa tillar bilan birgalikda turkiy tillar tizimini tashkil etadi, CHunki ularning geniologiyasi birdir. O'zbek adabiy tilining hozirgi holatini ilmiy jihatdan o'rganish uchun uning uzoq tariXII taraqqiyot yo'llarini nazariy bilish zarur.

Til taraqqiyotining turli davrlarida amal qilgan qonuniyatlarni va shu qonuniyatlarga muvofiq tilda voqe bo'lgan fonetik, leksik, grammatik va semantik o'zgarishlarni o'rganishga qiziqish qadimgi davrlardayoq boshlandi.

Til tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri – davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'dosh bo'lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'liq. N.A.Baskakovning aytishicha, tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. CHunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil mezoniga, ya'ni tarixiylik mezoniga asoslaniladi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Koshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham, XIX asrgacha turkiy tillarning mukammal tasnifi yaratilmadi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bu sohada V. V. Radlov, F. E. Korsh, E. D. Polivanov, A. N. Samoylovich, S. E. Malov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, N. A. Baskakovlar samarali ish qildilar.

Ularning ba'zilar turkiy tillarni hududiy geografik jihatdan tasnif qilsa, ba'zilar tillarning bir xil lingvistik belgisiga asoslanadi, boshqa bir xil tasniflarda turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan etarlicha bog'lanmaydi. SHular ichida N. A. Baskakov tasnifi ancha mukammal.

Tasniflarda bir xillik bo'lmaganligi sababli turkiy tillar tarixini davrlashtirish ham har xildir. O'zbek tili taraqqiyoti tarixini davrlashtirish asosan 1950 yillardan keyii boshlandi.

Birinchi marta o'zbek tili tarixini davrlashtirish sxemasini F. Kamolov ishlab chiqdi. Biroq bu ham kamchiliklardan xoli emas edi.

A.M.SHcherbak va O.Usmonov tomonidan taklif qilingan davrlashtirish sxemalari ancha mukammal. Ular qadimgi o'zbek xalqining o'zbek elati darajasiga, elatning o'zbek millati darajasiga o'sib chiqish jarayonini asos qilib oldilar. Bundan tashqari adabiy til tarixini davrlashtirishda tilning ichki taraqqiyot

qonunlarini ham hisobga olish kerak. Jumladan, adabiy til bilan «xom til» (soʻzlashuv tili)ning bir-biriga taʼsirini, turli tarixiy davrlarda adabiy til uslublarining bir-biriga munosabati va oʻzgarishini xam nazarda tutish lozim.

SHu yuqoridagi mezonlar asosida davrlashtirishning quyidagi sxemasini tavsiya etish mumkin:

I. Ilk davr oʻzbek xalq tili (X asrdan XIV asrning yarmigacha boʻlgan davr):

1) oʻzbek adabiy tilida ikki xil funktsional tipning shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti (X–XII asrlar). Bu davrda oʻzbek adabiy tilining kitobiy til va xalq adabiy tili kabi tiplari shakllandi. Xalq adabiy tilining shakllanishida xalq ogʻzaki ijodi katta rol oʻynadi. Grammatik qurilishi va lugʻat tarkibi nuqtai nazardan kitobiy til bilan xalq adabiy tili bir-biriga aktiv taʼsir qildi. SHu ikki tipli adabiy til sharqiy yoki sharqiy Turkiston adabiy tili deb ataladi. Bu davrning kitobiy til yodgorligi YUusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» (XI asr), adib Ahmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» (XII asr) asarlaridir. Oʻsha davrda yaratilgan Ildoraviy hujjatlarda kitobiy til bilan xalq adabiy tili aralashgan holda koʻrinadi;

2) adabiy tilda mahalliylik ruhining paydo boʻlishi va kuchayishi (XII–XIV asrning yarmi).

Bu davrga kelib CHigʻatoy va Oltin Oʻrda davlatlari tuzildi, adabiy tilda hududiy unsurlar oʻz ifodasini topdi. Kitobiy tilda ham, xalq adabiy tilida ham, rasmiy hujjatlar tilida ham oʻzgarishlar sodir boʻldi. SHarqiy adabiy tilning taʼsiri kamayib, gʻarbiy adabiy til kuchaydi. Gʻarbiy adabiy til yodgorligiga qarluqxorazm lahjasida yozilgan Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat»i (XII asr), «Qissai Rabgʻuziy (XIV asr) asari, adabiy tilning Oltin Oʻrda tsiklida yozilgan «Nahjul farodis», «Muhabbatnoma», «Xisrav va SHirin», «Meʼrojnoma» kabi asarlar, adabiy tilning CHigʻatoy ulusi tilida yozilgan «Muqaddimatul adab», «YUusuf va Zulayho», «Ravnaqul islom», «Oʻgʻuznoma» kabi asarlar kiradi. XI–XIV asrlardagi aralash dialekt xususiyatlarini «Tafsir»da uchratamiz.

II. Oʻzbek xalq tilining takomillashish davri (XIV asrning oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha):

1) oʻzbek xalq adabiy tilining toʻla shakllanishi (XIV asrning oxiridan XVII asrgacha).

Bu davr xalq adabiy tilining roli oshganligi bilan xarakterlanadi. Bu til maʼlum darajada oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi (folklor) bilan munosabatda boʻldi. Xalq adabiy tilining lugʻat tarkibi, grammatik qurilishi va tovush tarkibida oʻzgarishlar yuz beradi. Kitobiy adabiy til koʻrinishlari arxaiklasha bordi. Rasmiy hujjatlar tili xalq adabiy tiliga yaqinlashdi. XIV asrning oxirida Movarounnahrda yagona Temur davlatining vujudga kelishi va bu davrda eski oʻzbek adabiy tilining shakllanish taraqqiyoti Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobir, Muhammad Solih kabi ijodkorlar yaratgan asarlardan maʼlum;

2) xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvining tugallanishi va adabiy tilda soʻzlashuv nutqi xususiyatlarining singishi (XVII asr va XIX asrning II yarmigacha).

Bu davrda xalq adabiy tili soʻz sanʼatkorlari ijodi taʼsirida rivojlandi va mustahkamlandi. U kitobiy til va rasmiy hujjatlar tili bilan mustahkam aloqada taraqqiy qildi. Lekin rasmiy uslub hali oʻrta asr darajasida edi.

Bu davrda yaratilgan yodgorliklar tilida soʻzlashuv nutqi xususiyatlari koʻplab uchraydi. Xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvi shu davrda yashab ijod qilgan yozuvchilar – Abulgʻozi, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Ogahiy asarlarida ham oʻz ifodasini topgan.

Oʻzbek xalq tilining takomillashishi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ikki xil uslub – dabdabali uslub va sodda soʻzlashuv tili mavjud edi.

III. Milliy til unsurlarining paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanish XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi oʻzbek adabiy tili (XIX asrning II yarmidan hozirgi kungacha boʻlgan davr):

1) XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida oʻzbek adabiy tilining boyib borishi va taraqqiyoti.

Bu davrda oʻzbek adabiy tili tizimida gazeta-publitsistika tili va uslubi shakllandi. Gazetapublitsistika uslubi va rus tili soʻzlarining demokrat shoirlar asarlari orqali tilimizga kirib kelishi tufayli oʻzbek adabiy tili leksikasi yanada boyidi.

Oʻzbek milliy tili normalarini yaratish sohasidagi dastlabki kurashlar jarayonida shu milliy tilda arab, fors, turk va tatar tillariga xos til xususiyatlari paydo boʻldi. Milliy tilning dastlabki unsurlari vujudga keldi;

2) oʻzbek milliy tili va uning rivojlanishi. Adabiy til uslublari toʻla shakllandi va ularning hajmi ancha kengaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbeklar qanday nomlar bilan atalgan?
2. Mahmud Koshgʻariy turkiy tillarni qanday tamoyilga asosan tasnif qilgan?
3. Oʻzbek tili tariXI ni davrlashtirishga uringan rus va gʻarb olimlaridan kimlarni bilasiz?
4. Oʻzbek tilini qanday tariXI y davrlarga boʻlib oʻrganish mumkin?

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. Oʻrinboyev, A. Aliyev. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 32-33 betlar.

2. A. Muxtorov, U. Sanaqulov. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qoʻllanma. Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 23-24 betlar.

3. A. Hojiyev va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1980.

4. Sh. Shoabdurahmonov. Oʻzbek adabiy tili va oʻzbek xalq shevalari. Toshkent, 1962, 14-22 betlar.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Doniyorov X. Eski oʻzbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. Maʼruzalar matni. Toshkent, 1976, 140 bet. 310 betlar.

2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1 tom (Z. Maʼrufov tahriri ostida). M., 1981.

5-ma'ruza: O'ZBEK XALQ TILI TARAQQIYOTINING ILK DAVRI

Reja:

1. *Ilk davr adabiy tilining xususiyatlari*
2. *Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otig turk» asarining tarixiy va ilmiy axamiyati.*
3. *«Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi.*
4. *«Hibatul haqoyiq» asarining tili va uslubi.*
5. *XI asr adabiy tilining negiz lahjasi muammosi.*

X asrda qarluq qabilalarining ittifoqi ancha kuchaydi va ular Ettisuvda o'zlarining Qoraxoniylar davlatini barpo etdi. Ularning markazi dastlab Balasog'un edi, so'ngra Qashqarga ko'chirildi. Qoraxoniylar o'z ta'sirini butun Sirdaryo vodiysiga o'tkazdi. Ikkinchi tomonda, Samarkand va Buxoro qismida Somoniylar hukmronlik qildi. Ularga butun Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi erlar qaradi. Keyinchalik bu erlar ham qoraxoniylar tasarrufiga o'tdi.

Qoraxoniylar davlatiga madaniy jihatdan rivojlangan ikki xalq – SHarqda uyg'urlar va G'arbda turk-eronlar birlashdi. Ularning madaniyati birlashib, o'sha davr tiliga ham kuchli ta'sir kildi. Natijada SHarqda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi asosida sharqiy adabiy til rivojlandi. Movarounnahr va Xorazmda o'g'uz-qipchoq lahjasi asosida g'arbiy adabiy til shakllandi. Xuddi ana shu adabiy til an'analari eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida muhim rol uynadi.

XI–XIV asr yodgorliklari tilida o'zbek tilining ilk davriga xos spetsifik shakllar, -uyg'ur yodnomalari deb atalgan asarlar ta'sirida qadimgi turkiy shakllar, taraqqiyotiga butun O'rta Osiyo olimlari. hissa qo'shgan forsiy til unsurlari, arab istilochilarining tazyiqi ostida kirib qolgan arabcha shakllar uchraydi. SHunday murakkab bir sharoitda o'zbek adabiy tiliga xos shakllar shakllanadi. Bu narsa XI asrdagi maxalliylik ruhining kuchayishi bilan yanada jadallashadi.

Ilk davr o'zbek adabiy tili tarixida ikki xil tipli til, ya'ni kitobiy adabiy til va xalq adabiy tili mavjud edi. Kitobiy adabiy tilda arabcha, forsha va kadimgi turkiy tilga **xos** grammatik shakllar va fonetik xususiyatlar ko'p uchraydi. Masalan, „Tafsir“ tilida shu holni ko'rish mumkin. *Xotin* so'zi ma'nosida *urag'ut*, *xatun*, *avrat*, *ayal*, *kishi*, *tishi* kabi so'zlar qo'llanadi. SHuning uchun undagi ko'pchilik so'z va shakllarni tushunib bo'lmaydi.

Kitobiy adabiy til an'anasini diniy-mistik va qisman didaktik xarakterdagi asarlar tilida rivojlandi.

Fonetik jihatdan ilk davr yodgorliklarida qadimgi turkiy **d**-belgili dialekt kitobiy adabiy til an'anasiga aylanadi. X–XI asrlardan **d** o'rnida **dz** (j) qo'llana boshladi: *adaq*–*adzaq* kabi. Ma'lum vaqtlarga qadar bu ikki fonetik xususiyat parallel davom etdi. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ asarida *adaq* va *adzaq* shakllari parallel qo'llangan. Keyinchalik **d**//**dz** o'rnida **y**

(yoki **z**) qo'llana boshladi (*adaq//adzats>aqaq* kabi), ya'ni **y**-belgili dialekt shakllana boshladi. XIV asr oxirlariga kelib **y**-belgili dialekt to'la shakllandi.

Xalq adabiy tili xalq jonli tili materiallari asosida shakllandi. Unda jonli tilga xos bo'lgan boy leksik unsurlar xalq og'zaki ijodiga tegishli bo'lgan boy uslubiy vositalar asosida tarkib topdi. Ilk davr xalq adabiy tilida yaratilgan asarlardan biri M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»idir. «Devonu lug'otit turk»da Xitoydan Xorazmga qadar bo'lgan katta hududdagi qabila, urug' va xalqlarning tili, boy xalq adabiy tilining leksik va frazeologik birliklari, leksik unsurlari, xalq adabiy tilida yaratilgan qo'shiklar, maqol va matallar keltirilgan. Barcha til xususiyatlari xalq og'zaki ijodidan olingan faktik misollar bilan izohlangan.

Masalan, M. Koshg'ariy *aqturdi* (oqtirdi, oqizdi) so'zini izohlar ekan, badiiy adabiyotda kelishini berish uchun quyidagi she'riy parchani keltiradi:

*Aqturur kəzum yolaq ,
Tushlämur ʻördäk yogʻaq.*

Mazmuni: Ko'zim yoshlari buloq, singari oqadi, hatto unda o'rdak kabi suv qushlari yig'iladilar, sho'ng'ishadilar.

Bu asar orqali xalq adabiy tili xususiyatlarini o'rganish mumkin. Demak, bu faktlar o'zbek adabiy tilining ilk XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda adabiy tilning kitobiy adabiy til tipi va xalq adabiy tili tipi mavjud ekanligini tasdiqlaydi.

2. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati

XI asrga kelib shahar va qishloqlardagi qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida tilda xilma-xil shakllar qo'llandi. Bu esa tilda ma'lum normalar yaratishga ehtiyoj tug'dirdi. SHu ehtiyoj M. Koshg'ariyni «Devonu lug'otit turk» asarini yozishga da'vat etdi. Bu asar turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o'sha davr izdaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi.

Mahmud Koshg'ariy o'z davrining atoqli olimi sifatida tilshunoslikka oid «Javohirun nahvifilug'otit turk» («Turkiy tillarning sintaksis durdonalari, qoidalari»), «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni») kabi asarlar yaratdi.- M. Koshg'ariyning birinchi asari hozirgacha fan olamida noma'lum bo'lib qolmoqda. Ikkinchi asari – «Devonu lug'otit turk» esa 1914 yilda Turkiyaning Diyorbakir shahridan topildi. Topilgan qo'l yozmani ko'chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning yozishicha, u nusxani Mahmud Koshg'ariyning o'z dastxatidan olgan.

«Devonu lug'otit turk» 1915–1917 yillarda uch tomda Istambulda nashr etildi. SHu nashr asosida K. Brokkelman 1928 yilda uni nemischaga tarjima qilib nashr ettirdi. 1939 yilda esa Anqarada Basim Atalay tarjimasida usmonli turk tilida bosildi. S. Mutallibov «Devon»ni 1960–1963 yillar davomida uch tomlik qilib o'zbek tilida nashr ettirdi.

M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari muqaddima va lug'at qismidan iborat.

Muqaddimada muallif «Devon»ni yaratish sabablari, o'z ish "uslub, «Devon»ning qurilishi, «turkcha so'zlarning tuzilishida qo'llaniladigan harflar

haqida», «soʻzlarning tuzilishi haqida», «kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida», «turk tabaqalari va qabilalarining bayoni haqida», «turk tilining xususiyatlari haqida», «tilda va lahjalarda boʻlgan farqlar haqida» fikr yuritadi.

«Devonu lugʻotit turk»ning asosiy kısmida olti mingdan ziyodroq soʻzlar sakkiz boʻlimda izohlanadi. Oʻsha davrdagi taomilga koʻra, turkiy soʻzlarga arabcha izoh beriladi. SHuning uchun ham M. Koshgʻariy «Tushunilishi oson boʻlsin uchun asarda arabcha istiloh (atama) lar qoʻlladim» deydn.

M.Koshgʻariy til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga boʻlgan munosabatlarini koʻrsatdi va oʻsha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan xalq tilining ilk davri materiallaridan namunalar keltirdi. U oʻzbeklar, qozoqlar, qigʻgizlar, turkmanlar, uygʻurlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va ularning qadimgi sodda tillarini misollar asosida mukammal izohlab berdi. Buning uchun oʻsha davrda mavjud boʻlgan qabilalar tili namunalarini toʻpladi. Bu haqda M. Koshgʻariy shunday yozadi: «Men turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar, kirgʻizlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarni koʻp yillar kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim».

M. Koshgʻariy turkiy tillarda qoʻllanuvchi soʻzlarni izohlashda «oʻquvchilarning foydalanish masalasiga asoslanib, isteʼmoldagi soʻzlarni berishga» harakat qiladi; «Devon» materiallari asosida turkiy tillarning qaysi qabila tili asosida taraqqiy etib, kamolga etganini aniqlash mumkin.

M. Koshgʻariy soʻzlarni izohlashda ham oʻziga xos alohida mahorat koʻrsatdi. U soʻzlar maʼnosining kengayishi, abstraktlashishi kabi hodisalarni ham yoritib berdi. Soʻzlar etimologiyasi, soʻz yasaliishi va har xil soʻz turkumiga oid yasovchi qoʻshimchalar toʻgʻrisida Dastlabki qoidalarni yaratdi. SHuningdek, soʻz maʼnosi haqida ham lingvistikada ancha keyin aniqlangan xususiyatlarni izohlashga harakat qildi. Soʻzlarga yangi maʼno yuklash yoʻli bilan yangi soʻzlar yasaliishi hodisasi haqida ham fikr bildirdi.

M. Koshgʻariy chetdan qabul qilingan soʻzlarga ikki xil munosabatda boʻladi. Turmushga doir turli xil narsa va narsa-jismlar borki, ular hayotga singib ketgan. Tilda uni nomlovchi soʻz boʻlmasa, shunday soʻzni qoʻshni tildan olish mumkin, deydi. Biroq tilda mavjud soʻzlar oʻrnida boshqa til soʻzini qoʻllashni zararli (manfiy holat) deb hisoblaydi. Agar biz M. Koshgʻariyning ikkinchi fikriga asoslaiganimizda *bilgä*, *bitig*, *uragʻut* kabi turkcha soʻzlar oʻrnida arabcha *olim*, *kitob*, *ayol* kabi soʻzlarni qabul qilmasligimiz kerak edi.

M. Koshgʻariyning oʻsha davr fonetikadiga bergan izohlarni turkiy tillar fonetikasi uchun qimmatlidir. U tovush va harflar oʻrtasidagi munosabatni birinchi marta aniqladi va oʻsha davr yozuvidagi Harflar jonli til tovushlarini toʻla ifodalay olmasligini koʻrsatdi. «Turkiy tillarda qoʻllaniladigan asosiy harflar soni oʻn sakkiztadir. Holbuki, tildagi tovushlar oʻn sakkizta emas, koʻpdir. Bu oʻn sakkiz harf etishmaydi. Bulardan boshqa tilda boʻlgan tovushlarni berish uchun yana etti

harf kerak. Lekin u harflar yo‘q. U etti tovushni ana shu harflar ustiga maxsus belgi qo‘yib yoziladi»*

M. Koshg‘ariy o‘sha davr vokalizmi va konsonantizmig oid original fikrlar bildirdi. Unlilardagi kenglik va torlik, cho‘ziqlik va qisqalik, undoshlar tizimidagi sodda va kombinator undoshlar, ulardagi jaranglilik va jarangsizlik, undoshlarning qator kelishi hodisalari haqida qiziqarli mulohazalar bayon etdi. Bundan tashqari, XI asr tiliga xos fonetik jarayonlar haqida ham fikrlar bildirdi.

M. Koshg‘ariy o‘z davrining buyuk dialektologi sifatida o‘sha davr qabilalari va ularning tillarini mukammal o‘rganib, ayrim shevalargagi xos bo‘lgan til hodisalarini ham, ko‘pchilik qabilalarning umumlashgan til xususiyatlarini ham o‘z asarida ko‘rsatib berdi. Umuman, bu asarda tarixiy dialektologiyaga oid qimmatli materiallar mavjud.

«Devonu lug‘otit turk» faqat tilshunoslik asari bo‘lib qolmasdan o‘z davrining entsiklopediyasi hamdir. Chunki unda turli xalqlarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi hamda adabiyoti haqida qimmatli materiallar bor.

«Qutadg‘u bilig» asarining tili va uslubi

O‘zbek adabiy tilining shakllanish davrini ko‘rsatuvchi yozma manbalardan biri YUusuf Xos Hojib Balasog‘uniyning «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asaridir.

«Qutadg‘u bilig» asari she‘riy pandnoma bo‘lib, undagi she‘rlar podsho Kuntug‘di va uning maslaslahatchisi O‘gdulmish hamda dono vazir Oyto‘ldi o‘rtasidagi suhbatlar tarzida berilady. «Qutadg‘u bilig» O‘rta Osiyo xalqlarining qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi hayoti har tomonlama yoritib beriladi. Bu asar o‘zbek adabiyoti va tili tarixini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega.

«Qutadg‘u bilig» asarining uch qo‘l yozma nusxasi ma‘lum. Ulardan ikkitasi XV asrda ko‘chirilgan, hozir Vena va Qohirada saqlanmoqda. Namangan qo‘l yozmasi deb atalgan nusxasi XIII–XIV asrlarda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi. U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Aburayhon Beruniy nomli SHarqshunoslik institutida saqlanadi.

YUusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari topilgandan boshlab olimlar shu asar ustida ilmiy ish olib bormoqdalar. Jumladan, rus sharqshunoslaridan V. V. Radlov, E. E. Bertels, S. E. Malov, V. V. Bartold, O. A. Valitova kabilar bu haqda qator ilmiy ishlar yaratdilar. O‘zbek tilshunoslaridan S. M. Mutallibov, G‘. A. Abdurahmonov, K. Karimovlarning bu sohadagi ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

«Qutadg‘u bilig» hajm jihatdan katta, janriga ko‘ra davr uchun yangi kitobdir. Asar janri yozuvchidan quyidagilarni – o‘sha davrdagi tarqoq qabilalar tilida mavjud bo‘lgan til faktlarini, til xususiyatlarini puxta hisobga olishni, kelajakdagi til taraqqiyotiga xos xususiyatlarni qabul qilishni, bundan tashqari, xalq ommasining so‘z qo‘llashdagi praktikasiga suyanib ishlashni, uslubiy silliqlikka to‘la rioya qilishni talab qilardi. YUusuf Xos Hojib bu talablarni o‘z

dostonida sharaf bilan bajardi. Natijada «Qutadgʻu bilig» asari oʻsha davr tilini maʼlum bir tizimga soldi va adabiy tilni yangiliklar bilan boyitdi.

YUsuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig» dostonida qoraxoniylar davlati hududida yashovchi qabilalar tilidagi umumiy xususiyatlarni birlashtirdi. Bunda chigil qabilalarining tilini asos qilib oldi. U qabilalar tilidagi talaffuzda farqlanadigan va turlicha yoziladigan soʻzlarni talaffuzi hamda imlosini bir xillikka keltirdi. Masalan: *yogʻoch*, *uyat kabi* bir qancha soʻzlar turli qabilalarda turlicha aytilardi. Asarda ularning imlosi bir xillikka keltirishi.

YUsuf Xos Hojib oʻsha davr tilidagi turli xil morfologik va grammatik shakllarni yangi soʻzlarda qoʻllab, ularni tilda yangi hodisa sifatida tanitishga, umumlashtirishga muvaffaq boʻldi.

„Qutadgu bilig“ tilida forscha soʻzlarga nisbatan arabcha soʻzlar koʻproq. Lekin baʼzi tadqiqotchilar unda 94 ta arabcha soʻz bor, deb koʻrsatadilar. Masalan, arabcha soʻzlar *mamlakat*, *YUsuf*, *Muhammad*, *Hurmat*, *adl*, *adalatlik*, *zalim*, *qadir*, *madrasa*, *alim*, *kitab*, *namaz*, *davlat kabilar*; forscha soʻzlar: *asman*, *bazar*, *pul*, *tuxum*, *guhar*, *nadan*, *xan*, *vaha*, *dost*, *gul*, *gosh*, *pakiza* kabilar.

Yodgorlik tilida *at* (miniladigan ot) – *at* (ism)–*at*-(buyruq feʼli), *achīgʻ* (achchiq) – *achīgʻ* (toza) kabi omonimlar, *yarugʻ/yarugʻ* (yorugʻ)–*qaranqu* (qorongʻi), *yaxshī* (yaxshi)–*yaman* (yomon), *yumshaq* (yumshoq) – *qatīgʻ* (qattiq), *alīs* (olis) – *yaqīn* (yaqin), *achīgʻ* (achchiq) – *taītīgʻ* (shirin), *bedzvīk* (buyuk, baland)–*qodzī*, (quyi, past) kabi antonimlar, *baland*– *bedzvīk* (baland), *agʻrigʻ*–*iglig* (ogʻriq), *achīgʻ*–*silig* (toza), *tvshār*–*yabuz* (yovuz) kabi sinonimlar keng qoʻllangan.

YUsuf Xos Hojib tildagi sinonimlarni yonma-yon qoʻllash bilan koʻpgina uslubiy yangilik yaratishga muvaffaq boʻldi. Yonma-yon kelgan sinonim soʻzlar oʻzlarining avvalgi maʼnosida emas, balki boshqa abstrakt maʼnoda qoʻllanadi. Masalan, *saray-qarshī* soʻzini imorat, uskuna, mol-mulk maʼnosida, *tavar-nang* soʻzini boylik maʼnosida, *kuch-quvvat* soʻzini imkoniyat maʼnosida qoʻlladi.

„Qutadgʻu bilig“ tilida hozirgi tilimizda qoʻllanuvchi *yigit*, *qolqaq* (quloq), *yvrāk* (yurak), *idish*, *tash*, *el*, *satīgʻchī* kabi otlar, *sarīq*, *qara kōk* (koʻk), *qīzīl*, *isigʻ* (issiq) kabi sifatlar, *bir*, *iki* (ikki), *besht*, *qīrq ming* kabi sonlar, *men*, *sen*, *ol*, *nechā*, *mundagʻ* (bunday) kabi olmoshlar, *kel-*, *tur-*, *ich-*, *bol-*, *kōr-*, *kez-*, *qīy-*, *kir-*, *bil-* kabi feʼllardan tashqari hozirgi tilimizda qoʻllanmaydigan bir qator soʻzlar ham uchraydiki, bular oʻsha davr tilini xarakterlovchi leksik unsurlarni tashkil etadi: *budzun* (xalq), *hamugʻ* (hamma), *tōri* (qonun), *bayat* (xudo), *bayīgʻ* (past), *bayīq* (tushunarli), *eb-* (shoshilmoq), *ōd* (vaqt), *begu* (qahramon), *adzīn* (boshqa), *tegr-* (etkazmoq), *tapīgʻ* (xizmat), *chīgʻay* (kambagʻal), *ōqvsh* (koʻp), *ārinch* (marhamat, mumkin), *eriz* (tinch), *ersik* (olijanob), *idzi* (ega), *ig* (kasal), *yudzugʻ* (jarima), *qvāz* (magʻrurlik), *odzugʻ* (hushyorlik), *ogʻra-* (uchrashmoq), *otachī* (tabib), *but-* (ishonmoq), *qalī* (agar), *qalīq* (osmon, koʻk), *qarshī* (saroy), *tākmā* (har qanday, har bir), *togʻu* (urf-odat, qonun) va boshqalar.

Umuman, «Qutadgʻu bilig» asari XI asr qabilaviy tillarni birlashtirishga va oʻsha davr adabiy tilini rivojlantirishga katta hissa boʻlib qoʻshildi.

«Hibatul haqoyiq» asarining tili va uslubi.

Iste'dodli shoir va donishmand Ahmad YUgnakiydan qolgan yagona adabiy asar «Hibatul haqoyiq» badiiy so'z san'ati va adabiy tilning kimmatli yodgorligidir.

«Hibatul haqoyiq» asarining yaratilgan davri haqida turli fikrlar bor. S. E. Malov asar tilidagi arxaik unsurlarga asoslanib, uni X asrga tegishli desa, boshqa tadqiqotchilar XII asrda yaratilgan deb karaydilar. Keyingi fikr asosli bo'lib, unga qo'shilish mumkin.

Bu asarning qo'l yozmasi Istambulda Najib Osim tomonidan topildi va 1915 yilda usmonli turk tilida nashr etildi. «Hibatul haqoyiq» ning yangi qiyosiy nashri 1951 yilda turk olimi Rashid Rahmat Arat tomonidan ommalashtirildi.

olimlaridan E. E. Bertels, S. E. Malov, Q. Mahmudov bu dostonni o'rganish sohasida samarali ish qildilar.

Doston 14 bob 256 baytdan iborat bo'lib, asar muallifining ta'kidlashicha, koshg'ar lahjasida yozilgan:

*Tamamī erur kashg'ariy til bilä,
Ayıtmış adib rıqqatı til bilä.*

Asar tili ko'p xususiyatlari bilan «Qutadgu bilig» tiliga yaqin turadi. Chunki unda ham karluq-chigil tili an'analari mavjud.

«Xibatul haqoyiq» dostonida biror sarguzasht hikoya qilinmaydi, unda ilm-ma'rifat, axloq-odob va boshqa masalalar haqida fikr yuritiladi, kishilarga nasihat beriladi. SHunga kura, «Hibatul haqoyiq» didaktik doston hisoblanadi, bu esa, uning tili va uslubini belgilaydi.

Ma'lumki, didaktik doston asarning badiiy xususiyatlarni doirasini xiyla cheklab qo'yadi, unda tema personajlarning hayot va kurash yo'lini tasvirlash orqali yoritilmaydi. SHunga qaramay, Ahmad YUgnakiy badiiy tnl vositalari, xalq maqollarini qo'llash orqali asar uslubini va tilini jozibali qilishga erishgan.

Qoraxoniylar davlati emirilgandan keyin o'zbek adabiy tili qadimgi turkiy tilning turli shevalari hisobiga va ma'lum darajada fors-tojik tili so'zlarini uzlashtirish hamda arabcha so'zlarning kirib kelishi nuli bilan taraqqiy etib bordi. Bu taraqqiyot «Hibatul haqoyiq» asari tilida o'z ifodasini topadi.

«Hibatul haqoyiq» asariga fonetik jihatdan yondashilsa, unda o'sha davr kitobiy til an'anasiga aylangan **dz**- belgili dialekt etakchi o'rinda turgani, ya'ni y tovushi o'rnida **dz** tovushi kelgani yaqqol ko'rinadi. Masalan: *kidzim* (kiyim), *kedzinki* (keyingi), *adzaq* (oyoq), *tsodz*- (qo'y- – qo'ymoq fe'lidan), *edzgu* (yaxshi) kabi. Bunday fonetik hodisa «Qutadg'u bilig» tili uchun ham xarakterli. SHu bilan birga, unda ba'zan dz tovushi o'rnida y qo'llanish hollari ham mavjud, ya'ni *kidz* (kiymoq) so'zining *kiy*- shaklida qo'llanishi.

„Hibatul haqoyiq" asarining tili morfologik xususiyatlari bo'yicha ham „Qutadnu bilig" tiliga yaqin turadi. Masalan, sifatdashning -glī / -gli (*barīglī*, *keliqli* kabi), -duq/-dūk (*barduq*, *keldūk* kabi), -dachī / -dachi (*bardachī*, *keldachi* kabi), buyruq-iytak maylining -su/-sū (*barsu* – borsin, *kelsū* – kelsin kabi) shakllari «Hibatul haqoyiq» tili uchun ham xarakterli.

«Hibatul xaqoyiq» tilida qadimgi turkiy tilga xos so'zlar ham uchraydi. Bu esa uning qadimgi turkiy adabiy til bilan ma'lum darajada bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Masalan: *neng* (narsa), *budzun* (xalq), *ajun* (dunyo), *kedzin* (keyin),

adīz (baland), *qalī* (agar), *bodz* (gavda), *obut* (uyat), *yīd* (hid), *chīgʻay* (gadoy) kabilar.

Asar tilida arabcha va forsha soʻzlar hamda gʻarbiy turkiy tillarga xos boʻlgan *uram* (koʻcha) soʻzining uchrashi uni XII asr yodgorliklari tiliga yaqinlashtiradi.

Umuman, «Hibatul haqoyiq» dostonining tili «Qutadgʻu bilig» tiliga nisbatan keyingi adabiy yodgorliklarniyag tiliga ancha yaqin boʻlib, oʻzbek adabiy tilining shakllanish davrini oʻzida aks ettiradi.

Ahmad Yugnakiy «Hibatul haqoyiq» dostoni bilan eski oʻzbek va uygʻur adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi. SHuning uchun ham buyuk soʻz sanʼatkori Alisher Navoiy «Hibatul haqoyiq» asariga katta baho bergan edi.

XI asr adabiy tilining negiz lahjasi muammosi

Oʻzbek adabiy tilining ilk XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda adabiy tilga negiz boʻlgan dialekt, muammosi hal boʻlmagan edi. Bu davrda **dz**-lashish, hodisasi etakchi rol oʻynardi.

XI–XII asr adabiy tilida **dz**-belgili dialekt ustunligining sababi qoraxoniylar davlati barpo etilganga qadar Movarounnahrda erli xalq chigilllar boʻlib, ularning taʼsiri **y**-belgili dialektga nisbatan kuchli boʻlgan. Keyinchalik qoraxoniylar chigillarni ham oʻzlariga qoʻshib olgach, dastlab **dz**-lashish va **y**-lashish hodisalari parallel qoʻllandi. XIII asrdan keyin esa **dz**-lashish kuchsizlanib, **y**-lashish ustunlashdi.

Qadimgi turkiy adabiy tilda **d** hodisasi ustunligi uchun ham S.E.Malov shunday yozadi: «Runik va uygʻur yozuvlaridagi yodgorliklarning tillari **d** guruhidagi tillardir».

SHunday ekan, oʻzbek adabiy tilidagi **y**-lashish hodisasi qanday paydo boʻldi, degan savol tugʻiladi.

y tovushining turli turkiy tillarda paydo boʻlishi, yaʼni **d//dz** tovushlarining **y** tovushiga oʻtishi turlichadir. SHuning uchun ham S. E. Malov turkiy tillarni klassifikatsiya qilishda **y** va **d** tovushlarining bor-yoʻqligiga qarab ajratadi. Bu haqda S. E. Malovning uzi shunday deydi: «Ayrim soʻzlarning maʼlum oʻrinda, jumladan, otlarning oʻrtasida, feʼllarning oxirida **i** tovushining kelishi, kelmasligiga qarab xamma qadimgi va hozirgi turkiy tillarni ikki guruhga boʻlish juda qulaydir. Agar baʼzi soʻzlarning maʼlum oʻrinlarida **y** tovushi kelsa, albatta, boshqa belgilari bilan birgalikda, ularni yangi turkiy tillar qatoriga kiritadilar va kiritish kerak. Agar oʻsha xil soʻzlarda boshqa xil tovushlar boʻlsa, ularni qadimgi turkiy tillar qatoriga kiritish kerak».

A. M. SHcherbak **y**-belgili dialekt qarluqlar tiliga tegishli deb koʻrsatadi. M. Koshgʻariyning zslatishicha, bu hodisa chigillarda mavjud boʻlgan. Maʼlumki, Turkistonga qarluqlardan oldin uygʻurlar keladi. Uygʻurlar va qarluqlar Tibetda yashaganlar. Ehtimol, qarluqlardan uygʻurlar olib, chigillarga oʻtkazgandir.

y tovushi boshqa tovushlar talaffuzining oʻzgarishi va tanglay artikulyatsiyasining kuchayishi natijasida paydo boʻldi.

dz tovushi X–XI asrlarda real fonetik hodisa-sifatida dialektlarni farqlovchi asosiy belgi boʻlgan. Bu haqda M. Koshgʻariy oʻzining «Devonu lugʻotit turk»

asarida shunday yozadi: «Yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va o‘g‘uzlar xar vaqt ز (z) ni so‘zda ى (y) ga aylantiradilar va hech maxal ذ (dz) bilan so‘zlamaydilar. Chunonchi, ulardan boshqalar qayin daraxtini قڭنك (*qadzīng*) desalar, bu qabilalar (*qayīng*) deydilar va hech mahal ذ (dz) bilan so‘zlamaydilar. Boshqa qabilalar qaynini, yaqinlarini (*qadzīn– qaynag‘a*) desalar, bular (*qayīn*) deydilar. Chigil va boshqa turkiy qabilalar tilida (dz) bilan aytilgan so‘zlar qipchok, yamak, suvor, bulg‘orlar hamda ruslarga va Rumga qadar borib taqaladigan boshqa qabilalarda (z) ga almashtiriladi. Masalan, turklar oyoqni (*adzaq*) desalar, ular (*azaq*) deydilar. Chigil turklari (*qarīn todzti* – qorin to‘ydi) desalar, ular (*tozdī*) deydilar. Boshqa ot va fe‘llarda ham ana shunga qiyos qilish kerak. Xulosa qilib aytganda, chigillarda (dz) bilan aytiladigan so‘zlar yag‘mo, to‘xsi, o‘g‘uz va Chinga qadar cho‘zilgan erlarda yashovchi ba‘zi arg‘ularda (i) bilan almashadi».

M. Koshg‘ariy «Devon»ida ham dz tovushi bilan kelgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan: *udzu* (tush), (uning oyog‘i), *adzīg* (ayiq). Bu o‘tkinchi hodisa deb qaralishi kerak.

SHarqiy turkiy tillarda **dz** hodisasi kamroq uchray boshlaydi. Boshqa turkiy guruhlarda u **z** bilan almashadi. Hamma turkiy tillarning fonetik tizimi o‘zgarishi bilan XII asrga kelib **dz** tovushi **i** va **z** tovushlari bilan almashadi.

Hammadan avval qipchoqlar **y** ga ega bo‘ldilar. Undan so‘ng o‘g‘uzlar **dz** dan **y** ga o‘tdilar. Bu narsani Ibn Muxanna o‘z asarida „turkistonliklar *idzi, edgv, adaq* deb gapirsalar, bizning mamlakat turklari *iyi, eygv, ayaq*” deydilar”, deb ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiy tilida **dz** tovushining **y** ga o‘tishi XI asrga to‘g‘ri keladi va shu asr yodgorliklari tilida **y** bilan parallel holda qo‘llangan o‘rinlar uchraydi. Masalan, «Qutadg‘u bilig» asarida **y**-li shaklga ko‘ra **dz**-li shakl ko‘proq uchraydi: *kādzin* (keyin), *kudzruq* (*dum*), *kādzik* (hayvon) kabi.

Xuddi shu kabi aralash holat Qarshi shahridan topilgan «Tafsir» da ham uchraydi. SHuning uchun ham A. K. Borovkov «Tafsir» ni **dz** tovushli tilga kiritadi. Lekin ba‘zan **y**-li holat ham uchraydi, deb ko‘rsatadi: *qudzi – quzi – quyi* (quyi) kabi.

dz va **i** tovushlari keyingi davr yodgorliklari – «Qissai Rabg‘uziy», «Hibatul haqoyiq» va «O‘g‘uznoma»da ham aralash holda ishlatiladi.

Demak, **y**-dialektli til M. Qoshgariy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ham qo‘llangan bo‘lsa-da, XIV asrdan e’tiboran adabiy tilda asosiy o‘rinni egalladi. Shuning uchun ham A. K. Borovkov XI– XIV asrlarni **dz**-dialektdan **y**-dialektga o‘tish davri deb ataydi.

6- ma’ruza: O‘ZBEK ADABIY TILINING XII ASRDAN KEYINGI TAKOMILI

Reja:

- 1.XII asrdan keyingi o‘zbek adabiy tilining xususiyatlari
2. Qarluq-xorazm adabiy tili haqida

3. Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat»i va uning tili
4. «Qisasi Rabgʻuziy» asarining tili va uslubi
5. Alining «Qissai YUsuf» dostonining til xususiyatlari
6. Qarluq-uygʻur tili taraqqiyotida «Oʻgʻuznoma» asarining roli
7. Oltin Oʻrda adabiy tili haqida
8. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari va uning til xususiyatlari
9. XI–XIV asrlardagi rasmiy hujjatlar tili va uslubi
10. Aralash dialekt xususiyatlarining «Tafsir»da aks etishi

Tayanch tushunchalar: 1. XI asrdan keyin oʻzbek adabiy tilining rivojlanishi uchun asos boʻlgan dialektlar. 2. Qarluq-xorazm tili bir necha tillarning shakllanishi uchun asos boʻlganligi. 3. «Devoni hikmat» asarining tili oʻz asliyatini yoʻqotganligining sabablari. 4. «Qisasi Rabgʻuziy» asarida eski turkiy til belgilarining saqlanib qolganligi. 5. «Qissai YUsuf» asarining yaratilish hududi va unga asos boʻlgan dialekt muammosi. 6. «Oʻgʻuznoma» asarining tili borasidagi ilmiy bahslar. 7. Oltin Oʻrda adabiy tili Qarluq-xorazm tilidan kelib chiqqanligi. 8. «Muhabbatnoma» asarida qarluq-xorazm tilining saqlanganligi. 9. Eski oʻzbek tili XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda yaratigan rasmiy hujjatlar tili shu davr adabiy tilining aks ettirgan asosiy manbalardan ekanligi. 10. «Tafsir»da bir necha lahja soʻzlarining saqlanganligi.

X–XII asrlar oʻzbek adabiy tilining shakllanishida muhim bosqich boʻldi. Chunki bu davrda oʻzbeklarning etnik chegarasi belgilandi.

Oʻzbek adabiy tilining XII asrdan soʻnggi takomilida XII–XIV asrlardagi tarixiy voqealarning roli kattadir.

Maʼlumki, moʻgʻul qabilalarining faolligi X asrdanoq osha bordi. Moʻgʻul qabilalaridan boʻlgan qoraxoniylar Ettisuvga va XII asrning oʻrtalarida Oʻrta Osiyoga bostirib kirdilar. Lekin qoraxoniylar, bir tomondan, kuchli davlat boʻlgan Xorazmshohlar bilan kurashsa, ikkinchi tomondan, moʻgʻul urugʻlaridan naymanlar bilan ham kurashdi. Xorazmshohlar bu kurashda koʻchmanchi qipchoqlar, oʻgʻuzlardan foydalandi. Natijada qoraxoniylar Oʻrta Osiyoni tashlab chiqishga majbur boʻldilar. Lekin ular oʻzbek elati tarkibiga «xitoy» deb nomlangan qabilani tashlab ketdilar.

Oʻzbek xalqi va uning tili tarixida XII asrning boshi muhim davr hisoblanadi. Chunki bu asrdan «moʻgʻullarning Oʻrta Osiyoni istilo qilish davri boshlandi. Akademik V. V. Bartoldning fikricha, moʻgʻullar istilosi turklar taqdiriga kuchli taʼsir qildi. Chunki ular tomonidan Oʻrta Osiyoda tuzilgan davlatning tili asta-sekin turkiy til boʻldi.

Mogʻullar istilosi natijasida tuzilgan davlat **CHigatoy davlati** deb ataldi. Bu davlat XIV asrning oxiri – Temuriylar imperiyasi tuzilganga qadar davom etdi.

CHigʻatoy davlati turk tilida soʻzlashuvchi qabila, elat, xalqlar yashovchi Oʻrta Osiyoning madaniy hududida tuzildi. Bu davlat oʻzining yozma adabiy tilini yaratdi. Bu til Navoiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi eski oʻzbek adabiy tiliga baza boʻlib xizmat qildi.

Ko'pchilik ilmiy va lingvistik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, chig'atoy tili deb atalgan adabiy til qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda tashkil topgan qarluq-chigil-uyg'ur va g'arbiy Xorazm tili bazasida paydo bo'ldi.

XII–XIV asrlar adabiy tiliga qoraxoniylar davri tili asos bo'ldi. Bu tildagi dialekt kitobiy til an'anasiga aylana bordi. Chunki keyinchalik Chig'atoy davlati tuzilgan hududdagi qabilalar asosan **dz** tovushini ishlatdilar. SHuning uchun XII–XIV asr yodgorliklari kuzdan kechirilsa, **dz** belgisi dialektning ustun darajada ekanligini ko'rish mumkin.

XII asrda mo'g'ul qabilalarining ta'siri natijasida Xorazm aholisining turkiy tilga o'tish jarayoni tugallandi. XII asrning oxiri XIV asrning boshlarida turkiy tillarda so'zlovchi aholi nufuzi cho'l rayonlarida va qishloqlardagina emas, balki Toshkent, O'zgan, Qashg'ar, Sayram, Balosog'un hamda Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda ham ortdi. SHu bilan bir qatorda, badiiy adabiyot tilida kitobiy tilga nisbatan jonli xalq tiliga murojaat qilish kuchaydi.

Bundan tashqari, XII–XIV asrlarda Xorazmni ham o'ziga qo'shib olgan Oltin O'rda davlati tuzildi. Oltin O'rdaning bir qismi bo'lgan Xorazmda adabiy til qipchoq-o'g'uz tili unsurlari asosida rivojlandi; Xorazm orkali Oltin O'rda davlatining ta'siri Movarounnahrda kuchaydi. Natijada XIV asrga kelib O'rta Osiyoning markaziy qismi bilan Qashg'ar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy aloqalar uzildi.

O'zbek elatining shakllanishi va tilining taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omil bo'lgan xalqning o'troq qismi bilan ko'chmanchi qismi o'rtasida munosabat va aloqa ancha kuchaydi. Hatto, ko'chmanchi o'zbeklar O'zbekxon boshchiligida XIV asrning boshlarida Movarounnahrda bir necha marta yurish qildi. Bu yurishlar Abulxayrxon va uning nabirasi SHayboniyxon XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ancha kuchaydi.

Ana shu tarixiy jarayon natijasida qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan, X–XII asr yodgorliklarida aks etgan, XII asr oxiri va XIV asr boshlarida kitobiy til an'anasiga aylangan **dz**-belgisi dialektda birmuncha o'zgarishlar yuz berdi. XIV asrda g'arbiy adabiy til an'anasida deb atalgan til ta'sirida yozilgan yozma yodgorliklar tilida **dz** tovushining qo'llanishi kamayib, uning o'rniga **y** tovushi ishlatila boshlaydi. Bu hol «O'g'uznoma» afsonasida va Oltin O'rda tsikliga kiruvchi asarlar tilida o'z ifodasini topgan.

YUqoridagilardan tashqari, qarluq-chigil-uyg'ur mushtarak tili g'arbiy turkiy tillarga ham ta'sir o'tkazgan. Bu ta'sir mo'g'ullargacha ancha kuchli bo'lgan, mo'g'ullar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdan boshlab susaygan. SHarqiy adabiy tilning susayishi bilan g'arbiy adabiy til yoki N. A. Baskakov atamasi bilan aytganda «Qarluq-xorazm kichik guruhi» adabiy tilining taraqqiyoti boshlanadi.

N. A. Baskakov fikricha, qarluq-xorazm guruh adabiy tili keyinchalik eski o'zbek adabiy tiliga asos bo'ldi. Ungacha u qarluq-xorazm adabiy tili shaklidagi, xorazm adabiy tiliga asoslangan Oltin O'rda adabiy tili shaklidagi, qoraxoniylar va Oltin O'rda tilining qo'shilishidan paydo bo'lgan chig'atoy adabiy tili shaklidagi bosqichni bosib o'tdi.

Qarluq-xorazm adabiy tili haqida. O'zbek tilining qarluq-xorazm adabiy tili qoraxoniylar davlati qulagandan keyin Xorazmda rivojlandi. Qarluq-xorazm

adabiy tilida qarluq-uygʻur va gʻarbiy tillarga xos xususiyatlar mavjud. Qarluq-xorazm adabiy tili moʻgʻullar istilosidan soʻng bir-biriga yaqin ikkita adabiy tilning shakllanishiga sabab boʻldi. Ulardan biri Oltin Oʻrda yoki Xorazm adabiy tili boʻlib, ikkinchisi CHigʻatoy ulusining tilidir. Qarluq-xorazm adabiy tilining yodgorligi sifatida Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat»ini, «Qissai Rabgʻuziy» asari va Alining «Qissai YUsof» dostonini koʻrsatish mumkin.

Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat»i va uning tili. Ahmad YAssaviy soʻz sanʼatidan foydalanib, tarkidunyochilikni targʻib qiluvchi sheʼrlar yozdi va «Devoni hikmat» toʻplamini tuzdi. «Devoni hikmat»ning qoʻlyozma nusxalari ham, bosma nusxalari ham bir-biridan farq qiladi. Bu nusxalar hatto til va uslub jihatidan xam farqlanadn. «Devoni hikmat»ning birorta nusxasining tili XII asr oʻzbek tilining yodgorligi boʻla olmaydi. Chunki Ahmad YAssaviy hikmatlari kitobdan-kitobga, ogʻizdan-ogʻizga oʻtish natijasida oʻz asl tilini oʻzgartirib, keyingi davrlarning tiliga muvofiqlashib borgan. Bu oʻzgarishlar sheʼrlarning miqdori va hajmiga ham, til va uslubiga ham taalluqlidir. Asarning «Devoni hikmat» toʻplami yassavizm tantanasi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda, yaʼni XV–XVI asrlarda tartib qilinganligi va yuqoridagi kabi oʻzgarishlarga uchraganligi sababli undagi sheʼrlarning qaysilari oʻzgalarniki ekanligi maʼlum emas.

Ahmad YAssaviy «Hikmatlar»ining tili haqida ham turli xil fikrlar mavjud. A. K. Borovkov Ahmad YAssaviy «Hikmatlar»i qarluq-uygʻur tilida yozilgan boʻlib, «Qutadgʻu bilig» tiliga yaqinlashmaydi, deb taʼkidlasa, G. Vamberi «Hikmatlar» tili Qoʻqon xonligi lahjasiga asoslangan, deydi. Turk olimi M. F. Koʻprulizoda esa Ahmad YAssaviyni argʻu urugʻining vakili deb, uning tilida qisman oʻgʻuz tilining taʼsiri bor va «Devoni hikmat» ning tili «Qutadgʻu bilig» asariga yaqin turuvchi til, deb koʻrsatadi.

A.K. Borovkovning fikricha, YAssaviy «Hikmatlar»ining tili qarluq-qipchoq-oʻgʻuz tili asosida rivojlangan. Lekin YAssaviy «Hikmatlar»ining oʻzgarishga uchragan tili bu fikrni isbotlash uchun imkon bermaydi. «Hikmatlar»ning saqlanib qolgan matnlari asosida quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

«Hikmatlar» tilida mahalliy dialektal xususiyatlar mavjud, yaʼni «Devoni hikmat»ni koʻchirgan kishi qaysi sheva vakili boʻlsa, uning tilida oʻsha dialekt xususiyati oʻz ifodasini topgan. Jonli oʻzbek tili shevalarida qaratqich va tushum kelishigi uchun **-ni** shakli qoʻllanadi. Bu hol YAssaviy «Hikmatlar»ida ham uchraydi.

Buyruq feʼliining ikkinchi shaxs birlik shakli **-gʻil/-gil, -gʻin/-gin** qoʻshimchalari orqali hosil qilinadi. Masalan *körgil– körgin, salgʻıl – salgʻın, qılğıl – qılğın* kabi.

Lokativ kelishiklarda, boshqa shevalardagi kabi, bir **n** tovushi orttiriladi. XV–XVI asrlarga oid yozma yodgorliklarning koʻpchiligida bu hodisa yoʻq.

Demak, Ahmad YAssaviy «Hikmatlar»ida ikki dialektal qutb birlashgan. Masalan:

*Asarlari ilkinda hikmat qoʻri belinda,
Idzim yodi tilinda ollo degan darvishlar.*

Bundan tashqari, «Hikmatlar» tilida arabcha-forscha unsurlar ham koʻplab koʻllangan. «Hikmatlar»dagi forsha unsurlar fors tilining taʼsirida paydo boʻlgan. Masalan, *Hamma kas voy dedi, ey koʻksi baland, du olam; roʻyi siyoh; bad kardamu bad kardam; kundan-kunga ziyod* kabi. SHuningdek, «Hikmatlar» tilida forsha izofat qurilmasi, fors tili uchun xarakterli boʻlgan u bogʻlovchisi bilan kelgan qurilmalar ham koʻplab uchraydi: *rizqi farovon, ahdi vafo, roʻzi mahshar, xoki poyi, dogʻu hasrat, molu mulk, jonu dilim, ichu tashim, togʻu tosh* kabi.

Forscha unsurlar «Hikmatlar»ning keyingi davrlarda koʻchirilgan nusxalarida yana xam koʻp qoʻllangan. P.M.Melioranskiy aytganidek, „Devoni hikmat“ tildan tilga, kitobdan kitobga, oʻtish jarayonida til jihatdan zamonaviylashib borgan.

„Hikmatlar“da quyidagi arxaik soʻzlar uchraydi: *qayu* (qaysi), *qamugʻ* (hamma), *ilig* (qoʻl), *ay*-(aytmoq), *arīgʻ* (toza), *uchmaq* (jannat), *idzi* (xudo), *yazuq* (gunoh), *nāchuk* (qanday), *emgāksizin* (mashaqqatsiz). Bu kabi leksik unsurlar XIV–XVI asr yodgorliklarida ham koʻp ishlatilgan.

Fonetik jihatdan soʻzlarnint oxirida gʻ tovushining kelish hollari uchraydi: *tufragʻ*, - *tanīgʻ*, *qamugʻ*, *chiragʻ*, *ulugʻ* kabi. SHuniigdek, *-līgʻ/-ligʻ/-lugʻ/-lugʻ* qoʻshimchasi bilan yasalgan nisbiy sifatlar ham qoʻllangan: *Haqiqatlīgʻ*, *uyqulugʻ*, *qaygʻulugʻ*, *oʻnglugʻ*, *soʻnglugʻ*, *soʻflīgʻ*.

Bu xususiyatlar qadimgi Oʻrxun-Enisey yodnomalarida, „Qutadgʻu bilig“, „Qisasi Rabgʻuziy“ kabi XI–XIV asrlarga oid asarlarda va XV asr yodgorliklarida ham bor. Lekin keyangi davrlarda gʻ oʻrnida koʻpikcha q tovushi ishlatilgan. Bu „Hikmatgʻ lar“ning keyingi nusxalarida koʻrinadi.

Ravishdoshning XV asrdan oldingi davrlarga oid yozma manbalarda faol qoʻllangan *u(-yu)* qoʻshimchali (*baru*–borib, *bashlayu*–boshlab, *ishläyu*–ishlab kabi) shakli „Hikmatlar“da ancha kam qoʻllangan.

„Hikmatlar“da *-yur* qoʻshimchali (*bashlayur*, *ishläyür* kabi) sifatdosh shaklining ishlatilishi ham ancha chegaralangan.

SHarqiy adabiy til uchun xarakterli boʻlgan *-gʻu/-gu* qoʻshimchali (*bargʻum*, *kelgum* kabi) kelasi zamon feʼli, *-mīsh/-mish* qoʻshimchali (*barmīsham*, *kelmishem* kabi) bir qator shakllar „Hikmatlar“da ham faol qoʻllangan.

„Hikmatlar“da baʼzi dialektal soʻzlar ham uchraydi: *yaqīn*, *yavuq* (yaqin) *öñ-sol* (har tomon) kabi.

„Hikmatlar“da arxiak unsurlar ham mavjud. Bu arxaik unsurlar hikmatlarning, qisman boʻlsa-da, dastlabki holatini aniqlashga imkon beradi. „Hikmatlar“dagi arxaik unsurlar originaldan saqlanib qolgan boʻlib, ular YAssaviy tiliga xos xususiyatlarni belgilashda material boʻlib xizmat qiladi.

„Hikmatlar“da qayta-qayta takrorlanib kelgan *arsh*, *vahdaniyat*, *gunah*, *dozax*, *yazuq*, *zikr*, *mahshar*, *axiratʻ ayat*, *pir*, *sirat*, *subhan*, *fana*, *xaliq*, *qismat*, *hayb*, *hadis*, *haq* kabi bevosita din va tasavvufga doir soʻz hamda atamalarning juda koʻp ishlatilishi „Devoni hikmat“ tili uchun xarakterli xususiyatdir.

Umuman, YAssaviy hikmatlarining tili qarluq-xorazm adabiy til anʼanasiga borib taqaladi. Hikmatlarning keyingi nusxalarining tili esa eski oʻzbek tili taraqqiyotini koʻrsatuvchi manba hisoblanadi.

«Qisasi Rabgʻuziy» asarining tili va uslubi. Moʻgʻullar istilosi diniy reaksiyaning kuchayishiga olib keldi. Bu hol badiiy adabiyotga ham taʼsir qildi.

Ko'pchilik yozuvchilar diniy mistikaga berilib, diniy qonunlarni xalqqa tushunarli tilda yoritishga harakat qildilar. Bunda ular qissa janridan foydalandilar. Qissalarda so'zlashuv tiliga murojaat qila boshladilar. Natijada xalq tiliga xos unsurlar ayrim diniy-afsonaviy syujet asosida yozilgan asarlar uslubiga kirib qoldi. Bu jihatdan Alining «Qissai YUsuf» dostoni va Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari xarakterlidir.

Rabg'uziy XII asrning oxiri va XIV asrning boshlarida yashagan. Uning bizgacha «Qisasi Rabg'uziy» asari etib kelgan. Bu asar o'sha davr tilini o'rganish uchun etarlicha ma'lumot beradi. Asardagi 72 qissa «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujet asosida yaratilgan. Rabg'uziy bu asari orqali islom dinini targ'ib qiladi va uni xalqqa tushunarli bo'lishi uchun xalq so'zlashuv tili asosida yozadi. U kitobiy til bilan xalq tilini bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Asarda xalq og'zaki ijodidagi qissa va latifalar uslubi ustun darajada o'z ifodasini topadi. «Qisasi Rabg'uziy» xalq ertaklariga xos uslubda yozilgan, ya'ni «qissadan hissa» chiqarishga harakat qilingan. Xalq maqollaridan ham ustalik bilan foydalanilgan. Bular Rabg'uziyning bayon etish uslubini o'ta darajada soddalashtirganini ko'rsatadi.

«Qisasi Rabg'uziy» asari fonetik jihatdan **dz**- belgili dialektning chegaralanib, **y**- belgili dialektning ustunlashgan davriga to'g'ri keladi. Masalan: asarda *adzaq* (oyoq), *kedzin* (keyin) tipdagi so'zlar ba'zan *ayaq*, *keyin* shaklida ham qo'llangan.

Morfologik jihatdan «Qisasi Rabg'uziy» asarining tili «Tafsir» tiliga yaqin.

Qaratqich kelishigining **-nīng /ning//nung/ -nung yoki -īng /ing//ung/ -ung** shakllari mavjud: *Arabnung adati bar. Ul o'lang evleri*. Tushum kelishigi **-nī /-ni/ -n** qo'shimchalarga ega: *Bir adzaqin kesdilar.*

Jo'nalish kelishigi **-g'a/gä//qa//kä, a/-ä** kabi qo'shimchalar bilan ifodalanadi: *yazīqa* (dalaga), *vazirina*, *eligina* (qo'liga), *evigä* (uyiga), *qavmunga* (xalqiga), *ag'zīg'a* (og'ziga) kabi.

CHiqish kelishigi qo'shimchasi **-dīn /-din//-tīn/ -tin, -dan/dän/ /-tan/ -tūn** fermalarda ishlatilgan: *tupraqdin, yīraqtīn, ko'ktin, zindandan, kundan, chīqīshtan, yemishtan* kabi.

Kishilik olmoshlariga chiqish kelishigi qo'shimchasi qo'shilishidan oldin qaratqich kelishigi qo'shimchasi qo'shiladi: *bizingdin qachdīng, sizingdin kedzin* kabi.

Jo'nalish kelishigining **-g'aru/-garu** qo'shimchali shakli ham uchraydi: *qayerg'aru barursen* (qaerga boryapsan), *artqaru baqtī* (orqaga qaradi).

Asar tilida *tegrü, tegi, tegin, teginch, uchun, beri, kedzin, qatinda* kabi so'ng ko'makchilar ishlatilgan: *yerning asting'a teginch* (erning ostigacha), *kökka tegincha* (osmongacha), *on yīldan beru, anda kedzin*.

Asarda *oshul, mundag', andag'* kabi ko'rsatish, *qayu, qay, qayu, erse, qanda, neluk, necha* ka'bi so'roq, *öz, kandü* o'zlik olmoshlari qo'llangan.

Jamlovchi sonlar **-ägü** qo'shimchasi bilan, tartib son **-inch** qo'shimchasi bilan ifodalanadi: *ikägü, üçägü, birinch, ikinch* kabi.

Asar tilida sifatdoshning **-g'lī /-gli** (*barīg'lī, keligli* kabi), **-duq/ -duk** (*barduq, keldchk* kabi), **-mīsh/-mish** (*barmīsh, kelmish*, kabi) qo'shimchali shakllari, ravishdoshning **-īban/-iban** qo'shimchali (*barīban, keliben* kabi) shakli, -

madīn/-madīn qo'shimchali (*barmadīn, kelmadin* kabi) bo'lishsiz shakluidi va boshqa bir qator qadimgi shakllar iste'molda bo'lgan. Kelasi zamon fe'lining -*g'u/-gu* (*barg'um, kelgūm* kabi), -*g'ay/-gay* (*barg'aymen, kelgayman* kabi) qo'shimchali shakllari keng ko'lingan. Aniq o'tgan zamon fe'lining I shaxs ko'pligini hosil qilishda shaxs-son qo'shimchalaridan -*q/k* va -*mīz/-miz* parallel ishlatilgan: *barduq – bardīmīz, keldūk–keldimiz* kabi.

Alining «Qissai YUsuf» dostonining til xususiyatlari. Ali YUsuf va Zulayho haqidagi diniy-afsonaviy syujetni ijodiy qayta ishlab, unga dunyoviy ruh berib o'g'uz dialekta xususiyatlari ustun bo'lgan adabiy tilda «Qissai YUsuf» dostonini yozadi. Prof. K.Brokkelman «Qissai Yusuf» dostoni va uning til xususiyatlarini o'rganib qimmatli fikrlar bildiradi. U qissaning leksik xususiyatlarini qunidagncha tekshiradi: dostondan 198 ta so'z oladi va shundan 73 tasi turkcha, 63 tasi turkistoncha va uyg'urcha, 10 tasi tatarcha va boshqa tillarning so'zlari ekanligini ko'rsatadi.

K.Brokkelman «Qissai Yusuf»ni usmonli turk adabiyotining yodgorligi deb ataydi. Qissaning til xususiyatlari bu fikrni tasdiqlamaydi. K. Brokkelman qissa leksikasini tasnif qilishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi. U barcha turkiy tillarda ishlatiladigan ba'zi so'zlarni bitta guruhga kiritadi. K.Brokkelman «Qissai YUsuf» leksikasini quyidagicha guruhlaydi:

1. Sharkiy-Turkiston va uyg'urcha so'zlar.
2. Turkcha va tatarcha so'zlar.
3. Turkcha, tatarcha va qrim-tatarcha so'zlar.
4. Turkcha va qrim-tatarcha so'zlar.
5. Sof turkcha (usmonli turkcha) so'zlar.

K. Brokkelman sof turkcha so'zlarga *alqīshla-* (tabriklamok) so'zini kiritadi. Aslida esa bu so'z boshqa turkiy tillarda ham mavjud: turkmancha *alqīshlamoq*, ozarbayjoncha *al chalīb alqīshlamoq*, o'zbekcha *olqishlamoq*, uyg'urcha *alqus* kabi.

«Qissai Yusuf» tilidagi ba'zi so'zlarni qiyoslash orqali dostonning qaysi til yodgorligi ekanini bilish mumkin:

„Qissai Yusuf“ da berilgan sof turkcha deb atalgan so'zlar *ünjütmak* – g'amxo'r bo'lmoq *urg'on* – ip, kanop *üşmāk*– to'planmoq *bulashtır*– suvamoq *tag'ıl*– uloqtirmoq, sochmoq – kuzatmoq

Qiyoslash orqali «Qissai YUsuf» usmonli turk tilining yodgorligi emas, balki uning kelib chiqish ildizlarini O'rta Osiyodan axtarish kerak, degan xulosaga kelindi. «Qissai YUsuf» tilidagi SHarqiy Turkiston tiliga xos morfologik unsurlar ham bu fikrni isbotlaydi.

„Qissai YUsuf“da qurol-vosita kelishigi qo'shimchasi -*n* *kōzin*–ko'z bilan, *dilin*–yurak bilan), jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -*g'a/-gä*, -*a/-ä* qaratqich kelishigi qo'shimchasi -*nīng/-ning*, -*īng/-ing* tarzida qo'llangan.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li „Qissai YUsuf“da *uram* (uraman), *qīlam* (qilaman), *achman* (ochmayman), *öldirävüz* (o'ldiramiz), *qilavuz* (qilamiz), *saqlavuz* (saqlaymiz) tarzida ishlatilgan. Bu o'zbek tilining Qarshi shevasi uchun normal holdir.

„Tafsir“ va boshqa yodgorliklardagi kabi „Qissai YUusuf“da sifatdosh **-duq/-duq** qo‘shimchasi orqali yasalgan. „Qissai YUusuf“ ning ulardan farqli tomoni shundaki, unda **-duq/-duk** qo‘shimchali sifatdoshga **-cha/-chä** qo‘shish bilan ravishdosh hosil qilinadi: *ögdükitä* (imkoniyati boricha maqtab) kabi.

Bundan tashqari, asarda ravishdoshning **-a/-ä** (*bara, kelä* kabi), **-u/-u(-yu/-yu)** (*baru, kelü, bashlayu, sözläyü* kabi), **-ī/-ī** (*barī, keli* kabi) qo‘shimchali shakllari parallel qo‘llangan.

Qissa tilida *birle, ile, bikin, taba, qat* kabi so‘ng ko‘makchilar ham uchraydi.

Umuman, «Qissai YUusuf» afsonasi tilidagi janubi-g‘arbiy yoki o‘g‘uz-turkman tili unsurlariga asoslanib, uni O‘rta Osiyo xalqlarining yodgorligi deyish mumkin.

CHig‘atoy ulusining adabiy tili. XII asrda mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Movarounnahrda CHig‘atoy davlati tuzildi. Bu davlat idora ishlarini olib borishda qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi va Xorazmdagi adabiy tilga murojaat qiladi. Lekin ko‘proq qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi tildan foydalanadilar. SHuning uchun bu tilga ma‘lum darajada qarluq-uyg‘ur tili xususiyatlari singib qoldi. CHig‘atoy ulusining adabiy tili yodgorliklarida kadimgi kitobiy **d** tovushi o‘rnida **z** va **y** undoshlari qo‘llandi. Bundan tashqari, ba‘zi asarlar tilida turkman, ba‘zilarida uyg‘ur tili xususiyatlari uchraydi. «Muqaddimatul adab», «YUusuf va Zulayho», «Ravnaqul islom», «O‘g‘uznoma» kabi asarlar chig‘atoy ulusi adabiy tilining yodgorliklaridir.

Qarluq-uyg‘ur tili taraqqiyotida «O‘g‘uznoma» asarining roli. CHingizxon istilosining dahshatli oqibatlarini, xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi badiiy adabiyotda o‘z ifodasini topdi. O‘rta Osiyo turkiy xalqlari, xususan, o‘g‘uz va qarluq-uyg‘ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan «O‘g‘uznoma» afsonasining qaysi davrda va qaerda ko‘chirilganligi noma‘lum.

Asar mazmuni uning qaysi davrda yaratilganligini aniqlash imkonini beradi. Lekin uning qaysi davrda yaratilganligi haqida har xil fikrlar mavjud: N.M.Mallaevning fikricha, «O‘g‘uznoma» XII asrda yoki XIV asr boshlarida kitobat qilingan, A.M.SHcherbakning taxminicha, XV asrda Ettisuvda ko‘chirilgan. Tojik tarixchilaridan Xondamir va o‘zbek tarixchilaridan Abulg‘ozi Bahodirxon «O‘g‘uznoma» afsonasini Aleksandr Makedonskiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda yaratilgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladilar. Prof. S.P.Tolstov bu afsonali skiflar afsonasi deb ataydi.

«O‘g‘uznoma»da qadim zamonlarda vujudga kelgan mifologik afsonalar bilan birga, dahshatli istilo va urushlar tasviri berilgan. Bular CHingiz istilosi va u olib borgan urushlar tasviri bo‘lishi mumkin. Asar tilidagi mo‘g‘ul unsurlari ham shundan darak beradi. I.Markvart shularni nazarda tutib, O‘g‘uz CHingiz bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi. G.N.Potanin va A.M.SHcherbakning O‘g‘uz mifik obrazdir, degan fikri haqiqatga yaqin bo‘lishi mumkin, chunki «O‘g‘uznoma» afsonasida XII–XIV asrlardagi voqealar ham o‘z ifodasini topgan.

Asar tilida eski uyg‘ur tiliga xos fonetik, shuningdek, morfologik va leksik xususiyatlar uchraydi. SHuning uchun ham Rizo Nur bu afsonani eng qadimgi uyg‘ur tili XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda yaratilgan, deydi. U o‘z fikrini tasdiqlash uchun afsona tilidagi ba‘zi xususiyatlarni ko‘rsatadi. Masalan, so‘zning

negizida kelgan orqa qator qattiq unlilar o'rtasida *g'* tovushining kelishi: *qag'an*, *shag'am*, *qag'atir*, *sug'i*, *chirag'i* kabi. Haqiqatda esa, lingvistik nuqtai nazaridan yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan hattot so'z o'rtasidagi unli tovushni cho'ziq talaffuz etish maqsadida hamza quyib yozgan bo'lishi mumkin. Lekin ko'chirib yozuvchi hamza belgisini *g'* deb o'qigan bo'lishi mumkin. So'z o'rtasidagi unlini cho'ziq talaffuz qilish esa XII–XIV asr tilida mavjud edi.

«O'g'uznoma» tilida uchraydigan ba'zi qipchoq tili unsurlariga asoslanib, P.Pello uni qirg'izlar yashovchi hududda yozilgan, deydi. Bu fikrni V.V.Bartold ham quvvatlaydi.

Umuman, afsona tilida O'rta Osiyo va SHarkiy Turkistonda mavjud bo'lgan qarluq-uyg'ur, o'g'uz qabila ittifoqi tili xususiyatlari uchraydi.

«O'g'uznoma»ning tili «Qutadg'u bilig» tili bilan chog'ishtirilsa, qarluq-uyg'ur tiliga xos xususiyatlar aniq ko'rinadi. Unda «Qutadg'u bilig» asaridagi kabi quyidagi xususiyatlar mavjud:

Afsona tilida yarim qisqa *e* unlisi mavjud. So'z oxirida qisqa va keng unlilardan so'ng til orqa tovushi *g'* saqlanadi: *adug'*, *tirig*, *tag'*, *ulug'* kabi.

So'z o'rtasida keluvchi *d* va *y* tovushlari almashinib turadi: *adug'* – *ayug'*, *adg'ir* – *ayg'ir* kabi.

Asar tilida o'ziga xos jamlik bildiruvchi sonlar bor: *uchägü*, *ikägün*, *beshägü* kabi. **-sh(-ish/-ish)** qo'shimchasi bilan hosil bo'luvchi harakat nomlari ko'p qo'llanadi. Aniqlav-ko'rsatish ma'nosini bildiruvchi *oshul*, *oshbu* olmoshlari ham ko'p qo'llangan. „Qutadg'u bilig" asarida ko'p uchraydigan *el kun v a el buduni* birikmalaridan afsonada faqat *el kün* birikmasi uchraydi.

„O'g'uznoma" afsonasida X–XII asr yodgorliklaridagi tushum kelishigi qo'shimchasi **ig'/-ig** va qurol-vosita kelishigi qo'shimchasi *-in/-in* tarzida keladi. Leksik jihatdan M.Koshg'ariy ^{ya}Devon"idagi ko'pchilik turkiy so'zlar o'rnida mo'g'ulcha so'zlar ishlatiladi. Masalan: *jida* (kopyo), *muran* (daryo), *taluy*, *talay* (dengiz), *chaq*, *chag'* (vaqt), *chong* (chap), *amrak* (yaxshi o'rtoq), *uran* (parol), *shira* (st:ol) kabi.

Afsona tiliga bunday so'zlarning mo'g'ul tilidan kirib kelganligi aniq. Ayniqsa, afsonada harbiy sohaga tegishli so'zlar ko'p. Bundan tashqari, sof mo'g'ulcha kishi nomlari (*Temürtu Qag'ül*) ham uchraydi.

Umuman, «O'g'uznoma» XII–XIV asrlarda yozilgan bo'lib, unda qarluq-uyg'ur, o'g'uz tili xususiyatlari uz ifodasini topgan. «O'g'uznoma» asarining tilini eski o'zbek tili bilan qarluq-uyg'ur tilini bir-biriga borlovchi vosita deb qarash kerak.

Oltin O'rda adabiy tili haqida. Oltin O'rda adabiy tili Xorazm adabiy tili ta'sirida rivojlandi. SHuning uchun Oltin O'rda tsikliga kiruvchi yodgorliklar ko'pchilik adabiyotlarda Xorazm yodnomalari deb ham yuritiladi. Xorazm yodgorliklarida qadimgi kitobiy til hamda o'g'uz, qipchoq unsurlarining aralashganligini ko'ramiz.

Xorazm yodgorliklari umumiy bir adabiy normaga ega emas. Natijada ularning yozilgan o'rni va muallifiga ko'ra fonetikasi, grammatik qurilishi va leksikasida har xillik ko'rinadi. Masalan, «Muhabbatnoma» va «Nahjul Farodis»da o'g'uz va qipchoq unsurlari aralash holda qo'llaniladi. «Xisrav va SHirin» hamda

«Mirojnoma»da o'g'uz, qipchoq tillari bilan birga, qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi tilning ta'siri ham bor.

Umuman, Xorazm yodgorliklarining xarakterli xususiyati sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Fonetik jihatdan **z**, **d** undoshlari o'rnida **y** undoshi qo'llangan: *azg'ir* – *adg'ir* emas, balki *ayg'ir* tarzida ishlatilgan. Unlilar konvergentsiyasi natijasida. indefferent **i** unlisi paydo bo'lgan. Tushum kelyshigyning **-nī/-ni** shakli qo'llangan. Masalan, *xiradnī azdurur g'amzang xumarī*, («Muhabbatnoma»).

Unlilarning palatal singarmonizmi, qisman lab garmoniyasi ham saqlangan. Fe'l va ot yasovchi shakllarning qarluq-o'g'uz tiliga tegishli qo'shimchalari parallel qo'llangan. Masalan, harakat nomi yasashda **-g'uluq/-Guluk**, **-maq/-mäk**, **-maqlnq /-mäklik** qo'shimchalari, sifatdosh yasashda **-g'u/-gu**, **-ajaq/-äjäk** qo'shimchalari ishlatilgan. Lug'at tarkibining ko'pchiligini o'g'uz, qipchoq va arabcha unsurlar tashkil qiladi.

Qutbning «Xisrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq tili. Mo'g'ullar istibdodi O'rta Osiyo xalqlari bilan Kavkaz xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarga barham bera olmadi. Xorazmlik shoir Qutb tomonidan Ozarbayjon shoiri Nizomiyning «Xisrav va SHirin» dostonining fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi ana shu aloqaning muhim mahsulidir.

Qutbning «Xisrav va SHirin» dostoni XIV asr o'zbek adabiy tili taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi va Xorazm lahjasi xususiyatlari ustun bo'lgan adabiy til yodgorligidir.

Fors tilida bitilgan «Xisrav va Shirin» dostonini o'zbek tiliga tarjima qilish tarjimondan o'zbek tili boyligini yaxshi bilishni talab qilar edi. Doston tarjimasi Qutbning o'zbek tili boyliklarini, uning uziga xos xususiyatlarini mukammal egallaganligini ko'rsatadi. Qutb tarjimasida forscha so'zlar xiyla saqlangan bo'lsa ham, lekin dostonni sodda til va ravon uslub bilan tarjima qilishga erishdi.

Qutb Nizomiy misralarini so'zma-so'z tarjima qilmaydi, balki uni o'zbek tili boyliklaridan unumli foydalangan holda tarjima qiladi. U obrazli so'z va iboralarini tarjima qilar ekan, ularning mohiyatiga mos keladigan xalq maqollari va ta'birlarini o'ylab topadi. Qutb xalq maqollarini aynan ishlatmay, uning mazmunini she'riy misralarga singdirib yuboradi. Qutb ishlatgan xalq maqollari ba'zi o'zgarishlar bilan hozir ham qo'llaniladi. Masalan: *Anglamaz ag'u yutar* – Anglamay so'zlagan, og'rimay o'lar. *Qara xat üzrā qara tuz ekildi*–YAraga qora tuz bosildi kabilar. Bular natijasida dostonning mazmuni, obrazlilik va tilini boyitishga erishiladi.

Qutbning „Xisrav va SHirin" dostoni til xususiyati jihatdan Oltin O'rda tsikliga kiruvchi „Muhabbatnoma", „Taashshuqnoma" kabi poetik asarlar tilidan farq qiladi. Doston tilida Oltin O'rda tsikliga kiruvchi yodgorliklarning til xususiyatlarini ham, qoraxoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi yodgorliklarning til xususiyatlarini ham uchratamiz.

Qutbning „Xisrav va SHirin" dostonida fonetik jihatdan. tish orasida paydo bo'luvchi **dz** tovushi keng qo'llangan. Masalan: *bedziük* (baland), *idzi* (janob), *edzgü* (yaxshi), *adzaqin* (oyog'ini), *qudzuq* (quduq), *qodzub* (qo'yib), *qadzg'u*

(qayg' u), *edzerleb* (egarlab). SHu bilan birga, **y** tovushi qo'llangan o'rinlar ham uchraydi: *Zamana taj kiydi sarīg' altun*.

Buyruq fe'lining uchinchi shaxs birlik qo'shimchasi **-su/-sü** shaklida ham qo'llangan: *kelsu* (kelsin), *yetsu* (etsin), *bolsu* (bo'lsin), *qalmasu* (qolmasin) kabi.

Ravishdosh yasovchi **-u/-u(-yu/-yu)** qo'shimchasi keng qo'llangan: *hal qīlu ber* (hal qilib ber), *izdeyü* (axtarib), *kelü bashladīlar* (kela boshladilar).

Buyruq-istak maylining I shaxs birlik va ko'pligi uchun **-ay /-äy/-ayīn/-yin, -ayīm/ -eyim, -g'aysh/-geyin, -gayīm/ -geyim, -alīng/-eling, -alīm/-elim, -g'alīng/-gäling, -galīm/-gälim** kabi qo'shimchalar bilan hosil bo'luvchi xilma-xil shakllar qo'llangan: *baray, keley; barayīn, keleyin, -barayīm, keleyim; barg'ayīn, kelgäyin; barg'ayīm, kelgäyim; baralīng, keläling, baralīm, kelälim, barg'alīng, kelgäling; barg'alim, keläelim* kabi.

SHart maylining I shaxs birligi uchun *alsam–alsamen* tipidagi, I shaxs ko'pligi uchun *alsan–alsamīz* tipidagi qisqargan va to'la shakllar parallel qo'llangan.

Dostonda *ikägü* (ikkalasi), *üchägü* (uchalasi) tipidagi jamlovchi son shakli, *ikinch* (ikkinchi), *üchinch* (uchinchi) tipidagi tartib son shakli ham iste'molda bo'lgan. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi chiqish kelishigi o'rnida ham qo'llangan: *anda song* (undan so'ng), *ketti engde alī* (yuzidan qizillik ketdi) kabi.

Qutbning „Xisrav va SHirin" dostoni Oltin O'rda tsikliga kiruvchi yodgorliklarning dastlab kisi hisoblanadi.

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari va uning til xususiyatlari

XIV asrga kelib o'zbek tilining nufuzi ancha oshdi va bu tilda ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan xalq tilida yozildi. Bu narsa noma va qissalardan aniq ko'rinadi. Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si shunday asarlardan biridir.

«Muhabbatnoma»ning arab va uyg'ur yozuvidagi ikkita qo'l yozma nusxasi bizgacha saqlangan bo'lib, ular til jihatdan ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasi 1959 yilda A. M. SHcherbak tomonidan, arab yozuvidagi nusxasi 1961 yilda E. Najip tomonidan nashr qilindi.

«Muhabbatnoma» asari 11 nomadan iborat bo'lib, bulardan sakkiztasi o'zbek tilida, uchta fors tilida yozilgan. Forscha nomalarning sarlavhalari ham o'zbekcha nomlangan, shuningdek, forscha nomalarni xotimalovchi bayt ham o'zbek tilida yozilgan.

O'zbek adabiy tilining ravnaq topishi, uning madaniy hayotda kengroq o'rin egallay borishi, o'zbek kitobxonlarining ehtiyoji va talabi fors tilidagi asarlari bilan shuhrat topgan Xorazmiyni o'z ona tilida – o'zbek tilida ijod etishga undadi. Bu tilda «Muhabbatnoma»dek katta badiiy asar yaratishga ilhomlantirdi. U o'zbek mumtoz adabiyotida ilk zullisonayn (ikki tilli) shoir bo'lib etishdi.

Xorazmiy asarning xalqqa tushunarli bo'lishi uchun o'sha davr tilidan ustalik bilan foydalandi. SHoir yor vasfi va oshiq kechinmalari tasvirida jonlantirish, tazod, tajohudi orifona (bilib bilmaslikka solish) kabi usullardan, xilma-xil badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalandi.

SHoir xalq tiliga xos o'xshatishni metafora va jonlantirish bilan bog'lab bera oldi:

*SHakkarmu erningiz ya qand, ya jan,
Uyalur la'lingizdīn abi hayvan.*

O'zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalangan shoir omonim so'zlar vositasi bilan original so'z uyinlari yaratdi:

*Ashar yeldin sening yelganda atīng,
Quyash yanglīg'. jahannī tuttī atīng (at–hayvon, at–nom).
Boyung sarvu sanavbartek, beling qīl,
Vafa qīlg'an kishilergā vafa qīl (qīl– sochning qili, qīl— qilmoq).*

Xorazmiy o'zbek tilining so'z boyligi va talaffuziga yaxshi e'tibor berish hamda g'azallarni bevosita muzika kuylariga moslab yaratish bilan she'riy misralarining ravon va ohangdor chiqishiga erishgan.

„Muhabbatnoma“ XIV asr adabiy tilining yodgorligi bo'lib, unda g'arbiy va janubiy tillarga xos xususiyatlar uchraydi. Masalan, jo'nalish kelishigi uchun **-g'a/-gū/-qa/-kū** qo'shimchali shakldan tashqari **-a/-ā** qo'shimchali shakl ham ancha keng qo'llan-gan: *elginā* (qo'liga), *goharina* (tavhariga), *mulkīna* (mulkiga), *dilistana* (dilistonga), *taṇa* (tanga) kabi. Tushum kelishigi uchun **-nī/-ni** qo'shimchali shakl bilan bir qatorda **-ī/-i** qo'shimchali shakl ham ishlatilgan: *kōnglumi*, (ko'nglimni), *ōzūmi* (o'zimni).

Asarda buyruq-istak maylining I shaxs ko'pligi uchun asosan **-alī/-āli** qo'shimchali shakli qo'llangan: *baralī*, *keleli*, kabi. Ravishdoshning **-īban/-iben** qo'shimchali (*barīban* – borib, *keliben*–kelib kabi) shakli, hozirgi-kelasi zamon fe'lining **-man/-men** qo'shimchali (*barman*–bormayman, *kelmen*–kelmayman) shakli, sifatning **-lī/-li/-lu/-lu** qo'shimchali (*tatlu* – shirin, *kōrklū-guzal*, *shirin sōzlū* shirin so'zli) shakli asar tili uchun xarakterli bo'lgan. Asarda ravishdoshning **-g'ach/-gach** qo'shimchali (*bargach*, *kelgāch*) shakli **-īsar/-isār** qo'shimchali (*bolusar* kabi) kelasi zamon fe'li, taqsim sonning **-ār** qo'shimchasi yordamida hosil bo'luvchi shakli (*birār*–bittadan) ham ishlatilgan. Asarda **tekin**, **bikin**, **yanglīg'//yanglīq**, **ashunu** kabi ko'makchilar ham qo'llanganki, bular ham asar tilining uziga xos belgilarini tashkil etadi.

„Muhabbatnoma“ tilini xarakterlashda asosiy rol ni o'ynovchi narsa uning leksik tarkibidir. Uning leksik tarkibida quyidagi so'zlar uchraydi: *shunqar* (burgut), *qapg'a* (tomchi), *boyla* (shunday qilib), *yuban* (ikkilanmoq), *ōkush* (ko'p), *ush* (u, bu, shu), *chingen* (o'tloq), *tiklik* (utqazilgan), *asru* (juda), *kokkābay* (go'zal), *qat* (tomon), *yaqtu* (yorug'), *yabut-* (yaqinlashmoq). *uram* (kucha), *qamuq* (hamma), *ūzrā* (ustida), *el sun-*(qo'l uzatmoq), *taqī* (yana), *tapuq* (xizmat), *tekme* (har bir), *iymān* (uyalmoq), *yula* (mash'al), *nelūk* (nima uchun), *qapuq* (eshik), *ashnu* (dastavval), *degūl* (inkor yuklamasi), *tālim* (ko'p), *uran* (xudo), *dudag'* (lab) kabilar.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, «Muhabbatnoma» asarida ham XII asrning oxiri va XIV asr boshlarida Xorazm va Movarounnahrda hukm surgan kitobiy-poetik til an'anasi davom ettirilgan. SHuning uchun ham unda qipchoq-o'g'uz tili unsurlari va qisman uyg'ur tili xususiyatlari mavjud.

«Muhabbatnoma» fonetik va morfologik jihatdan uziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, unda XIV asr yodnomalariga yaqinlashtiruvchi umumiy tomonlar ham bor. SHuning uchun ham bu asar XIV asr o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. U o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi hamda o'zbek adabiy tilining XV asrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilishiga zamin bo'ldi. Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida o'zbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus «meng» so'zi borligini aytib, «Muhabbatnoma»dagi quyidagi misralarni keltiradi:

Anīng kim al enginda meng yaratdī,

Boyī birla sachīnī teng yaratdī.

«Muhabbatnoma» misralarining «Muhokamatul-lug'atayn»da misol tariqasida keltirilishi uning til jihatidan xiyla boy ekanini ko'rsatadi.

SHunday qilib, «Xisrav va SHirin», «Muhabbatnoma» kabi asarlarda o'zbek adabiy tili «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» tilidagiga nisbatan sezilarli darajada taraqqiy qildi, xalq jonli tili asosida boyib bordi.

XI–XIV asrlardagi rasmiy hujjatlar tili va uslubi

XI–XIV asrlarda tuzilgan rasmiy hujjatlar tilida o'sha davr tiliga xos xususiyatlar o'z ifodasini topgan. X–XII asrlarga tegishli Idoraviy hujjatlar prof. S. E. Malov, XIV asrga tegishli. Buxoro hujjatlari O.D.CHexovich hamda XII–XIV asrlarga mansub xo'jalik yozuvlari E.R. Tenishev tomonidan nashr ettirildi.

Qadimgi uyg'urlarning xo'jalik hayoti yoritilgan X–XII asrlarga tegishli Idoraviy hujjatlar Turfon vodiysidan topildi.

„Uyg'urlarning Idoraviy hujjatlari" da o'sha davrga tegishli sotsial-iqtisodiy, davlat-Idoraviy, ijtimoiy-siyosiy hayotga tegishli atamalar uchraydi. Masalan: *alīm-birim* (soliq, to'lov), *aramay* (gullagan oy), *ākin* (ekin), *elchi* (elchi), *añiz//angiz* (haydaladigan er), *erk* (erk), *erklik* (to'la xo'jayinlik), *badīr* (hajm o'lchovi), *bag'līq* (paket), *baqsī* (qo'shnoch) *bas bitig* (mirzaboshi), *mingbeki* (mingboshi), *beklik* (beklik), *bil-* (to'liq xo'jayin bo'lmoq), *bas bitig* (asosiy hujjat), *bos bitig* (ishdan bo'shatish hujjati), *buyanju* (din xizmatkori), *jarīm jam*, (tortishuv), *ish* (ish), *ishi* (xonim), *yalavaj* (yuborilgan, elchi), *yen* (shakl, modda, qonun), *yege* (to'lov–arenda), *yanglarlīg'* (xodovoy, upotrebiteknīy), *kejir* (vaqtni.uzaytirmoq; kechir), *nishan* (pechat, belgi) (sotmoq, o'tkazmoq), *qaqīla* (pechatlamoq), *qalan* (bermoq), *qarī* (uzunlik o'lchovi; qarish), *salīr* (soliq), *satir* (sotmoq), *tamg'a* (pechat), *tushtush yimis* (aslda natija ma'nosida, Idoraviy hujjatda foiz) kabilar.

„Uyg'urlarning Idoraviy hujjatlari" deb atalgan bu yodnomalarda X–XII asrlarning til faktlari, ya'ni qadimgi turkiy til unsurlari mavjud. SHuningdek, o'zbek tili uchun tipik bo'lgan bir qancha so'zlar ham uchraydi. Masalan: *ekin* (ekin), *ilchi* (elchi), *erk* (erk), *ish* (ish), *tort* (to'rt), *urug'um turmushum* (mening qarindoshlarim), *yoru-* (yurmoq).

«Idoraviy hujjatlar» tili, umuman, xalq adabiy tiliga yaqin. Bu fikrni faqat leksik faktlarga emas, balki undagi fonetik, morfologik va sintaktik materiallar

ham tasdiqlaydi. «Idoraviy hujjatlar» tilida o'sha davrdagi SHarqiy Turkiston tili xususiyatlari xam mavjud. Bu tilning leksik va grammatik vositalaridan Idoraviy formulalarni ifodalashda foydalanilgan.

„Hujjatlar"da obrazli uslubiy vositalar uchramaydi. Masalan: *küsku yil altinjay on yangiqa manga – Qavsiduqa tüshke künjat kärgäk bolup, Il-Temirtin bir küri künjit altim. Küz iki küri künjit birürmân*–(Sichqon yili oltinchi oyining o'ninchi yangi kunida menga, ya'ni Qavsidga foiz hisobida kunjut kerak bo'lib, El Temirdan bir kuri (kuri– hajm o'lchovchi) kunjut oldim. Kuzda ikki kuri kunjut beraman).

Keltirilgan parchadan ham ko'rinib turibdiki, «hujjatlar» tili bir xil, sintaktik qurilmalarga egaligi bilan ham ajralib turadi.

XII–XIV asrlarga tegishli «xo'jalik yozuvlari» uzining leksik, morfologik xususiyatlari bilan «Idoraviy hujjatlar»dan qisman farq qiladi. «Idoraviy hujjatlar» va «xo'jalik yozuvlari» xalq tilida yozilgan bo'lsa ham, shakl jihatdan bir-biridan farq qiladi. «Idoraviy hujjatlar» chislo, quyiladigan shartlar, guvohlar va ularning imzosi tarzidagi shakl asosida tuzilgan bo'lsa, «xo'jalik yozuvlarida olinadigan narsalar va kim olishi uqtirilgan.

„Xo'jalik yozuvlari" xalq tiliga yaqin bo'lganligi uchun, unda xalq tilidagi savdo-sotiq, kundalik turmushga tegishli – eyish, ichish, kiyish bilan bog'liq atamalar ko'pdir: *al* (olmoq), *altun* (oltin), *altunlug'* (zarhal materiya), *asir* (foйда, foiz), *edük* (etik), *eshuk* (yopqich; pokrivalo), *etji* (qassob), *ev* (uy), *yalta* (plashch), *yang'i* (yangi), *yaqaliq* (yoqalik), *jushun* (shoyi xalat), *jumat* (xotinlar xalati), *yastuq* (yostiq), *yinju* (inju), *ying arizlir* (manjet), *monchuq/monchaq* (munchoq), *bichaq* (pichoq), *pilek* (sovg'a), *bor* (vino), *borluq* (uzumzor), *böz* (materiya, bo'z), *bözchi* (bo'zchi), *tavar* (qimmatbaho materiya), *tüsh* (foiz) kabi.

Ushbu hujjatlar tilida tushum kelishigi uchun **-ni/-ni** qo'shimchali shakl qo'llangan. CHiqish kelishigi qo'shimchasi **-tin/-tin, -tan/-tän** shakllarda ishlatilgan.

XIV asr **Buxoro hujjatlari** esa oldingi ikki hujjatdan farq qiladi. XIV asrdagi vaqfnomalar qurilish jihatdan ham farqlanadi. Vaqfnomalarning kirish qismida xudo va payg'ambarlarga madhiya o'qilgach, vaqfning Idoraviy mohiyati yoritiladi. So'ng vaqfga kiruvchi mol-mulk va erlarning chegarasi ko'rsatiladi. Oxiri vaqfning shartlari va imzo bilan tugallanadi.

Buxoro hujjatlarida xo'jalik, agrar va irrigatsiyaga tegishli atamalar uchraydi. Buxoro hujjatlari til xususiyatlari nuqtai nazardan kitobiy adabiy tilda yozilgan. Turkiy so'zlarga nisbatan arabcha, forsha so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: *amiri ob, sadri jahon, iftixori eshon, dyoh, rud, mulki kos, afdaq, amloki shirkati, jo'y, imorat, mavozi', vaqfnoma, fuqaro* kabi.

Ba'zan ayrim narsalar nomi arabcha, forsha va turkcha beriladi, masalan, *pora, qasaba, kushk, deh* kabi so'zlar qishloq, joy ma'nosida ishlatiladi.

XI–XIV asrlardagi rasmiy hujjatlar tili o'zbek tili taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir qildi.

Aralash dialekt xususiyatlarining «Tafsir»da aks etishi

Qadimgi o'zbek tili yozma yodgorliklari orasida o'zbek tili tarixini yorituvchi eng muhim manbalardan biri Qarshi shahridan topilgan «Tafsir» bo'lib, bu asar «O'rta Osiyo tafsiri» deb ham ataladi.

«Tafsir» til jihatdan mo'g'ullar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi o'zbek tiliga to'g'ri keladi. Lekin uning tilidagi ayrim arxaik unsurlar uni qadimgi turkiy adabiy tilga ham yaqinlashtiradi. «Tafsir» tilida XI–XIV asr o'zbek tilining xarakterli xususiyatlari aks etgan. Umuman, «Tafsir»da sharqiy adabiy til unsurlari ham, janubi-g'arbiy adabiy tili unsurlari ham uchraydi. Bu dialektal unsurlar «Tafsir» yozilgan paytda O'rta Osiyoda mavjud edi. SHuning uchun «Tafsir»ning yozilgan vaqtini va qaysi davrga tegishlilikini aniqlash murakkab. V. V. Bartold asarning til xususiyatlariga asoslanib, uni XI asrning mashhur didaktik asari «Qutadg'u bilig» XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda yozilgan, deydi. «Tafsir»da uchraydigan shimoliy turkiy leksik unsurlar «Qutadg'u bilig»da ham mavjud.

S.E.Malov «Tafsir» tilini XII asr yodgorligi «Hibatul haqoyiq» bilan bir qatarga qo'yib tekshirish kerak, deb uqtiradi. Fe'lning shart shakli tarixi bo'yicha kuzatish olib borgan E.R. Tenishev «Tafsir»ni XII asrda yaratilgan, deb hisoblaydi. A. K.Borovkov o'zining «Tafsir» haqidagi avvalgi ishida uni XIV–XV asrlarda yaratilgan, deb hisoblasa, keyingi ishida XI–XII asr yodgorligi, deb qaraydi. Bizningcha «Tafsir»ni XI–XIV asrlarning yodgorligi deb qarash kerak.

„Tafsir“da o'g'uz-turkman unsurlari sezilarli darajadadir. Bu narsa uning fonetikasida, ya'ni *t* tovushi o'rnida *d* tovushining kelishida ko'rinadi: *etkü*, *atlīg*–*adlīg* kabi.

„Tafsir“ tili bilan tanishib chiqqan akademik V. V. Bartold „Unda shimoliy, janubiy va turk tili unsurlari bilan aralash arxaik til faktlari uchraydi“ deb, uni aralash tilli asar hisoblaydi. Haqiqatan ham, „Tafsir“da aralash holat aniq ko'rinadi. Masalan, *xotin* so'zi ma'nosida *urag'ut*, *xatun*, *avrat*, *ayal*, *kishi*, *tishi* so'zlari; *qo'l* so'zi ma'nosida *el*, *elig*, *qolu*; *daryo* so'zi ma'nosida *aqar*, *ariq*, *irmaq*, *miñar*; *shahar* so'zi ma'nosida *el*, *kent*, *uram*, *shahar*, *shahrستان*; *quyi* so'zi ma'nosida *asra*, *altīn*, *ashaqi*, *qudzīq/quyi* kabi so'zlar qo'llanadi.

Kelib chiqishi xar xil bo'lgan so'zlar „Tafsir“da ko'plab uchraydi. Masalan, *telim*, *ukush*, *kop* (ko'p); *ertü*, *qani* (to'g'ri).

Kelib chiqishi turlicha bo'lgan so'zlar sinonimik qatorlar hosil kiladi, juft so'z birikmasini tashkil qiladi. Ular ba'zan *ya'ni* so'zi vositasida birikadi. Bunday so'z birikmalari „Tafsir“ tili uchun xarakterlidir. Masalan: *ev barq* (uy), *qan qadash* (qon-qarindosh), *kend-ulus* (shahar), *ortaq yosh* (hamnafas), *bachīg*, *ya'ni shahadat*– (guvohnoma), *ekin*, *ya'ni dana* (ekin) kabilar..

„Tafsir“ tilining o'ziga xos xususiyati shundaki, turli xil so'zlar bir xil tipli so'z birikmalarida ishlatiladi. Masalan: *andag' sandī kam* (u shunday o'yladiki), *men eyle sandum kim* (men shunday o'yladimki) kabi.

„Tafsir“da sifatdoshning *-duq/-dük* (*barduq*, *kelduk*), *-dachī/ -dächi* (*bardachī*, *keldächi*), *-g'li/-gli* (*barīg'li*, *keligli*) qo'shimchalari bilan hosil bo'luvchi shakllari keng qo'llangan.

„Tafsir“ tilida „Hibatul haqoyiq“ va „Devonu lug'otit turk“da uchraydigan arxaik leksik unsurlar ham bor: *asīg* (foйда), *asra* (past, kuyi), *el* (ulus), *adzīn*

(boshqa), *elig* (qo‘l), *erkinch erki* (mumkin), *erklig* (kuchli), *et öz* (o‘zlik), *yig* (kasallik), *ya* (ey), *yarīn* (ertaga), *yeme* (yana, jumladan), *yumg‘ī* (hamma), *utru* (qarama-qarshi), *basa* (so‘ng), *esh* (o‘rtoq), *ögdi* (maqtov), *sü* (armiya, qo‘shin), *tegrä* (atrof) kabi.

„Tafsir“ leksikasida sharqiy adabiy til unsurlari bilan birga o‘g‘uz-turkman unsurlari ham mavjud. Masalan, *emas* so‘zi ma’nosida *ermäz*, *ermäs*, *degül*, *tegül* qo‘llangan. Qiyoslang: *Ermes erdi hech narsa* (u hech narsa emas edi). *Ol degül turur* (u bu emas).

„Tafsir“ tilida turli til unsurlarining mavjudligi o‘sha davr uchun xarakterlidir.

Mavzun mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XII asrdan keyingi o‘zbek adabiy tilining boshqa davrlardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?

2. Qarluq-xorazm adabiy tilida bitilgan qaysi asarlarni bilasiz?

3. Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining tili nima sababdan o‘zgarib ketgan?

4. «Qisasi Rabg‘uziy» asarining tili va uslubi

5. Alining «Qissai YUsuf» dostonining til xususiyatlari

6. Qarluq-uyg‘ur tili taraqqiyotida «O‘g‘uznoma» asarining roli

7. Oltin O‘rda adabiy tili haqida

8. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari va uning til xususiyatlari

9. XI–XIV asrlardagi rasmiy hujjatlar tili va uslubi

10. Aralash dialekt xususiyatlarining «Tafsir»da aks etishi

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. O‘rinboyev, A. Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 45-58-betlar.

2. A. Muxtorov, U. Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 32-39-betlar.

3. H. Ne‘matov. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992.

5. B. To‘ychiboyev. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Toshkent, 1996.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1965, 201-2012-betlar.

2. Щербак А.М. Мухаббатнаме, Огузнаме. М., 1961.

3. Рабғузий “Қиссаси Рабғузий”, Тошкент, 1 том, 1989; 11 том 1990.

4. Чехович О.Д. Бухарские документы ХИУ в. Ташкент, 1965.

5. Тенишев Э.Р. Хозяйственные записи на древнеуйгурском языке.— Сб. “Исследования по грамматике и лексике тюркских языков”, Ташкент, 1965.

7-ma'ruza: O'ZBEK XALQ TILINING TAKOMILLASHISHI

Reja:

1. Adabiy tilning XIV asr oxiridan XVII asrgacha taraqqiyoti
2. Eski o'zbek adabiy tili haqida.
3. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni.
4. Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.
5. Lutfiy ijodi – adabiy til taraqqiyotida yangi davr.

Tayanch tushunchalar: 1. Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi uchun asos bo'lgan omillar. 2. Eski o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari. 3. Eski o'zbek tilining Sharqiy Turkiston tilidan farqlari xususida. 4. Eski o'zbek adabiy tilining taraqqiy qilishi uchun Sakkokiy, Atoiy va Lutfiy kabi shoirlar asarlarining tutgan o'rni haqida.

XIV asrning yarmiga kelib mo'g'ullarning mavqei pasaydi. Ularga qarshi sarbadorlar harakati kuchayib, ular hokimiyatni qo'lga oldi. Movarounnahr hokimligi shuhratparast Temurga o'tdi. U Movarounnahr bilan chegaralanmay, Xurosonni ham qo'lga kiritdi va katta imperiya tuzdi.

Temur hayot vaqtida o'z qaramog'idagi ba'zi qal'a va qo'rg'onlarni yaqinlariga va o'g'illariga suyurg'al tarzida taqdim etdi. Natijada Temur vafotidan so'ng mamlakat bir necha xon va bekliklarga bo'linib ketdi. Markaziy Osiyo hududida Mirzo Ulug'bek va SHohruh boshchiligida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzildi. Mirzo Ulug'bek va SHohruh vafotidan so'ng mamlakatda o'zaro feodal urushlari ancha kuchaydi. Uzaro urushlar natijasida tarqalib ketgan Markaziy Osiyoga ko'chmanchi o'zbeklarning tazyiqi kuchaydi. Taxtga Husayn Boyqaro o'tirgach, mamlakat bir oz tinchiydi.

O'zaro kurashlar natijasida bo'linib ketgan Movarounnahrda Abulxayrxonning nabirasi Shayboniixon XVI asrda bostirib kirdi. Natijada qipchoq tili unsurlarining adabiy tilga ta'siri kuchaydi.

Bosqinchilik urushlari olib borilayotgan bir paytda ham Markaziy Osiyoda XIV–XVI asrlarda bir qancha fanlar sohasida buyuk olimlar etishib chiqdi. Sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalikni rivojlantirish, kemasozlik, dengiz sayohati va boshqalar astronomiya, geometriya, matematika kabi tabiiy fanlarning taraqqiy etishini taqozo qilsa, jamiyatning ma'naviy ehtiyoji gumanitar fanlarning o'sishini talab qilar edi.

Astronomiya sohasida buyuk ishlar qilindi. Tarix, adabiyotshunoslik, axloq, mo'zika, harbiy ishlarga doir ilmiy asarlar yaratildi.

Fanning turli sohalarida bo'lgan o'zgarishlar til shakllari vositasida ifodalandi. Turli fanlarga doir yaratilgan tazkiralalar, risolalarda ilmiy atamaologiya qo'llana boshladi. Lekin u atamaologiya va uslub islom dini qobig'iga o'ralgan edi.

O'zbek tilidagi badiiy adabiyot rivojlandi. XV–XVIII asrlarda adabiyotning tematik doirasi ancha kengaydi, dunyoviy motivlarni kuylash ustunlashdi. Bundan tashqari, adabiyotda ***g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida, noma, munozara, doston,***

hikoya, masal, memuar kabi yangi janrlar yuzaga keldi. Natijada adabiy tilning yangi uslubiy tizimi paydo bo'ldi.

Markazlashgan davlat uchun kurash g'oyasini ma'lum bir g'azal yoki ruboiy doirasida bayon etib bo'lmay edi. Ana shu ehtiyoj yangicha bayon etish uslubi bo'lgan tazkira va doston janrining rivojlanishiga olib keldi.

O'sha davrda markazlashgan davlat uchun faqat odil shohlar kurashadi, degan g'oya mavjud edi. Odil shohlarni madh etish jarayonida adabiyotda qasida janri paydo bo'ldi.

Eski o'zbek tilidagi shakldosh so'zlardan, xalq qo'shiqlari uslubidan ustalik bilan foydalanish asosida tuyuq janri vujudga keldi. Tuyuqda **omonim** so'zlar so'z o'yini uslubida qo'llandi.

Adabiy tilda muammo janri ham paydo bo'lib, muammo (yashiringan) ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topib olib, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi muqobilini qo'llash, so'zlardagi ma'lum harflarni tizib, yangi so'z yasash, abjad hisobini ishlatib, rahamlar asosida so'z to'zish kabilar amalga oshiriladi.

Umuman, o'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyoti o'zbek adabiy tilining grammatik va leksik jihatdan ishlanib, mukammallashib borishiga olib keldi.

O'zbek adabiy tilining mukammallashib borishida Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlari, diniy nasriy asarlar («Sirojul qulub», «Baxtiyornoma», «Tazkirai avliyo»), vasiqanoma, davlat-ma'muriy yorliqlar, bir qancha lug'atlar, grammatika-ga doir asarlar («Badoyoul lug'at», «Abushqa», «Lug'ati turkiy», «Kelurnoma», Muhammad Rizo lug'ati, «Maboniul lug'at», «Sangloh», Fath Alixon lug'ati, Shayx Sulaymon Buxoriy lug'ati) asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Eski o'zbek adabiy tili haqida. XIV asrning oxiri va XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi adabiy til eski o'zbek tili atamai bilan yuritiladi. Ko'pchilik turkologik adabiyotlarda «chig'atoy tili» deb nomlanadi. Ularda kitobiy adabiy til haqida fikr yuritilganda, «chig'atoy tili» atamai, xalqning jonli so'zlashuv tili asosida tarkib topgan adabiy til haqida fikr yuritilganda esa eski o'zbek tili atamai qo'llangan.

V. V. Radlov, A. M. Shcherbak, Abulg'azi Bahodirxon ta'kidlaganidek, chig'atoy tili sun'iy tildir.

Adabiy tilga jonli tildan ko'plab yangi unsurlar kirib bordi. Lekin adabiy til bilan jonli til bir-biriga teng hodisa emas.

Eski o'zbek adabiy tili jonli tildan ancha uzok, edi, chunki unda arabcha, forsha unsurlar va ma'lum k.olipga kirib dolgan uslubiy vositalar mavjud edi.

Eski o'zbek tili bilan SHarqiy Turkiston adabiy tilidagi o'xshash va farkli tomonlar quyidagilardan iborat:

1. **Fonetik xususiyatlari:** SHarqiy Turkiston adabiy tili yodgorliklari tilidagi so'zlarda **dz** tovushi kelsa, eski o'zbek adabiy tilida bu tovush **y** bilan beriladi.

Shart maylidagi fe'llarning axiridagi **r** tovushi esa o'zbek adabiy tilida yuqolgan, ya'ni *barsarmen, barsarsen, barsarmiz, barsarsiz, barsar, barsalar* tipidagi shakllar urnida *barsam, barsang, barsaq, barsangiz, /barsa, barsalar* tipidagi shakllar qo'llangan.

So'z boshida keluvchi **b** tovushi **m** tovushiga utadi: *ben–men, bangu–mangu, bung–mung, bing–ming* kabi.

2. **Morfologik xususiyatlari:** kelishiklar soni bir xil emas. Masalan, SHarqiy Turkiston tilidagi qurol-vosita kelishigi eski o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi.

SHarkiy Turkiston adabiy tilida ko'plik **-lar/-lär,-an/-än, -t** qo'shimchalari bilan, eski o'zbek adabiy tilida, asosan, **-lar/ -lär** qo'shimchasi bilan hosil kilinadi. Sifatdosh shakllari eski o'zbek tilida ancha qiskargan bo'lib, asosan **-gan/-gän,-mīsh/-mish, -r** qo'shimchali shakllar qo'llanadi.

3. **Sintaktik xususiyatlari:** teng bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarning svalmog'i eski o'zbek tilida ko'paygan.

4. **Leksik xususiyatlari:** eski o'zbek tilida arabcha, forscha so'zlarning hajmi bir oz ko'p, shunda ham turkiy til bilan nazm bitish g'oyasi susaymaydi.

SHoiralar turkiy tilni XIV–XV asrlardagi forsiy tilning nufo'zi darajasiga ko'tarish maqsadida bu tilda she'rlar, asarlar ijod qila boshlaydilar, adabiyotni ona tili asosida rivojlantirish uchun kurashadilar. Bu kurash o'zbek adabiy tili taraqqiyotida muhim rol uynaydi.

Turkiy tilning nufo'zi va taraqqiyoti uchun Alisher Navoiy va uning zamondoshlari Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, YAqiniy, YUsof Amiriy, AHMADIY, Xo'jandiy, Mir Haydar, Muqimiy, Gadoiy, Bobur, Muhammad Solihlar, munosib hissa qo'shdilar.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni. «Nazm dengizining tubiga sho'ng'ib, she'riy durlar» yaratishga intilgan Atoiy o'zbek dunyoviy adabiyotining Navoiyga qadar etishgan atoqli namoyandaligidir.

Atoiy xalq qo'shiqlari tilining soddaligi, ravonligi va musiqiylikidan ilhomlandi va uni o'rgandi. U o'zining 260 g'azalidan 109 tasini xalq qo'shiqlari vaznida yaratdi. Bu narsa uning xalq og'zaki ijodini yaxshi bilganligini va xalq tili boyliklaridan bahramand bo'lib ijod etganligini ko'rsatadi.

Atoiy xalq maqollari va ta'birlariga katta e'tibor bilan qaraydi. U xalq maqollaridan foydalanish bilan o'z g'azallarining mazmunini ham, til va badiiyligini ham boyitdi. Atoiy xalq maqollarini aynan keltiradi va ularning mazmunini she'riy misralarga singdiradi:

*Boldī bag'rīm suv g'amīngdīn, yaxshīlīq qīl, sal sug'a
Axir, ey gul, xirmannī, albatta, zar ekken orar.*

Bundan tashqari, Atoiy xalq tiliga xos hazil-mutoyiba tarzida aytilgan misralarda kontrast usulini qo'llaydi. Lekin u engil kulgiga jiddiy tus beradi.

*Yo'zigā kōp tikā baqsam, mengā kūlūīb aytur:
„Atāiy, ne kōzi toymas gadā emishtuksen?“.*

Atoiy xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanib, **original o'xshatish, kinoya, mubolag'a, majohuli orifona, lof** kabi badiiy tasvir vositalarini yaratdi.

Shoir omonim so'zlar va turli birikmalar vositasi bilan chiroyli so'z o'yinlari yasadi va go'zal mumtoz tuyuqlar yozdi.

*Desengkim: „Jan sipar qīlg'īl Atāyīm!“
Turubmen ūtshmunak, öldur, at, ayīm...
Yūzūīngni, ey malāhat xanī, bir ach,
Toya kōrsūīn seni bu mustahiq ach.*

Atoiy asarlarining tili Oltin O'rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Uning asarlari tilida qipchoq tili unsurlari ko'p qo'llanadi.

Atoiy g'azallarida quyidagi til xususiyatlari uchraydi.

Jo'nalish kelishigi uchun **-ga/-gü/-qa/-kä** qo'shimchali shakl bilan bir katorda **-a/-ä** qo'shimchali shakl ham keng qo'llangan:

*Mim ag'zī bilä zulfu qadī lom-alifdin,
Ey vay, netäy xasta köngüül qaldī alamg'a.
Nazm bahrīna chom, qa'rīna yet durdek, Ataiy,
Daryā yūüzini chun xasu xashak keräktiür.*

Jo'nalish kelishigining **-a/-ä** qo'shimchali shakli hozir **j**-lovchi o'zbek shevalarida ham qo'llanadi, lekin bu shakl aslida o'g'uz tillariga xosdir.

Urin-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchalaridan oldin bir **n** tovushi orttiriladi:

*Ul sanamkim, suv yaqasīnda paritek olturur,
G'āyati nāzuklikindin suv bilä yutsa bolur.*

Sifatdosh yasovchi **-g'an/-gän** qo'shimcha **-an/-än** shaklida ham uchraydi. Masalan: *qīlan-qīlgan, alan-alg'an* kabi.

Buyruq fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga **-alīng/-äling** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *baralīng, keleling, alalīng* kabi. Bu shakl „Muhabbatnoma“ da ham mavjud.

Atoiy g'azallari leksikasida quyidagi so'zlar uchraydi. botsh (ko'p), *arī* (toza), *baqmaq* (qaramoq), *meng* (xolning kattasi), *hamuq* (hamma), *esruk* (mast), *dudaq* (lab), *ajun* (dunyo), *neng* (narsa), *iydgoh* (sayilgoh) kabilar.

Umuman, Atoiy g'azallari tilida XV asr boshidagi o'zbek adabiy tiliga xos xususiyatlar aks etgan bo'lib, uning asarlari XV asr o'zbek dunyoviy adabiyotidagina emas, balki o'zbek adabiy tili taravdidiyotiga ham munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, Movarounnahrda shuhrat topgan shoirlardan biri Sakkokiydir. U Ulug'bek zamonida yashab ijod etdi. Shoir g'azallar va qasidalar bitdi.

Sakkokiy ham Atoiy kabi xalq tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original tasviriy vositalar yaratishga intildi. U tazot, tanosib, jonlantirish, laf va nashr kabi usullardan foydalandi, o'xshatish, mubolag'a, majoz va boshqa turdagi tasviriy vositalarga murojaat qildi. Natijada xalq ogzaki ijodiga xos bo'lgan xalq qo'shiqlari uslubida g'azallar bitdi va xalq maqollari bilan o'z g'azallarining mazmunini, tilini boyitdi.

Sakkokiy tuyuq janrida asarlar bitmagan bo'lsa-da, uning g'azallaridan so'z o'yiniga usta shoirligi ma'lum.

Sakkokiy siyosiy lirikaning adabiy janri bo'lgan qasidachilikda ham qalam tebratdi. Ma'lumki, qasida davlat arboblari, siyosiy va harbiy voqealarga bag'ishlab yoziladi. Shoir Ulurbekka atab yozgan qasidalarida uning ilmiy va siyosiy faoliyatini maqtaydi. Ulug'bekni «Sulaymoni zamon», «Nushiravon», «Musotek», «SHubon», «Atodin mehribon», «Xurshidi zamon» kabi sifatlar bilan ulug'laydi. Qasidaga xos bunday uslubni Sakkokiydan keyingi shoirlar ham davom ettirdilar.

Sakkokiy asarlarida qipchoq tili unsurlariga nisbatan o'g'uz tili yoki g'arbiy adabiy til an'anasining ta'siri kuchlidir.

Sakkokiy asarlarida *eyle, qıl-*, et- kabi ko'makchi fe'llar parallel qo'llangan:

*Gul yūüzūingni ārzulab yūüz közni gulzār äylädi,
Yūüzūingni körsä, qılur gul özini yūüz para,
Bale, bu ranju balānī man ixtiyār etdim.*

O'tgan zamon sifatdoshi fe'l negiziga –**mīsh/-mish** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu shakl Urxun-Enisey yodgorliklarida ham, undan keyingi yodnomalar tilida ham keng qo'llangan bo'lib, Sakkokiydan keyingi shoirlarda siyrak uchraydi. Masalan:

Tun qalsañ ichrā nīqābīn almīsh u l gul yūüzidin.

Bol- fe'li va uning o'g'uz tillariga xos bo'lgan ol- shakli shoir asarlarida parallel qo'llanadi:

Ālam bag ī sabz oldī, chu no 'shiravān keldi.

Sakkokiy asarlarida „kabi“, „o'xshash“ ma'nosidagi *bikin, yanglīg'* kabi so'zlar ham qo'llangan bo'lib, bunday so'zlar A. Navoiygacha bo'lgan shoirlarning hammasida uchraydi. Sakkokiy asarlari leksikasida Atoiy leksikasiga nisbatan tojikcha-forscha so'z va iboralar ko'p. Bu xam Sakkokiy asarlarining o'ziga xos xarakterli xususiyatidir. Masalan: *komkan*–tog' qo'poruvchi, *jankan* – jon oluvchi, *g'ārat* – barbod, *tura* – kokil kabi. Umuman, Sakkokiy ham o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga samarali hissa qushdi.

Lutfiy ijodi – adabiy til taraqqiyotida yangi davr. O'z davrining «Malikul kalomi» bo'lgan Lutfiy o'zining ko'p yillik adabiy faoliyatini o'zbek dunyoviy adabiyoti va o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga bag'ishladi. U davrining atoqli so'z san'atkori sifatida o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan lirik she'rlarning, «Gul va Navro'z» hamda «Zafarnoma» dostonlarining muallifidir.

Lutfiy g'azallarida va dostonlarida bir-biriga jur, ohangdosh so'zlarni qofiya qilish bilan birga, misralarning mazmunini kuchaytirish, ta'kid yuli bilan asosiy masalaga e'tiborni ko'proq jalb etish uchun bir yoki bir necha so'zdan tarkib topgan radiflardan ustalik bilan foydalanadi.

Sensän sevārim, xah īnan, xah īnanma,

Qandur jigarīm, xah inan, xah inanma.

Lutfiy o'zbek adabiy tilining jangovar kurashchisi sifatida xalq jonli tilida original asarlar ijod qildi. Xalq ta'birlaridan, maqol va aforizmlaridan ustalik bilan foydalanib, o'z she'rlarining mazmunan boy, badiiy puxta va o'tkir tilli bo'lishiga erishdi va yangi-yangi badiiy til vositalarini va original bayon etish uslubini yaratdi. Bular, o'z navbatida, Lutfiyning o'zbek adabiy tilining boyishiga qo'shgan munosib hissasi bo'ldi. Masalan, quyidagi she'riy misraga «Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi» xalq maqoli singdirilgan:

*El yūüzigä baqsalar, ölärmən,
„Xurshidni, netäy, yashursa bolmas“.*

YOki:

*Hayāt suyīg'a eltib süvsiz keturdi meni,
Dudag'ingiz ne bala, al körgüüzdi.*

Bu she'riy parchada «Daryoga olib borib, suvsiz keltirdi» maqoli berilgan. Bundan tashqari, Lutfiy o'z asarlarida xalq tiliga xos yumor, qarg'ish, erkalash va boshqalardan ham o'rinli foydalanadi:

*Lutfiyni kim qarg'adī „yarab, balag'a uchra!" deb,
Kim seningdek tashbag'irlīq dilrabāg'a uchradi.*

Ma'lumki, o'sha davr adabiy tilida sinonimlar doirasi fors va arab tillaridan kirgan so'zlar hisobiga ham kengayib bormoqda edi. Lutfiy sinanim so'zlardan ustalik bilan foydalandi va o'z davriga xos badiiy uslub vujudga keltirdi. U *yav, yag'ī, xasm, dushman; lab, dudag', erin, yuz, araz, vasl, jamal* kabi sinonimik qatorlardan ijobiy foydalandi:

*Ayu kūn yo'zin bile lāf ursalar, yoqtur ajab,
Tutarmen kōzki, kōrsam āraz,
Tilār vaslīnī Lutfiy, qīl ijābat.
Ayu tangg'a qaldī, kechā baqīb ul jamālg'a.*

Keltirilgan misollarda bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi *yo'z, āraz, vasl, jamāl* so'zlari berilgan.

Lutfiy o'zbek mumtoz lirikasining original va yangi janri bo'lgan tuyuqning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi egallab oldi, xalq askiyasi va xalq tili boyliklaridan keng foydalanib, ajoyib tuyuqlar yaratdi. Tuyuqlarida o'zbek tilidagi omonim va polisemantik so'zlardan keng foydalandi. Natijada u shu so'zlar vositasi bilan chiroyli so'z o'yinlari hosil kildi:

*Kōnglimā har yanki, baqsam, dag'ī bar,
Har nechā dardīmnī desām, dag'ī bar.
Qīlcha tanga barī ishqīn yār edi,
Biz sarī boldī firāqning dag'ī bar.*

Bu tuyuqdagi *dag'ī* so'zi birinchi misrada «yara», ikkinchi misrada «yana, tag'in» va to'rtinchi misrada «tog'» ma'nosida kelgan.

Lutfiy asarlari tilida eski uyg'ur, ozarbayjon va turkman tillariga xos morfologik, leksik xususiyatlar uchraydi.

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi I va II shaxs kishilik olmoshlaridagina emas, boshqa hollarda ham Urxun-Enisey yodgorliklaridagi kabi **-īn/-in** shaklida kela oladi: *yārumuṇ* (yorimning), *bag'rumīn* (bag'rimning) kabi.

Tushum kelishigi qo'shimchaya ba'zan **-ī/-i** shaklida ham keladi: *xitāyī, maīmurumī, ashkumī* kabi.

O'tgan zamon sifatdoshining **-mīsh/-mish, -an/-ān** qo'shimchali shakllari ham qo'llangan: *Qilmisham, bolmisham, qilan, alan* kabi.

*Bu vafāsnzīqnī, sendin kōrmishām,
E'tiqādīm qalmadī hech yār ilā.*

Bo'l- va *o'l-* fe'llari Lutfiy asarlarida parallel qo'llanadi.

Jo'nalish kelishigi uchun **-g'a/-gū, -qa/-kū** qo'shimchali shakl bilan birga **-a/-ā** qo'shimchali shakl ham qo'llangan:

*SHe'r ichindā bolsa üsruīk sözigä yoq e'tibar,
Qanīma bergäy tanuqluq ikki ayyarīn sening.*

Lutfiy asarlarida „bilan" ko'makchisi *birlā, ilā, bilā, -lā* kabi variantlarda ishlatilgan:

*Yaratqan birlä köp niyatlär etti,
Parishānlīq bilä aqlīm mushavvash.*

Lutfiy asarlari leksikasida o'g'uz, arab, fors-tojik so'zlari ko'p uchraydi. Masalan: *ilik* (qo'l), *ulus* (xalq), *qamug'* (hamma), *erin/dudog'* (lab), *uchmag'* (jannat), *ev* (uy), *tāri gisuyi* (soch o'rimi), *dugul* (emas), *cherik* (askar, armiya) kabi.

Xulosa qilib aytganda, Lutfiy o'z ijodi bilan adabiy til taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1..Adabiy tilning XIV asr oxiridan XVII asrgacha taraqqiyoti
2. Eski o'zbek adabiy tili haqida.
3. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni.
4. Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.
5. Lutfiy ijodi – adabiy til taraqqiyotida yangi davr.

Zaruriy adabiyotlar:

1.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev. O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1995. 67–93-betlar.

2.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi.O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1995.56–75-betlar.

3..G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1973.

4..Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. Toshkent, "O'zdavnashr", 1959.

Adabiyotlar:

1. Ш э р б а к А. М. Грамматический очерк языка тюркских матнов X–XII вв. из Восточного Туркестана. М.–Л., , 1961.

2. Радлов В. В. Ярлики Темур-Кутлуга и Токтамиша. ЗВО. РАО. Том III. Вып. 1–2. 1888, стр. 2.

3.Шчербак А. М. Грамматика староузбекского языка. М.–Л., 1962, стр. 13.

4. Кононов А. Н. Родословная Туркмен. М.–Л., 1958, стр. 36.

8-ma'ruza. ALISHER NAVOIY –O‘ZBEK ADABIY TILINING ASOSCHISI

Reja:

1. *Alisher Navoiy – ona tili sofligi uchun tolmas kurashchi.*
2. *Alisher Navoiy adabiy til haqida.*
3. *Alisher Navoiy asarlarining fonetik xususiyatlari..*
4. *Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari.*
5. *Alisher Navoiy asarlarining leksik xususiyatlari.*
6. *“Muhokamatul-lug‘atayn” asarining ahamiyati xususida.*

Tayanch tushunchalar: Alisher Navoiyning frantsiyalik Dyu Belle, italiyalik Dante, germaniyalik Lyuterlar singari o‘z tili va millati uchun amalga oshirgan buyuk ishlari haqida tushuncha. 2. Alisher Navoiyning ona tili haqidagi fikrlari. 3. Navoiy asrlarining lisoniy xususiyatlari. 4. “Muhokamatul-lug‘atayn”da keltirilgan eski o‘zbek tilining fonetik va leksik xususiyatlari.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy tilning ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan nafaqat o‘z zamondoshlariga, balki undan keyingi butun avlodga o‘rnak ko‘rsatdi.

O‘rta asrlarda G‘arbiy Evropada **latin tili**, sharqiy va janubiy slavyanlarda **cherkov-slavyan** tili xalqaro til hisoblanganidek, musulmon olamining sharqida **arab tili** xalqaro til sifatida qo‘llandi. O‘rta Osiyoning dunyoga mashhur olimlari – Abu Ali ibn Muso al-Xorazmiy, Abunasr Farobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy va boshqalar ilm-fanning turli sohalarini hamrab oluvchi asarlarini arab tilida yozdilar. Hatto XI asrda yashab ijod etgan ulkan turkshunos-lingvist olim Mahmud Koshg‘ariy ham «Devonu lurotit turk» asarini shu tilda yozishga majbur bo‘ldi. Xalifalikka qaram bo‘lgan deyarli hamma mamlakatlarda ahvol shunday edi. Biroq X asrlarda «dariy» yoki «forsiy» deb atalgan til ham mavjud edi. Bu til ayniqsa somoniylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda yagona davlat tili sifatida madaniy hayotda, badiiy adabiyotda keng o‘rin egalladi. Bu til to XV asrlargacha bir necha o‘lka va xalqlarning mushtarak adabiy tili sifatida keng qo‘llandi. G‘aznaviylar va saljuqiylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdayoq ular bosib olgan o‘lkalarida, jumladan, Kavkaz (Arron, SHirvon, qisman Gruziya hamda Armaniston)da va Hindistonning shimoliy rayonlarida dariy-forsiy tilni davlat tili va adabiy til sifatida e‘lon qildilar. Ana shu siyosat tufayli buyuk Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy (1141 –1203) «Layli va Majnun» dostonining kirish qismida asarlarini ona tilida emas, balki fors tilida yozishga majbur bo‘layotganligini qayd qilgan edi.

O‘sha davrlarda forsiy tilni bilish va shu tilda so‘zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabakasiga xos bo‘lgan «imtiyoz» va «bilimdonlik» belgisiga aylandi. Bu an‘ana hatto temuriylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ham saqlanib qoldi. Bu paytga kelib forsiy til, hatto, feodal aristokratiyasining so‘zlashuv tiliga ham aylandi. Har ikki temuriylar davlati – Xuroson va

Movarounnahrda ham forsiy til hokim edi. Bu XIX asrda rus zodagonlarining o'z ona tilini pisand qilmay, o'zaro frantsuz tilida gaplashganliklarini eslatadi.

XV asrda o'zbek tilida original va tarjima asarlar yaratgan (salaflarning tajribalarini davom ettirgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, YUsuf Amiriy, Gadoiy, YAqiniy kabi iste'dodli shoirlar o'zbek dunyoviy adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga, o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Biroq, ular son jihatdan nihoyatda oz edilar. Navoiy «Majolisun-nafois» asarining ikkinchi bobida o'zi so'z yuritayotgan 90 shoirdan faqat 14 pyuir "turkigo'y" ekanligini eslatib o'tadi. Ular Harimiy, Qalandar, Qabuliy, G'aribiy, Tarxaniy, Lutfiy, YAqiniy, Atoiy, Muqimiy, Kaman, Lutfiy, Sakkokiy, Mirzobek, Said Hasan Ardasher, Majnuniy, SHavqiy, Gadoiylar edi. Navoiyning ta'kidlashicha, hatto ko'pgina o'zbek shoirlari ham o'zbek tilining boyliklari va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor beradilar. Xuddi shunday davrda Alisher Navoiy o'z xalqining adabiyoti va adabny tilini himoya qilish, rivojlantirishdek zo'r, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalani ko'tarib chiqdi va u o'z umrining oxirigacha o'zbek adabiy tili va adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish uchun kurashdi.

Ma'lumki, o'sha davrda o'zbek kitobxonlarining bir qismi fors-tojik tilidagi adabiyotdan bahramand bo'lsa ham, ko'pchiligi undan foydalana olmasdi. SHu sababli Navoiy «*Bu alfoz va iboratda bu nav' daqoyiq ko'pdirkim, bu kunga deguncha hech kishi haqiqatiga mulohaza qilmag'an jihatidin bu yashurun qolibdur... Va filhaqiqat, agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chu bu lafzda vus'at (kenglik) va maydonida muncha mush'at (ochiqlik) topilur...*» deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini mukammal bilishga chaqirdi. Navoiyning fikricha, ona tilini faqatgina xalq ommasini emas, balki shoirlar ham qo'llashi, shu tilda iloji boricha o'z iqtidor va mahoratlarini ko'rsatishi kerak edi. Navoiy quyidagi so'zlari bilan xuddi shu maqsadini ifodalaydi: «*Turk tilining jamiyati muncha deloil bila sobit bo'ldi, kerak erdi-kim, bu xalq orasidan paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va ta'blarin o'z tillari turg'ach, o'zga til bilan zohir qilmasa edi. Va agar ikkalasi til (o'zbek va fors-tojik) bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari birla ko'proq aytsalar erdi va yana bir til bilan ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bilan teng aytsalar erdi... turk ulusining shu tab'lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi ayta olmag'aylar...*» Lekin bu bilan Navoiy boshqa tillarni, jumladan, fors-tojik tilini aslo kamsitmaydi, olim va shoirlarning bu tilda ijod etishlarini man etmaydi. Alisher Navoiy fors-tojik, ozarbayjon shoirlari Nizomiy, Hoqoniy, Farididdin Attor, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz kabilardan she'riyatning ulkan merosini qabul qildi. Ularning an'alarini davom ettirdi. O'zi fors-tojik tilini kamoli ehtirom, cheksiz hurmat bilan o'rgandi, bu adabiyot namoyandalariga katta muhabbat bilan qaradi. Alisher Navoiy bilan buyuk tojik shoiri Abdurahmon Jomiy o'rtasidagi shaxsiy do'stlik va adabiy hamkorly bunga yaqqol dalili sifatida qardoshlik tariximizda ham so'nmas sahifadir. Navoiy o'zbek adabiyoti va o'zbek tili bilan bir qatorda, tojik tili va adabiyotining rivojiga ham g'amxo'rlik qildi. Foni taxallusi bilan she'r yozib, o'zining fors-trjik tilini mukammal egallaganligini, tojik tili va adabiyotiga cheksiz hurmatini namoyish etdi. Ulug'

zullisonayn shoir o'zining ikki tilda yaratgan asarlari haqida faxrlanib bunday degan edi:

*Ma'nii shirinu ranginam ba turki behad ast,
Forsi ham la'lu durhoi simin chun bingari.
Go'yo dar rast bozori sugan bikushodaam,
Yak taraf do'koni qannodiyu yak so'zargari.*

Mazmuni: «Turkiy tilda rang-barang shirin ma'noli she'rlarim behad ko'pdir, forsiy she'rlarim ham bebaho la'lu gavharlarga o'xshaydi. Go'yo so'z bozorida do'kon ochganman: bir tomonda qandolat do'koniyu bir tarafda zargarlik».

Navoiygacha ham o'zbek shoirlari orasida zullisonaynlik (ikki tillilik) ancha keng tarqalgan edi. Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy va boshqa shoirlar o'zlarining iste'dodlarini har ykki tilda ham namoyish qila oldilar. Ammo bu an'ana tojik shoirlari ijodida deyarli uchramas edi. XV asrning o'rtalaridan boshlab fors-tojik adiblari o'rtasida ham turkigo'ylik paydo bo'ldi. Bu esa o'zbek adabiyotiyani yuksaklikka ko'tarib, o'zbek tilining qudratini namoyish etgan Navoiyning bevosita ta'siri natijasida edi. Fors-tojik shoirlaridan birinchi bo'lib o'zbekcha she'r yozganlar ham Navoiyning dastparvarlari – Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiylar edilar.

Navoiy ona tilining imkoniyat va qudratiga e'tiborsizlik bilan qarovchilarga, uni dag'al til deb pastga uruvchilarga qarshi chiqib, ularning nohaq ekanliklarini qoralab, ona tili uchun kurash har bir xalqning eng birinchi va muqaddas vazifasi ekanligini «Hayratul-abror» dostonida quyidagi misralarda ifodaladi:

*Sengä ancha haq lutfi vaqe'durur,
Ki ta turk alfāzi shāe'durur.
Bu til birlä tā nazm erur xalq ishi,
Yaqīn qīlmamīsh xalq senidek kishi.
Fārsi el taptī chu xursandlīq.
Tüürkiy dag'ī tapsa barumandlīq.*

Buyuk shoir, mutafakkir va lingvist olim ana shu muddaolar, sa'y-harakatlar jarayonida o'zbek adabiy tilining muboriz himoyachisi, bayroqdori bo'lib chiqdi. Bu sohadagi ilg'or dono fikrlari, ajoyib asarlari, amalky faoliyati bilan shon-shuhrat qozongan Navoiy:

*Tüürk nazmīda chu tartīb men alam,
Aylādim bu mamlakatnī yakqalam –*

deb haqli ravishda faxrlandi. Bobur tili bilan aytganda, Navoiy o'zbek tilida barchadan «ko'p va xo'p» yozib, qalam kuchi bilan qalblardan joy oldi.

Alisher Navoiyning ilm va madaniyat, jumladan, o'zbek adabiy tili rivoji sohasidagi buyuk xizmatlarini *frantsiyalik Dyū Belle* (1522–1560), *italiyalik Dante* (1765–1821), *germayiyalik Lyuter* (1483–1546) kabi shoir va olimlarning o'z ona tillarini yaratishdagi xizmatlari bilan tenglashtirishimiz mumkin. CHunki bu buyuk shoir va olimlar ham o'z ona tillarining shavkati uchun kurashgan vatanparvar edilar. Navoiy o'zbek tilining himoyachisi va targ'ibotchisi sifatida ham nazariy, ham praktik ishlarni amalga oshirdi. SHuning uchun buyuk turkolog N. I. Ilminskiy Navoiyni: «Ona tili uchun kurashda yagona va bahodir jangchi edi» – deydi.

Evropalik geograf olim M. Belin Navoiy xizmatlari haqida shunday yozadi: «Navoiy milliy tilga murojaat qilib, uni rad qilib bo'lmaydigan darajada asoslab, vatanparvarlikni boshlab berdi».

Alisher Navoiyning adabiy tili haqida. O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy uch til (fors, arab va turk tili) stixiyasi kurashayotgan bir paytda o'z asarlarini o'zbek tilining boy xazinasidan foydalangan holda yozdi. U «Xazoyinul-maoniy», «Xamsa», «Lisonut tayr» kabi badiiy adabiyot namunalarini, «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon» kabi adabiyotshunoslikka oid, «Muhokamatul-lug'atayn» kabi tilshunoslikka oid asarlarini shu tilda yaratdi. Bu bilan o'zbek tilining badiiy, ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini amalda isbotladi. Umuman, fors tilining qaysi janr va uslubida asarlar yaratilgan bo'lsa, Navoiy ularning hammasida o'zbek tilida asarlar yozdi. U o'zining amaliy ishlari bilan o'zbek tilining ixcham grammatik qurilishga va boy lug'at fondiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Alisher Navoiy tomonidan asoslangan adabiy til qanday negiz asosida paydo bo'ldi? Navoiyning adabiy tili haqida va uning qanday negiz asosida shakllangani hamda shoirning ona tili bilan adabiy tilga bo'lgan munosabati haqida olimlar turlicha fikr bildirdilar. Bu fikrlar o'sha davrda mavjud bo'lgan quyidagi shart-sharoitlarni turlicha tahlil qilish natijasida kelib chiqdi:

1. O'sha davrda arab, fors va ona tilni kabi uch tilning stixiyali kurashi davom etmoqda edi. Navoiy zamonasida ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar fors tilida yozilar edi. Xazina bo'lgan o'zbek tili atrofida, Navoiy tili bilan aytganda, «ilonjlar va «tikan»lar bor edi.

2. Ma'lum darajada SHarqiy Turkiston tili, ya'ni uyg'ur tilining ta'siri mavjud edi. Mo'g'ullar hujumi XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ham adabiy til sifatida SHarqiy Turkiston tili asosiy rol o'ynaydi. Qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qancha morfologik, leksik, fonetik unsurlar Navoiygacha bo'lgan hamma yodgorliklarda uchraydi. Hatto XIV–XV asrlarda ko'chirilgan «Baxtiyornoma», «Me'rojnomasi», «Tazkirai avliyo» kabi uyg'ur yozuvida asarlar paydo bo'ldi. Hatto, 1469 yilda to'zilgan Umar Shayx yorlig'i ham uyg'ur yozuvida bitildi. Bular ma'lum darajada o'sha davr adabiy tiliga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

3. Bir-biridan farq qiladigan hududiy lahjalar mavjud edi. Navoiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar turli-tuman bo'lgan va turli shevalarda so'zlashganlar. Bu shevalar o'zaro bir-biriga va adabiy tilga ta'sir qilib, adabiy tilga turli unsurlarini kiritib borgan. Buning ustiga til guruhlarining aniq nomlarining yo'qligi masalani yana xiralashtiradi. Navoiy ham «Mezonul-avzon» asarida o'z ona tilini ba'zan turkcha til, chig'atoy tili deb nomlaydi.

Navoiy turkiy til atamaini keng ma'noda tushunadi va bu atamani arab va fors tillaridan farq qiluvchi tilga nisbatan qo'llaydi. Chig'atoy tili atamaini tor ma'noda ishlatadi: «*Ki turk qavmlar jo'jidur, inak va chig'atoy*».

Bundan tashqari, «Chor devon»da temuriylar davlatida elatni tashkil qilgan qipchoq, belgut, arlat, barlos kabi qabilalarning nomlarini tilga oladi.

Bekkä qipchaqu agar, shahga qiyatu belgut,

Ey Navaiy, mengä bas ul sanami lo 'livash.

Boshqa bir o'rinda *tarxon, sulduz* qabila nomlarini keltiradi. «Vaqfiya» asarida Sulton Husaynning *jaloyir, aygus qiyot qo'ng'iroq, qovchin* qabilalari vakillarini mukofotlagani haqida gapiradi.

Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» asarida shoir Husayn Xorazmiy haqida gapirib, «xorazmcha turk tili bila» yozar edi, deb Xorazmda alohida shevaning borligini ko'rsatadi.

Bularning hammasi Alisher Navoiy adabiy tiliga asos bo'lgan negiz lahja muammosini hal etishni ancha mushkullashtiradi.

Bobur o'zining „Boburnoma“ asarida A.Navoiyni oliy martaba sahibi, qobiliyat egalarining buyuk homiysi, o'zbek tili va adabiyotining bayroqdori sifatida tarannum etadi va Navoiy adabiy tiliga Andijon shevasi xos bo'lgan deydi: „*Andijan. . . eli turktur. SHahar va bazarīsīda turkiy bilmās kishi yoqtur. Elning lafzī qalam birlā rastdur. Anī uchunkim, Mir Alisher Navaiyning musannafatī Hirida nash'u nama tapībtur, bu til bilādur, elning arasīda husni xili bardur*“.

Boburning bu fikriga turkolog olimlardan G.Vamberi, V.Berezin, N.I.Ilminskiylar qo'shiladi. Ammo N. I. Ilminskiy adabiy til bilan mahalliy shevalar o'rtasidagi munosabatining murakkab xarakterga ega zkanligini ko'rsatib, Navoiy adabiy, tili Andijon shevasiga o'xshasa ham, butunlay mos kelmaydi, chunki jonli xalq shevasida adabiy tildagidek chet til unsurlarining ko'p bo'lishi mumkin emas, deydi. Navoiy tilida arabcha, forscha, qisman uyg'urcha va o'g'uzcha unsurlar uchraydi. Prof. A. K. Borovkov ham N. I. Ilminskiy fikriga qo'shilib, Navoiy adabiy tilini Andijon shevasi bilan to'la mos deyish qiyin. Navoiy Andijonda hech bo'lmagan, aydijonliklar bilan suhbatda bo'lgan, xolos, deb uqtiradi.

Navoiy adabiy tilining xususiyatlarini to'g'ri aniqlash uchun uning tilida mavjud bo'lgan tovush tarkibini va bu tovushlarning hozirgi dialektlardagi parallellarini belgilash zarur. Lekin Navoiy tili vokalizmining tarkibini aniqlash masalasida turli xil fikrlar mavjud. Prof. K.K, YUdaxin XV–XIX asrlarda yashagan Lutfiy, Amiriy, Kamyobiylarning tuyuqlarini analiz qilib, Navoiy davri adabiy tili hozirgi o'zbek tilidagi **olti unli** fonemaga ega deydi. Bundan tashqari, XV–XIX asr shoirlarining tili singarmonizmsiz shahar shevalariga mos keladi, deb xulosa chiqaradi. Lekin xronologik va geografik jihatdan bir-biridan juda uzoq shoirlar – hirotlik Lutfiy (XV asr) bilan qo'qonlik Amiriy (XIX asr) tilining bir-biridan ancha farq qilishi Navoiy tili va umuman shu davr o'zbek adabiy tili olti unlili tizimga asoslangan, degan fikrni rad etadi.

Prof. A.K.Borovkov Navoiy tilida 8 undi fonema mavjud bo'lib, ular: *i* (indefferent *i*), *e* (yarim keng *e*), *a* (orqa qator *a*), *a* (old qator *ā*), *u* (orqa qator *u*), *ū* (old qator *ū*), *o* (orqa qator *o*), *ō* (old qator *ū*) unlilaridan iborat, deb ko'rsatadi.

A. M. SHcherbak ham eski o'zbek adabiy tilida 8 unli fonema borligini ko'rsatadi. Lekin A. K. Borovkovda bo'lgan old qator *a* unlisi A. M. SHcherbakda yo'q A. K. Borovkov *i* unlisini indefferent hisoblasa, A. M. SHcherbak old qator va orqa qator (*ī*, *i*) unlilari mavjud deb ko'rsatadi.

A. Rustamov Navoiy tilida, umuman, eski o'zbek tilida 9 unli fonema mavjudligini, Navoiy tilida ochiq *e* unlisi borligini, *a* unlisi indefferent ekanligini, *i*

unlisi qatorga qarab emas, balki cho'ziqligi bilan farqlanishini aytadi. Xuddi shu xildagi fikrni, ya'ni Navoiy tilida 9 unli mavjudligini E. I. Fozilov va U. Sanaqulovlar ham ta'kidlaydi,

Umuman, Alisher Navoiy tilining tovush tuzilishini aniqlashda birdan-bir manba uning o'z fikrlaridir. U «Muhokamatul-lug'atayn» asarida tovushlarga xarakteristika berganda yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan so'zlardan bir nechtasini izohlaydi.

Navoiyning ko'rsatishicha, *u*, *v* (vov), *i*, *e* (yoy) harflari fors tilida qofiyadosh so'zlarning faqat ikkitasida kelishi mumkin. Masalan: *dud* – *xud*; *nur* – *zo'r*; *shir* – *bir* kabi.

Turkiy tilda esa bu harflarning har biri uch-to'rttadan qofiyadosh so'zlarda kela oladi. Masalan, *u*, *v* (vov) xarfi to'rtta qofiyadosh omonimlarda keladi: *ut* (molning tukini olovda kuydirish), *üt* (yutmoq), *ot* (olov), *öt* (o'tmoq); *tor* (ov quroli), *tör* (qushlar turadigan joy), *tör* (uyning to'ri), *tor* (parda).

Navoiy o'z asarlarida *u*, *o*, *e* tovushlarini bir-biridan keskin farqlaydi. Navoiy *i*, *e* (yoy) harfi ham uchtdan qofiyadosh so'zda kelib, ikki xil talaffuz qilinishini ko'rsatadi. Masalang *chin* (rost) – *chi:n* (Xitoy), *biz* (olmosh) – *bi:z* (bigiz) kabi. Demak, Navoiy cho'ziq va qisqa *i* unlisini farqlaydi. Bu unli urg'usiz talaffuzda *e* unlisiga yaqinlashadi. Masalan: *biz* (olmosh) – *bez* (go'shtdagi bez ma'nosida).

Navoiy asarlari tilining tovush tarkibi, unlilar tarkibi jihatidan hozirgi o'zbek tilining Toshkent, Samarqand va Buxoro shevalaridan farq qiladi. U tovush tarkibi jihatidan Andijon va Qo'qon tipidagi Farg'ona shevalariga yaqin. Chunki bu shevalarda *u* va *ö* fonemalari qattiq va yumshoqlik xususiyatlariga egadir. Navoiy adabiy tilini hozirgi o'zbek adabiy tili dialektlariga munosabati nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, u holda Navoiy tilini ma'lum darajada lab uyg'unligi saqlangan. *u//ü*, *o//ö* unlilari farqlanadigan shuvalar guruhiga kiritish mumkin. Bu shevalarning vakillari temuriylar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda Farg'ona vodiysi, Samarqand va hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida yashaganlar.

Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalarning belgilanishi. Alisher Navoiy fors-tojik so'z san'atkorlari bilan ijodiy musobaqalashdi. Bu musobaqada katta muvaffaqiyatlarga erishib, o'zbek tilining leksik va grammatik boyliklarini namoyish ztdi. A. Navoiy «*Mezonul-avzon*» asarida shunday yozadi: «...*Ajam shuarosi va furs fusaqosi har qaysi uslubdakim, so'z arusiga jilva va namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidakim, ma'ni abkorig'a ziynat va oroyish ko'rgo'zib erdilar, chig'atoy lafzi bilan raqam urdum*».

Navoiy o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklaridan – sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqol va matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi.

O'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyligidan ijodiy foydalangan Navoiy uning fors-tojik tilidan boy ekanligi alohida ta'kidlaydi.

Navoiy o'zbek tilidagi sinonimlardan ustalik bilan foydalandi. O'zbek tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik juftlariga ega bo'lgan fe'llardan

yuztasini «Muhokamatul-lugʻatayn»da sanab oʻtadi: «*Bu yuz lafzdurki, gʻarib maqosid adosida taʼyin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar*».

Navoiy bu 100 feʼlining har biri oʻzbek tilida oʻz sinonimlariga ega deydi va ularning har biridan foydalanadi. Masalan, Navoiy biror-bir suyuqlikni ichish harakatini koʻrsatuvchi *ichmoq* feʼlining *sīpqarmoq*, *tamshīshoq* kabi sinonimlarini keltiradi.

*Saqiyā, tut bādakim, bir lahza özumdin baray,
Shart bukim, har nechä, tutsang labā-lab sīpqaray.
Saqiy chu ichib, mengä tutar qosh,
Tamshīy-tamshīy ani qīlay noʻsh.*

Navoiy *yigʻlamaq* soʻzining *yigʻlamsinmaq*, *boxsamaq*, *ingrämäk*, *singrämäk*, *sigtamaq*, *ökirmek*, *inichkirmäk*, *hai-hay yshlamaq* kabi sinonimlarini samarali qoʻllagan.

*Istäsäm davr ahlīdīn ishqīngnī pinhan äylämäk,
Kechälär gah ingrämäkdur adatīm, gah singrämäk.
Ul ayki, kulä-kulä yīgʻlatti meni,
Yigʻlattī meni demäyki, sīqtattī meni.*

Navoiyning yuqoridagi misralaridan sinonimlarning poetik ustunligi, uslubi boʻyoqdorligi va sheʼriyatdagi roli aniq koʻrinib turadi. Bular tildagi sinonimlarning rolini yaxshi tushunib etganligini koʻrsatadi.

Navoiy oʻzbek tilining omonimlariga ham ijobiy qaraydi. U omonimlarning polisemantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni tilning boyliklaridan biri, deb hisoblaydi. Navoiy oʻzbek tili omonimlarga boyligini va ular orqali shoirlar goʻzal tuyuqlar yaratganliklarini taʼkidlaydi.

SHoirning oʻzi ham omonimlardan foydalanib, yaxshi soʻz oʻyinlari yasagan: *tūsh–tush* (yarim kun, tomon), *yan* (yonmoq, yonboshi, qayt), *yaq* (yoqmoq, tomon, yogʻ) kabi.

Navoiy bu omonimlardan foydalanish bilan birga soʻzning funktsional semantik taraqqiyotini ham koʻrsatdi.

Navoiy oʻz asarlarida faqat omonim, sinonim soʻzlarni emas, balki fors tilida boʻlmagan va turkiy tilda boʻlib, yasteʼmol qilinmagan soʻzlardan foydalandi va ularni adabiy norma sifatida oʻzlashtirdi. Masalan: *chökur*, *qabaq* (qovoq), *meng*, *ildirim* (yashin), *chaqīn* (yashin) kabi.

Navoiy leksik normalarni belgilashda turmushning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy soʻzlarni oʻz asarlariga singdirdi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Oziq-ovqat nomlari: *qaymaq*, *qatlama*, *bulamiq*, *qurut*, *ulaba*, *mantu*, *quymaq*, *örkämäch*, *qimiz*, *suzma*, *boza*, *tatmach*, *umach* kabilar.

2. Chorvachilikka oid soʻzlar: *tubuchaq*, *argumoq*, *yaqa*, *yabu*, *taju*, *tay*, *gʻunan*, *dunan*, *tulan*, *chirgʻa*, *langa*, *jabildir*, *xana*, *toqum*, *chilvir* kabilar.

3. Kiyim-bosh nomlari: *dastar*, *qalpaq*, *navroʻzi*, *toppi*, *ishrdaq*, *jelek*, *däklä*, *qur*, *terlik* kabilar.

4. Ov hayvonlari nomlari: *kiyik*, *tongʻuz*, *huna*, *qilpaqchi*, *suykun*, *bugu*, *maral*, *ohu*, *gavazi*, *huk*, *guraz* kabilar.

Navoiy o'zbek tilining o'ziga xos leksik xususiyatlarini ko'rsatar ekan, o'z navbatida, u fors tili leksik boyliklaridan ham bahramand bo'ldi. U o'zbek tilining leksik normalarini belgilashda arab, fors-tojik tili so'zlaridan ham unumli foydalandi. Ayrim tushunchalarni ifodalashda boshqa tildan so'z olish zarur va shart deb bildi. Chunki arabcha, fors-tojikcha so'zlarni ko'proq ishlatishni o'sha davr adabiy janr va uslubi ham talab qilar edi.

Navoiy faqat leksik normalarnigina emas, balki grammatik normalarni belgilashda ham samarali ish qildi. O'z asarlarida grammatik shakllarning ixchamligiga va so'z yasash texnikasiga mas'uliyat bilan qaradi. Ixcham grammatik shakllar orqali yangi so'zlar hosil qilishga, yangi ma'no ifodalashga alohida e'tibor berdi.

Navoiy so'zlarning va grammatik shakllarning yasalishi va ishlatilishiga, ularning poetik bo'yoqdorligi hamda nozikliklariga alohida e'tibor bilan qaradi. Masalan, harakatni bajarishga intilish, tayyorlanish kabi ma'nolarni ifodalash uchun -g'u/-gü qo'shimchali sifatdosha -dek qo'shilishi bilan hosil bo'luvchi shakldan unumli foydalandi: *bargudek, bilgudek, aytqudek, urg'udek, sorg'udek* kabi.

Navoiy asarlarida -g'ach/-gäch qo'shimchali ravishdosh shakli ketma-kyotlik hamda uzluksizlikni bildirishda qo'llangan: *aylagach*, *yetgkech* kabi. Hozir tilda bu shakl payt ma'nosini ham ifodalaydi. SHoir poetik nutqning badiiy bo'yoqdorligini oshirishda bunday grammatik vositalardan unumli foydalandi.

Navoiy asarlarida -chī/-chi kasb-hunar oti, lavozim nomi, ovchilikka doir atamalar yasashda ishtirok etgan: *qushchī, barschī, qoriqī, qorchī*, *suvchī, yurtchi, xazinachī, shīlanchī, axtachi, g'azchī, turnachī, kiyikchi* kabi.

Navoiy asarlarida -chī/-chi qo'shimchasining vazifasida hozir arxaiklashgan -vul qo'shimchasi unumli ishlatilgan: *yakavul* (yo'l boshlovchi), *kiptavul* (qo'rg'on qorovuli), *bākovul, qaravul, yasavul, chingavul* kabi. -vul qo'shimchasi vositasida asosan lavozim bilan bog'liq bo'lgan so'zlar yasalgan.

Navoiy asarlaridagi -l bilan yasaluvchi *qabal, yasal, tutkal* kabi so'zlar hozirgi o'zbek tili uchun xos emas.

Navriy o'z asarlarida dunyoviy motivlarni aks ettirar ekan, davr bilan bog'liq bo'lgan ba'zi arxaik leksik unsurlar va grammatik shakllarni qo'llaydi. Arxaik unsurlar – adxazmlar poetik nutqqa[^] dabdabali tus berish, ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Navoiy asarlarida shu davr uchun arxaiklashgan bir qator grammatik shakllar uchraydi. Masalan, -g'u/-gü qo'shmchali sifatdosha (*barg'u, kelgu*), -īnch/-inch qo'shimchasi bilan hosil bo'luvchi tartib sonlar (*ikkinch, üçhünch, altinch*) kabilar shular jumlasidandir.

Navoiy asarlarida bir qancha leksik arxaizmlar ham uchraydi: Masalan, *qamuq* (hamma). Bu so'z Urxun-Enisey yodgorliklarida, „Qutadg'u bilig"da Mahmud Koshg'ariy lug'atida „Qisasi Rabg'uziy"da, „Nahjul farodis" va „Muhabbatnoma"da ham uchraydi.

Arīg' (toza). Bu so'z Mahmud Koshg'ariyda *arīg'*, „Xisrav va Shirin" va „Muhabbatnoma"da *arig'* va *ari* shaklida ishlatilgan.

Ug'an (xudo), *ukush* (ko'p), *öksuk* (kam), *qayu* (qaysi), *bitpig* (xat). Bu so'zlar ham yuqoridagi asarlar tilida va Navoiyda uchraydi.

Umuman, Navoiy eski o'zbek adabiy tilining leksik va grammatik xususiyatlarini normalashtirgan ekan, u bu tilning badiiy asarlar yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanini isbot qilish, o'zbek yozuvchilarini o'z ona tilida ijod etishga da'vat etadi.

Navoiy asarlarida turkiy tillar boyligidan foydalanish usullari va ularning uslubiy xususiyatlari. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti uchun kurashgan Navoiy boshqa turkiy gillar materiallaridan ham samarali foydalandi. Navoiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ham o'zbek, turkman, ozarbayjon, tojik xalqlari bir-birlarining adabiy tajribalaridan ilhomlanib, adabiy an'analarni davom ettirar edilar. Bu narsa adabiy tilga ham ta'sir ko'rsatardi.

SHuning uchun o'sha davrdagi aloqada bo'lgan yozuvchi va adiblarning asarlarida o'g'uz tillariga xos bir qancha leksik va grammatik belgilar uchraydi.

Navoiy boshqa turkiy tillar boyligidan foydalanishda «*Bir xalqqa tegishli bo'lgan so'z etmish ikki xalqning so'ziga aylanishi mumkin*» degan kontseptsiyaga amal qildi. Turkiy tillarning so'zlaridan foydalanish bilan Navoiy ona tilining lug'at boyligini yuqori darajaga ko'tarishga harakat qildi. Boshqa tillarning hisobidan bo'lsa ham ona tilining boyligini oshirish va demokratlashtirishni asosiy maqsad qilib oldi. SHuning uchun Navoiy asarlarida boshqa turkiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlar ona tiliga juda mustahkam singib ketdi.

Ayrim so'zlarning sinonimlari o'zbek tilida yo'q edi: *boyla* – Boylakim payda bolur yulduz nihan bolg'ach quyash; *uyumaq* (uxlamoq), *eskilmak* (eskirmoq) kabilar.

Navoiy asarlarida o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda bo'lgan ba'zi grammatik shakllar ham uchraydi. Masalan, o'tgan zamon fe'lining *-mish/-mish* qo'shimchali shakli: *olmisham* (bo'ldim), *tapmisham* (topdim), *qilmamish* (qilmadi), *bag'lamishmen* (bog'ladim), *tapmamishlar* (topmadilar) kabi.

Ul maynī ichib yolingda bast olmmshmen,

Hay-hay ne dedim, magarki mast bolmishmen.

(Favoyidul kibar).

Hozirgi-kelasi zamon feli I shaxs birligining qisqargan shakllari *baruram* (boraman), *öpäräm* (o'paman), *qilman* (qilmayman) kabi.

Atalīq haqī uchun bardur arada,

Ijizat istaram bu majarada.

(Navodirush shabob).

Turub ma'ruzda söz qaddīmnī bilmän,

Javab ayturg'a öz haddīmnī bilmän.

(Navodirush shabob.)

Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida jo'nalish kelishigining o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lgan *-a/-ä* qo'shimchali shakli mahsuldor ishlatiladi: *könglümä*, *bag'rīma* kabi.

Navoiy tilida infinitivning eski ozarbayjon, turkman tillariga xos bo'lgan bo'lishsiz shakli ham uchraydi: *almamag'* (olmaslik), *urmamag'* (urmaslik), *barmamag'* (bormaslik) kabi.

Navoiy tilida lisoniy shakllar o‘rinli va ma’lum uslubiy maqsadni ko‘zda tutib ishlatilgan bo‘lishiga qaramay, bu shakllarning nutqdagi vazifasi va ma’nolari keng ommaga tushunarli emas edi. Bu shakllarni Navoiygacha bo‘lgan adabiy-kitobiy til an‘analarining davomi deb izohlash kerak.

Navoiyning boshqa tillarga munosabati. Navoiy o‘zbek adabiy tilining ravnaqi uchun kurash olib bordi. U xalq jonli tilini qunt bilan o‘rgandi, uning boyliklari zamirida adabiy tilni boyitdi. Bu bilan cheklanmasdan, arab va fors-tojik tillari boyliklaridan ham samarali foydalandi. Navoiy ona tili uchun kurash jarayoida davlat, adabiyot va fan tili bo‘lgan fors-tojik tillarining ustunliklarini ham ko‘rsatdi.

Fors-tojik tilida yaratilgan adabiyot o‘zbek tilidagi adabiyotga nisbatan boyroq tajribaga ega edi. Fors-tojik tilining grammatik qonun-qoidalari birmuncha ishlangan va qofiya-lug‘at kitoblari ham yaratilgan edi. Binobarin, fors-tojik tilida o‘rtamiyona asarlar ijod etish birmuncha engilroq va osonroq edi. SHuning uchun ko‘pgina o‘zbek yozuvchilari o‘z asardariny fors-tojik tilida bitdilar. Bu haqda Navoiy «Muhokamatul-lug‘atayn»da shunday yozadi: (*«Bas bu haysiyatlardin andoq ma’lum bo‘lurkim, bu tilda (o‘zbek tilida) g‘arib alfoz va ado ko‘pdur. Muni xush *) oyanda tartib va roboyanda tarkib bila bog‘lamog‘ining dushvorlig‘i bor. Muftadiy tab‘i ul nazmni dushvorlig‘ bila bog‘lamoqdin kuft topib, mutanaffir bo‘lur va osonroq sari mayl qilur. CHun necha qatla bu nav‘ voqi‘ bo‘ldi, tab‘i xo‘y qildi. CHun tab‘i mu‘tod bo‘ldi, o‘z mu‘todin qo‘yub g‘ayri mu‘todg‘akim, mushkulroq ham bo‘lg‘ay, mayl qilmog‘i mutaazzirdir»*).

Bundan tashqari, fors-tojik tilining nufuzi ancha kuchli edi. Bu haqda Navoiy quyidagicha yozadi: «...turk ulusining xushtab‘lari majmuni sort tili bila nazm-aytqaylar va bilkul turk tili; bila aytmag‘aylar, balki ko‘pi ayta olmanaylar».

Navoiy bu nazariy" fikrlarida boshqa tillarni, jumladan, fors-tojik tilini kamsitmaydi, olim va shoirlarning bu tilda ijod etishlarini inkor qilmaydi. U bir asarida inson yuqori ma’lumotli, barkamol bo‘lishi uchun ilm qaysi tilda bunyodga kelgan bo‘lmasin, hamma tilda ham o‘qib-o‘rganishga harakat qilish lozimligini uqtirgan edi:

Ibriyu yunoniyu, suryoni ham, . . .

Hindu agar so‘rsa bilib ani ham.

O‘z g‘oyasiga sodiq bo‘lgan Navoiy fors-tojik tili va madaniyatini chuqur bilib, o‘rganib, o‘zi ham bu tilda ajoyib asarlar yaratdi.

Navoiy «forsiy so‘z ustalari va afsonalariga pardo beruvchilar» ijodini tanqidiy o‘rganib, ulardagi qimmatli tomonlarni, go‘zal jummalarni ona tiliga olib kirdi. Natijada o‘zbek adabiy tilini forsiy til darajasiga ko‘tardi.

Navoiy o‘z asarlarida fors-tojik so‘zlarini turli uslubiy. maqsadlarda qo‘lladi, shuningdek, ayrim grammatik shakllarni ham samarali ishlatdi. «yoyi vahdar – noaniqlik belgisidan unumli foydalandi: *mehribane* (qandaydir mehribon), *jame* (qandaydir may): *Bu taifadīn... agar arpae almas eshakdur...* (Mahbubul-qulub).

Navoiy asarlarida fors-tojik tiliga xos izofa qurilmalari ham ko‘plab uchraydi: *sayiri falak, dahri fitnaangiz, muddati madid, shahzodam, parivash* kabi.

Navoiy ba'zi o'zbekcha so'zlarga forscha-tojikcha qo'shimchalar, ba'zi fors-tojikcha so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalar qo'shib ishlatadi. Bu bilan o'zbek tilining uslubi imkoniyatini kengaytiradi:

*Ya'ni bu junun fasānasīdīn,
Rasvālīq otī zabōnasīdīn.*

Navoiy fors-tojik tili singari arab tiliga ham alohida ixlos bilan qaraydi.

Navoiy arab tiliga yuqori baho berib, uning leksik va grammatik normalaridan samarali foydalanadi. Hatto, hamma asarlariga arabcha nom beradi. O'z asarlarida ko'plab arabcha so'zlarni qo' l l a y d i, grammatik shakl va ko'rsatkichlardan unumli foydalanadi.

Navoiy tilida arabcha aniqlik belgisi *al* bilan kelgan bir qancha arabcha so'z va so'z birikmalari mavjud: *alqissa*, *aljabr* kabi. Bundan tashqari, ko'plik ifodalovchi quyidagi morfologik unsurlar ham uchraydi:

1. -in: *muqarrabin* (yaqinlashuvchilar), *mu'minin* (dindorlar) kabi.
2. -at: *vaqiat*, *kalimat*, *mahluqat*, *mushkilat* kabi.
3. Siniq shaklli arabcha ko'plik ham ishlatiladi: *sir-asrar*, *vazir-vuzara*, *shair-shu'ara*, *fan-funun*, *ilm-ulum* kabilar.
4. Qo'shaloq sonni ifodalovchi arabcha -*ayn* qo'shimchasi: *validayn*, *farzayn* kabi.

Umuman, Navoiy arab tili shakllaridan samarali foydalanadi.

Navoiy poetik asarlarining tili va uslubi. Arabcha, forscha leksik unsurlarning ko'pligi Navoiy asarlarining tilini ancha murakkablashtiradi. Mumtoz janr tizimidan va she'riyatning arabcha vazn o'lchovlaridan foydalanish Navoiyga poetik erkinlik beradi.

Bundan tashqari, o'sha davr taomiliga ko'ra poetik asarlar ko'tarinki, dabdabali uslub bilan bitilishi kerak edi. Bunday an'ana ta'siri natijasida poetik uslub jonli xalq tilidan qisman bo'lsa-da, uzilib qolgan edi. Navoiy poetik tematika sohasida eski an'anadan chetga chiqqan bo'lsa ham, lekin til va uslub masalalarida mumtoz an'ana chegarasidan chiqqan olmadi.

Navoiy poetik asarlar («Chor devon», «Xamsa»)da o'zbek tilining ham fors-tojik tili kabi dabdabali jaranglashi uchun harakat qildi. Navoiy asarlariga fonetik jihatdan yondashilsa, hamma o'rinda *d*-belgili dialektning *y*-belgili dialektga o'z o'rnini bo'shatib berganini aniq ko'rish mumkin. Unda SHarqiy Turkiston tilidagi *y* tovushining prototiplari bo'lmish *d*, *dz*, *z* tovushlari uchramaydi.

Navoiy asarlari tilining morfologik xususiyatlari quyidagilar: Navoiy tilida otlarning aniqlik va noaniqlik belgilari mavjud. Otlarning aniqlik holatini ifodalashda tojik tilidan olingan yoyi ishorat belgisini ishlatadi. YOyi ishorat grafik nuqtai nazardan noaniqlik belgisi *-i* bilan beriladi. Lekin u o'zining ma'no va tarixiy kelib chiqishi bilan farqlanadi. Aniqlik belgisi qadimgi forsiy tilning *ayta* olmoshidan kelib chiqqan va o'zbek tiliga dariy tili orqali o'tgan:

*Ey kash sipehri tiyraanjum.
Ki ya'ni men g'aribi natavandīn.*

Aniqlik belgisini ifodalashda arabcha *-a* qo'shimchasi ham ishlatiladi va narsa-jismning yakka-ligini bildiradi:

Zahid, senge huru mengä jānāna kerāk,

Jannat sengä bolsun, mengä mayxāna keräk.

Noaniqlik belgisi grafik jihatdan undoshlardan so‘ng -i, unlilardan so‘ng -iy bilan beriladi va noaniq narsa-jismni ifodalaydi:

*Hind mulkida bar edi shāhi,
SHāhlīg‘ ishlāridin āgāhi.*

Navoiy tilidagi otlardagi aniqlik va noaniqlik holati dabdabali uslub talabiga ko‘ra qo‘llangan.

Kelishik qo‘shimchalari hozirgi o‘zbek tilidagi kabidir, lekin ba‘zi fenetik variantlariga ham ega. Masalan, chiqish kelishigi uchun faqat -*dīn* /-*din* /-*tīn* /-*tin* qo‘shimchasi qo‘llangan: *Qīldī jandīn bexabar, gar qīldī janandīn xabar.*

Fe‘lning infinitiv shakli -*maq* /-*māk* qo‘shimchasi, sifatning qiyosiy darajasi -*raq* /-*rāk* qo‘shimchasi bilan hosil bo‘ladi:

*Kim kōribtur chu nag‘mai tuzmāk,
Gāh qīlīb qatl, gāh tirgūzmāk.
Kim yīraqraqtīn āylādim faryād.*

Navoiy poetik asarlari tilida hozirgi o‘zbek tilidan farqli o‘laroq sifatdoshning -*g‘uchī* /-*gūchi* qo‘shimchali, ravishdoshning -*īban* /-*ibān* qo‘shimchali shakli qo‘llangan:

*Urkubān yoldīn atī chīqqan emish,
Bir-iki qul bilān aziqqan emish.*

Navoiy poetik asarlarining sintaktik xususiyatlari quyidagilar. Ularda fors va arab tillariga xos izofa qurilishlar, qo‘shma gaplarning hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan xususiyatlari uchraydi: *naqdi ishqing, jomi zohir, jomi bexumor, fasli gul* kabi:

*Dedi Shayx: – Ey shāh, ne qaldī, – degil,
Harna matlub olsa mendin istagil.*

Alisher Navoiy poetik asarlari tilida so‘zlashuv nutqiga xos sintaktik qurilishlardan, ayniqsa, dialog shaklidan samarali foydalanadi. Hozirgi o‘zbek tilida dialog muallif gapisiz qo‘llansa, Navoiy poetikasida dialog muallif gapi bilan keladi:

*Dedi: qaydīnsen ey majnuni. gumrāh?
Dedi: majnun vatandīn qayda āgāh.
Dedi: nedur sengā ālamda pesha?
Dedi: ishq ichrā majnunlīg‘ hamisha.*

(Farhod va SHiran).

Bunda Navoiy qahramonlarning tiliga katta e‘tibor beradi, ularning o‘z so‘zlari orqali xarakter qirralarini ochadi.

SHoir she‘rlarida xalq og‘zaki ijodidagi tasviriy usullarni, maqol va matallarni ustalik bilan qo‘llaydi:

*Barīban ahbābu men g‘aflat asiri bolmag‘um,
Oyladurkim it uyub qaldīyu qachtī karvān.
Tokub may muhtasib, men yīg‘ladīm, lekin ul ösrukkā,
Suv kelturmāk hamanu ko‘zā sīshdurmāk hamān ermish.*

Navoiy dabdabali uslubni berishda, ko‘tarinki grajdanlik pafosini ifodalashda shunga xos so‘z va birikmalarni ishlatadi; *masihā, ruhullāh, kavkab, gardun*

(osmondan baland), *gardun-firyi* (oliy martabali), *garouni shig'av* (osmonni yoruvchi), *gardun-shukuh* (osmonday salobatli), *ekanfa'ayanda* (jonga rohat beruvchi). Biroq Navoiy bu uslubga to'la amal qilmadi. O'zidan oldingi arabcha kitobiy til an'anasiga zrgashmadi. Navoiy asarlari leksikasida arabcha va fors-tojikcha so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi: *avd* (qaytish), *adam* (yo'qlik), *asr\ir* (sirlar) *bayz* (oq), *barq* (yashin), *vahdat* (birlik), *da'b* (odat), *kavkab* (yulduz), *lahn* (ashula), *mujrib* (sszanda), *sahab* (bulut) kabi arabcha so'zlar; *tar* (ip), *tifl* (go'dak), *savt* (tovush), *ravzāna* (darcha), *paykar* (gavda), *āyin* (tartib), *nihān* (yashirin), *maykada* (mayxona) kabi.

Navoiy ko'tarinki grajdanlik pafosini ifodalashda poetik leksikaga murojaat qilgan. Bunday leksikaga Navoiydan oldin va undan keyingi shoirlar asarlarida ham uchraydigan so'zlarni kiritish mumkin: *bag'ir* (jigar), *bitig* (xat), *bitimäk* (yozmoq), *burna* (ilgari), *dubdurun* (oyoq tovushi), *yavutmaq* (yaqinlashtirmoq), *yalin* (shu'la), *ilik* (qo'l; irik (katta), *itik* (o'tkir), *itmak*-(yo'q bo'lmoq), *tüz* (to'g'ri) kabi.

SHoir romantik tasvirni berishda mifologik va qadimgi nomlarni ishlatadi: *Baraxman*, *Dajla*, *Jayxun*, *Jamshid*, *Joybar*, *Zuhal* (Saturn), *Zuhra* (Venera), *Nahid* (Mushtariy), *Dabir* (Yupiter), *Zal*, *Maniy*, *Xatami Tay* kabi.

Navoiy poetik nutqqa tantanali tus beruvchi turli xil murojaatlarni mohirlik bilan qo'llaydi:

Ey Navāiy yer uchun tartar eding g'urbatda ranj.

Ey musulmānlar, bilingkim, boldī umrum hāsili

Navoiy poetik asarlarida tazod, mumtane', tanosub (parallelizm), jonlantirish kabi badiiy usullarning, o'xshatish, mubolag'a kabi badiiy til vositalarining rang-barang va ajoyib namunalaridan mohirona foydalandi.

Tazod: *Jahānki, āhīm bil tiyrādur, emäs mumkin,*

Bu shām raf'i yuzung, subhi bolmayīn mavjud.

O'xshatish: *Shakar lablar tabassum qīlg'anīn kögäch köngüil bermä,*

Ki bedillärni achchīq yīg'latur āxir shu shakkarxand.

Tanosub: *Shah desāng kimdä körub tājīn*

Shāh degil bu vajh ilā muhtajīn.

Navoiy nasriy asarlarining tili va uslubi. Alisher Navoiy o'zbek tilining lug'at boyliklarini xalq nazmdagina emas, balki nasrda ham sinab ko'rdi. Uning nasriy asarlari adabiyotshunoslik, gilshunoslik, falsafa, axloq va tarixga doir ilmiy ishlaridan iborat. Bular «Mezonul-avzon», «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug'atayn», «Mahbubul-qulub», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nasoyimul-muhabbat», «Arbain», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Xamsatul mutahayyirin», «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Tarixi muluki Ajam» va boshqalardir.

Alisher Navoiy o'zining nasriy asarlarini ikki xil uslubda – dabdabali murakkab va sodda, ya'ni xalq tili uslubida ijod etdi. Dabdabali uslubda yozgan asarlarida arabcha, forsha so'z va shakllar ko'p qo'llanadi. Bunday asarlaridagi bayon jimjimador bo'lib, tema va mazmun ham dabdabali uslub bilan bog'liqdir. Masalan: „*U daqiq fanda qoshash va sa'y körgüzüb daxli tam va maqarati*

malakalam tapib erdi, dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar ega g'azallar tasnif qilur erdi" (Holoti Pahlavon Muhammad). „*Türk alfazi vazii asru köp vaqtda mubalag'a izhari qilib, juzviy mavhumat UCHUN alfaz vaz' qilibdurkim, sahib vuquf kishi ta zahir qilmas, inansa ham bolmas*" (Muhokamatul-lug'atayn).

Keltirilgan parchalardan ko'rinib turibdiki, Navoiy bayonidagi ko'pchilik so'zlar arab, fors-tojik tillariga oidligi uchun oddiy kitobxonlarga uncha tushunarli emas.

Navbiyning sodda uslubda yozilgan nasriy asarlari xalq uslubiga xos bayonga, tasviriy ifoda vositalariga ega. Masalan, Navoiy hammaga ma'lum bo'lgan Ezop haqidagi hikoyani Luqmon hakim tilidan yozar ekan, xalq so'zlashuv tiliga xos soddalik va puxtalikka intiladi: „*Ba'zi debtürlärkim, qul erdi va "azad bolg'anida muxtamid rivayat bar. Biri buki, hajasi bir rud qirg'ag'idin birev bile nard oynadi, shu shart biläki, mag'lub bolgan bu rud suvin tamam ichkäy ya malin bergäy. Va Luqman hajasi utquzdı. Harif rudxana suvin tugatmak taklif qildi. Va ul mutahayr boldi. Luqman dedi-kim, shart qiladurg'an vaqtdag'i suvni hazir qil ya g'arazing bu hazir suv bolg'an bolsa, rudning bu qnrrag'ishdag'i suvni ichgünchä nari qirg'ag'indag'i suvni turg'uz. Harif bu ishdin ajiz boldı. Hajasi xalas tapib, Luqmanni azad qildi*".

Navoiy nasriy asarlarida fikrni so'zlashuv nutqi sintaksisiga xos— ixcham va qisqa bayon etishga, savol-javob shakllaridan, so'z-gap, tarkibli qo'shma gaplardan foydalanadi. Ba'zi o'rinlarda so'zlashuv nutqi so'z tartibiga amal qiladi: „*Ashab hakimig' arz qilurlar. Hakim ul at tama'ig'aki, bu vasila bile shayad Xajadin taläsä bolg'ay, tösh-töshdägi yollärg'a kishilär chapturub, og'rılarni tutub, bir ulug' navkaridin Xaja xizmatig'a yibärür ikki kuhistanay og'ri bilä. Ashab ayturlarxi, hakam og'rinsh tutub, atin falan ulug' navkaridin yibäribtür, tashqaridur. Xaja derlärki, kirsun. Ul navkar kirgäch, Xaja ta'zim üçün qoparlar va ani olturturlar. Ul kishi mulazamlarig'a isharat qılur-kim, og'rılarni kiyirurlär, iliklari bog'lig'. Alar ham kirgäch, Xoja hamul dastur bile qoparlar va alarni olturturlar va iliklarin yeshtürürlär va sorarlarki, qayda-lig'siz? Derlerki, Kohistanlig'. Sorarlarki, hala, ulyan azim erdingiz. Derlerki: Bale. Derlerki, magar ayag' "erdingiz. Derlerki, bale. Derlerki, qopung, ul at sizgä darba-yisträkdür, alin, barin (Nasoimul muhabbat).*

Leksik jihatdan Navoiy nasriy asarlarining tili va uslubi poetik asarlari tili va uslubidan turli sohalarga tegishli atamalarga boyligi bilan ajralib turadi. Nasriy asarlar tilida ta'lim-tarbiya, falsafa, axloq va odobga, til va adabiyotga, tarixga oid ko'plab atamalar qo'llangan va bu tabiiydir.

Navoiy o'zbek adabiy tili lug'atini so'z va atamalar bilan boyitar ekan, ularning hamma uchun tushunarli bo'lishiga erishish, nutqdagi holatini ko'rsatish maqsadida o'zining va zamondoshlarining asarlaridan misollar keltirib izohlaydi. Masalan, turkiycha xolning kattasini «meng» deb atalishini izohlashda quyidagi baytni keltiradi:

*Anin-kim, al engindä men yarattı,
Boyı birlä sachinı ten yarattı.*

(„Muhabbatnoma"dan.)

Alisher Navoiy tomonidan kiritilgan atamalarning ko'pchiligi kelib chiqish jihatidan o'zbekchadir: *söz, til, qoshiq* kabi.

Ba'zi atamalar arab, fors tillaridan olingan bo'lib, ularning muqoyasasi o'zbek tilida ham bor: *alfaz-so'zlar, atrak-turklar, valid-ota, valida-ona, guftar-so'z, zaban-til, kalam-so'z, kalimat-so'zlar, kitaba-yozuv, kitabat-yozish, maktub-xat, lafz-so'z, lisan-til, nava-kuy* kabi.

Alisher Navoiy boshqa tillarga xos atamalarni kiritishda hech ikkilanmaydi. Masalan, «Mezonul-avzon» asarida aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari, uning turli tillardagi variantlarini bayon etar ekan, aruz nazariyasiga xos *tavil, madid, basit, vofir, komil, xazaj, rajaz, ramal, munsareh, muzore', muqtazab, mujtass, sare', jadid, qarib, hafif, mushoqil, mutaqorib, mutadorin* kabi arabcha, forsha atamalarni qo'llaydi. Bundan tashqari, Navoiy o'zbek she'riyatida arab, fors she'riyatidagidan boshqa turlari borligini ko'rsatadi. Navoiy ularni nomlashda xalq tiliga murojaat qiladi. Yangi vazn va she'riy shakllarni xalq orasida yuritilgan nomlar bilan, nomi, yo'qlarini esa aruzdagi vaznlardan qaysi biriga to'g'ri kelsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Navoiy bu o'rinda atama tanlashning ichki va tashqi manbalaridan samarali foydalanadi.

U xalq qo'shiqlariga xos vazn va she'riy shakllarni *tuyuq, qo'shiq, changi, muhabbatnoma, mustazod, oruzvoriy, turkiy* kabi atamalar bilan ataydi.

Navoiy qo'llagan atamalarning asosiy qismi hozir ham adabiyotshunoslik atamasi sifatida ishlatilmoqda.

SHunday qilib, Alisher Navoiy buyuk shoir bo'lish bilan birga, olim sifatida ham o'zbek adabiy tilini boyitdi. U nasriy asarlarini dabdabali uslubdan ko'ra ko'prok xalq tiliga xos uslubda yaratdi.

Navoiy maktublarining tili va uslubi. Buyuk mutafakkir Navoiy badiiy va ilmiy asarlar bilan bir qatorda davlat hujjatlari va xatlarni ham fors-tojik tilidan qolishmaydigan darajada o'zbek tilida yozish mumkin, deb hisobladi: „Munshaot", „Vaqfiya" kabi asarlarini o'zbek tilida yozib namuna ko'rsatdi. Bu asarlarida turli xil xatlar, davlat hujjatlari va vaqfnomalardan namunalar keltiradi. SHoir bu asarlarini yozishdan maqsadini „Munshaot"da shun day ifodalaydi: "... .va muqabalada farsiy alfaznīh dilpazir inshalarī mavjud va dilpisand makatib damlalar n ma'bud, Ta xayalg'a andaq keldikim, turk alfazīnī dag'ī ruq'alari hamul, misal bile aytilg'ay va bu til namlarīn ham oshul minval bilā sabt etilgāy".

Navoiy «turk alfozi»da «noma»lar bitar ekan, ularning tili va uslubi sodda, ravonligi bilan ajralib turadi.

Navoiy maktublarida jumla va gaplar. so'zlashuv nutqi tarzida tuzilgan. SHoir maktublarini xalq tilining go'zal namunasi desa bo'ladi. Hozirgi o'zbek tilida maktublar ko'pincha tartib sonli gaplar bilan boshlansa, Navoiyda kirish iboralar ko'p ishlatiladi: *keräk erdikim, yana ulkim, bil lah, halakim, iltimas ulkim* kabi: „YAna ulkim, mundīn artug' juz'iyati arz qīlīlsada shayad mutalaasi mujibi kalami xatir bolg'ay. Ammo sa'y qilīlsakim, jam'i umurda tengri taala yadidīn g'afil bolulmasa".

A.Navoiy maktublarida gaplar fe'lining asosan shart, buyruq-istak shakllarini olgan so'zlar bilan tugaydi: *banda-navaz bolg'ay, arzig'a yetkürülsä, jurmana alsalar, mazkur bolsa* kabi.

Navoiy yoshlarga ichkilikning foydasidan ko‘ra zarari ko‘pligini ta’kidlab xat yozar ekan, yuqoridagi shakllardan samarali foydalanadi: *Yana ulkim, majlis qurub chag‘ir ichärgä köp hirs körsätilmäsä, agar ahyanan bizzarur vaqe’ bolsa, navvabga muqarrar qshlilsakim, hukm bolmag‘an kishi mutlaqa mo‘rtakib bolmasa, ya majlisda tartibe mar‘i bolsa*". YOki: „*Agarchi kichik erding, amma andaq emäski, xatiringdin mahv bolmish bolg‘ay va agarchi tafl erding, andaq ermäski, zamiringdin unutülmish bolg‘ay*".

Maktublar leksikasida arabcha-forscha so‘zlar kam uchraydi.

Umuman, Alisher Navoiy o‘z maktublari bilan o‘zbek tilining noma uslubini boshlab berdi va uning etuk namunalarini yaratdi.

«Muhokamatul-lug‘atayn» va uning o‘zbek tili taraqqiyotidagi tutgan o‘rni. Navoiy o‘zining «CHor devon», «Xamsa», «Mahbubul-qulub», «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon» kabi asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini amaliy jihatdan asoslagan bo‘lsa, «Muhokamatul-lug‘atayn» asarida nazariy tomondan asosladi. Bu asar Navoiy umrining oxirlarida – 1499 yilda yozilgan.

«Muhokamatul-lug‘atayn»da eski o‘zbek tili bilan fors-tojik tili bir-biriga chog‘ishtiriladi. Bu bilan A. Navoiy noqardosh tillarni qiyosiy o‘rganish metodini boshlab berdi. U o‘zbek tilini fors-tojik tili bilan chog‘ishtirar ekan, o‘zbek tilining ham boy imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Navoiy bu asarida tillarni qiyosiy o‘rganish bilan umumiy tilshunoslikka doir fikrlar ham bildiradi. «Muhokamatul-lug‘atayn»da til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqida mulohaza yuritadi.

Navoiyning «Muhokamatul-lug‘atayn» asarida olg‘a surilgan va o‘zbek tili tarixi uchun qimmatli fikrlar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbek tilini fors-tojik tili bilan chog‘ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko‘rsatdi va yozuvchilarni o‘zbek tilida asarlar yozishga rag‘batlantirdi.

2. Navoiy ikki tilni chog‘ishtirish bilan o‘zbek tish lug‘at boyligining ustunligini ko‘rsatdi. Asarda 100 fe‘lni keltirib, ularni tahlil qildi va o‘zbek tilini xazina deb bildi. Lekin u xazinaning atrofini, Navoiy ta’biri bilan aytganda, «ilon»lar va «tikan»lar o‘rab olgan edi. Navoiy ana shu «ilon» va «tikan» lardan qo‘rqmasdan, o‘zbek tilidan foydalanishga yozuvchilarni da’vat etdi.

3. Navoiy o‘zbek tilining so‘z yasalishi borasida ustunligini ko‘rsatib, «Muhokamatul-lug‘atayn»da o‘zbek tilidagi so‘z yasalishi haqida qimmatli fikrlar bildirdi. Ayniqsa, uning ot yasovchi *-chī/-chi*, *-vul* qo‘shimchalari, fe‘l shakllarini hosil qiluvchi *-sh*, *-t*, *-l* qo‘shimchalari haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

4.O‘zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir /original fikrlar mavjuddir. Navoiy vov (u, v) va yoy (i,yo) tovushlarining turlicha talaffuz etilish natijasida so‘z ma’nolarining o‘zgarishinch quyidagicha ifodalaydi: „*Va kök lafzīn ham neche ma’ni bilān iste’mal qīlurlar, Biri kök–asmanī derler, yana kök ahangdur, yana kök tegrādā köklāmdur, yana kök qadag‘nī ham derler, yana kök sabza va olangnī dag‘ī derlār*".

5. O‘zbek va fors-tojik tillarini chog‘ishtirish jarayonida o‘zbek tili uslubiyasiga xos xususiyatlarni ham bayon etadi.

O'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, o'zining qaysi janr va uslubda asarlar yozganligini alohida ta'kidlaydi. Navoiy, o'zi aytganidek, uning so'zlarining martabasi yuqoriilikdan pastga tushmaydi. Uning asarlari o'zbek xalqi tomonidan yuqori baholandi va qayta-qayta nashr ettirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Alisher Navoiy – ona tili sofligi uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?*
2. *Alisher Navoiyning adabiy til haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.*
3. *Alisher Navoiy asarlarining fonetik xususiyatlari haqida qaysi olimlar fikr yuritishgan?*
4. *Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari haqida A.Rustamov bildirgan fikrlarni misollar bilan tushuntiring.*
5. *Alisher Navoiy asarlarining leksik xususiyatlari haqida B.Bafoev qanday dalillarni isbot etadi?*
6. *“Muhokamatul-lug‘atayn” asarida Alisher Navoiy nechta lablangan unli ustida to‘xtaladi, ular qaysilar?*

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov va boshqalar. O'zbek adabiy tili tarixi. T., 1995.
2. G'. Abdurahmonov, A. Rustamov. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. T.: Fan, 1984.
3. B. Bafoev. Navoiy asarlari leksikasi. T.: Fan, 1983.
4. Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка. –Сб. “Алишер Навои”. М.–Л. 1946, 62-84-betlar.
5. Navoiy. “Muhokamatul-lug‘atayn”. Nashrga tayyorlovchilar: P. SHamsiev va Oybek. T.: O'zdatnashr, 1948.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. XV tomlik. XIV tom. Toshkent, 1967.
2. Bafoev B. Navoiy asarlarida sinonimlar//O'zbek tili va adabiyoti, 1980, 6-son, 22-28-betlar.
3. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. I/IV tomlar. E.I. Fozilov tahriri ostida. 1983-1985 yillar.

9-ma'ruza: XVII ASR O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTINI O'RGANISHDA BOBUR VA MUHAMMAD SOLIH ASARLARINING AHAMIYATI

Reja:

1. Bobur asarlarining umumiy xususiyatlari.
2. Bobur asarlarining morfologik va leksik xususiyatlari.
3. Muhammad Solih asarlarining morfologiyasi xususida.
4. "SHayboniynoma" asarining leksik jihatdan boy ekanligi.

Tayanch tushunchalar: 1. Boburning shoh bo'lish bilan birgaikda o'zbek tili va eski o'zbek tilining ravnaqi uchun amalga oshirgan ishlari. 2. Bobur o'z asarlarida qo'llagan eski o'zbek tilining lisoniy xususiyatlari. 3. Muhammad Solihning "SHayboniynoma" dostoni birinchi realistik asar sifatida o'sha davrning o'zbek tilini bizgacha etkazib kelganligi. 4. Muhammad Solih foydalangan lisoniy birliklar.

Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoviy adabiyotning go'zal namunalarini yaratgan lirik shoir va zo'r ilmiy-tarixiy qimmatga ega bo'lgan memuar asar «Boburnoma»ning muallifidir.

Bobur asarlarining ijobiy tomonlaridan biri – tilining soddaligidir. U asarlarini sodda tilda yozdi va boshqalarni ham shunday yozishga chaqirdi. Bu haqda Boburning o'g'li Humoyunga yozgan xati xarakterlidir. O'g'lining dabdabali uslubda yozil-gan bir xatini tanqid qilib, u shunday yozadi: „*Mundīn narī betakalluf va ravshan va pāk alfāz bile bitī, ham sengā tashvish azraq bolur, ham oqug'uvchīg'a*\".

Boburning sodda uslub va til bilan yozishni talab etishi va shunga o'zining amal qilishi ijobiy hodisadir.

Badiiy uslubning soddaligi Bobur asarlarining o'quvchiga tez anglashilarli, badiiy tasvir vositalarining ommabop bo'lishiga olib keldi.

Bobur she'rlarida xalq maqollari va ifodalaridan unumli foydalandi:

Har yerdeki gul bolsa, tikān bolsa netang,

Da'vāyi ishq etib, g'ayr, Baburni ayb qnlma.

Kim man edim seningdek, sen bolg'aysen meningdek.

Bobur parallelizm, tazod, lof va nashr, o'xshatish, mubolag'a kabi badiiy til vositalari orqali temani yaxshiroq yoritishga erishdi.

Bobur xalq og'zaki ijodidagi askiyachilik mahoratini yaxshi o'rgandi. Natijada u omonim va polisemantik so'zlardan hamda so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalanib, o'zbek tilida tuyuqning ajoyib yaamunalarini yaratdi:

Qaddīmni firāq mehnatī yā qīldī (yoydek egdi),

Kōñlūm g'amu anduh otīga yaqīldī (kuydi).

Hālīmni sabāg'a aytīb erdim, ey gul,

Bilmān, sengā sharh qīlmadī yā qīldī (yoki qildi).

Bobur badiiy nasr namunasi bo'lgan «Boburnoma»ni Hindistonda eski o'zbek tilida yaratdi. Bu asar o'z davriga nisbatan sodda va obrazli tilda yozildi.

«Boburnoma» asari juda qimmatli tarixiy-badiiy asar boʻlib, unda Markaziy Osiyo, Afgʻoniston, Hindiston kabi mamlakatlarning XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi ahvoli, geografiyasi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti oʻz aksini topdi.

Asarning asl nomi «Voqeanoma» boʻlib, u baʼzan «Boburiya» deb atalgan, tarjimalarda «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy» va soʻngroq «Boburnoma» deb ataldi.

«Boburnoma»ning 14 ga yaqin qoʻl yozma nusxasi mavjud boʻlib, ularning koʻpi XVII–XVIII asrlarda turli kishilar tomonidan koʻchirilgan. Bu nusxalar hozir Leningrad, Kalkutta, Haydarobod, London, Agra, Manchester, Edinburg kabi joylarda saqlanadi.

«Boburnoma»ning bir nusxasi 1737 yilda koʻchirilib, shu nusxa 1857 yilda Qozonda rus olimi N.Ilminskiy tomonidan nashr ettirildi. Haydarobod nusxasi asosida ingliz olimi A. Beverij 1905 yilda Londonda bostirdi.

«Boburnoma» 1586 yilda fors tiliga, ayrim parchalari 1705 yilda Vitsen tomonidan golland tiliga, Djon Leyden, V. Erskinlar tomonidan 1826 yilda, R. M. Qaldekot tomonidan 1844 yilda ingliz tiliga, 1828 yilda A. Keyzer tomonidan nemis tiliga, 1791 yilda Pave de Kurteyl tomonidan frantsuz tiliga, XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda M. Salʼe tomonidan rus tiliga tarjima qilindi.

«Boburnoma»ning Qozon va London nusxalari 1948–1949 yillarda Toshkentda ikki kitob holida toʻla nashr ettirildi. Beaʼzi tuzatishlar va chogʻishtirishlar asosida 1960 yilda yana qayta nashr qilindi.

«Boburnoma» XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealarni toʻgʻri aks ettirishi jihatdangina qimmatli boʻlib qolmay, u oʻsha davrdagi oʻzbek tili ahvolini oʻrganish uchun ham muhim manba hisoblanadi.

«Boburnoma» asari orqali Boburning xalq jonli tilining boyliklarini chuqur oʻrganib va egallab olganligi, adabil tilni xalq jonli tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qilganligi yaqqol koʻriqadi. Bobur tilni boyitishga va soddalashtirishga, bar-qaror qoʻllanilmagan koʻp soʻzlarni ishlatishga harakat qildi va ulardan oʻrinli foydalandi.

„Boburnoma“ asarining mazmuni va tilini boyitish uchun Bobur xalq maqollari hamda taʼbirlariga katta eʼtibor berdi. Unda faqat oʻzbek maqollarinigina emas, balki fors-tojik tili maqollarili ham qoʻlladi. Bular asar tilining shirali, ommaga tushunarli boʻlishi uchun xizmat qildi. Masalan: ***Qapudagʻīnī qapmasa, qariguncha qaygʻurur. Közlärini tüz tutti. Dushman ne demäs, tüşhkä, ne kirmäs. Dah kujävu daraxtan kujä*** (Qishloq qaydayu daraxtlar qayda). ***Uzrash battar az gunäh*** (Uzri gunohidan yomonroq). ***An guzarrä āb burd*** (U koʻchani suv olib ketdi). ***Marg bāyārān sur ast*** (Doʻstlar bilak birga boʻlib oʻlmok; toʻydir).

«Boburnoma» tilining muhim xususiyatlaridan biri ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligidir. Buning uchun u soʻzlarni tanlab ishlatishga, oz soʻz bilan koʻprok fikrni bayon etishga harakat qildi. Oʻzbek tilining soʻz boyligidan ijodiy foydalanib, undagi sinonim, omonim va antonim soʻzlarni keng va oʻrinli ishlatdi.

„Boburnoma“da fikrlar koʻproq sodda gap shaklda beriladi. Qoʻshma gaplar ham sodda gaplarga oʻxshash tuzilishda boʻlib, osonlik bilan tarkibiy qismlarga ajraladi: *Ta anda yetkünchä, mening balän sekiz kishi qalib edi.*

Bobur Andijon va uning atrofidagi shaharlar haqida ma'lumot berar ekan, ular haqida murakkab bo'lmagan, ixcham-jumlalar bilan fikr yuritadi: „*Mavaraunnahr Samarqand va Kesh qorg'anidīn songra mundin ulug'raq qorg'an yoqdur, ūch darvāzasi bar. Arki janub tarafida vaqe bolubtur. Toqquz-tarnav suv kirār. Bu ajabturkim, bir erdan ham chiqmas*”-

Bu parchani hozirgi zamon kitobxoni ham lug'atsiz bemalol tushuna oladi.

„Boburnoma" asarining tili quyidagi xususiyatlari bilan ham xarakterlanadi.

1. „Boburnoma" tilining turlanish kategoriyasi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Boshqa yodgorliklardagi kabi unda ham chiqish kelishigi

-dīn /-din qo'shimchasi orqali yasaladi. Qolgan kelishik qo'shimchalari hozirgi o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalariga o'xshash. Masalan: *Andijan suyi Oshdīn kelūr*, *Axsi suyi Kasandīn kelār*. Lekin „Boburnoma"da qaratqich bilan tushum, o'rin-payt bilan jo'nalish va o'rin-payt bilan chiqish kelishiklari bir-birining o'rnida qo'llana beradi: *Xojandda kelib zdi. Xahangir Mirzāqa Tanbal tgaqasīg'a kelib edi. Hand fathīda song*.

Mavhum egalik ma'nosini ifodalovchi **-niki** qo'shimchasining vazifasini qaratqich kelishigining qo'shimchasi **-nūg/-ning** bajaradi: *Har vilayatkim musahhar bolsa, chahār dang mirzanīng bolg'ay, du dang anīng*. SHu bilan birga, ba'zan bu ma'noda **-niki** qo'shimchasi qo'llanishi ham uchraydi: *Kōngulde ul edi kim,... SHayx Bāyazidni Tanbaldīn ayirib bizniki bolg'ay*.

2. „Boburnoma"da nisbiy sifat va mavhum otlar yasash uchun **-līg/-lig/-līq/-lik** qo'shimchasi ishlatiladi: *Bu ataluq, og'ulluq Tambalga arqalanib bunday harakatlar bunyād qildilar*.

3. „Boburnoma" tilida hozirgi o'zbek tiliga xos bo'lgan **-ta** bilan yasalgan donalik sonlar, **-tadan** bilan yasalgan ulush sonlar, **-tacha** bilan yasalgan chama sonlar **-lab** bilan yasalgan ayiruv-ulush sonlar uchramaydi.

Ayiruv-ulush sonlar asosan **-r (-rār)** qo'shimchasi bilan, chama sonlar esa sintaktik yo'l bilan ifodalanadi: *Sipāhī va raiyat nāumed bolub birār-ikkirār qorg'andin tashlab qacha kirishdilār. Yüz chag'līq*.

4.Uchinchi shaxs kishilik olmoshi son va kelishiklar bilan turlanganda qadimgi shakli namoyon bo'ladi: *ul-ani, aning, anga, andin*.

Hozirgi o'zbek tilidagi so'roq olmoshlaridan tashqari, *ne, nechūk qatu olmoshlari mavjud*.

Hozirgi belgilash olmoshi ma'nosida *hamma, jame', butun, barcha* bilan birga „Boburnoma" tilida *tügāl, bari* kabi so'zlar ham qo'llangan.

5.Hozirgi o'zbek tilidagi ravishlar „Boburnoma"da ham uchraydi, lekin unda hozirgi tilda bo'lmagan *asru* (ko'p, juda ko'p), *otru* (ro'baro', qarama-qarshi) ravishlar juda ko'p ishlatilgan.

6. „Boburnoma"da qo'llangan so'ng ko'makchilar hozirgi o'zbek tilidagiga o'xshaydi. Lekin unda *sayīn* ko'makchisining *sayi* ko'rinishi, *bilān* ko'makchisining *bilā, birlā, ilā* ko'rinishlari mavjud, *Old* va *yon* ko'makchilari

oʻrnida koʻproq *qash* koʻmakchisi ishlatiladi: *Songralar Sultan Mahmudxān qashīgʻa bardī*.

7., „Boburnoma“ tilida oʻtimli feʼllarning majhul darajadagi shakl tushum kelishigidagi otlarni boshqarish xususiyatiga ega. Bu shakl hozirgi oʻzbek tilida uchramaydi: *Urdunīng va urdu otrusīnī mazbud va mustahkam qīlildi*.

Hozirgi-kelasi zamon feʼli –**adur/-ädür** qoʻshimchasi yordamida hosil boʻladi: *kelädürmen, kelädürsen* kabi.

„Boburnoma“da eski uygʻur tiliga xos baʼzi zamon shakllari mavjud. Ulardan biri -gʻu/-gu qoʻshimchali kelasi zamon feʼlidir: *kelgüm, kelgüng, kelgüsi* kabi.

„Boburnoma“da -**gʻu/ -gu** qoʻshimchasiga boshqa qoʻshimchalarning birikishidan hosil boʻluvchi ish-harakat oti keng qoʻllangan: *bargʻuluq, bargʻusī, bargʻudek, bargʻuchi* kabi.

Buyruq-istak maylining I shaxs shakl -**alīḡ** bilan yasalgan turi keng tarqalgan: *Xan qashīgʻa Tashkentga baralīng*.

„Boburnoma“da sifatdoshning asosan -**gʻan/-gän, -adurgʻan/-ädürgän, -r** qoʻshimchalari bilan hosil boʻluvchi shakllari qoʻllangan: *bargʻan, kelgän, baradurgʻan, kelädürgön, barur, kelür* kabi.

„Boburnoma“da -a/-ä qoʻshimchasi bilan hosil boʻluvchi ravishdosh shakli keng qoʻllanilgan. -**gʻuncha/-güncḡä** qoʻshimchasi bilan hosil boʻluvchi ravishdosh shakl kesim va tarkibli kesimning qismi vazifasida ham qoʻllangan: *Daqiqaning miqdari taqriban altī fatihani bismilla bile oqugunchadmr*.

Navoiyda boʻlganidek hozirgi-kelasi zamon feʼli I shaxs birligining boʻlishsiz shakli -**man/-män** qoʻshimchasi bilan ham hosil qilinadi: *Bilmän özlükidan bermädimü yā yuqaridin ishārat boldimu*. Infinitivning boʻlishsia shakl -**ma/-mä** qoʻshimchasi orqali ifodalanadi: *Ish qapugʻa kelgän mahalda jid va ehtimāmni, taqsir qīlmamaq kerek*.

8., „Boburnoma“dagi bogʻlovchilar hozirgi bogʻlovchilarga qisman toʻgʻri keladi. Unda koʻpincha *dagʻi, vale* (lekin, ammo), *vayā (yoki)* bogʻlovchilari koʻproq ishlatiladi.

Asarda ergashtiruvchi bogʻlovchilarning bir qanchasi qoʻllanadi. Bularning koʻpchiligi -**ki** bogʻlovchisi ishtirokida hosil boʻlgan bogʻlovchi va bogʻlovchilashgan soʻzlardir: -*ki, -kim, vaqtiki, gāhikim, ne üchünkim, bu jihatdinkim, negākim: Ani üchünkim, Mir Alisher Navāiyning musannāfāti bāvujudkim, Hirida nashʻu navā tapibtur, bu til bilädür*,

«Boburnoma» leksikasida quyidagi soʻzlar uchraydi: *yavuuq* (yaqin), *cherik* (askar, qoʻshin), *qabamaq* (hamamoq), *īlgʻar, tuz* (tekis er), *arīmaq* (ketmoq), *ilik* (qoʻl), *ulus* (xalq), *qazaqliq* (darbadarlik), *yanmaq* (qaytmoq), *qopmaq*. (turmoq), *qasaba* (shaharcha), *vasat* (oʻrtaliq), *vāfir* (moʻl-koʻl) kabilar.

Umuman, Bobur «Boburnoma» va boshqa asarlari bilan til donishmandi boʻlganligini va til boyliklaridan, jonli tilning xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalanganini koʻrsatdi, oʻzbek badiiy nasrsi etarli tajribaga ega boʻlmagan bir davrda nasr tilida katta muvaffaqiyatni qoʻlga kiritdi.

Bobur tilidagi soddalik, ravonlik va ixchamlik XVII asrda Abulgʻozi Bahodirxon tomonidan yozilgan «SHajarai turk» va «SHajarai tarokima» asarlarida davom ettirildi.

TARIXIY DOSTONCHILIKDA TIL VA USLUB MASALASI

Oʻzbek adabiyotining va adabiy tilining ulkan namoyandalaridan biri Muhammad Solih mumtoz adabiyotda birinchi tarixiy doston boʻlgan «SHayboniynoma»ning muallifidir.

«SHayboniynoma» temuriylar bilan shayboniylar oʻrtasidagi urushlarning daxshatli manzaralarini tasvirolovchi, badiiy uslubi va obrazli tili bilan mumtoz adabiyotning qimmatbaho yodgorligidir.

«SHayboniynoma» dostoni 76 bobdan iborat boʻlib, uning Qosim nomli kotib tomonidan koʻchirilgan nusxasi Venada saqlanadi. Dostonni shu nusxa asosida G. Vamberi 1885 yilda nemis tilida nashr ettiradi. 1908 yilda turkolog P. M. Melioranskiy tomonidan chop ettiriladi. Faqat 1961 yilga kelib, «SHayboniynoma» ning hozirgi oʻzbek grafikasidagi matni nashr etiladi.

«SHayboniynoma» tarixiy dostonchilikning toʻngʻich asari boʻlib, unda aniq tarixiy voqealar hikoya qilinadi. Dostonda realizm ruhi maʼlum darajada badiiy uslubning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Realizm ruhlari faktlarning mazmunidagina emas, balki ularni bayon etish va ifodalashning badiiy usullarida, badiiy til vositalarida, xullas, mazmun bilan shaklning birligida koʻrinadi.

Muhammad Solih dostonda adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtirishga, jonli til xazinasidan foydalanib, adabiy tilni boyitishga munosib hissa qoʻshadi. Uning tasviriy ifoda uslubi badiiy sodd va rang-barangdir. SHoir xalq tili xazinasidan foydalanib, sodd, jonli oʻxshatishlar, sifatlashlar, anaforalar topadi. Masalan, Buxoro hokimi Boqitarxon xarakterini ochib berish uchun quyidagi oʻxshatishni ishlatadi:

*Bar edi sözi unīng nādānlärdek,
Qīlīg ‘ī yashg ‘īna og ‘lanlardek.*

Xalq tili boyliklaridan mukammal foydalanib, xarakterli jonlantirish va mubolagʻalar qoʻllaydi:

*Boldī bisyār uzum birlä qavun,
Har biri debki: „Mening birlä avun.*

Mumtoz adabiyotda baytning birinchi misrasidagi barcha soʻzlarga ikkinchi misradagi hamma soʻzlar qofiyadosh boʻlsa, bu **tarse** deb ataladi. Muhammad Solih original tarselar ijod qildi:

*Tozīb erdi navkarī Baburning,
Erib erdi jigarī Baburning.*

Quyidagi parchada M. Solih Bobur askarlarining qochishini shunday mubolagʻa bilan tasvirlaydi:

*Bir sarī yolīnī daryā tutdī,
Suvg ‘a tushkānni balīg ‘lar yutdī.*

M. Solih omograf soʻzlar yordamida original soʻz oʻyini yaratadi:

*Sāhibi jilvada bāstan ichidā (uzum nomi),
Qan yutub sāhibi qorg ‘an ichidā (egasi).*

YUqoridagi tasviriy vositalarni yaratishda M.Solih o'zbek tilining so'z boyligidan va grammatik xususiyatlaridan unumli foydalangan. Unda quyidagi grammatik xususiyatlarni ko'rish mumkin:

1. „SHayboniynoma" tilida tushum kelishigi uchun -nī/-ni, -n, jo'nalish kelishigi uchun -g'a/-gä// -qa/-kä", -a/-ä qo'shimchali shakllar ishlatilgan: *arig' īnī, shahar halīn, sözümnī, sug'a, közgüchä, otqa, körmäkkä, bashima, könglümä* kabi.

Otlarning egalik bilan turlanishi hozirgi o'zbek tilidagi kabidir.

„SHayboniynoma"da o'zbekcha ko'plik shakl bilan birga, arabcha, forsha ko'plik shakllari ham qo'llanadi: *barcha mirzalar, bari nukarlar; funun* (fanlar), *qalmaqan* (qalmoqlar) kabi.

„SHayboniynoma"da o'zbekcha ot yasovchi qo'shimchalar bilan birga forsha shakllar ham bor: *oqchi, kenäshchi, on-künlik, yillik, byohad*. Ayniqsa, fe'ldan ot yasash hollari ko'p tarqalgan: *qorqaq, qurumsaq, ölet, yamg'ur* (yamg'ur), *yurtavul, qabal, yasal* kabi.

2.Sonlar „SHayboniynoma"da hozirgi o'zbek tilidagi kabi shakllarga ega. Tartib sonlar -**inch** qo'shimchasi bilan ham yasaladi: *törtinch* kabi. „O'n ming" ma'nosida *tuman*, „yuz ming" ma'nosida *lak*, „million" ma'nosida *yüz tuman* so'zlari ishlatilgan.

3.„SHayboniynoma" tilidagi kishilik olmoshlari hozirgi kishilik olmoshlariga to'g'ri keladi.

Gumon olmoshi ma'nosida *kimsä, kimärsä, falan* kabi so'zlar xam qo'llangan. So'roq olmoshining *qayu, netäk, qayan* shakllari xam ishlatilgan: *Kel falan kgche falan kocha sari*. So'roq olmoshlarining ham hozirgi so'roq olmoshlaridan farqli *ne, nelär* shakllari ham bor.

4. „SHayboniynoma" tilidagi fe'l, uning grammatik kategoriyalari, ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilidagiga o'xshash, yaqin bo'lsa-da, ba'zi tomonlari bilan farqlanadi.

Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birligi. -g'ıl/-gil qo'shimchalari orqali hosil qilinadi: *bergil, oturg'ıl, körgil, qopg'ıl*.

Buyruq istak maylining I shaxs ko'pligi uchun -**alı/-äli** qo'shimchali shakl qo'llangan: *chiqali, köräli* kabi.

5.„SHayboniynoma" tilidagi ravishlar hozirgi ravishlarga o'xshaydi. Ammo hozirgi tilda qo'llanmaydigan *anda, asru, g'äliiba, filhāl* ravishlari ham uchraidi: *Bar emish anda hamish asru qalin. Anda* ravishi, ba'zan ko'plik qo'shimchasini ham qabul qiladi: *andalar*.

6.Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ko'makchilardan tashqari, „SHayboniynoma" tilida qatshda, *qashig'a, üzä, bikin, tegrä degin, tggi, burna* ...kabi ko'makchilar ham uchraydi: *xān qatīda, ulus qashīg'a, taxtī üzä, shaharnīng tegräsīgä* (shaharning atrofiga), *xan kelishidan burna* kabi.

7.„SHayboniynoma" tilida hozirgi bog'lovchilardan farqli *vale, lek, yoq ersä, yoq esä; gar, -chu, chun* bog'lovchilari mavjud: *öfkälärmen yoq esä banda sengä. Lek el andīn emästir xushnud. CHun* bu sözlärni eshitti sultān.

M. Solihning «SHayboniynoma» asarida forsha, arabcha so'zlarni ozrok, jonli tildagi so'zlarni mumkin qadar ko'proq ishlatishga harakat qilingan. Dostonda iste'moldan chiqqa boshlagan, badiny adabiyotda kam uchraydigan

quyidagi soʻzlar ham uchraydi: *obagʻa* (bobo), *abaga* (amaki), *cherik* (qoʻshin), *qabqa* (darvoza) kabi.

Dostonda *dushman* soʻzining *xasm*, *jav*, *aʻda*, *yav*, *muxālif* kabi, *xalq* soʻzining *ulus*, *el*, *raiyyat* kabi sinonimik qatorlaridan oʻrinli foydalanilgan.

M. Solih „SHayboniynoma“ dostoni orqali maishiy sohaga, harbiy texnikaga va boshqa sohalarga doir koʻpgina atamalar, nomlar, atamalarni oʻzbek adabiy tiliga kiritdi. Ularning oʻzbekcha nomlarini ishlatishga harakat qildi. Masalan: harbiy qurollar nomi – *sagʻit*, *dubulgʻa*, *manglayliq*, *zanuband*; jangchilar qoʻnadigan_joy nomlari – *peshxana*, *sarā parda*, *bavarjixāna*, *shamiyāna*; ot-ulov nomlari – *qotas*, *ubchin*; may idishi nomlari – *köräki*, *mashraba*; mato nomlari – *taja*, *yazdiy*; urugʻ- qabilalar nomlari – *burqut*, *mangqit* (mangʻit), *nayman*, *darman*, *oshun*, *jalayir*, *qarluq*, *sulduz*, *nüküz* va boshqalar.

„SHayboniynoma“da bir qancha zoonim, oronim va oʻzbekcha toponimlarni uchratamiz. Unda *Adaq*, *Alvand*, *Andahud*, *Ashkamish*, *Varzāb*, *Qavirxān*, *Kohaq*, *Taysun*, *Tashqan* kabi jugʻrofiy nomlar uchraydi.

Umuman, Muhammad Solih Alisher Navoiyning oʻzbek adabiy tili taraqqiyoti uchun kurash yoʻlini davom ettirgan shoirlardan biridir. U «SHayboniynoma» dostonida oʻzbek adabiy tilining soʻz boyligi va jonli tildan samarali foydalanib, grammatik for-malarning barqarorligini taʼminlashda katta xizmat qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Bobur yaratgan asarlar haqida maʼlumot bering.*
2. *Boburning tili haqida qaysi olimlar oʻz fikrlarini bildiradi?*
3. *„Boburnoma“da hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun eskirgan qanday morfologik shakllar qoʻllangan?*
2. *Bobur asarlarining leksik xususiyatlari haqida maʼlumot bering.*
3. *Muhammad Solih asarlarining morfologiyasi xususida.*
4. *„Shayboniynoma“ asarida qanday sinonimlar qoʻllanadi?*

Zaruriy adabiyotlar:

1. *Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lugʻat.* T., 1972.
2. *Nazarova X. Bobir va oʻzbek adabiy tili.* T., 1983.
3. *Turobova M. Muhammad Solihning „SHayboniynoma“ asari morfologiyasi.* NDA, T., 1974.
4. *Axmedov N. Muhammad Solihning „Shayboniynoma“ asari leksikasi.* NDA, T., 1966.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. *Morfologicheskie ossobennosti yazyka „SHaybaniynoma“ Muxammeda Salixa .* Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1966.
2. *Ahmatov N. Muhammad Solihning „SHayboniynoma“ asari leksikasi.* Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1991.

10-ma'ruza: XVII ASR VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEK ADABIY TILI

Reja:

1. Davr adabiy tilining xususiyatlari.
2. Abulg'azi Bahodirxon asarlariniig tili va uslubi
3. Turdi satiralarining tili va uslubi
4. Muhammad Xoksorning «Muntaxabul lug'at» asarining o'zbek adabiy tili ilmiy atamalogiyasi taraqqiyotidagi roli.
5. Muhammadniyoz Nishotiy asarlari tilida Navoiy an'anasining davom ettirilishi.
6. Munis asarlarining tili va uslubi.
7. XVII–XIX asrlardagi lug'at va grammatik asarlarning adabiy tilni me'yorlashtirishdagi roli.

Tayanch tushunchalar: 1. Bu davrda o'zaro urushlar tufayli O'rta Osiyoning inqirozga yuz tutganligi. 2. Eski o'zbek adabiy tili taraqqiyotining ikkinchi yarmida adbiy til xalq jonli tili asosida ravnaq topganligi. 3. Bu davrda ilmiy atamashunoslik ham bir qadar rivojlana boshlaganligi. 4. XVII-XIX asrlar adabiy tili adabiy til me'yorlari bilan tartibga keltira boshlanishi.

Davr adabiy tilining xususiyatlari. Markaziy Osiyoning siyosiy, madaniy hayotida ro'y bergan tushkunlik XVI asrning oxiri va XVII asrning boshida yana chuqurlashdi, feodal jamiyatining iqtisodiy, siyosiy hayotida kuchli tanazul vujudga keldi.

SHayboniylardan keyin hukmronlik qilgan ashtarxoniylar ham feodalizm tuzumida umumiy osoyishtalik, obodonlik va madaniy taraqqiyotning garovi bo'lmish markazlashgan hukumat tuza olmadilar.

Markaziy Osiyo uch xonlik (Buxoro, Xeva, Qo'qon xonliklari) va bir qancha mayda bekliklarga bo'lingan edi. Bu xonliklar o'rtasida qonli kurashlar davom etardi. Buning ustiga Eron shohi Nodirning XVIII asr o'rtalaridagi bosqinchiligi mamlakat xo'jaligini izdan chiqardi. Bundan tashqari, so'ngi feodalizm davri har uchala xonlikdagi mehnatkash ommaning feodal jabr-zulmiga qarshi keskin kurashi bilan xarakterlanadi. So'nggi feodalizm XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda mamlakatning xo'jalik hayotidagi tushkunlik ma'naviy va adabiy hayotda o'z ifodasini topdi.

Keskin tus olgan sinfiy kurash sharoitida adabiyotda ham bir-biriga zid qarashlarni ifodalagan demokratik ruhdagi va diniy-mistik ruhdagi feodal-saroy adabiyoti mavjud edi.

Bu davrning adabiy tili mahalliy shevalarga tayangan holda rivojlandi. XVII–XIX asrlar o'zbek adabiy tilini o'rganishda o'sha davrda yaratilgan tarix asarlari, tazkiralari, shoirlarning ijodlari asosiy manba bo'ladi.

XVII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo tarixchilari tarix va geografiyaga doir bir qancha asarlar yaratdilar. Sayid Muhammadtohir bin Abulqosimning «**Ajoyibut**

tabaqot», Abulqosim bin SHohmirzo ibn Sa'dulla al-Husayniy al-Kasbaviyning «**Natoyiul fikr**», Abulg'ozii Bahodirxonning «**SHajarai turk**», «**SHajarai tarokima**», Muhammadamin Yaroqchining «**Muhitut tavorix**», Mullo SHarafiddin A'lam ibn Nuriddin Oxund Mullo Farhod Samarqandiyning «**Tavorixi kasira**», «**Tarixi Roqimiy**», Mahmud ibn Valining «**Bahrul asror fi manoqibul axyor**», Suhayloning «**Imomqulinoma**», Mutribiyning «**Tazkiratush shuaro**», Muhammad-bade' Maleho Samarqandiyning «**Muzokirul achob**», Muhammad Xoksorning «**Muntaxabul lug'at**», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «**Ubaydullonoma**», Munis va Ogahiyning «**Firdavsul iqbol**» kabi tarixiy, geografik ilmiy asarlari shu davrning mahsuli hisoblanadi.

Bu asarlar XVII–XVIII asrlarga oid siyosiy leksika va ilmiy atamaologiyani o'rganishda ham asosiy manba bo'lib xizmag qiladi.

XVII–XIX asrlar adabiy tilini o'rganishda o'sha davrda yashab ijod etgan dunyoviy adabiyot vakillarining ijodi ham etarli manba bo'ladi. Bu davr adabiy tilini rivojlantirishda Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Mavlono Vafo, G'oziy, SHavqiy, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammadniyoz Nishotiy, Munis, Gulxaniy, Maxmur, Ogahiy, Mujrim Obidlar munosib hissa qo'shdilar.

XVII–XIX asr ijodkorlarining asarlari tilida Navoiy an'anasi bilan birga, g'arbiy adabiy til ko'rinishlari ham uchraydi. Bu narsa Fuzuliy she'riyati tilining ta'siri natijasida payda bo'ldi.

Abulg'ozii Bahodirxon asarlariniig tili va uslubi. Feodal hukmdor Abulg'ozii siyosiy, harbiy ishlar bilangina cheklanib qolmay, ilm-fan, san'at va adabiyot bilan ham shug'ullandi. Natijada u zamonasining etuk tarixchisi bo'lib etishdi. Uning «SHajarai tarokima» va «SHajarai turk» asarlari Xorazmning XVI–XVII asrlardagi tarixini o'rganishdagina emas, balki o'sha davr tilini o'rganishda ham muhim manbadir.

Abulg'ozining «SHajarai tarokima» asari so'z boshi va 9 bobdan iborat bo'lib, turkman xalqi tarixini ularning afsonalari bilan tarixiy faktlarini aralash holda qo'shib yoritadi. Bu asarni birinchi olimlar dunyosi bilan tanishtirgan kishi **A. G. Tumanskiydir**. U *Mulla Qurbonkeldi O'razmuhammad mulla* tomonidan ko'chirilgan qo'l yozmadan tarjima qildi. Bu qo'l yozma Toshkentda saqlanadi.

Abulg'ozining ikkinchi asari «SHajarai turk»dir. Bu asar yozib tugallanmagan. «SHajarai turk»dagi voqealarni «SHajarai tarokima»dagi kabi uch qismga bo'lish mumkin:

1. Diniy xarakterdagi Odam ato haqidagi afsonalar.
2. O'g'uz-turkmanlarning o'g'il haqidagi ma'lumotlari.
3. Real asosga ega bulgan, lekin afsonaviy tarzda etib kelgan voqealar bayoni.

«SHajarai turk» asari asirlikda yurgan shved ofiqeri Tabbert tomonidan ilmiy hayotga ma'lum qilinadi. XVIII asrning boshida Sibirda qisman rus tiliga, 1726 yilda **frantsuz** tiliga, 1770 yilda **rus tiliga**, 1780 yilda **nemis** va ingliz tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Undan keyin ham bu asarning to'ldirilgan tanqidiy matnlari nashr etildi. «SHajarai turk» asarining ettidan ortiq qo'l yozma nusxasi mavjud bo'lib, ular Toshkent, Leningrad va Ashxobodda saqlanadi.

Abulg'ozining «SHajarai tarokima», «SHajarai turk» asarlari yuzasidan A. N. Kononov ilmiy tekshirish ishlari olib bordi. Rus tilida ularning tanqidiy matnlarini

tayyorladi va 1958 yilda «SHajarai tarokima»ning tanqidiy matnini nashr ettirdi. Abulgʻozi Bahodirxon asarlarini omma tushunadigan tilda va ommabop uslubda yozishga alohida eʼtibor berdi. Abulgʻozi oʻzining tarixiy asarlari boshqa tarixchilarning asarlaridan til jihatidan farqli ekanligini takidlab, quyidagilarni yozadi: „**Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lugʻatlarni qoshub tururlar va turkiyni ham sajʻ qilib tururlar, oʻzlärining hunarlari va ustäzlarini xalqqa maʼlum qilmaq uchun. Biz munlarniing hech qaysisini qilmaduq, aning uchunkim, bu kitäbnä oqugʻuchä va tänglagʻuchä, albatta, turk bolgʻusi turur. Bas, türklärgä turkāna aytmaq, keräk, tä ularniing barchasi fahm qilgʻaylar**”.

Abulgʻozi asar yozayotganda oʻz oldiga „andoq aytmoq kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib, koʻngullariga maʼqul boʻlgʻay“ degan printsipni qoʻydi. „SHajarai turk“ asarini ham xuddi shu printsipga amal qilgan holda yozdi. Abulgʻozi chigʻatoy tili deb xalqning jonli soʻzlashuv tilidan uzoq boʻlgan tilni tushunadi. U chigʻatoy turkisidan foydalanmaganligini „**SHajarai turk**“ asarida shunday yozadi: „**Hamma ulugʻlar ham äddiy kishilär tushunsun deb, men bu tarixni turkiy tili bilan aytdim. Turkiyni ham andaq aytubmankim, besh yashar ogʻlan tushunur. Tushunish äsan bolsun deb, men chigʻatay turkisidin färsicha va arabchadin bir dāna ham söz qoshmadim**”.

Koʻrinadiki, Abulgʻozi oʻzining oddiy, sodda bayon qilish uslubini dabdabali chigʻatoy uslubiga qarama-qarshi qoʻyadi.

Abulgʻozi tarix asarlarini bayondagi ixchamlikka, ifodaning izchilligiga, voqealarni latifa va rivoya uslubida sodda bayon etishga eʼtibor bergan holda yozdi. Uning asarlari grammatik qurilishi, lugʻat tarkibi bilan soʻzlashuv tiliga yaqin turadi. Hatto Abulgʻozi asarlarini muallif tomonidan sanʼatkorlarcha badiiy qayta ishlangan xalq soʻzlashuv tili namunasi desa boʻladi. Abulgʻozi xalq maqollaridan ham oʻrinli foydalandi: *oʻksuk oʻz kindigini oʻzi keser tegan, Atang evi yav chapsa, birga chap tegan turur qara soʻzi, Yaxshilar aytib turur: on darvish bir pilas ustiga sigʻar, ikki padshah jahanga sigʻmas, It semirsa egasini qapar* kabi.

Abulgʻozi asarlarining morfologik va sintaktik xususiyatlari XV–XVI asr adabiy tilidan ancha ilgarilab ketganligini koʻrsatadi. Ularda xalq soʻzlashuv tiliga xos morfologik koʻrsatkichlar koʻproq, arabcha-forscha sintaktik qoliplar kamroq uchraydi.

Abulgʻozi Bahodirxonning «SHajarai tarokima» va «SHajarai turk» asarlarida quyidagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mavjud.

Fonetik xususiyatlari: soʻz boshida keladigan **d** tovushi koʻpincha **t** ga oʻtadi. Bu holni A. N. Kononov ham alohida taʼkidlaydi: *degen–tegen, deb–teb, dedik–teduk* kabi.

Morfologik xususiyatlari: ot yasovchi qoʻshimchalar hozirgi oʻzbek tilidagi ot yasovchilarga uxshaydi.

Hozirgi oʻzbek tilidagi kabi Abulgʻozi asarlari tilida oltita kelishik bor. Tushum kelishigi uchun **-ni/-ni** qoʻshimchasidan tashqari, **-n** ham mahsuldor qoʻllanadi. Masalan: *Küchlärin va kelinlärini chaqirib*. (xotinlarini va kelinlarini chaqirib).

CHiqish kelishigi qo‘shimchasi **-dīn/-din// -tīn/-tin** ko‘rinishida qo‘llanadi. *Ha turluk turpaqdīn alīb.*

Sonlar, ularning turlari, yasalishi hozirgi o‘zbek tilidagiga o‘xshaydi. Ammo tartib sonlar **-lanchī/-lānchi** qo‘shimchasi yordamida yasalishi bilan hozirgi o‘zbek tilidagidan farqlanadi: *beshlānchi, yetilānchi, toquzlanchī* kabi.

Abulg‘ozi asarlaridagi olmoshlar hozirgi olmoshlarga o‘xshaydi. Lekin kishilik olmoshlarining uchinchi shaxsi *anlar, alar* tarzida, ko‘rsatish olmoshlari *shul, ul, oshul* tarzida keladi.

Kim va **nima** so‘roq olmoshlarining birikishidan hosil bo‘lgan *kimārsā, nimārsā* kabi **so‘roq-gumon** ma’nosini bildiruvchi olmoshlar ishlatiladi.

Buyruq-istak maylining birinchi shaxs ko‘pligi **-alīng/-āling, -alī/-āli** qo‘shimchalari bilan hosil bo‘ladi: *Emdi shāh Malikni aytalīng. YUrtnī buzalī tesālār.*

To‘liqsiz fe‘llar *erdi, erkān, erūr* ko‘rinishlarida ishlatilgan: *Tevāga minib keyningdin bara erdim.*

YOrdamchi so‘z turkumlari Abulg‘ozi asarlarida xuddi „Boburnoma“dagi kabi ko‘rinishlarda ishlatiladi.

Sintaktik xususiyatlari: sodda gap qurilmalari ko‘p ishlatiladi: *Qara xānnīng Bug‘ra atlīq og‘lī, bar erdi. Mir Yag‘i olturub erdi.*

Asar tilida qo‘shma gaplar ham keng qo‘llangan: *Atasī va anasī yoq va xatīnī yoq turur. Bizning ichimazdā „Og‘uznama, kōb turur, amma hech yaxshīsī yoq.*

Leksik xususiyatlari: „SHajarai turk“ va „SHajarai tarokima“ asarlarida quyidagi so‘zlar uchraydi: *o‘lkan, bitmāk* (yozmoq), *ulus* (xalq), *yalavach* (payg‘ambar), *tilmach* (tarjimon), *o‘shaq* (mayda), *charlatmaq* (chaqirmoq), *kōrklūk* (chiroylik), *kōchlāri* (xotinlari), *kent* (qishloq), *boluq* (bo‘lim), *kimārsā* (kimdir), *nimārsa* (nimadir) kabi.

Umuman, Abulg‘ozi o‘z asarlari tilini Boburga nisbatan ham so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qildi va adabiy tilda xalq tili unsurlarining mustahkamlanishi uchun munosib hissa qo‘shdi.

Turdi satiralarining tili va uslubi. SHoir Turdi XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yashab ijod etdi. U demokratik ruhdagi adabiyotning yirik namoyandalaridan biridir. Turdining hayoti va ijodi haqida juda oz ma’lumot saqlangan. Uning bizgacha 1924 yilda topilgan 28 betli she’rlar to‘plami etib keldi. Bu to‘plam O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutida saqlanib, unda hammasi bo‘lib 450 misraga yaqin 17 ta she’r bor. She’rlarning 15 tasi o‘zbek tilida, 2 tasi tojik tilida yozilgan.

Turdi XVII asr saroy adabiyotidan aloqasini uzgan o‘zbek she’riyatining yirik namoyandasidir. U o‘z zamonasining kuchli satirik shoiri hisoblanadi. Turdining ko‘p she’rlari tanqidiy xarakterda bo‘lib, poraxo‘r, zolim Subhonqulixon va uning amir-amaldorlarini, ularning zulmi va o‘zboshimchaliklarini fosh qiladi, mamlakat va xalq manfaatini kuylaydi:

*Xalq qolīg‘a tama’ bilā tikib kōz,
Sōzlāmas ul g‘amīdīn yūzi qaralar bir sōz.*

Turdining satirik she'rlari fikr va maqsadning jonliligi, rostgo'yligi bilan xarakterlanadi. Ularning bayon qilish uslubi va tili sodda, pishiq, tasvir vositalari o'tkirdir. Masalan:

*YUrtning malinī chaynab edi bu bedumlar,
Bolmadī kam bu raiyat bashīdīn hech tayaq.*

Turdi o'z badiiy uslubi va tilining xalqqa tushunarli bo'lishiga intiladi. U amir va amaldorlarni o'z tilidan so'zlatib fosh etish usulidan san'atkorlik bilan foydalanadi. Mamlakat va xalq hayotidan uzoqda turgan «ko'r», «kar» beklarni «bo'g'izlarini poraga tegirmon novidek tutib, og'izlarini ajdahodek ochadilar», «tomoq, fikri»dan o'zgani bilmaydilar» kabi o'xshatishlar bilan keskin fosh qiladi.

Uning ko'tarinki ruh bilan yozilgan she'rlarida ohang muhim o'rin tutadi. SHoir satirasi zolimlarga qaratilganlign uchun ohangda uqtirish, xitob va undashlar ko'p. U beklarga: «Ey yuzi qora, qulog'i kar beklar» deb xitob qiladi.

Turdi «*El rabotu to'ra qo'noq*» maqolini ishlatish bilan, amaldorlarning o'zgarib turishini va xalqning esa o'z holicha qolaverishini ta'kidlaydi. O'z tilini soddalashtirishga, xalq maqollari va ifodalaridan keng foydalanishga intilgan Turdi she'rlarida «*gardan shikasta mondi*», «*yuvgan qazan astında qalg'an yundī*», «*sīyqa chaqa*» kabi omma tez tushunadigan o'xshatish va metaforalar qo'llaydi.

Turdi she'rlarida xalq jonli tili xususiyatlari bilan birga, ozarbayjon tili, ya'ni Fuzuliy she'riyatining samarali ta'sirlarini ham ko'ramiz. Ana shu ta'sir natijasida ba'zi so'zlarda, ko'pincha so'zning boshida keluvchi **t** tovushi **d** ga o'tadi:

*Fitnayu shor hama rub ila maskun dūtđ,
Xublar masnadīnī sifda bilan dun dūtđ.
Yaxpshliq qılma tama', zulm ile dōdđ afaq.*

Bu misollardagi *dun*, *dūtđ*, *dōdđ* so'zlari g'arbiy adabiy tilning, ya'ni ozarbayjon tilining adabiy me'yorsi asosida berilgan.

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi **-nīng/-ning**, **-īng/-ing** ko'rinishlarida ishlatiladi. Ma'lumki, **-īng/-ing** qaratqich kelishigining eng kadimgi ko'rsatkichidir: *Bularīng aldīda bardur bōrining insafī*.

Tushum kelishigi qo'shimchasi **-nī/-ni**, **-n**, **-ī/-i** ko'rinishlarida qo'llanadi. Masalan:

*Qanī bir xisravi ādilki, anga dād etsem,
Sorsa ahvālīnī g'am xirmānīnī, bād etsem.*

CHiqish kelishigining qo'shimchasi **-dīn/-din**//**-tīn/-tin** shaklida, jo'nalish kelishigining qo'shimchasi **-g'a/-gū**//**-qa/-kā**, **-a/-ā** shakllarida qo'llanadi. Bulardan **-a/-ā** ko'rsatkichi g'arbiy adabiy tilga xos xususiyatdir:

*Yetmādim hech yerā bu qāfiya paymālīrīngdīn ...
Kas ul g'arzanlar salsa quruq sōzgā qulaq...*

Aniq o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs birligi **-dimān** yordamida hosil bo'ladi: *Yetib mendan kim, berūr yaxshī zamānlar kōrdimen*.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli **-man/-mān** qo'shimchasi bilan ham hosil qilinadi:

*Bilā alman bu duldul raxshī Rustam yā parizādī,
Ki ādam og'līg'a g'am olmag'an, ne yerdā ārāmī?*

Sifatdosh yasovchi **-g'an/-gün** qo'shimchasi **-an** ko'rsatkichida ham qo'llanadi. Keyingisi o'g'uz tillariga xos ko'rsatkichdir: *Barcha boynig'a salan bu rishtanī, qat etmedi.*

Harakat nomlari jo'nalish kelishigi bilan turlanganda fonetik o'zgarish yuz beradi, ya'ni negizdagi **q** tovushi tushib qoladi:

Zarnī jam eylāmāg hirsu havā besh tutub

YUzini körmāgā hazratda boldīm eshitib nāmīn.

Bundan tashqari, jonli tilning leksik boyligidan keng foydalanish Turdi satirik asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Turdi o'sha davr saroy shoirlari tilidan siqib chiqarilgan *to'g'anaq, mashaq, oraq, tamaq, mazava, bangi, qirchang'i, chikkä-pükkä, yapalaq, sak, shum, süpründi, mundi, yundi, bedüm* kabi so'zlarni qo'llaydi. Bu narsa sodda badiiy uslubda yozilgan shoir she'rlarining yuksak darajada xalqchilligini ta'minlagan va xalq jonli tiliga yaqinlashishga olib kelgan.

Muhammad Xoksoning «Muntaxabul lug'at» asarining o'zbek adabiy tili ilmiy atamaologiyasi taraqqiyotidagi roli. Muhammad Xoksor XVIII asrning buyuk olimi va donishmandi sifatida bir qancha asarlar ijod etdi. Uning «Muntaxabul lug'at» asari o'sha davr ilmiy atamaologiyasini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi.

Xoksor bu asarini yaratishda diniy dostonlardan, diniy-mistik adabiyot vakillari asarlaridan, Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlaridan foydalandi.

Muhammad Xoksoning «Muntaxabul lug'at» asarida turli kasb-hunarlariga doir so'z va atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy fanlarning ayrim sohalari bo'yicha so'zlar beriladi. Muallif bu so'zlarning ma'nosini alfavit tartibida izohlaydi. Izohlangan so'zlarning ma'nosini aniqlashtirish uchun turli xil uslublarda yozilgan o'zbek, tojik, eron va ozarbayjon adabiyoti namunalaridan, mashhur adabiyot yodgorliklaridan misollar keltiriladi. Masalan, Xoksor **hasab** so'zining «**fazl va hunar**» hamda «**ulug'luq**» ma'nolarida ishlatilishini izohlab, Navoiy ham shu ma'noda ishlatganini aytib, «Saddi Iskandariy» dostonidan quyidagi baytni keltiradi:

Nasab birlä yetsä anga shāhliq,

Hasab birlä yetmish mengä mahliq.

Muhammad Xoksor o'z asarida **falsafaga** doir *bahir, xurafat, basarat, basirat* (mutlaq borliq), *danishmand* va *xiradmand* so'zlariga ham izoh beradi. *Basarat* va *basirat* so'zlarini izohlar ekan, u so'zlar haqida quyidagi falsafiy fikrlarni yozadi: *Basarat* va *basirat* asl lug'atda „*mutlaq ko'rmoqlik*“ ma'nosida. CHukonchi, *ahli basiratga tazeh va ravshandir ... YA'ni aql bila idrok qilaturg'an ishlärni... közi bilän körar.*

Xatā jānibig'a äylänmäs. Andaqki, kishi közi bilän körgän nimärsädä sahva va xatā bolmas, balki mahsulatdīn maqulatnī (mavhumdan ma'lumni) yaxshī körär".

Asarda **astronomiya va trigonometriyaga** doir bir qancha atamalarga ham o'z davri saviyasida izoh beradi. Unda trigonometriya faniga doir *sath, qutr (fazo), vatar* (kamon), *mintaqa* (zona), *mehvar* (charx o'qi), *hatti ustuva* (ekvator) kabi so'zlar izohlanadi.

Xoksor asarida **biologiya** va **zoologiyaga** doir soʻz va atamalarga ham keng oʻrin berilgan: *ashqar, abrash, ashab, markab, tanibat, shamus* kabi. Bu soʻzlar miniladigan otlardagi turli belgilarga qarab qoʻyilgan nomlardir. Xoksor ularning har birini alohida-alohida izohlaydi.

Xoksor **musiq, adabiyot va arxitekturaga** tegishli soʻz hamda atamalarni izohlaydi: *hijā, fasāhat, majāz, mizmar* kabi. U *balagʻat* soʻzini shunday izohlaydi: „*balagʻat–sözga yaxshi yetishmāk va sözni muhatabgʻa yaxshī adā birlā bayan qīlmaq*“,

Xoksor bu fikri bilan adabiyotning birinchi unsuri boʻlgan tilga eʼtibor berish, soʻz sanʼatida kamol topish uchun soʻz durlarini mohirona ishlatish kerak, deb uqtiradi.

Umuman, M. Xoksorning «Muntaxabul lugʻat» asari XVIII asr ilmiy atamaolbgiyasi haqida etarlicha maʼlumot beradi. SHuning uchun bu asar bir necha marta koʻchirildi.

Xoksor asari yaratilgan bir davrda *Mehdixon* «**Sangloh**» va «**Maboniul lugʻat**» asarlarini yozdi. Bu asarlar faqat Alisher Navoiy asarlari taʼsirida yozilganligi bilan Xoksor asaridan farqlanadi.

YUqoridagi asarlarni oʻrganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, u davrdagi ilmiy atamaologiya hozirgi ilmiy atamaologiyadan asosiy qismini arabcha, forsha soʻzlar tashkil qilishi bilan farqlanadi va ilmiy atamaologiya har bir davrning emas, balki butun tarixiy protsessning mahsuli hisoblanadi.

Muhammadniyoz Nishotiy asarlari tilida Navoiy anʼanasining davom ettirilishi. Nishotiy XVIII asrda etishgan isteʼdodli lirik va epik shoirdir. U adabiyotdagina emas, balki adabiy til sohasida ham Navoiy anʼanasini davom ettirdi.

Nishotiyning ijtimoiy-siyosiy fikr va mulohazalari «**Husnu Dil**» dostonida oʻz ifodasini topdi.

Nishotiy tilini oʻrganishda uning «Husnu Dil» dostoni xarakterlidir.

Nishotiy «Husnu Dil» dostonini xalq ogʻzaki ijodidan ustalik bilan foydalangan holda yozdi. Xalq ogʻzaki ijodidagi qoliplash usulidan foydalanib, uning ichiga taʼlimiy xarakterdagi bir qancha masalalarni kiritdi. Bu narsa Nishotiy tilining sodda xalq tiliga yaqinlashishiga olib keldi.

„Husnu Dil“ dostonining tili mumtoz epik sheʼriyat uslubi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bundan tashqari, dostonning ayrim boblari qofiyalangan nasr uslubida yozilgan. Masalan: „*Husni dilnavāz, Vafobānum Sāhibi eʼzāz va Nāzi Tannāz, Gʻamzai gʻammāz, Gesui fusunsāz va Mahliqāi, āynapardāz va SHāhtakallumi sehrparvā va Mehribānui basāzu gudāz, Qāmatsardāri balandparvāz, Sarvi sarafrāz, yaʼni Fāudi sahibniyāz . . . xizmatga tayyār ediler*“.

Baʼzan xalq ertaklarida uchraydigan muqaddima ham uchraydi:

*Bar edi YUnanda biräv padshāh,
Erdi jahān shāhī anga xāki rāh.*

Nishotiy xalq ogʻzaki ijodi uslubiga ergashdi, doston tilini ommabop qilishga intildi. SHuning uchun xalq maqollari, hikmatli soʻzlari va iboralarini asar misrdlari mazmuniga ustalik bilan singdirdi:

Lek demish kimsäki dīqqatlīdīr,

*Ash egäsi birlä yesä tatlıdır.
Har kishining bar esä gar aqlı tuz,
Avval ancha köz kerägi songra söz.*

Bu misralarda «*Osh egasi bilan totli*», «*Avval o'yla, keyin suyla*».maqollari keltirilgan.

Nishotiy xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanar ekan, ulardan ilhomlanib, o'zi ham xalq maqollari darajasidagi iboralar ijod qiladi:

*Toyu aza xush turur ahab ile,
SHādiyu g'am ham yana atrāb ilä.*

Nishotiy asarini mumkin qadar sodda, ma'noli, ravon va obrazli bo'lishi uchun xalk tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original o'xshatish, istiora, kinoya, mubolag'a, sifatlash, majoz va qarama-qarshi qo'yish vositalarini qo'lladi. Masalan:

*Boldi ayān turfa kitali kabir,
Qorqusīdīn tashladī hamlanī sher.*

SHoir bu misrada ishqning lashkari bilan aqlning navkari o'rtasidagi jang tasvirini berar ekan, urushning shiddatidan sher ham qo'rqib, o'z qornidagi homilasini tashlab qo'ydi, deb mubolag'a qiladi.

SHoir dostonida omonim so'zlardan ham ustalik bilan foydalanadi. Bir so'z bilan bir necha ma'no ifodalashga harakat qiladi:

*YUz uzä churuk yag'ach erdi burun,
Har yer barsa, barīban ul burun.*

Bu parchada birinchi misradagi *burun* so'zi odam organlaridan biri ma'nosida, ikkinchi misrada «avval, ilgari» ma'nosidadir.

XVII–XVIII asrlarning boshqa adiblarida bo'lgani kabi Nishotiyning „Husnu Dil" dostonida ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlar mavjud. Dostonida Buxoro va Xorazm shevalariga xos so'z va iboralar, grammatik unsurlar uchraydi: *margi nav mubārak, himmati sipāhdār, husni dilnavāz, Nāzi Tannāz* kabi.

Nishotiy asarlarining morfologik xususiyatlari: «Husnu Dil» dostonida turlanish kategoriyasi hozirgi o'zbek tiliga o'xshaydi. Ammo qaratkich kelishigining qo'shimchasi -nīng -ning, -īng/-ing shaklida ishlatiladi:

*Arshnīng astīda erur ganji rāz...
Qāmatīng ag'ushīg'a qīldī nigāh ...*

Tushum kelishigi qo'shimchasi -nī/-nī, -ī/-ī, chiqish kelishigi qo'shimchasi -dīn/-dīn// -tīn/-tīn, jo'nalish kelishigi qo'shimcha -si -g'a/-gā// -qa/-kū, -a/-ū ko'rinishlarida ishlatiladi:

*Qorqusīdīn tashladi hamlanī sher,
Kelturuṅ aqlī dedi kishvarsitān.
Har birigā nām edi bir ehtirām,
Har yerä barsa, barīban ul burun.*

Nishotiy asarlari tilidagi olmoshlar hozirgi o'zbek tilidagi olmoshlarga o'xshaydi. Biroq unda uchinchi shaxs kishilik olmoshlari *ul, an* tarzida, shuningdek, *qayu* so'roq olmoshi, *nimersa, kimersa* so'roq-gumon olmoshlari ishlatiladi:

Har ne yoq. andīn yaman, andīn yaman—

*Parvarish äylär anī ayvān ara,
Vah qayu ayvānki, dilu jān ara.*

Nishotiy tilida ravishdoshning **-īban/-ibān** qo‘shimchali ko‘rsatkichi ham ancha keng qo‘llanadi:

*Talpinīban oylaki suvsiz balīq,
Jan yoq edi ana bu kun tanglaliq.*

YOrdamchi.so‘zlardan *bilan, birla, ila* kabi ko‘makchilar; *kim, -ke, gar, agar, ne, lek, dag‘i* kabi bog‘lovchilar ishlatiladi. Nishotiy dostonida *ne* bog‘lovchisi keng qo‘llanadi:

*Anda ne zavqu ne huzuru ne nur...
Anda ne ilmu ne amal, ne yaqīn . .*

«Husnu Dil» dostoni leksikasida *ulus, kabir, qapu* (eshik), *g‘ulg‘ula, valvala, dag‘ī, karam* kabi so‘zlar uchraydi.

Nishotiyning «Husnu Dil» dostoni XVIII asr o‘zbek dostonchiligidagina emas, balki shu asr o‘zbek adabiy tili tarixida ham muhim o‘rin egallagan ajoyib she‘riy qissadir.

XVII–XVIII asrlardagi ijobiy adabiyotiing o‘sib, takomil topishida xalq og‘zaki ijodining roli katta bo‘ldi. Adabiy tilda esa xalq tili unsurlari, sheva xususiyatlari o‘z ifodasini topdn. Xalqning boy og‘zaki adabiy merosidan, til boyligidan ta’sirlanish natijasida davr shoirlari tilida frazeologik iboralar, turg‘un birikmalar ko‘plab ishlatila boshlandi. Bular ular asarlarining xalqchilligini, realistik unsurlar bilan sug‘orilishini ta’min etdi. Ijobiy shoirlar o‘z asarlari tilining leksik tarkibi, sintaktik qurshshshini, umumiy uslubini xalq jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirishga erishdilar.

Munis asarlarining tili va uslubi. Munis Xorazmiy o‘z ijodiy faoliyati bilan o‘zbek adabiyoti va adabiy tili tarixida salmoqli o‘rin tutadi. Munis madaniyatimiz tarixida shoir, tarixchi, tilshunos, pedagog va tarjimon sifatida hurmat bilan tilga olinadi.

Munisning lirik she‘rlari devon sifatida to‘plangan bo‘lib, u «**Munisul ushshoq**» deb ataladi. Bundan tashqari, uning tarixiy asari «**Firdavsul iqbol**», tilshunoslik va pedagogikaga oid «**Savodi ta’lim**» asari mavjuddir. U XV asr tarixchisi Mirxondning «**Ravzatus safo**» asarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Munis adabiy ijodda ham, o‘z asarlarining tili sohasida ham Navoiyni o‘ziga pir (ustod) deb bildi.

*Söz ichre Navāiyki jahāngirdurur
Munisga maāni yolīda pirdurur.*

Demak, u til va uslubda Navoiy an’anasini davom ettirib, ommaga tushunarli tilda yozishga harakat qildi.

Munis asarlari tilini shunday qunt bilan ishlaganki, bu uning badiiy vositalarning ko‘pgina turlaridan samarali foydalanganida ko‘rinadi. Masalan:

*Yīqmasun mazlumlar ashki bināiy davlatīng,
Qīlma zulm, ey shahki, bardur āfati devār-suv.*

SHoir shohlar saroyini devorga, yozilgan kishilar ko‘z yoshini bu devorni yiqituvchi suvga o‘xshatadi. „*Qāf tag‘ī bilān hamsang etmish*“, „*Har qadamnī neche farsang etmish*“ kabi mubolag‘alardan foydalanadi.

Munis o‘z asarlarining sodda, ravon, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi uchun kurashib, ularda xalq iboradari va maqollarini ko‘p qo‘llaydi:

*Ahbāb tapdī vaslingu yad etmedi meni,
CHindur bu sözki, yoq xabarī, toqnīng achdīn.*

SHoir o‘z asarlarida o‘sha davr uchun xarakterli bo‘lgan badiiy vosita sifatida *ma’ni kishvarman, ahli donish, guli gulshan, otashi ishqing, ganji husn, guli latif, mehrābi tarh, mātami āshufta* kabi izofali qurilmalarni ham ko‘p qo‘llaydi.

Munis Xorazmiy xalq so‘zlashuv tilidagi leksik boyliklardan ustalik bilan foydalanadi. Masalan: *umach, atala, tang, lang, hamsang, yavg’an, taqīr-tuqur, shaqīr-shuqīr, qabag’,tapuq, qapu, evūr, evrulāy, evürdi* kabi so‘zlar Munis asarlarida anchagina. Bu xil so‘zlar asarning tanqidiy-satirik kuchini, badiiy qimmatini ancha oshiradi va uni ancha soddalashtiradi.

Munis asarlari tiliga xos grammatik ko‘rinishlarning ba’zilar hozirgi adabiy tildan qisman farq qiladi.

Qaratqich kelishigi ko‘rsatkichi **-nīng/--ning, -īng/-ing** tarzida qo‘llaniladi:

*Munīng birlä bas qīlmayīn zulmu āzār,
Itning julidin kimsägä sajjāda bolurmu?*

Tushum kelishigi qo‘shimchasi **-nī/-ni, -n** shakllarida ishlatiladi:

*Kesib bashlarīn mahv etib namīnī,
Ayaq astīga tashlab ansāmīnī...*

Jo‘nalish kelishigi uchun **-g’a/-gä/--qa/-kä, -a/-ä** qo‘shimchali ko‘rinishlar, chiqish kelishigi uchun **-dīn/-dīn’/-tīn/-tīn’** qo‘shimchali ko‘rsatkich qo‘llanadi:

*Kingä dād äyläyki, bir begi humāyunfāl...
Malāmat q’lmangiz nuqsānīma, gar bolsangīz vāqif.
Nä qo’llardīn mengä bir itchä ikrām.
Xasm atanī og’īlg’a, og’līn atadīn bashqalab.*

Munis asarlari tilida o‘g‘uz tillarining ba’zi unsurlari ham qo‘llangan.

Navoiy asarlaridagi kabi Munis asarlari tilida ham **-mīsh/-mish** qo‘shimchali sifatdosh va shu ko‘rsatkich asosida hosil bo‘luvchi o‘tgan zamon fe’li iste’molda bo‘lgan. Masalan:

*Farāmush olmīsham ahbāb yādīdīn anīngdekkim,...
Balalar ichki kim, salmīsh fīraqīng.*

Munis asarlarida **bol-** fe’li bilan birga xuddi shu ma’nodagi **ol-** fe’li ham ishlatiladi. Masalan: *Gulshanda gul olsa xār ham bolg’usīdīr.*

Navoiy va Bobur asarlaridagi kabi hozirgi-kelasi zamon; fe’lining **-mān/-men** yordamida hosil bo‘luvchi bo‘lishsiz ko‘rsatkichi ham keng qo‘llangan: *Har neche qīlsam taammul bilmak anīng illatīn.*

Munis asarlarida ham ravishdoshning **-īban/-ibān** qo‘shimchali ko‘rsatkichi keng qo‘llangan: *Köp yebān hayvān kibi tannī semirtürmək nedur?*

Munis asarlarida *vagarna, valek, magarki, vale, vagar* kabi bog‘lovchilar ham keng qo‘llangan.

Umuman, Munis o‘z zamonasining adabiy doirasida ahli donishmandlarning shohi va o‘z ona tilining buyuk himoyachisi edi.

Gulxaniy asarlarida til na uslub muammolari. Gulxaniy iste'dodli shoir sifatida bir qancha lirik she'rlar va «Zarbulmasal» asarini yozdi. Asarlarida mehnatkash omma manfaatini himoya qildi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotining XIX asr boshlaridagi holatini aniqlashda Gulxaniy asarlarining tili xarakterli o'rin tutadi.

Gulxaniy o'z asarlari tilining sodda va tushunarli bo'lishiga ahamiyat berdi. Asarlarining ommabop bo'lishi uchun xalq og'zaki ijodidan foydalandi. Xalq tili boyligi asosida original badiiy vositalar yaratdi.

Bundan tashqari, uning she'rlarida ozarbayjon tiliga xos leksik unsurlarni uchratamiz. Masalan: *dasha* (toshga), *istaram* (istayman), *aylaram* (qilaman), *chox*- (ko'p) kabilar.

«Zarbulmasal»da ayniqsa folklor materiallariga ko'p marta murojaat qildi. «Zarbulmasal»dagi YApaloqqush hikoyasini xalq badiiy ijodi materiallari asosida yozdi.

Gulxaniy «Zarbulmasal»da «hikoya ichida hikoya» kompozitsiyasidan foydalandi (bu xalq asarlariga xos uslub). U xalq og'zaki ijodi asarlarini qayta ishlash bilan birga, ularning uslubi, badiiy vositalari, tili va boshqa xususiyatlarini saqlashga intildi. Bu narsa quyidagi holatlarda ko'rinadi:

1.«Zarbulmasal»niig ayrim hikoyalarini xalq orzaki ijodiga xos bo'lgan so'zlar bilan boshlaydi: *Bar erdi Farg'anada bir sarbān* (Tuya bilan bo'taloq). *Ilgarigi ayyāmda ikki kabutar bar erdi...* (Bozanda va Navozanda) va boshqalar.

2.«Zarbulmasal»da folklorning ommaviy janri bo'lgan maqollardan o'rinli foydalanadi. Maqol folklorning eng kichik va eng mazmunli janrlaridan biridir. Bu haqda M.. Gorkiy shunday yozadi: «*Umuman maqol va hikmatli so'zlar mehnatkash xalqning butun ijtimoiy-tarixiy hayotining tajribalarini namunaviy yo'sinda ifodalaydi*».

Gulxaniy «Zarbulmasal» asari asosida o'zbek va tojik xalqlari folklorining bilimdoni desa bo'ladi. U «Zarbulmasal»da har ikki tilda ham xalq maqollarini keltiradi. Keltirgan maqollarini asar va misralar mazmuniga juda ustalik bilan singdiradi. Masalan: *Ebi bilan so'zlaganning qurboni bo'l. YOv ketgan so'ng qilichni (erga) chop. Bugungi ishni ertaga qo'ygudek emasdur. YOl'g'on masal turmas. Bo'ynida illati borning oyog'i qaltirar. YOri-ki ahlast, kori u sahlust* kabi.

Gulxaniy folklordagi kabi sodda va jonli o'xshatish, istiora, mubolag'a va boshqa original tasviri vositalar yaratdi.

Gulxaniy badiiy ijodiyotining g'oyasi va mazmuni xalq ommasiga yaqin bo'lganidek, uning tili va uslubi ham xalq ommasiga yaqindir. «Zarbulmasal» quyidagi til xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ayrim hollarda qaratqich va tushum kelishigi ma'nosi bir ko'rsatkich orqali ifodalanadi:

Hāsili umri edi ul baynī,

Atī Gunashbānu oshal aynī.

k, q tovushlari bilan tugagan so'zlar egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilganda ham bu tovushlar o'zgarmay o'z holicha qoladi: *Farāsāt ayaqī aqsaq. Qizni ashīqīg'a berdi.* .

SHuningdek, chiqish kelishigi qo'shimchalaridan oldin bir **n** tovushi o'rtiriladi: *Anīng yanīndīn bir yag'achlik yerdā.*

Ko'rsatish va so'roq olmoshlariga qo'shimchalar qo'shilganda quyidagi ko'rsatkichlarda keladi: *ul-ana, anda, alar; bu-buyla, munda, bunda, buyda.* Masalan: *Anda Bayog 'lī aydī. Xamush turmaqlik buyla bolurmu javabī?*

Istak fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga **-ālī/-āli** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *Siz bir shirin javab bering. Anglab barīb taraddud qīlālī.*

Asarda fe'lning **-mīsh/-mish** qo'shimchali ko'rsatkichi ham iste'molda bo'lgan: *Anda bir Bayog 'li degan vatan tutmīsh erda.* Gulxaniy «Zarbulmasal»da xalq tili leksik boyligidan ham samarali foydalanadi. Gulxaniy asarlari leksikasining muhim xususiyatlaridan biri shuki, ularda qo'llanishi nuqson hisoblangan «avomcha» so'zlar ko'plab ishlatiladi.

«Zarbulmasal»da xalq o'rtasida keng qo'llanadigan *tevātek, tashbaqa, ayran, sapal, katqaq, burunduq, taylaq, qonaq, aqsaq, yantaq, buqaq, kulba, kūrīk tavuq, tutav, sachbag', to'shav, boydaq* kabi so'zlar; *lachīn, qarchīg'ay, humā, qīzīlīshtan* singari qush nomlari ko'plab uchraydi.

Bundan tashqari, Gulxaniy kitobiy alabiy til an'anasi ta'sirida arabcha-forscha so'zlarni ham ishlatadi: *abir* (qora tusli xushbo'y modda), *ajuz* (kampir), *anjum* (yulduzlar), *bargāh* (saroy), *bādiya* (cho'l), *guzir* (chora), *jarrār* (surbet), *xāstakārlik* (sovchilik), *kāhil* (yalqov), *minqar* (tumshuq), *mahazar* (tayyor ovqat), *nāfarjām* (baxtsiz), *riqā'* (xat), *sabuh* (ertalab), *saqat* (nuqsonli), *sarbān* (tuyakash), *tamuz* (iyun oyi), *tarrār* (qaroqchi), *shaqāvat* (yaramaslik) kabi.

Muallif va timsollar tilida bu kabi arabcha-forscha so'zlarning ayrimlari tanqid qilinayotgan shaxsni xarakterlash uchun, ayrimlari qofiya talabiga ko'ra ishlatiladi. Masalan, Said Azimxon so'fining yomon xususiyatlarini ko'rsatish uchun *nodon, tasbeh, shadid, faseh* singari arabcha-forscha so'zlarni qo'llaydi. Gulxaniy o'sha davr tilida mavjud bo'lgan sinonim va sinonimik qatorlardan ustalik bilan foydalanadi: *g'am, g'ussanduh; āsmān, kōk, falak; xalq, ulus, el; ism, am; yoldash, hamrāh; nāma, xat; ay, hamar; āftāb, quyash, shams, xurshid; chayan, aqrab; taraf, jānib; yūz, āraz, jamāl; darya, nahr* kabi. Masalan: *Sangpo'sht Irāqdī Hijāz sarī barur erdī. Yol ūzāsīdā nāchār bar chayanga yoldash boldī. Ikkisi zaruratdin hamrāh boldīlar. Ul yāzini yashīrur erdī. Arazīdīn shamsu hamardur xijil. Avval barīb, Kulangir Sultan jamālīnī kōrib...*

Demak, Gulxaniy jonli tilning leksik va grammatik imkoniyatlaridan keng foydalandi. Saroy aristokrat yozuvchilari esa jonli tildagi oddiy so'z va iboralarni qo'llashdan batamom bosh tortib, saroy adabiyotining murakkab, og'ir til va uslubini davom zttirdilar. Gulxaniyning badiiy tili va uslubini saroy aristokratiya adabiyotining tili va uslubidan tubdan farq qiladi.

Gulxaniyning ijodiy tajribasi shuni ko'rsatdiki, u adabiy tilni butun xalq ommasiga tushunarli, turmush uchun zarur so'zlar va grammatik ko'rinishlar bilan boyitishga intildi.

Maxmurning realistik satira tili va uslubini rivojlantirishdagi roli. Maxmur XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ijod etgan o'zbek ijobiy adabiyoti

vakillaridan biridir. U bir qancha lirik she'rlari bilan birga realistik satiralar ijod etdi.

Maxmurning ko'pchilik satirik she'rlarida faqat ayrim illatlarga tanqid qilinib qolmasdan, balki «*alamon*» deb nido qilgan isyonkor qalbning hamlisi ham o'z ifodasini topadi. Bu narsa til va uslubda yangilikni vujudga keltirdi. Maxmur satiralarida badiiy tasvirning turli usullaridan va xalq tili materiallaridan samarali foydalangan holda mukammal obrazlar yaratdi.

Maxmur o'z satiralarida turli xil shaxslarning kirdikorlarini fosh etish uchun obrazlar xarakteriga mos keluvchi so'zlarni topa bildi. Masalan, «**Itboqar qozi**» satirasida qozi obrazini chizar ekan, oshi itlar bilan «bir taboqda» ekanini, «bir yaloqdan ovqatlanishi va «bir katak»da yotishini ko'rsatadi. Ularning itlarcha hayotini tanqid qiladi. Hakim Turobiy, Lovubol O'ratepagiy va Fazliy Namangoniy obrazlarini chizganda, ularning kasb-koriga doir so'z va atamalarni ishlatadi;

Maxmur hajviy timsollar portretini turli badiiy vositalardan: mubolag'a, o'xshatish, takrorlar, metaforalardan foydalangan holda yoritdi.

Qozi Muhammad Rajab Avj portretini chizganda, xalq tili boyligidan foydalanib, quyidagi mubolagani yaratdi:

*Dame gar buzilsa bu dastāri zār,
Tuzatmaqqa salg'ay anga mardikār.*

Maxmur g'azallarida ayrim obrazlarning sifatlarini kuchaytirib ko'rsatish maqsadida bir so'zni ataylab juftlaydi va so'zning ta'sir kuchini oshiradi:

*Jurm desang qabat-qabat, fisq desang sabat-sabat,
Nahs desäng namat-namat, so'fuyi xānagāh özim.*

Maxmur hajviy timsol tilini individuallashtirishga alohida e'tibor beradi. Individual til va obraz yaratish uchun shevalarga xos bo'lgan so'zlardan, fe'l ko'rinishlaridan foydalanadi va ularni o'rinli ishlatadi. Masalan: *qīsa-qīlsa, boma-bolma, qīg'an-qīlg'an, kegäy-kelgäy, bosam-bolsam, yanīlmadīm-yanmadīm, ayīlmadīm-ayrīlmadīm* kabilar.

Bundan tashqari, Maxmur keng xalq ommasi qo'llaydigan, ammo kitobiy uslubga kiritilmagan so'z va iboralarni ko'plab ishlatadi: *katalak, kamalak, katak, kana, alachuq, zaminkan, yertola, ajrīq, og'ur, sumalak, falakzada, biyaban, alatörtköz, köppäk, burush* (burda), *yalaq, tábäk* kabi.

Uning asarlari tilida ba'zan tushunilishi qiyin bo'lgan o'zbekcha va tojikcha aralash qurilmalar, lug'atsiz anglashilishi mushkul bo'lgan so'zlar ham uchraydi. SHuningdek, g'arbiy adabiy til unsurlari ham bor. Masalan, *yaxshi* so'zi o'rnida *chox* so'zi ishlatiladi.

Umuman, Maxmur ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asoslab bergan adabiy tilni jonli xalq tili negizida rivojlantirdi. Maxmurning realistik satiralari uslubidagi vositalarni demokrat shoir Muqimiy rivojlantirdi.

XV–XIX asrlardagi lug'at va grammatik asarlarning adabiy tilni me'yorlashtirishdagi roli. Ma'lumki, biror yaxshi lug'atning paydo bo'lishi milliy nutq madaniyatining taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilshunosligida lug'atchilik katta tarixga egadir.

Buyuk mutafakkir shoir Navoiy o'zining lug'atchilik va grammatika sohasidagi yarim asrlik tajribasini «Muhokamatul-lug'atayn» asarida umumlashtirdi. Unda o'zbek va fors-tojik tillarining lug'atlarini qiyoslab, o'zbek tilining ustunliklarini ko'rsatdi.

Navoiy XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda va undan keyin uning asarlari tili haqida bir qancha lug'atlar va grammatikalar tuzildi. Lug'at va grammatikalarda Navoiy tilidagi leksik va grammatik materiallar to'plandi. SHunday lug'atlardan biri *Aloyi binni Muhibiy (1560) tomonidan tuzilgan «Al-lug'otun Navoiya va al-istishhodatul chig'atoiya»* («Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari») nomli asardir. Bu lug'at «**Abushqa**» deb ham ataladi. Ilmiy jamoatchilik o'rtasida shu nom bilan mashhur bo'lgan bu lug'atni 1869 yilda V. V. Velyaminov-Zernov nashr ettirdi va frantsuz tilida unga so'z boshi yozdi.

„Abushqa“ lug'atida **2.000** ta so'z bo'lib, ular Navoiyning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlaridan olingan. U so'zlarning lug'aviy ma'nolari izohlanib, Navoiy g'azal va dostonlaridan keltirilgan misralar bilan oydinlashtiriladi. Lug'at muallifi *turkiy xalqlarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni ajratib olib, ularni izohlaydi*. Bunda u asosiy lug'aviy birliklarni ajratib olmay, har xil grammatik ko'rinishlardagi so'zlarni alfavit tartibida berib boradi. Masalan: *ikäv, ikägü, ikävlä, ikälämiz; bolg'acha, bolg'ucha, bolg'uncha; törttä, törtälä, törtävlä, törtäläsi* kabi.

«Abushqa» lug'atining qimmatli tomoni shundaki, chig'atoycha-turkcha deb atalgan bu asarda umumba tushunarli bo'lmagan so'zlarning ko'chma ma'nolari va ma'no o'ttenkalari izohlanadi. SHuning uchun u ba'zi so'zlar semantikasini o'rganishda ishonchli material bera oladi.

Tali Imeniy Hirotiy tomonidan yaratilgan «Badoeal lug'at» asari ham Navoiy asarlari leksikasiga bag'ishlangan. «**Badoeal lug'at**» XV asrning oxirlarida kitobat qilingan bo'lib, u chig'atoycha-forscha lug'at hisoblanadi. Lug'atda Navoiy tilidagi turkcha so'zlarning forschaga tarjimasi berilgan. «Badoeal lug'at» A. K. Borovkov tomonidan o'rganilib, nashr ettirildi.

A. K. Borovkov «Badoeal lug'at» va «Abushqa» haqida fikr yuritarkan, shunday yozadi: «Abushqa» lug'ati «Badoeal lug'at»ning qayta ishlangan ko'rsatkichi yoki unga yaqin bo'lib, unda so'zlarning tarjimasi berilgandir».

XVII asrda tuzilgan **Fazlullaxonning lug'ati** o'zbek tili tarixi uchun muhim qimmatga egadir. U turkcha lug'at deb atalib, **uch bobdan** iboratdir. *Birinchi bobda fe'llardan hosil bo'lgan otlar* forschaga tarjima qilinadi. *Ikkinchi bobda esa turli xil fe'l ko'rinishlari* izohlanadi. *Uchinchi bob ot turkumi so'zligini* tashkil qiladi.

Fazlullaxon lug'atida har bir so'zning *talaffuz etilish* me'yorsiga aniq xarakteristika beriladi. Masalan: *ota* so'zidagi oldingi unli fatha va maddali alif bilan, ikkinchisi maddasiz yoziladi, deb izohlanadi. Lekin keltirilgan misollar kimning asaridan olingani haqida hech qanday belgi yo'q. Hatto ba'zi so'zlar izohiga misollar berilmaydi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining SHarqshunoslik instituti qo'l yozmalar fondida saqlanayotgan «**Arabcha-o'zbekcha-tojikcha lug'at**» (**Muntaxabul-lug'at**) xevalik **Muhammad Rizoga** tegishlidir. Bu lug'atda Navoiy asarlaridagi

arabcha, forsha va o'zbekcha so'zlarga izoh beriladi. Muallif so'z boshida lug'atning maqsad va vazifalari xaqida ma'lumot beradi.

Muhammad Rizo so'z va iboralarning semantikasini oydinlashtirish, izohlash bilan birga ularning uslubiy qo'llanishini misollar bilan sharhlaydi. Masalan:

Mil–sulsi farsah, buvad, amir „Hayratul abror" da buyururlar. Masnaviy;

Oz kibi turlar barī andīn zalil,

*Kishidān ixrāj bolīb **mil-mil**.*

Va yana **mil** ulkim, pādshāhlar g'azab qilg'an adamīnī közigä qīzutub chekärلär, nabinaābolur ermish, bu ma'nig'a mavlanā Fuzuliy buyururlar. Masnaviy:

Ey Fuzuliy, baxshayam tā g'ayra xar hunī mijā,

*Ātashin bir **mildurkim**, chashmai g'ayrat chekär.*

Yana ulkim, dubulg'anīng ustida baland va mo'rtafe' bolīb turg'an, **mil** derler. CHunānchi amir „Farhad va SHirin" da Farhādnīng ikki tash bilā Xisravnīng til mig'fari va mahjai alam uchurg'anī bayanīda buyurur. Masnaviy;

Ikki tash qīlīb sur'atda ta'jil,

*Payāpay uchtī yetgāch mahjai **mil**.*

XV – XIX asrlarda yaratilgan lug'atlarning mukammallaridan biri XVII asrda kitobat qilingan **Muhammad YA'qub CHingiyning Kelurnoma**» asaridir. O'zbekcha-tojikcha hisoblangan bu lug'at 15 bobdan iborat.

Lug'atning qimmatli tomoni shundaki, unda har bir so'zning bosh holati, ya'ni fe'llarning **infinitiv** ko'rsatkichi, *otning bosh kelishik ko'rsatkichi* va *uning forsha tarjimasi* beriladi. So'ngra unga turli xil grammatik shakllarning qo'shilib kelishi va uning tarjimasi ko'rsatiladi. Masalan: *oqumaq – xāndan, oqīdī–xānd, oqīptur– xānda ast, oqur– xāhad xānd, oqubdī – xānda bud, oquydur–mixānd, oqumadī–na xānd, oqumaptur– na xānda bud, oqumas – na xāhad xānd, oqumaydī–na xānda bud, oqumaydur–name xānd, oqu - bixān, oquma – maxān, oqurbiz – mixānim mā* kabi.

Lug'at bir necha fasllarga bo'lingan. Har bir faslida hayotning turli sohalariga oid so'zlarga izoh beriladi. Masalan, «Osmon», «Er», «Qushlar» kabi fasllarda shularga tegishli so'zlar izohlanadi.

Inson organizmiga oid faslda so'zlar quyidagi tartibda beriladi: *bash – sar, miya – mag'iz, sach – mo'y, qash – abro', manglay – peshana, köz – chashm, kulaq – go'sh* kabi.

Bu lug'at orqali tojik tili ta'sirida paydo bo'lgan sinonimik qatorlarni aniqlash mumkin: *kök– asman, quyash–aftab*

Mehdixonning «Sangloh» lug'atn o'zbek adabiy tili tarixida muhim o'rin egallaydi. «**Sangloh**» **lug'atida «Maboniul lug'at»** deb ataluvchi eski o'zbek tilining grammatik ocherki berilgan bo'lib, uning kirish qismida Navoiy asarlarining soni ko'rsatilgan. «Maboniul lug'at»ning **birinchi bo'limida harakat nomlari va sifatdoshlar** izohlangandan so'ng **o'tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon, buyruq mayli, fe'lning bo'lishsiz ko'rinishlari** haqida gapiriladi. Asarning **ikkinchi bo'limida ba'zi grammatik ko'rinishlarning shakllanish jarayoni ko'rsatiladi, uchinchi bo'limida olmoshlar, to'rtinchi bo'limida yuklama va morfemalar** xarakteristikasi, **beshinch bo'limida yordamchi fe'llar,**

oltinchi bo'limida orfografiya masalalari yoritiladi. Grammatikaning oxirida Navoiy asarlarida uchrovchi forscha unsurlar ilova qilinadi.

«Maboniul lugʻat»da u yoki bu koʻrsatkichning fors va oʻzbek tilida qanday qoʻllanilishi koʻrsatiladi.

Mehdixon grammatikasida eski oʻzbek tilining fonetikasi haqida ham toʻxtalib, tovushlarning jaranglilashishi va jarangsizlanishi (assimilyatsiya) holati, unli tovushlarning uygʻunlashishi kabi masalalar yoritiladi: *aldī, urdī, ketti, tuttum, kettim* kabi.

Asarda shevalardagi ayrim grammatik koʻrinishlarning farqli tomonlari ham koʻrsatiladi. Bunda adabiy til faktlari jonli shevalar bilan chogʻishtiriladi: *ketmāk, kelmāk, koʻrmāk* kabi soʻzlar xorazm va turkmanlarda *gitmān, gelmān, goʻrmān* tarzida talaffuz etilishi aytiladi.

Grammatik koʻrinishlarning ishlatilish darajasi va shu soʻzlarning etimologiyasi qiziqarli fikrlar bilan yoritiladi. Masalan: *aydīn* (ay + tun), *īshtan* (ich + ton) kabi.

Umuman, Mehdixon lugʻati va grammatikasi oʻzbek adabiy tilining leksik hamda grammatik meʼyorlarini belgilashda maʼlum rol oʻynaydi.

Fath Alixon Kojariy lugʻatida (XIX asr) 8.000 dan ortiq soʻzga izoh berilib, uning uchdan ikki qismi Navoiy asarlaridan olingan misollar bilan bezalgan.

Lugʻat **toʻrt** qismdan: **soʻz boshi, chigʻatoycha-forscha lugʻat**, «Sangloh» lugʻatida berilmagan **oʻn ikki** soʻz izohi, Navoiy asarlaridagi forscha soʻzlar lugʻatidan iborat. Lugʻatda Navoiy biografiyasi hamda geografik, tarixiy va etnografik maʼlumotlar ham bor.

XV–XIX asrlar davomida oʻzbek tili haqida yaratilgan lugʻatlar yuzasidan quyidegicha xulosaga kelish mumkin:

Hamma lugʻatlarning tilida janubiy turkiy lahjalarning taʼsiri kuchli va hajmi kichik yo chegaralangan. Ulardagi leksik unsurlar 8–9 mingdan oshmaydi. Lugʻatlar chigʻatoycha-forscha deb atalgani bilan Navoiy asarlari tili bilan cheklangan.

Haqiqiy lugʻatlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Lugʻatda tildagi butun lugʻat boyligi oʻz ifodasini topishi kerak.
2. Har bir soʻzning aniq, aniq maʼnosi izohlanishi lozim. Mehdixon «Sangloh» lugʻatida 12 soʻzning maʼnosi noannq deyilsa, Fath Alixon lugʻatida ular izohlanadi.

3. Lugʻatda har bir soʻzning toʻgʻri qoʻllanish namunasi koʻrsatilishi zarur.

Umuman, yuqoridagi lugʻatlar va grammatikalar talablarga toʻla javob bermasa-da, ular adabiy tilning meʼyorlashishida oʻz XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda muhim rol oʻynadi.

XVII asrdan XIX asrning 60-yillarigacha boʻlgan oʻzbek adabiy tili haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bu davrdagi oʻzbek adabiy tilida gʻarbiy adabiy tilning, yaʼni Fuzuliy adabiy tilining taʼsiri kuchli edi. CHunki koʻpchilik shoir va yozuvchilar asarlarini Navoiy va Fuzuliyga ergashib yozdilar. Ularning tili hamda uslubidan foydalandilar.

2. XVII asrdan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davrdagi adabiy tilni jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish uchun kurash tendentsiya kuchli edi. Bu tendentsiya Abulg'ozini va Boburlardan boshlanib, ulardan so'nggi so'z san'atkorlari davom ettirdilar.

3. So'nggi feodalizm davri o'zbek adabiy tilida o'zbek tilining lahja xususiyatlari o'z ifodasini topdi. Abulg'ozida Xorazm shevasi, Turdida Buxoro shevalari, Gulxaniy va Maxmurda Farg'ona shevalari xususiyatlari uchraydi.

Ma'ruzani mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.XVII-XIX asrlar adabiy tilining ravnaq topishi uchun qanday omillar ishtirok etdi?

2.Abulg'ozini Bahodirxon "...bas, turklarga turkona aytmoq kerak" deganda nimani nazarga tutgan edi?

3.Turdi o'z satiralarida qanday lisoniy birliklardan foydalangan?

4.Muhammad Xoksorning «Muntaxabul lug'at» asari boshqa lug'atlardan nimasi bilan farqlanadi?

5. Muhammadniyoz Nishotiy asarlari tili uchun qanday mezon xizmat qildi?

6.Munis asarlarida qo'llangan lisoniy birliklar haqida ma'lumot bering.

7.XV–XIX asrlarda qanday lug'at va grammatik asarlar yaratilgan?

Zaruriy adabiyotlar:

1.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev. O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1995.94–109-betlar.

2.Kononov A.N. Rodoslovnaya turkmen. M.–L., 1958.

3.Borovkov A.K. Leksikograficheskaya tendentsiya v slovaryax chigatayskogo yazyka. –"Leksikograficheskiy sbornik". V'ip. 1U. M., 1960, 156-bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Ibragimova A. Issledovanie "Kelur-name" Muxameda YAkuba CHingi. Muallifef. kand. Diss. T., 1976.

2.Umarov Z.A. Grammatika starouzbekskogo yazyka "Maboniul-lug'at" Mirzi Muxamedxana. Muallifef. kand. Diss. T., 1967.

3.Muxiddinova K. "Sanglax" Mirzi Mexdixana. Muallifef. kand. Diss. T., 1971.

11-ma'ruza: XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDAGI O'ZBEK ADABIY TILI

Reja:

1. Davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy til masalasi haqida
2. XIX asrning 60-yillaridan 1905 yilgacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili
3. O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Muqimiyning xizmatlari
4. Furqatning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli
5. Zavqiy asarlarining tili va uslubi
6. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida Avaz O'tarning tutgan o'rni
7. Gazeta-publitsistika uslubining paydo bo'lishi va shakllanishi

Tayanch tushunchalar: 1. Markaziy Osiyoni CHor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi. 2. Bu davrdagi o'zbek adabiy tiliga rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan til birliklari. 3. Muqimiy ijodining yangi o'zbek tilining shakllanishidagi roli. 4. Furqat asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan birga yangi atamalarning qo'llanishi. 5. Zavqiy va Avaz O'tar asarlarida yangi o'zbek tili taraqqiyotining namoyon bo'lishi. 6. O'zbek adabiy tiliga yangi uslub – gazete publitsistik uslubining kirib kelishi juda uzoq tarixiy davrni o'z ichiga olgan o'zbek adabiy tili taraqqiyotida XIX asrning II yarmi va XX asr boshlaridagi adabiy til o'ziga xos alohida o'rinni egallaydi. Bu davr adabiyotining tili va uslubida jiddiy, muhim yangiliklar yuzaga keldi. Bular o'zbek xalqi hayotida yuz bergan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida maydonga keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshiga kelib o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Feodal tarqoqlik yana kuchaydi. Tili, urf-odati, madaniyati bir bo'lgan o'zbek xalqi uchta mayda xonlikka ajralgan holda yashadi. Ikkinchi tomondan, Rossiya va u orqali Evropa bilan muntazam savdo aloqasida bo'lgan o'zbek xalqi u erlarda bo'layotgan o'zgarishlardan ma'lum darajada xabardor bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya Markaziy Osiyoni o'ziga qaram qilib oldi. Bu o'zbek xalqi hayotida juda muhim o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'ldi. Avvalo o'zaro feodal urushlarga barham berdi. O'zbek xalqi hayotida kapitalistik munosabatlarning tezlashishiga olib keldi. Mahalliy aholi o'rtasida ilg'or rus madaniyati keng tarqala boshladi.

O'zbek xalqi tarixi va jamiyat hayotida ro'y bergan bu hodisalar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Agar XIX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tilida Navoiy tili ta'siri va uni xalq tiliga yaqinlashtirish g'oyasi kuchli bo'lsa (buni Gulxaniy, Maxmur, Ogahiy, Abulg'oz, Munis asarlari tilida, ko'ramiz), shu asrning 60-yillaridan keyingi o'zbek adabiy tilida ham Navoiy an'anasi davom etdi, ammo bunda rus tiliga xos bo'lgan so'z va ko'rinishlar ko'plab qo'llandi. Bular Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Zavqiy, Avaz O'tar asarlari tilida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rossiya va Markaziy Osiyoda yangicha leksika va atamalogiya, rus tili ta'sirida yangicha grammatik qoliplar paydo bo'ldi. Bular 1906 yildan so'nggy

gazeta va jurnallar tilida, Hamza va S. Ayniyning dastlabki asarlarida, M Behbudiy ijodida mavjuddir.

YUqoridagi fikr va mulohazalarni, adabiyotda realistik g'oyalarning rivojlanishini, davr taraqqiyotining tilda o'z ifodasini topish jarayonini hisobga olib, bu asarlardagi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini ikki davrga bo'lish mumkin-.

1. XIX asrning 60-yillaridan 1905 yil to'ntarishgacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili.
2. 1905 yildan 1917 yilgacha to'ntarishgacha bo'lgan o'zbek adabiy tili.

XIX asrning 60-yillaridan 1905 yilgacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili

XIX asrning ikkinchi yarmi, ya'ni 60- yillardan boshlab Markaziy Osiyo Rossiyaga qo'shib olinib boshlandi.

O'zbekiston hududidagi Qo'qon xonligi Turkiston general gubernatorligiga qo'shib, Buxoro amirligi va Xeva xonligi, Rossiyaning vassali sifatida saqlanib qoldi. Bu hol mamlakat iqtisodi, ijtimoiy ong taraqqiyoti va adabiyotiga ta'sir qildi. .

Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi natijasida mamlakatda hukm surib kelayotgan eski hayot asoslari o'zgara boshladi. Turkiston qoloq iqtisodining Rossiyaning ancha taraqqiy qilgan iqtisodiga qo'shilishi Markaziy Osiyoni «jahon tovar muomalasi yo'liga olib chiqdi». Qapitalistik munosabatlarning o'sa borishi jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirdi. Mahalliy burjuaziya tug'ila boshladi va u mamlakatda tovar muomalasini o'z quliga olish uchun harakat qildi. Kapitalistik munosabatlar asosida ishchilar sinfi tug'ildi. Xalqning asosiy qismini tashkil qilgan dehqonlar hayotida ham keskin o'zgarish yuz berdi. Qoloq xo'jaliklar maydonga keldi, O'rta va kambag'al dehqonlar erdan ajralib batraklarga, ishchilarga aylandi.

Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi o'zbek xalqining rus xalqi bilan bevosita va yaqindan aloqa qilishi uchun keng imkoniyat ochib berdi. Bu esa o'zbek xalqining ilg'or rus madaniyatidan bahramand bo'lishiga va rus tilini o'rganishiga yo'l ochib berdi.

Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi chekka o'lkalarda yashagan millatlar va elatlar, shu jumladan, o'zbek xalqining ham rus madaniyati va adabiyotidan bahramand bo'lishida ijobiy rol uynadi. «Rus tili juda ko'p mayda va qoloq millatlar uchun ijobiy ahamiyatga ega edi – bu shubhasiz.

Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi natijasida Markaziy Osiyo xalqi ilg'ordemokratik madaniyat bilan tanishdi.

Jamiyat hayotida yangi ijtimoiy munosabatlarning urnatnlishi ilm-ma'rifatda yangi davr talablarini yoritishni, falsafiy-nazariy qarashlarning yaratilishini taqozo etdi. Davr taqozosi natijasida mahalliy xalqlardan taraqqiyparvar kishilar etishib chiqdi. Jumladan, qozoqlardan Abay Qo'nonboyev (1845–1904), CHuqon Valixonov (1835–1866), Ibray Oltinsarin (1841 – 1889), tojiklardan Ahmad Donish (1827–1897), qoraqalpog'istonlik Berdaq (1827–1900), tatarlardan Abdulla Tuqay (1886–1913), Qayum Nosiriy (1824–1902), armanlardan Mekael Nalbandyan (1819–1848), Gubrael Sundukchyan (1825–1912), Xachatur Abovyan

(1805–1848), Ovanes Tumanyan (1869–1928), ozarbayjonlardan Mirza Fatali Oxundov (1812–1878), Mirza Aliakbar Toirzoda (1862–1911) kabi kishilar shu davrdagi ilgʻor ziyolilardir.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonga Rossiya – CHernishevskiy, Plekhanovlar Rossiyasi hamda qoloq Rossiya – Guchkovlar, Struvelar Rossiyasi kirib keldi. Bu ikki xil adabiy oqimning – Ilgʻor-demokratik va feodal-klerikal oqimlarning shakllanishiga zamin hozirladi.

Ilgʻor Rossiyaning taʼsiri natijasida oʻzbeklar oʻrtasidan ham yangicha ong-tushunchaga ega boʻlgan ziyolilar – Mirza Barot Qosimov, Akram Asqarov, Hoji YUsof, Mirza Buxoriy, Siddiqiy, Sattorxon, Isoqxon (Ibrat), Qomil Xorazmiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz Oʻtar kabilar etishib chiqdilar. Ularning koʻpchiligi adabiy hayotda ham qalam tebratib, ijobiy demokratik adabiyotning rivojlanishiga munosib hissa koʻshdilar. Ilgʻor-demokratik adabiyotning mohiyatini va gʻoyaviy asosini xalqchillik, vatanparvarlik, maʼrifatparvarlik gʻoyalari tashkil qiladi. Ular anʼnaviy janrlarda va sayohatnoma, maktub janrida asarlar yozib, ularda xalq hayotini tasvirladilar, xalqlar oʻrtasidagi doʻstlikni tarannum etdilar, hukmron sinflarning kirdikorlarini fosh etdilar, hayotdagi yangiliklarni targʻib qildilar.

Bu davrda xoʻjalik va madaniy hayotning yuksalishi va taraqqiyoti yangi-yangi tushunchalarning tugʻilishiga sababchi boʻldi. Ular oʻz navbatida yangi soʻzlarning paydo boʻlishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmidagi soʻz sanʼatkorlari yangi tushunchalarni ifodalash uchun rus tiliga va oʻzbek adabiy tilining ichki imkoniyatlariga murojaat qildilar.

Oʻzbek tili leksikasi oʻsha davrda uch manba asosida boyib bordi. Bular quyidagilar:

1. Oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari va qonunlari zaminida yaratilgan soʻzlar hisobiga boyidi.

Maʼlumki, jamiyatda paydo boʻlgan yangi tushunchalar yangi soʻzlarni yaratish uchun turtki boʻldi. U soʻzlar neologizmlar sifatida tilning lugʻat tarkibiga qabul qilinadi. Neologizm sifatida qabul qilingan soʻzlar ikki xil boʻladi. Birinchisi, bir til chegarasida boʻlgan soʻzni yangi maʼnoda qoʻllash: *zolim* soʻzi oʻrnida *zulmparvar* soʻzini ishlatish, *ishchi*, *charogʻon*, *mashʼaliston* kabi. Ikkinchisi, yangi tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan soʻz olish.

Ruslardan kirib kelgan yangi narsa-jism va hodisalarni oʻzbek tilida nomlashda quyidagi usullardan foydalanildi:

a) oʻzbek tilining oʻz soʻzlarini moslashtirish bilan. Masalan: *jahonnoma* soʻzi geografiya maʼnosida (*Furqat, Asarlar, II, 1960, 123-bet*), *manzil* – stantsiya (*TVG, 15, 1889*), *usta* – dirijyor (*Furqat, Tanlangan asarlar, II, 1960, 28-bet*), *bosmaxona* – tipografiya (*Furqat, II, 14-bet*), *tabib* – vrach (*Muqimiy, Tanlangan asarlar, II, 1960, 67- bet*), *nishon* – orden (*TVG, 9, 1903*), *muallif* – muallif (*TVG, 6, M 50, 1899*) kabi;

b) rus tilidagi atamalarni kalka yoʻli bilan oʻzbek tiliga tarjima qilish orqali. Tarjimada bir soʻz bir soʻz bilan, ayrimlari ikki soʻz bilan beriladi. Masalan: ruscha *fizicheskiy kabinet* soʻzini *hikmatxona* deb berish, *poxvalnaya gramota* – taʼrifnoma, *ambultoriya* – tabibxona, *upravitel* – boshqaruvchi; *jeleznaya doroga*

– temir yo‘l, *belʼy tsar*—oq podsho; *povestka* – chaqiruv qog‘ozi, *kerosin* – erylgi, *shtraf* – jarima puli, *ruchka* – fulod qalam, *poezd* – otash arava, *paroxod* – otash kema kabi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ayrim soʻzlarning tarjimasi bir necha soʻzlar bilan berilgan. Masalan, *tyurma* soʻzi maʼnosida *turma*, *turmaxona*, *hibsxona*, *bandixona*, *oboxta*, *mahbusxona*; *poezd* soʻzi maʼnosida *poyiz*, *otash aroba*, *ut aroba*, *temir aroba* kabi soʻzlar ishlatilgan.

2. Oʻzbek adabiy tili xalq jonli tili asosida boyidi. Bu davr soʻz sanʼatkorlari XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan Maxmur, Gulxaniy anʼanasini davom ettirib, «avomcha» hisoblangan xalq tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar va yangi tushunchalarni ifodaladilar.

«Adabiyotning jonli tilga intilishi va uning xazinasidan samarali foydalanish bu adabiyotning haetga yaqinlashayotgani-dan, realizmga qarab intilganidan dalolat beradi. Haqiqatan ham demokratik adabiyotda realizmning gʻalaba qilayotganligi adabiy til taraqqiyotida ham, uning leksik tarkibila ham koʻrinibturadi».

SHunday zkan, demokratik adabiyot vakillarining asarlarida jonli soʻzlashuv tiliga xos soʻzlarni istagancha topish mumkin. Masalan: *boʻzchi*, *kosov*, *bezgak*, *paxsa*, *loy*, *iskaptopar*, *qirchangʻi*, *arava* kabi.

3. Oʻsha davr adabiy tili taraqqiyotida uchinchi manba rus tili boʻldi. Maʼlumki, Turkiston Rossiyaga qoʻshilgandan soʻng «Turkiston viloyatining gazeti» va boshka gazetalar chiqa boshladi. Bu, gazeta sahifalarida mahalliy ziyolilarning vakillari ham qatnasha boshladilar. Gazetada rus tilidan tarjima qilingan ayrim asarlar va maqolalar chop etildi. Hatto baʼzi oʻzbek xalqi ijodkorlarining ruschaga tarjima qilingan asarlarini bosib chiqardilar. Bundan tashqari, madaniy hayotda boʻlgan boshqa oʻzgarishlar oʻzbek adabiy tilini rus tili leksikasi hisobiga boyitdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan oʻzbek tiliga baʼzan ehtiyoj tufayli, baʼzan ehtiyojsiz xam soʻz qabul qilinaveradi. Masalan, «Turkiston viloyatining gazeta» sahifalarida oʻzbek tilida *harbiy*, *qonun*, *shahar hokimi* kabi soʻzlar boʻlgani holda *voennʼy*, *zakon*, *gorodnichiy* soʻzlari uchraydi. Ayrim oʻrinlarda rus soʻzlari oʻzbekcha soʻzlar bilan parallel qoʻllaniladi. Masalan: *pachot-ismotritel* – *izzatlik nozirlik*, *upravlyayushiy* – *boshqaruvchi*, *starosta* – *oqsoqol* kabilar.

Bu davrda rus tilidan oʻzbek tiliga soʻz qabul qilishning asosiy sababi shundan iboratki, madaniy turmushda bir qancha yangiliklar paydo boʻldi. Bunday yangi tushunchalarni ifodalash uchun oʻzbek tilida soʻzlar yuq edi. SHuning uchun bunday soʻzlar rus tilidan toʻgʻriddn-toʻgʻri qabul qilindi. Bular sanoat, transport, pochta, telegraf, maorif va madaniyat sohalari bilan bogʻliq edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan soʻzlarning bir qismi aslida turkiy soʻzlar edi. Ular yangicha maʼno va fonetik oʻzgarish bilan oʻzbek tiliga qayta qabul qilinDi. Masalan: *tovar*, *istikon* (stakan), *karandash* (karandash); *kagan*, *boyarin*; *bek*, *bashmak*, *qalpoq*, *kabluk*, *cherdak*, *qalancha*, *lachuga*, *tamgʻa*, *dengi*, *karaul*, *yarliq*, *yam*, *yamshik*, *altiy*, *kabak* va boshqalar.

Rus tilidan qabul qilingan soʻzlarning koʻpchiligi Gʻarbiy Evropa tillaridan kirgan. Masalan, rus tili orqali latin tilidan *doktor*, *komitet*, *konsul*, *mashina*, *minut*,

nomer, stantsiya, fabrika soʻzlari; grek tilidan *gimnaziya, musiqa, teatr, telegraf*; italyan tilidan *bank, gazeta, kassa, lazaret, soldat*; nemis tilidan *yarmarka, shtraf, tyurma, marka, kontora, veksel*; frantsuz tilidan *adres, jandarm*; ingliz tilidan *kerosin, vagon* kabi soʻzlar; golland tilidan *sitets, kran* kabi soʻzlar qabul qilindi.

Bundan tashkari, rus tilidan kirgan koʻpchilik soʻzlarning kelib chiqish etimologiyasi arabcha va forschadir. Masalan, shu davrda oʻzbek tiliga bevosita rus tilidan kirgan *admiral, azimut, algebra, algorifm, alkogol, arsenal, magazin, tarif, shuba* soʻzlari aslida arabcha; *divan, neft, chamadon* soʻzlari fors-tojikchadir.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan soʻzlarning baʼzilari ruscha-oʻzbekcha tarkiblar asosida juft soʻzlar holida berildi. Jumladan, *istarshina* – *oqsoqol* (TVG, 48, 1894), *fanor* – *fonus* (TVG, 45, 1894), *gir* – *tosh* (TVG, 40, 1885), *suruk* – *muddat* (TVG, 19, 1884), *zakunlar birla qonun*-(*Furqat*) kabi.

Bundan tashqari, oʻsha davrda rus tilidan qabul qilingan soʻzlarni izohlashda *yaʼni, degan, nom, nomli*, ismli soʻzlarini qoʻllaganlar. Masalan: *turmada, yaʼni oboxtada yotibdur* (TVG, 16, 1877), *faraxoʻt, yaʼni otash kema* (TVG, 15, 1879), *kirasin degan chirogʻ yogi* (TVG, 23, 1883), *karita nom aroba* (TVG, 18, 1874) kabi.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan soʻzlarning asosiy qismi oʻzbek tiliga soʻzlashuv nutqi orqali, mahalliy matbuot va yozuvchilarning asarlari orqali kirib keldi.

Tarjimalar faqat rus tilidagina emas, balki boshqa tillardan, jumladan, fors-tojik tilidan ham qilindi.

Ayniqsa, bu davrda Bedil ijodi bilan qiziqish, Bedilga ergashish kuchaygan edi. Asha shu ergashish natijasida demokrat shoirlar zullisonaynlikni davom ettirdilar. Natijada mumtoz adabiyotdagi fors-tojikcha va arabcha grammatik koʻrsatkichlar hamda leksik unsurlardan ham foydalandilar. Demokrat shoirlar va maʼrifatparvarlar timsol tili, badiiy asar tili, muallif tili, uslubiy did va uslubga alohida eʼtibor bilan qaradilar. Natijada shoirlar qahramonlarning individual tili orqali ularning kasb-hunari va xarakterini ochib berishga intildilar. Masalan: Muqimiyning «Toʻyi Iqonbachcha» satirasidagi toshkentlik boy va iqondagi gumashta tiliga eʼtibor berilsa, birining tilida keskinlik, dagʻallik, buyruq, ikkinchisining tilida ezmalik, lanjlik, yalinchoqlik xususiyatlari seziladi.

Oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida Muqimiyning xizmatlari

Oʻzbek ilgʻor-demokratik adabiyotining mashhur vakillaridan biri Muqimiy oʻzbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qoʻshdi.

Oʻzbek adabiy tilining Alisher Navoiy tomonidan asoslangan va rivojlantirilgan meʼyorlari asrlar davomida oʻzgara bordi va eskira boshladi. Muqimiy tili Navoiy tilining – eski oʻzbek adabiy tilining davomi hisoblansa-da, undan koʻp jihatdan farq qiladi. Buning sababi shuki, til oʻzida jamiyat va iqtisodiy turmushda boʻlgan hamma oʻzgarishlarni toʻgʻridan-toʻgʻri va bevosita aks ettiradi. SHuning uchun ham Muqimiy asarlari tilida soʻzlashuv nutqiga axos qurilma, mumtoz adabiyotgda badiiy uslub va grammatik koʻrinishlar hamda rus tiliga xos leksik unsurlar mavjud.

1. Muqimiy asarlarida soʻzlashuv nutqi unsurlari Muqimiyning oʻzbek adabiy tiliga qoʻshgan hissasi uning xalqchilligini oshirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. SHoir xalqqa tushunarli tilda yozishni oʻz uslubining ajralmas xususiyatlaridan biri qilib olish bilan oldingi asrlarda yashab ijod etgan ijobiy yozuvchilarga nisbatan birmuncha ilgari ketdi.

Muqimiy mehnatkash omma hayotidan faqat tema va syujet olmasdan, balki uning bitmas-tuganmas boyliklaridan ham bahramand boʻldi. SHuning uchun shoir asarlari tili folklor va xalqning jonli tili hisobiga boyidi, rivojlandi. Bu jihatdan uning «Tanobchilar», «Moskovchi boy taʼrifida», «Tuy» kabi etuk satirik asarlari alohida ajraib turadi. Muqimiy, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodining sifatlash, oʻxshatish, metafora, metonimiya, allegoriya, mubolagʻa, sinekdoxa, takrorlash kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalandi. Masalan: *botini choʻyan qozon, qaynar ichida revu rang*. Bunda din ahllarining nodonligini koʻrsatish uchun koʻngillarini qora qozonga oʻxshatadi.

Muqimiy oʻz fikrlarini sodda, ixcham va xalqqa tushunarli tarzda ifoda etish uchun maqollar va hikmatli soʻzlarni koʻproq qoʻlladi. SHoir baʼzi xalq maqollarini leksik va grammatik jihatdan oʻzgarishsiz bersa, baʼzilarini qisman oʻzgartiradi. Ay-rimlarini sheʼrning qofiya va mazmuniga singdirib yuboradi:

Arzon emas beillat, qimmat emas behimmat,

Noinsofu betavfiq blgan ekan Bekturboy.

Muqimiy asarlarida xalq soʻzlashuv nutqiga xos leksik xususiyatlar ham koʻp uchraydi. Bulardan baʼzi leksik xususiyatlarning adabiy tilda muqobili bor, baʼzilariniki yoʻq. Muqimiy asarlari tilida *koʻrpa, tezak, ezma, kusav, magʻzoba, xurjin, shilqim, purdoq, kerilmoq, kekirmoq, oʻsol, qolgʻich, injiq, paqir, tag, joy, boyaqush, pirsion, uvoda, kalla* kabi xalq tiliga xos soʻzlar uchraydi. SHulardan *qolgich, injiq, paqir, kallakdor, tag, joy* soʻzlarining oʻzbek adabiy tilida sinonimi yoʻq:

Oshiqidin choyxoʻrini be xabar **qolgʻich** olur

Vir miri otu bir **paqir** aravang.

YAyov, *boyaqush, ezma-churuk, piching, pirsion, uvoda, kalla* kabi soʻzlarning adabiy tilda *piyoda, bechora, sergap, kinoya, eronli, yirtilgan, bosh kabi* sinonimlari bor:

Xohi yayov, xohi boʻlsin otim,

Goh sayr, ham darkor ekan.

Muqimiy asarlari tilida baʼzan soʻzlashuv nutqiga xos quyidagi fonetik jarayonlar mavjud. Metateza hodisasi. Bunda soʻz tarkibidagi tovushlar oʻrin almashadi:

Qiygʻir koʻtargan uch yigit,

Qildilar bir-biriga isteza.

Matnda *metatezaga* uchragan soʻzlarning adabiy-orfografik koʻrsatkichi *qiygʻir va sitezadir*.

Apokopa hodisasi. Bunda soʻz oʻrtasi va oxiridagi tovushlar tushib qoladi:

Borilib mehmon *boʻgan* koʻp joyu dasturxonini.

Necha ahvoli xarobingni koʻrib, *qimas* nido.

Apokopa hodisasiga uchragan soʻzlarning adabiy-orfografik shakli *boʻlgan, qilmas, gʻisht, kelmasun, qulflagan* koʻrinishidadir.

Muqimiy asarlarida soʻz tarkibidagi bir tovushning boshqa bir tovush bilan almashish hodisasining quyidagi koʻrinishlari mavjud:

q – x almashinishi:

Boʻlsa shu yaxshi debki **maxtagʻaning**

Nigoh kayfi uchkay, kelsa agar **taraxlab**.

ch – sh almashinishi:

Ogʻizlari maqtanib oʻn besh **qarish**

b – m almashinishi:

Tobaqay **mundogʻ** malomat kunjida doim Muqim.

m – n almashinishi:

Balodek uchragan **shilqin** gadolarga qiron kelsun.

y – gʻ almashinishi:

Zilziladin lahzada **shundogʻ** shahar...

Muqimiy asarlari tilida soʻzlashuv nutqiga xos grammatik koʻrinishlar ham qoʻllanadi. Masalan, adabiy tilda *-zor* qoʻshimchasi jonsiz narsa-jismlarga qoʻshiladi. Lekin soʻzlashuv nutqida jonli narsa-jismlarga ham qoʻshiladi. Bu hol Muqimiy asarlarida ham uchraydi.

Etdim ul oqshom gʻam yutib,

Dashti qaroqchizor ekan,

2. Muqimiy ijodiga eski oʻzbek tilinqng taʼsiri. Muqimiy soʻz tanlash va ijod qilishda oʻzidan oldingi shoirlarga ergashdi. U Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Lutfiy, Maxmur, Turdi kabilarning asarlarini oʻrganib, ular kabi gʻazallar yozdi.

Muqimiy asarlari tilida mumtoz shoirlar qoʻllagan leksik unsurlar, grammatik koʻrinishlar uchraydi. Muqimiy asarlarida eski oʻzbek adabiy tiliga xos boʻlgan **erur,**

-dur, -ibon, -mish, oʻlmoq kabi koʻrinishlar ishlatiladi:

Hozir otamlarga birodar erur

Oʻt qoʻyibon kuydiradurgʻon oʻzum.

Kelishik qoʻshimchalarining eski oʻzbek adabiy tiliga xos shakllari ishlatilgan. Masalan, eski oʻzbek adabiy tilidagi kabi uchinchi shaxs kishilik olmoshiga kelishik qoʻshimchalari *anga, ani, aning, andin* tarzida qoʻshilgan. CHiqish kelishigi uchun *–din*, tushum kelishigi uchun *-ni, -i*, joʻnalish kelishigi uchun *-a* qoʻshimchasining qoʻllanishi ham bunga misol boʻladi. Masalan:

Dedi: ruqum oʻrgatasiz siz anga,

Istagan yangligʻ vujudin andin anqo, bachchagʻar.

Muqimiyda harakat nomining **-ish, -moq, -uv** qoʻshimchalari bilan yasalgan turidan tashqari, *-ur* bilan yasalgan koʻrsatkichi ham bor. Ammo *-ur* qoʻshimchasi bilan hozirgi-kelasi zamon feʼli va sifatdoshdan farq qiladi. *Berib mol kanturga qildi aktsiya* («Zavodchi boy taʼrifida»). *Nozu-neʼmat jurmini Qoʻqand uezdidan tilab...* («Tar mevalar»). *Olurlar ishtirop uch soʻm joʻra, Zakun boʻyicha anga shuki...* («Gap qoidasi»).

Rus tilidan qabul qilingan baʼzi soʻzlarning maʼnosi Muqimiy asarlari tilida ancha kengaytirilgan. Buni *vagon* va *samovar* soʻzlarining maʼnosida koʻrish

mumkin: *vagon* soʻzi rus tilida butun bir poezd tarkibini tashkil qiluvchi boʻlaklardan biri, Muqimiyda bu soʻz umuman poezd maʼnosida ishlatiladi. Masalan:

Surʼat ila hayr ulusdin etib,

Borligʻi ham xayriyat oʻldi *vogʻun*. (*Tarixi zilzilai Andijan*).

SHoir ruscha soʻzlarga murojaat qilar ekan, baʼzan ularning bir qismiga oʻzbekcha qoʻshimchalarni qoʻshib ishlatadi: *moshinachi*, *zavodchi*, *moskovchi*, *prujinalik* kabi. Masalan:

CHiqib yangi **Moskovchidin** boylar. (*Moskovchi boy taʼrifida*).

Baʼzan ruscha soʻzlarni shoir oʻzbekcha soʻzlarning aniqlovchisi sifatida, ayrim oʻrinlarda qoʻshma feʼl tarkibida keltiradi: *moshinqazon*, *durab chekman*, *pechat boylasin* kabi:

Qachon boʻlmagan gap qabul aylasin,

Muqarrar degaykim, **pechat boylasin**. (*Moskovchi boy taʼrifida*).

Muqimiy maʼlum uslubiy maqsad taqozosi bilan individual til yaratishda baʼzi ruscha soʻzlardan foydalandi: *seychas*, *pajalista*, *durrak*, *pashol*, *piyon*, *piyonista*, *zakun* kabi:

Topib mardikorini – „**Seychas** yuring,

Pojalista, – der erdi, – emdi turing“, (*Moskovchi boy taʼrifida*).

YUqoridagi kabi soʻzlarning oʻzbek tilida ekvivalentlari boʻlgani, ayrim soʻzlar ifodalaydigan narsa-jismlar jamiyatimizdan yoʻq boʻlib ketganligi sababli ular hozirgi oʻzbek tilida ishlatilmaydi: *starshiy*, *volost* kabi.

Muqimiy asarlarida ishlatilgan *Moskva*, *rus*, *pechat*, *kontora*, *zavod*, *prujina*, *samovar*, *minut*, *galosh*, *doktor*, *vagon*, *shtraf*, *drap* soʻzlari hozirgi adabiy tilda ham saqlanib qolgan. Ularning ogʻzaki talaffuz asosida yozilishiga chek qoʻyilib, yagona orfo-grafik qoidalar belgilandi. Lekin *chut*, *chor* (tsar), *chit* (sitets) kabi bir qator soʻzlar ogʻzaki talaffuz meʼyorsi asosida qolaverdi.

Umuman, Muqimiy oʻz gʻoyalari, yuksak orzu va istaklarini badiiy estetik jihatdan taʼsirchan va yorqin ifodalash uchun soʻzlashuv nutqi va eski oʻzbek tili koʻrinishlari hamda rus tili leksik unsurlaridan samarali foydalandi. Buning bilan Muqimiy rus tilidagi bir qaicha soʻzlarni oʻzbek adabiy tiliga birinchi boʻlib olib kirdi va uning taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshdi.

Furqatning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli. Furqat Markaziy Osiyoning Rossiyaga qoʻshib olinishi natijasida tugʻilgan yangi tarixiy obʼektiv ijtimoiy ongning ijobiy xarakterini adabiyotda targʻib qilgan ijodkorlardan va oʻzbek tili taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan maʼrifatparvarlardan biridir.

Furqatning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmati shundaki, u demokrat shoir sifatida adabiy til va badiiy uslubni soʻzlashuv nutqiga, yaqinlashtirishga harakat qildi. U «SHoir ahvoli va sheʼr mubolagʻasi xususida» nomli asarida til va uslubning soddaligi hamda ommabopligi muammolarini koʻtarib chiqdi.

Furqat xalq soʻzlashuv tilini, urf-odatlarini puxta oʻrgandi va oddiy xalqning hayotiga chuqur kirib bordi. Bu «Gapning tavsifi», «Tuy tavsifi», «Aza tavsifi» kabi asarlarida aniq koʻrinadi.

Furqat novator shoir sifatida oʻzbek adabiy tili leksikasi-ni yangi maʼnolar va yangi koʻrsatkichlar bilan boyitdi. Masalan,. shoir *barq*, *doru*, *olmos* soʻzlariga

boshqacha ma'no yukladi. *Barq* so'zini «elektr toki» ma'nosida, *doru* so'zini «elektr tokining ke-rakli manbai» ma'nosida, *olmos* so'zini «lampochnaning volfram simi» ma'nosida ishlatdi.

Furqat zamondoshlari ichida birinchi bo'lib rus madaniyati va rus tilini o'rganishni targ'ib qildi. Bu jihatdan Furqatning quyidagi ijobiy va qimmatli mulohazalari xarakterlidir: «Rossiya xalqi xat va lison o'rganmoqqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdur. Balki, mamlakat obod bo'lib, fuqaro va raiyalar osoyishta bo'lmoqlarini xoxlaydilar. Az baski Vossiya xalqi, hamma vaqt biz musulmon xalqiniyag davlatmand va xursand bo'lmog'imizga qo'shish qiladur».

Furqat o'z asarlarida Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi natijasida ijtimoiy hayot, fan, mada.niyat, iqtisodiy turmush sohalarida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi ruscha so'zlardan ham samarali foydalandi. Buni ayniqsa shoirning ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan asarlarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan,: *akt, bal, zol, teatr, rayol, ko'mor, gazet, gimnaziya, zakun, samauchitel, perevot, vīstavka, mashina, zovut, sallot, tilgirof, doktor, izboshchi, purjina* kabi; *Teatr-bazmini obod qilril («Suvorov haqida»)*. *Kirib vistavkani qildik tamosho («Vistavka xususida»)*. *Kirib gimnaziya ko'rdik tamomi («Gimnaziya»)*. *Bo'lurlar tilgirom ila xabardor («Ilm xosiyati»)*.

O'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan Furqat ta'riflayotgan voqea, hodisa, narsa va narsa-jismlar tasvirining real chiqishi uchun bu so'zlardan foydalandi. Bu so'zlar o'zbek tili leksikasining zamonaviy so'zlar bilan boyiganligini ko'rsatadi. Bu davrga kelib tilning grammatik qurilishi ham ancha silliqlashdi. Masalan, Navoiyning ko'pgina baytlarini hozirgi o'zbek kitobxonlari qiyinchilik bilan tushunsalar, Furqat she'rlarini osongina anglab etadilar. Lekin Furqat tilini hozirgi o'zbek tili bilan tenglashtirish yaramaydi. Chunki unda ham arabcha, forsha leksik unsurlar va grammatik ko'rinishlar ancha uchraydi. Lekin Furqatda eski o'zbek adabiy tiliga xos grammatik ko'rinishlar ancha silliqlashgan va takomillashgandir.

Eski o'zbek adabiy tiliga xos ko'rinishlarni kelishik qo'shimchalarining ishlatilishi misolida ham kurish mumkin.

Tushum kelishigi uchun **-in, -i**, jo'nalish kelishigi uchun **-a**, chi-qish kelishigi uchun

-din qo'shimchalari qo'llanadi:

Ayladi **ko'ksima** choku **ko'nqlimi** afgorlar,

Ustina qilmoq xino birda nigor istar ko'ngul.

Furqat asarlarida **-ish, -moq, -uv** qo'shimchalari bilan yasalgan harakat nomlaridan tashqari, **-ur** bilan yasalgan harakat nomlari ham uchraydi, *Tururga qolmadi toqat ko'ngul ham volau shaydo*.

Ba'zan okzaki nutq ta'sirida ko'rsatish olmoshi boshidagi *b* tovushi **m** tovushiga o'tadi: *bunda – munda, bundin – mundin* kabi.

Furqat asarlari tilida ham so'roq yuklamasining **-mu** shaklida, *bilan* ko'makchisining **-la, -ila, bila, birla, birlan** tarzida qo'llanish hollari mavjud:

Biro ishqida rasvolig'da o'lgan **bormu** deb munda **Rasadla** to'p otib kunning qiyomi. Mug'anniy nag'ma **birlan** qilu qolin.

Bulardan tashqari, ravishdosh yasovchi *-ibon* qo'shimchasi, **vayo** shaklidagi qo'sh bog'lovchidan ham foydalanilgan:

Qilibon tarbiyatda ihtiromu.

Vayo izboli pastidin alamnok.

Shuningdek, Furqat tilida o'g'iz tili unsurlari ham bor. O'tgan zamon sifatdashining *-mish* va *-an* yordamida hosil bo'lishi, *bo'lmoq* fe'lining *o'lmoq* ko'rsatkichida ishlatilishi shular jumla-sidandir.

Furqat asarlarida fors-tojik tiliga xos bo'lgan aniqlovchi va aniqlanmishning yoki qaratqichli birikmaning i bilan birikkan izofa qurilmalari ko'p uchraydi:

Emish Rusiyaga **sardori lashkar**,

Olib to'rtinchida **ta'limi nemis**.

Shunday qilib, Furqat XIX asrning ikkinchi yarmida Navoiy an'anasini qisman davom ettirish bilan birga, o'zbek adabiy tilini yangi grammatik ko'rinishlar va rus tilining leksirs unsurlari bilan boyitdi. O'sha davr o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Furqat asarlari tili, orqali o'zlashtirilgan rus tilidagi so'zlarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham adabiy til me'yorsiga moslashtirilgan holda ishlatilmoqda.

Zavqiy asarlarining tili va uslubi. Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy o'zbek demokratik adabiyotining mashhur namoyandalaridan biridir. Zavqiy o'tkir tanqid, achchiq kulgi asosiga kurilgan badiiy asarlarining mazmuniga mos ko'rsatkich topa bildi. SHoir ekspluatator sinf vakillari bilan kurashni tasvirlashda mehnatkashlar o'rtasidagi jaholat dunyosining tub mohiyatini fosh qiluvchi o'ziga xos original uslub hamda badiiy vositalardan foydalandi.

Zavqiy uslubda soddalik, ravonlikka erishish maqsadida xalq orzaki ijodidan samarali foydalandi. U xalq maqollaridan ijodiy foydalanib, ularni she'riy misralarga singdira bildi:

Farq aylamay yaxshi-yomon,

Kim arpa-bug'doy, kim somon,

Tuhmat haqoratlar hamon,

Ne muddaosiz afandilar.

Xalq og'zaki ijodi uslubidan foydalanish Zavqiy asarlarida ko'ylab jonli xalq tili unsurlarining qo'llanishiga olib keldi. Zavqiy tilining xalq tiliga yaqinligining asosiy sababi, uning demokratizm va realizmga asoslangan yo'nalishda turibijod qilishidir. Zavqiy o'z asarlarida xalq tiliga xos so'zlardangina emas, so'z birikmalaridan ham unumli foydalandi:

Bu padar la'nat harom o'lgur otim,

Har qachodkim, men minar bo'lsam kasal.

Keltirilgan bu parchadagi *padar la'nat*, *harom o'lgur* kabilar xalq tiliga xos birikmalardir.

Zavqiy Muqimiy va Furqatdan ko'ra jonli xalq tiliga ko'proq suyandi. SHuning uchun ham unda til xalqchilligi ustun darajadadir.

Bundan tashqari, Muqimiy va Furqat asarlarida bo'lgani kabi Zavqiy asarlarida ham ruscha-baynalmilal so'zlar uchraydi:

veksel, urus (rus), poyiz (poezd), vag'un (vagon), kalaska (kolyaska), zovut (zavod), jurnal (jurnal), tilgram (telegramma), banka (bank), bo'lus (volost), siyoz (s'ezd), pristup (pristav), kalish (galosh), kamitet (komitet), bolshevik kabi.

Zavqiy rus tilidagi yuqoridagi kabi so'zlardan tashqari, sifat va so'z birikmalarini ham uslubiy talab asosida ishlatdi:

Ko'r bo'lmasa pul oqib kelurmi,

Bu badshakl, **slepoy durakka?**

Umuman, Zavqiy she'riyati bilan o'zbek adabiy tilini xalq tiliga xos grammatik ko'rinishlar bilan mukammallashtirdi. SHuning uchun ham o'zbek adabiy tili demokrat shoirlar, jumladan, Zavqiy ijodi bilan yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida Avaz O'tarning tutgan o'rni. O'zbek demokratik adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Avaz O'tar o'zbek adabiy tiliga munosib hissa qo'shdi.

Avaz O'tar davr talabiga javob beradigan til vositalarini yaratishda, birinchi navbatda, xalq tiliga murojaat qildi. U xalqqa tushunarli tilda ijod etishni o'z uslubining asosi qilib olib, o'zidan avval yashab ijod etgan shoirlardan ancha ilgarilab ketdi. Shu maqsadda Avaz O'tar xalq maqollari, aforizmlaridan samarali foydalandi. Xalq og'zaki ijodi asarlari ko'rinishlariga moslab she'rlar yozdi:

Sipohi pora istar,

Mulla ijora istar,

Bechora chora istar,

Bir chora zamon bormi?

Avaz O'tar asarlarida xalq tiliga xos *bandi, zindon, chora, ijora, sham, shol, kulba, uvol* kabi so'zlardan foydalandi.

YAngi badiiy ko'rsatkichni qidirib topish yo'lida Avaz O'tar eski o'zbek adabiy tili ko'rinishlaridan ham foydalandi.

Avaz O'tar asarlarida junadish kelishigining *-g'a/-gä, -a* qo'shimchali ko'rinishlari, chiqish kelishigining *-din, -dan* af'fyksli ko'rinishlari, ravishdoshning *-ib/-ub, -ibon/-ubon* qo'shimchali ko'rsatkich-lari, buyruq-istak mayli I shaxs birligining *-ali* qo'shimchali ko'rinishlari qo'llangan:

G'ayri tilini sa'yi qiling **bilgali** yoshlar,

Yozim **siza** har tilni **biluv** ona tilidek.

Avaz O'tar o'zbek demokrati adabiyotining xalqchilligini oshirish bilan uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Umuman, o'zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmida demokratik-ma'rifatparvar shoirlar – Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tarlar ijodi tufayli o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Gazeta-publitsistika uslubining paydo bo'lishi va shakllanishi. Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi iqtisodiy va mada-niy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Rossiyaning chekka o'lkalaridagi adabiy va madaniy harakat islomni burjuaziyaga moslashtirish yo'li bilan olib borildi. Natijada milliy burjuaziyaning ideologiyasi vujudga keldi.

Demokratik yoʻnalishdagi maʼrifatparvar oʻzbek yozuvchilari oʻrta asr despotizmiga, asrlar boʻyi davom etib kelgan qullik va jaholatga qarshi kurashdilar. Adabiy harakatchilik panturkistik, panislomistik nazariyalar asosida rivojlandi. Turli ruh va manfaatlar taʼsirida Rossiyaning chekka oʻlkalarida «umumiy turk tili» toʻgʻrisidagi nazariyalar tarqaldi. Demokrat-maʼrifatparvarlar esa oʻzbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar XIX asrning 70- yillarida paydo boʻla boshlagan bosmaxona va vaqtli matbuotda oʻz ifodasini topdi. Bu davrda rus tilida «*Turkestanskije vedomosti*» gazetasi nashr etildi. 1871 yildan dastlab shu gazetaga ilbva keyinchalik mustaqil holda oʻzbek tilida «*Turkiston viloyatining gazetisi*» chiqqan boshladi. Shu davrdan boshlab oʻzbek adabiy tilida gazeta-publitsistika uslubi paydo boʻldi va shakllandi. Gazeta-publitsistik til va uslubning shakllanishida rus tili barakali taʼsir koʻrsatdi.

Shunday qilib, «Turkiston viloyatining gazetisi» XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida oʻzbek madaniyati, xususan, adabiy tili tarixida ijobiy rol oʻynadi. Bu Furqat (1858– 1909), Sattorxon (1848–1901), Ishoqxonlarning (1862–1937) adabiy va publitsistik faoliyatlarida yaqqol koʻrinadi. Ular shoir, olim, tarixchi boʻlish bilan birga, otashin publitsist sifatida gazeta-publitsistika tili va uslubining rivojlanishiga munosib hissa qoʻshdilar.

Dastlab «Turkiston viloyatining gazetisi»ni «Eʼlonnoma» deb qaragan Furqat, keyinchalik uning ijtimoiy, siyosiy maʼnosini tushunib, gazetada oʻz materiallari bilan aktiv ishtirok etdi. Ishoqxon ham davr oʻzgarishlari hakidagi fikrlari bilan gazetada qatnashib turdi. Sattorxon 1883–1890 yillar davomida «Turkiston viloyatining gazetisi»da muharrir yordamchisi va tarjimon boʻlib ishladi.

Ular demokratik-maʼrifatparvarlar sifatida gazetada oʻz asarlari, publitsistik maqolalari bilan ishtirok etib, undan ezilgan ommaning fikr-tuygʻularini ifoda etish uchun foydalandilar. Ular publitsistik maqolalari va xatlari orkali rus tilini, madaniyatini va boshqa fanlarni oʻrganishni targʻib qildilar. Agar Furqat «...Rusiya xalqi xat va lison oʻrganmoqqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdur»,– desa, Sattorxon «Urusiya tilini oʻrganib, alarning kitobxonlarida oʻzlari topgan ilmlar va boshqa xalqdan oʻrgangan ilmlarni bizlar ham bilib, tirikligimizda nafi etadurgan ilmlarni bizlar ham oʻz foydamizga joriy qilur erduk»,– deydi.

Furqat, Sattorxon, Ishoqxonlar oʻzbek adabiyoti mumtozlarining eng yaxshi anʼanalarini davom ettirib, oʻzbek adabiy tiliga munosib hissa qoʻshdilar. Oʻzbek tilini arxaik unsurlardan tozaladilar, uni yangi iboralar, baynalmilal soʻzlar bilan boyitdilar.

Baʼzi rus-baynalmilal soʻz va birikmalar davr talabiga binoan arabcha, forsha soʻzlar bilan berilgan. Masalan, Sattorxonda – *tupchi tura* (gospodin artillerist), *vaziri ilmiya* (maorif ministri), *ilmiya maslahati* (pedagogik kengash majlisi), *murshidi* (yoʻlboshchisi), Furqatda – *jahonnoma* (geografiya), Ishoqxonda – *toshbosma* (litografiya), *jarroh* (xirurg), *tarroh* (arxitektor), *hakim* (vrach), *mudarris* (professor).

Gazeta-publitsistika tili va uslubiga badiiy uslubning taʼsiri kuchli boʻldi. Chunki badiiy uslub koʻp asrlik anʼanaga ega edi. Gazeta-publitsistika uslubining shakllanishi bilan uning koʻrinishlari badiiy adabiyotga ham singib bordi.

Umuman, Furqat, Sattorxon, Isxoqxonlar o'zbek tilining lug'at tarkibini rivojlantirish, gazeta-publitsistika uslubini yangi so'z, ibora va atamalar hisobiga boyitish uchun kurash olib bordilar. Shu sababli ularning tili ravon, aniq va boydir.

Shunday qilib, demokrat-ma'rifatparvarlar gazeta-publitsistika tili va uslubining shakllanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Ma'ruzani mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. XIX asrning ikkinci yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

2. Markaziy Osiyoni Chor Rossiyasi bosib olgandan keyin qanday ijobiy va salbiy holatlar kelib chiqdi

2. *XIX asrning 60-yillaridan 1905 yilgacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili asosiy xususiyatlari nimada edi?*

3. *O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Muqimiy asarlarining tutgan o'rnini qanday baholash mumkin?*

4. *Furqat asarlarida yangi o'zbek tilining ta'siri qanday bo'ldi?*

5. *Zavqiy asarlarining tili va uslubiga yangi davr ta'sir etdimi?*

6. *O'zbek adabiy tili taraqqiyotida Avaz O'tarning tutgan o'rniganday belgilash mumkin?*

7. *Gazeta-publitsistika uslubining paydo bo'lishi va shakllanishi tilimiz uchun ijobiy holmi yoki aksimi?*

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. O'rinboyev, A. Aliyev O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995.

2. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1966, 59-bet

3. A. Ahmedov. Furqat she'riyati leksikasi. Toshkent, NDA. 1971.

4. J. Hamdamov. Muqimiy asarlari leksikasi. Toshkent, NDA, 1966.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Turkiston viloyatining gazetasi, 1891, 12-bet

2. Turkiston viloyatining gazetasi, 1892, 13-bet

3. Щербак А. М. Грамматический очерк языка тюркских матнов X–XIII вв. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961.

12-ma'ruza: 1905-YILDAN 1917-YILGACHA BO'LGAN DAVRDAGI O'ZBEK ADABIY TILI

Reja:

1. Davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy til masalasi haqida.
2. Umummilliy adabiy tilni yaratish sohasida bo'lgan kurashlar.
3. 1905–191-yillardagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari.
4. O'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiyaning rivojlanish manbalari.
5. O'zbek adabiy tiliga so'z qabul qilish tamoyillari.
6. Milliy adabiy tilni yaratish sohasida bo'lgan kurashlar.
7. O'zbek milliy adabiy tilining rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziyning roli.

Tayanch tushunchalar: XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit. 2. Umumturk tilini yaratishdagi turk va tatar amoyandalarining harakatlari. 3. Bu davr adabiy tilining umumiy xususiyatlari. 4. O'zbek adabiy tiliga yangi so'z qabul qilinishining qonuniyati. 5. Milliy til va o'zbek milliy tilining yuzaga kelishidagi harakatlar. 6. O'zbek milliy hamda o'zbek adabiy tilining rivojiga H.H. Niyoziyning qo'shgan hissi.

Umummilliy adabiy tilni yaratish sohasida bo'lgan kurashlar. Milliy adabiy tilni yaratish sohasida ikki xil nazariya paydo bo'ldi: biri Ismoil Gasprinskiy boshchiligidagi panturkist va panislomistlarning nazariyasi, ikkinchisi milliy tilni ona tili zaminida rivojlantirish tarafdorlari bo'lgan demokrat-ma'rifatparvarlardir. Ko'pchilik turkiy xalqlarda milliy adabiy til masalasi panislomizm, panturkizm g'oyalari ta'siri ostida hal qilindi.

Umumturkiy adabiy til nazariyasini birinchi marta Ismoil Gaspirinskiy «Tarjimon» gazetasi orqali tashviqot hildi. Bu gazeta 1883-yildan boshlab chiqq boshladi va hamma turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til g'oyasini olg'a surdi.

1905-yilda Butunrossiya musulmonlarining III s'ezdi Ismoil Gaspirinskiyning tashabbusi bilan turkiy xalqlar maktablarining yuqori sinflarida «yagona turkiy til» o'qitilishini majburiy qilib quydi.

«Umumiy turkiy til» masalasi tatar, ozarbayjon, o'zbek gazetalari hamda jurnallari sahifalarida muhokama qilib turildi.

Peterburgda tatar tilida nashr etiladigan «Ulfat» gazetasining 1906-yil 5-iyul sonida panturkist Ali Qurqudning «Istambuldan xat» nomli maqolasi bosildi. Maqolada yozilishicha, usmonli turk tilini tatarlar, ozarlar, Markaziy Osiyo turklari, Sibir va Mo'g'ulistonda bo'lgan bir qator turkiy xalqlar tushunadilar. SHuning uchun u umumiy adabiy til bo'lishga qodir emish. Bu xatni «Umumiy turkiy til» nazariyasining shiori desa bo'ladi. Bu xatga javoban ko'plab panturkistik, panislomistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi maqolalar bosildi. SHu gazetaning 1906-yil 19-iyul sonida panturkist Kenjaboyning maqolasi e'lon qilindi. Kenjaboy o'z maqolasida usmonli turk tilini umumiy turkiy adabiy til qilish haqidagi fikrni quvvatlaydi. Bu xildagi panturkistik qarashlar Ozarbayjon va Markaziy Osiyodagi matbuot sahifalarida ham ko'rindi.

Bunday qarash va kurashlarning siyosiy mohiyatini venger turkologi German Vamberi to'g'ri ko'rsatib bergan edi: «Agitatorlar va puristlar umumiy turkiy til nazariyasini ko'tarib chiqish bilan xalqlarning etnik chegaralarini hisobga olmay, umum-turk xalqi yaratishni ko'zda tutadi».

Amaliy jihatdan o'zbek tilida tamoman boshqacha hol hukm surar edi. O'sha davrdagi gazetalarning tili arab va turk tili ta'siri ostida tarbiyalangan tor ramkadagi burjuaziyaga tushunarli edi.

Ko'pchilik ommaga tushunarli bo'lmagan «umum til» o'z o'rnini milliy tillarga bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Milliy burjuaziya kuchli bo'lgan ayrim joylarda «umum til» milliy til bilan birga yashab keldi.

Mayda burjuaziyada demokratik unsurlarning kuchayishi milliy adabiy til uchun kurashni aktivlashtirdi. Milliy adabiy til sohasidagi asosiy qarashlar va nazariyalar jadidlarning gazeta va jurnallari orqali tashviqot qilindi.

O'zbek burjuaziyasi va burjua millatchilari «chig'atoy» tilini Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy til bo'lishi kerak, degan g'oyani targ'ib qildilar.

O'z-o'zidan ma'lumki, chor Rossiyasi vaqtida milliy til masalasi hal qilinishi mumkin emas, chunki u milliy masalaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu davrda Toshkentda «Turkiston viloyatining gazetisi» va «Al-islohim» jurnali bosilib turardi. Bundan tashqari, bir qancha mahalliy gazetalari tashkil qilinadi va ular chor ma'muriyati tomonidan tezlik bilan yopiladi edi.

«Turkiston viloyatining gazetisi»ning 1916 yil 8-sonida o'zbek vaqtli matbuotining tushqunlik mohiyati nashr qilinayotgan gazetalarning «davriy qarashi»ga mos kelmasligi hamda burjua millatchilari– jadidlarning madaniy hayotda asossizligi, deb izohlandi.

Bundan tashqari, burjua millatchilarining gazetalari ommaviy emas, unda butun mehnatkashlarning orzu-umidlari o'z ifodasini topmas edi. Faqat ayrim gazetalargina hukumatning aralashuvi bilan bir yil hukm surar edi. 1906 yilda Toshkentda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalari, 1907-yilda «Shuhrat», «Tijjor» va «Osiyo» gazetalari, 1913-yilda Samarqandda rus, o'zbek va tojik tillarida «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnali nashr etildi. 1914 yilda Toshkentda «Sadoi Turkiston», Qo'qonda «Sadoi Farg'ona» gazetalari chiqib boshladi va o'sha yiliyopildi.

Og'ir ekspluatatsiya sharoitida chor hukumati Turkistonda rus-tuzem maktablari ochib, mahalliy xalqlarni ruslashtirish siyosatini olib bordi. Hatto «Turkiston viloyatining gazetisi» mahalliy tillarning «kambaralligini va qo'polligini» uqtiruvchi materiallar bilan chiqdi. Gazeta Turkistonning tub xalqi taraqqiyotiga erishish uchun rus tilini o'rganish kerak, degan g'oyani ilgari surdi va tashviqot qildi.

Jadidlar maktab ishida hukm surgan arab tilini ona tili bilan almashtirishni taklif qildilar. Xuddi shu fikr Rauf Muzaffarzodaning «Til va din» maqolasida o'z ifodasini topdi. Bu fikrga qarshi 1914-yil 21-sentyabrda «Sadoi Farg'ona» gazetasida samarqandlik Vasliyning maqolasi e'lon qilindi. «Islom asoslari» deb atalgan bu maqolada quyidagilar bayon qilindi: «Bizning dinimiz islomdir. Har bir musulmon uchun u arab tilidir. Har bir musulmon arab tilining morfologiyasi

va sintaksisini o'rganishi shart». Demak, bunda arab tili adabiy til bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Bularga qaramasdan, Turkistonda adabiy til turkcha deb nomlandi. «Sadoi Turkiston» gazetasi o'zini «turk tilidagi adabiy, iqtisodiy, ilmiy va mahalliy gazeta» deb e'lon qildi. Bundan tashqari, ayrim gazetalarda «o'zbek» va «o'zbek tili» nomlarini uchratish ham mumkin. Burjua millatchilari ularni tasodifiy nomlar deb, unga qarshi chiqdilar. CHor hukumati Turkistonni o'ziga qaratgach, etnik bo'lmagan «sart» atamasi bilan atay boshladilar. Jadidlarning madaniy harakatlari XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda bu nom «musulmon», «turkistonli», «turk» deb o'zgartirilgan.

Umuman, milliy adabiy til sohasidagi turlicha qarashlar adabiy tilga har xil tillarga xos xususiyatlarning ko'plab o'zlashib qolishiga sabab bo'ldi.

1905–1917 yillardagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari. Taraqqiyotning umumiy ruhi shu davrning milliy adabiy tilida o'z izini qoldirdi. 1905–1917-yillardagi o'zbek adabiy tili xalqchil emas, balki A. K. Borovkovning fikricha, «aralash til» edi. Adabiyotda poetik uslub nasriy uslub ustidan hukmronlik qilar edi. Nasriy, dramatik asarlar hamda gazeta tili adabiy tilga ta'sir qildi. Turli xil ta'sirlar adabiy tilda o'tkinchi, ko'rsatkich va aralash g'oyalarni tug'dirdi va u o'zbek adabiy tilining holatiga ta'sir qildi. U davr tilida, birinchi navbatda, tatar va g'arbiy turk tili unsurlari ko'zga tashlanadi.

Turkiston general-gubernatorining tarjimoni «Taraqqiy» gazetasining tili haqdqa shunday yozadi: «Bu gazetaning tili tatarcha, o'zbek tiliga moslashtirilgan arabcha va usmonli turkcha so'zlardan iborat».

Qrim-tatar gazetasi «Tarjimon», tatarcha «Vaqt», ozarbayjon satirik jurnali «Mulla Nasriddin» Turkiston va Buxoroda keng tarqaldi.

G'arbiy turkii unsurlar tilga mustahkam urnashib olib, o'sha davr adabiyoti va matbuoti tilida uzoq vaqt saqlanib qoldi. Bu g'arbiy unsurlar bir necha fonetik faktlarda ham saqlanib qoldi. Masalan: *Uch do'rt kun saqlaniyur axri var* («Taraqqiy», № 6, 5.UL. 1906); *vir mamlakat var esa* («Sadoi Farg'ona», № 4, 13. VII. 1914) *xabar berdi* («Sadoi Turkiston», 18. IV. 1914).

Bulardan tashqari, adabiy tilga bir qancha g'arbiy-turkiy morfologik unsurlar ham kirib keldi. Masalan, quyidagi g'arbiy turkii morfologik unsurlar uchraydi: sifatdoshning o'tgan zamon ko'rsatkichi: *Mayub hisab-edilan kishilar* («Taraqqiy», № 1, 22.VII. 1906). *Istambuldin gelan xabarga qaraganda* («Xurshid», № 2, 14.IX. 1906); Adabiy tilga o'sha davrda yo'lyo'lakay bir qancha usmonli turk tilining leksik unsurlari ham kirib qoldi. Bularning hammasi «umumiy turk» tili nazariyasi asosida paydo bo'ldi. Masalan, (komandir), *sanjoq* (uezd): *Samarqand sanjoqining tahsiri* («Oyina», Bu xil so'zlarning ayrimlari hatto keyingi davrlarda ham uchraydi.

1905 – 1917-yillar o'zbek adabiy tilining asosi qanday edi va uning xalq so'zlashuv tiliga, lahjalarga munosabati qanday edi?

1905 – 1917-yillar adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining, ya'ni jonli xalq so'zlashuv tilidan uzoq bo'lgan kitobiy-adabiy tilning davomi edi. Uning bazasi so'zlashuv tili bo'lmaganligi sababli u vaqtda adabiy til haqidagi tortishuvlarda lahjalar muammosi ko'tarib chiqilmadi.

O'sha davr adabiy, tiliga kirgan lahjaal unsurlar uning tarkibiga singib ketgan edi. Masalan, Toshkentda chiqadigan matbuot asarlari tilida Toshkent shevasi xususiyatlari uchraydi: *ketvatkan* («Taraqqiy», № 2, 17. VI. 1906), *kazak uruslar keliyat-dilar* («Taraqqiy», № 9, 16. XII. 1906). Samarqanddagi nashrlarda va samarqandlik mualliflarning asarlarida esa bir qator shu lahjadan kirgan unsurlar qo'llandi. Masalan: Behbudiyning «Padarkush» dramasida, «Oyina» jurnali va «Samarqand» gazetasida Samarqand-Buxoro lahjaiga xos turlanish tizimi uchraydi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari uchun **-ni** qo'shimchasi qo'llanadi. Masalan: *Muni sababi bizlarni o'qimaganimizdir, Xalqni ko'zi* («Padarkush»). *Hukumatni ruxsati ilan* («Oyina», № 16, 1915, 448- bet). *Bizni Turkistonda* («Samarkand», № 31, 30. VII. 1913).

1905–1917 yillar adabiy tilida rus tilidan qabul qilingan so'zlar ham mavjud. Rus tili unsurlari, asosan, jonli so'zlashuv ko'rsatkichida kirib keldi, bu ularning orfografi ko'rsatkichida o'z ifodasini topdi. Urg'usiz unlilar talaffuziga ko'ra yozil-di. Masalan: *Qiziq va interesni hodisa emish. Bankalar ko'paydi, katta boylar chilin bo'lur.* «Padarkush»).

Umuman, boshqa tildan so'zlar ogzaki so'zlashuv, matbuot va yozuv orqali kirib keldi. Boshqa tildan so'zlar qay tarzda oli-nishidan qat'i nazar, ular o'zbek adabiy tilining, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiyaning taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiyaning rivojlanish manbalari. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi Turkistonni dunyo xo'jalik tizimiga tortdi. Natijada Markaziy Osiyodagi kishilar ongiga hamda xo'jalik va jamiyat hayotiga kapitalizm unsurlari kirib keldi.

Xuddi shu davrda o'zbek milliy matbuotiga keng gorizont ochilib, u ham dunyoviy siyosatga aralashdi. O'zbek matbuotining dunyo siyosatiga aralashishi natijasida o'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so'zlar paydo bo'ldi: O'zbek adabiy tilida ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiya bir necha manba asosida rivojlandi, ya'ni rus, arab, fors tillaridan shu sohaga oid so'z va atamalar o'zlashtirildi.

So'z qabul kilishda matbuot uchun asosiy manba rus tili bo'lib qoldi. Bu til orqali baynalmilal leksika va atamaologiya adabiy va og'zaki ko'rsatkichda o'zbek tiliga kirib keldi.

1905–1917-ylllarda ijtimoiy nuqtai nazardan o'zbek adabiy tiliga baynalmilal leksika ommaviy ravishda qabul qilindi. Baynalmilalizm unsurlarini qabul qilishning ommaviy holda yuz berganligining sababi nimada?

Rus tilidan so'zlarning kirib kelishi ikki tomonlama bo'ldi: milliy burjuaziyaning chor Rossiyasi burjuaziyasi bilan iqtisodni va siyosiy aloqasi va demokdatik sinflarning demokratik g'oyalarni qiziqib o'rganishlari orqali.

1905-yildan so'ng o'zbek tiliga rus tilidan qabul qilingan so'zlarning xarakteri quyidagicha edi:

a) bu so'zlarning asosiy qismi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni hamda shahar hayotidagi yangi turmushni aks ettiradi. Masalan: *ko'nka* (tramvay, konka), *izvashchik*, *gostinitsa* (gostiniqa), *zal*, *zavud* (zavod), *fabrika*, *masterxona* (temir yo'l ustaxo-nasi) kabi: *Masterxonadagi rabochilar yig'ilishar* («Taraqqiy»

gazetasi, № 6, 29. VII. 1906). Otash aravaga taaluq masterxona boshlug'i («Taraqqiy», № 4-, 25. VII. 1906). Xalq miyonasida masteravoy askarlar kelib qoldilar («Taraqqiy», M 9, 16. VII. 1906);

b) iqtisodiy-siyosiy va madaniy turmushdagi butun o'zgarish-larni ifodalaydi: *vagzal* (vokzal), *moshina*, *moyiz* (poezd), *kvap-tir* (kvartira), *padrad* (podryad), *poshta* (pochta), *zalok* (zalog), *istorij* (storoj), *istudent* (student) va boshqalar;

v) siyosiy sharoit, davlat tuzyushshi, boshqarish tartibi bilan bogli^b'ulgan so'zlar o'zbek tiliga o'zlashtiriladi. Masalan: *uyez* (uezd), *guberna* (gubernya), *uprava*, *bo'lis* (volost), *sudya* (sudya), *istarshin* (starshina), *nachalnik* (nachalnik) kabi. Qiyoslang: *Eski hukumat nachalstvosi* («Taraqqiy», M 3, 22. VI. 1906), *turmaning istarshisi*. («Taraniy», № 7, 7. VII. 1906), *turemni nachalnik* («Taraqqiy», № 3, 22. VI. 1906); *nachalnik istansa* («Taraqqiy», № 3, 22. VI. 1906) va boshqalar;

g) bir qancha harbiy sohaga oid so'zlar.qabul qilindi: *polk*, *garnizon*, *batalen* (batalon), *kazarma*, *gvardiya* (gvardiya), *afit-ser* (ofiqr), *letinant* (leytenant), *admiral*, *shtabe kabitan*, *polkovnik*, *matros* va boshqalar;

d) savdo-sotiq aloqalari orqali savdo hamda moliyaviy ishlar oid so'zlar o'zlashtirildi. Bular ham adabiy yoki ogzaki ko'rsatkichda qabul qilindi: *aksiyaner* (aktsioner), *zakaz*, *firma*, *kredit*, *banka*, *rasxod*, *daxut*, *isklad* (sklad), *aborot*, *protiv*

sent (foiz)- kabi. Qiyoslang: *kredit ochmoqlikni arz qilubdur* («Sadoi Farg'ona», № 19, 22. V. 1914); *qorako'l savdosining aboro-ti* («Sadoi Farg'ona», № 24, 1. VII. 1914); *arbitrajni komissiya* (SHu gazeta); *veksellarning protest bo'lmasligi haqida* («Sadoi Farg'ona», № 46, 29. VII. 1914); *katta ko'rsatkichdar* («Sadoi Farg'ona», № 66, 27. IX. 1914); *bankning kasiri* (SHu gazeta)'va boshqalar.

O'zbek adabiy tiliga so'z qabul qilish tamoyillari. Yuqorida ko'rganimiz kabi 1905–1917-yillarda o'zbek adabiy tilining so'z qabul qilish manbalari ko'p edi. Shuning uchun so'z qabul qilishda ma'lum tasoyillarga amal qilib ish tutganlar. Boshqa tildan kirgan so'z va so'z birikmalari quyidagi tarzda qo'llanar edi:

1. Boshqa tillardan qabul qilingan yangi atamalar ommaga tushunarli bo'lishi uchun shu atamalarning ona tilidagi sinonim-lari qo'llanadi yoki arab tshshdan so'z olinadi: *deputat* (yurt va-kilu, *grajdan* (ozod xalq), *revolver* (to'pponcha), *kapital* (boylik), *matros* (suv soldat), *naborshchik* (murattib), *farmoyish* va *prikazlar*, *sulh mahkamasi* -(mirovoy sud), *polojeniya* va *nizom-nomasi* kabi.

O'sha davr matbuotida bu tarzda qo'llash keng tarqalgan edi. Bundan tashqari, feodalizm XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda ishlatilgan so'z va atamalar yangi davr sharoitiga moslashtirilib ishlatiladi.

Atamalarni semantik jihatdan ham almashtirish mumkin bo'lmagan vaqtda chatishtirish orqali hosil qilingan atamalar qo'llandi. Bu til taraqqiyotiga olib keldi.CHatishtirish natijasida so'z ijod qilingan, unda rus tili unsurlari ham, baynalmilalizm unsurlari ham, o'zbek tili ko'rinishlari.ham bo'ladi. Masalan,

ruscha ko'rsatkichdagi *kramolniki* so'zi o'zbekcha *bo'zuvchilar* ko'rsatkichida, *kapital boylik* tarzida berilgan. Ruscha so'zlarni arabcha izohlash (*naborshchik - murattib*) yoki arabcha so'zlarni ruscha talqin etish hollari ham uchraydi (*sulh mahkamasi – mirovoy sud*) kabi.

2. Ma'lumki, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ko'p-lik va jamlik ma'nosini bildiruvchi juft so'zlar bor. Ular ikki so'zdan iborat bo'lsa-da, bir umumiy ma'noni beradi: *idish-oyoq*, *qurt-qo'ng'iz* kabi. SHu zamin asosida ruscha-o'zbekcha so'zlar-ning birikishidan ham ayrim tushunchalarni ifodalovchi so'zlar hosil qilindi. Masalan: *muka-un* (a'lo sortli un), *qiziq-interesnīy* (juda qiziq), *farmoyish va prikazlar* (buyruq va qarorlar) kabi.

Bu hodisa uzoq tarixga ega bo'lib, u XI asrda yozilgan «Qutatg'u bilig» asarida ham uchraydi. Unda *arabcha* va *turkcha* ko'rinishlar bir-biri bilan birikib, bir tushunchani ifodalagan. Masalan: *bilge-olim* (olim ma'nosida), *belgu-nishon* (nishon), *davlat-qut* (baxt), *vaqt-o't* (vaqt), *dunyo-ojun* (dunyo) kabi.

3. 1905–1917-yillardagi ijtimoiy-siyosiy leksika va atamalogiya, asosan, chetdan qabulqilingan so'zlar hisobiga boyib bordi. Bu so'zlarga yo'l-yulakai izoh berish orqali ham so'z ma'nolari oydinlashtirildi. Masalan, *matros* so'zi bilan bir qatorda shu ma'noda *suv soldat* birikmasi ham qo'llandi. Bu hol mahalliy matbuot tilida ko'p uchraydi. Masalan: *Birokrat* (byurokrat), *ya'ni xalqni foyda va zararini mulohaza qilmayto'rgan hukumatdorlarimiz* («Taraqqiy», №4, 25. VII. 1906). *Zabastovka, ya'ni ishlarini tashlab yalqovlik qilguvchilar* («Taraqqiy», № 2, 17. II. 1906) kabilar.

4. Taraqqiyot jarayonida ijtimoiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar va ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid so'zlar o'z ma'nosidan boshqa yangi ma'no kasb etdi. Masalan: *fuqaro* so'zining asosiy ma'nosi «e'tiqodli», «yashovchi»dir. Lekin bu so'z o'sha davrda matbuot tilida «xalq» ma'nosida ko'proq qo'llandi: *Fuqaronavoz va bechoraparvar* («Taraqqiy», № 8, 13. VII. 1906). Shuningdek, 1905–1907-yillar to'ntarishdan so'ng rus tilidan qabul qilingan *rabochiy* so'zi «rus va evropalik ishchi» ma'nosida qo'llangan: *Masterxonadagi rabochilar yigilmishlar* («Taraqqiy», № 6, 5. VII. 1906). Bu so'z bilan o'zbekcha *ishchi* va arabcha *amala* so'zlari ham parallel qo'llanildi: *Amala sinfining oddiy odamlaridan* («Taraqqiy», № 10, 20. VII. 1906).

Ba'zan *amala* va *rabochi* so'zlari qo'shma holda ham qo'llandi: *amala rabochi* («Taraniy», № 12, 27. VII. 1906).

1916-yildan so'ng mahalliy millat vakillaridan front orqasida ishlash uchun chaqirilgan ishchilarga nisbatan *rabochi* so'zi qo'llanildi va u «front orqasidagi ishlarga safarbar qilingan» degan ma'noni bildirdi..

Boy so'zi o'z ma'nosidan tashqari, «burjua», «kapitalist» ma'nosida ham qo'llanilgan. Masalan: *Ba'zi guruhlarining chunonchi oq suyak va boylarning ba'zi imtiyoz va haq maxsuslari mansuh va muattal bo'lg'aylar* («Taraqqiy», № 9, 16. VII. 1906).

Ma'lum ma'noga ega bo'lgan so'zlarning boshqa ma'no kasb atishi arabcha-forscha *davlatmand* so'zida ham ko'rinadi. Bu so'z o'zining «boylik», «boy» ma'nosidan tashqari, «kapitalist» ma'nosida ham ishlatilgan. Natijada ma'noda

siljish yuz bergan: *Davlatmand odamlarni milliarder der ekanlar va bu xil odam xususan Amerika ahlimga ko'p bo'ladur* («Taraqqiy», № 13, 30. VII. 1906).

Xuddi shu ma'noda forscha *puldor* va arabcha-forscha *mulkdor* so'zlari ham qo'llangan. Masalan: *puldor va mulkdorlar* («Taraqqiy», №9, 16. VII. 1906).

Arab tilidan olingan *kosib*, *ahli kosib* va forscha *mardikor*, *mo'zdvor* kabi eski tushunchalarni ifodalovchi so'zlar yangi davrda yangi ma'no kasb etib, «sanoat ishchisi», «proletariat» ma'nosida qo'llana boshladi. Masalan: *Mardikor va ahli kosib ko'p joylarda ish qilmoqlarni ibo qilurlar, muni Rossiya xalqi zabastofka der ekanlar* («Taraqqiy», №4, 25. VII. 1906).

5. 1905–1917-yillarda ham chetdan qabul qilingan so'zlar matbuotda so'zlashuv ko'rsatkichida qo'llandi: *anjirnoy* (injener), *inastran* (inostraneq), *politika* (politika), *klass*, *kabinet*, *doprus* (dopros), *katurga* (katorga), *protest* kabi. Masalan: *Anjirnoylar* («Taraqqiy», № 4, 25. VII. 1906), *palitsalar gazetamizning idoraxonasiga kirib* («Taraqqiy», № 6, 5. VII. 1906).

Idora, tashkilot va gazeta nomlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish bilan bir qancha birikmalar o'zbek tiliga kirib keldi. Bu birikmalar tarkibidagi so'zlar ot, sifat va fe'l turkumiga ba'zilar arabcha, forscha so'zlardan foydalanishni targib qildi.

1905–1907-yillardagi rus to'ntarishdan so'ng o'zbek adabiy tilini rusizm va evropeizm unsurlaridan tozalash yo'lidagi puristik ruhlar ijtimoiy-siyosiy leksika va atamalogiyaning taraqqiyotiga to'sqinlik qila olmadi. Chunki chetdan qabo'l qilingan so'zlarning hajmi ko'p edi.

O'zbek tilining amaliy grammatikasini tuzish uchun bo'lgan urinishlar. Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olganidan so'ng Turkiston ma'muriyati harbiy va boshqarish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish maqsadida erli xalqlarning tilini o'rganishni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bu vazifa o'zbek tilini o'rganishga yordam beruvchi darslik va qo'llanmalar yaratishni taqozo qildi.

1905–1917-yillar davomida ona tili darsliklari ham tuzildi. Bu darsliklar birinchi marta tovush metodi asosida tuzilib, ular ham ozmi-ko'pmi o'zbek adabiy tilining me'yorlashishiga va boshlang'ich maktabning unsurar talabini qondirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinflar uchun o'qish kitoblari ham chiqarildi.

1914–1915-yillarda H. H. Niyoziyning «Engil adabiyot», «Qiroat kitobi», «O'qish kitobi» nomlari ostida pedagogik xarakterdagi kitoblari maydonga keldi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy gulistoni va axloq» (1913), «Adabiyot va milliy she'rlar», «Birinchi muallim» (1912), «Ikkinchi muallim» (1915), «Gulistoni maktab» (1917) nomli asarlari nashr etildi. Bu kabi badiiy, ta'lim-tarbiyaviy asarlar hamda publntsistik maqolalarda rus va umuman dunyo xalqlari madaniyati, ilmu fani, maktab va maorifi ulug'lanib, xalqni ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiriladi.

1912-yilda birinchi sinflar uchun M.Faxriddinovning «Rahbari avval», Abdurazzoq Namangoniyning «Tahsulul alifbo» kitobi chiqdi.

Alifbe kitoblaridan tashqari, boshqa turli sohalarga oid kitoblar ham nashr etildi. Masalan, Namanganda Ishoqxonning «Jomiul xutut» (1912), Toshkentda Qori Muhammadning «To'g'ri yozish» (1915) kitoblari.

Ko'pchilik darsliklarga umumturkiy til me'yorlari singdirilgan. Bu darsliklar orqali yangi metodli maktablarda ilm, axloq va til me'yorlari o'rgatildi. Bu unsurar darsliklar ham adabiy tilning o'sha davr adabiy tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiyaning rivojlanishiga ozmi-ko'pmi ta'sir qildi. Bundan tashqari, sof grammatik atamaologiyaning me'yorlashishiga zamin hozirladi.

Milliy til haqida tushuncha. O'zbek xalqining tili ham aloqa vositasi sifatida takomillasha borib, milliy tilga aylandi. Natijada asrlar davomida qo'llanib kelgan umumxalq o'zbek tili mazkur sharoitda vujudga kelgan millatning yagona milliy tili bo'lib qoldi.

Milliy til, xalq tili yoki qabila va urug' tilining lug'at tarkibi va grammatik qurilishi jihatidan negizi birdir. Milliy til millatning fikr almashish vositasiga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirgani kabi qabila tili ham shu tilda so'zlashuvchilar ehtiyojini to'la qondirsa-da, ular o'rtasida juda katta tafovut bor.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida kishilar birligining tarixan tarkib topgan asosiy ko'rsatkichi millatdir. Millat insoniyatning ilg'or qismi erishgan ishlab chiqarish va madaniyat darajasiga muvofiq keladi va ularning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib beradi. Millatning tili ijtimoiy taraqqiyotning milliy ko'rsatkichi davri talablariga javob beradi.

Milliy tilning tashkil topishi jarayonida mahalliy lahjalar katta rol uynaydi. Lahjalar bilan milliy tillarning taqdiri bir-biri bilan o'zviy bog'liq. Milliy tillar eng ilg'or ruhga ega bo'lgan, madaniy va iqtisodiy jihatdan ilg'od markaziy lahjalar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Biror lahja milliy tilga asos qilib olinganda, unda so'zlashuvchi aholining oz-ko'pligi emas, balki uning ijobiyligi, etakchiligi, yashashga qobilligi, kelajagi hisobga olinadi. Ana shu nuqtai nazardan o'zbek milliy adabiy tiliga Toshkent va Farg'ona shevalari asos qilib olindi. Chunki uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida Toshkent, Farg'ona shevalari o'zbek milliy tili uchun tayanch sheva bo'lib qoldi. Biror til milliy til darajasiga ko'tarila olishi uchun quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

1. Sanoat, texnika, fan, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniyat va hokazolar sohasida insoniyatning ilg'or qismi erishgan taraqqiyotni aks ettiruvchi boy lug'at tarkibiga ega bo'lishi lozim.

2. Jamiyatning talabiga javob beruvchi yozuv tizimi bo'lishi shart.

3. Adabiy til uslublari jamiyat intensiv rivojlanish talablariga javob berishi kerak.

4. Adabiy tilning jamiyatdagi hal qiluvchi roli yaxshilanishi lozim.

5. Ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan grammatikaga, ilmiy muassasalarga ega bo'lishi kerak.

Milliy adabiy tilni yaratish sohasida bo'lgan kurashlar. XX asr 20-yillaridan keyin yagona o'zbek milliy tili har tomonlama o'sdi va yuksaldi. Uning fonetik tizimi ma'lum darajada o'zgardi, unlilar tizimi ixchamlashdi. Tilimizning lug'at tarkibi yangi so'zlar bilan boyidi. So'zlarning ma'nosida siljish yuz berdi. O'zaro aloqada kerak bo'lmagan arxaik so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibidan chiqib ketdi. Tilimizning grammatik qurilishi takomillashdi. Ana shu o'zgarishlar o'z-o'zidan bo'lmadi.

Bu davr millatchilari o'zbek adabiy tili sohasida ikki tamoyilni «umumturk tili» nazariyasini va «chig'atoyizm», ya'ni ulik chig'atoy tiliga qaytish ruhini ilgari surdilar. Millatchilar Turkistonda madaniy xukmronligini saqlash maqsadida «umumturk tili» . bilan «chig'atoy tili»ni bog'lashga harakat qildi. Ular shu yo'l bilan ijtimoiy-siyosiy leksika va atamaologiya sohasida olinma so'zlarga ochiq-oydin qarshi kurashdilar. Millatchilik purizmi o'zining oxirgi chegarasiga borib etdi. Ular o'zbek milliy adabiy tilini eski kitobiy til asosida yaratishga harakat qilib, singib ketgan, so'z va atamalarni, grammatik ko'rinishlarni XI – XV asr yozma yodgorliklarida qo'llangan so'z, atama va grammatik ko'rinishlar bilan admashtirishni tavsiya qildilar. Bu nazariya tarafdorlari 1917 – 1922 yillarda O'zbekistonda juda keng tarqalgan edi. Keng jamoatchilik tomonidan burjua millatchilarining bu nazariyasi fosh qilingach, ular o'z taktikasini o'zgartirdilar.

1926-yilda tuzilgan «Qisqa ruscha-o'zbekcha siyosiy Iboraviy atamalar lug'ati» burjua millatchilik purizmi asosida yaratildi *avans* so'zi forscha *bunak* tarzida, *avtonomnaya respublika* so'zi *erkli jumhuriyat*, *aktsiya* so'zi *ulush hujjati*, *aktsioner* so'zi *ulushchi*, *bank* so'zi *xazina*, *prezidium* so'zi *tur* tarzida tarjima qilib berildi. So'zlarni bu tarzda berish juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardiki, natijada yangi ma'no kasb etgan so'zlar o'zining avvalgi ko'rsatkichiga sig'ishmay qoldi.

Ikkinchi guruh burjua millatchilari «lahjalar muxtoriyati»ni talab qilib chiqdilar. Bu nazariyaga ko'ra, har qaysi lahja asosida alohida-alohida adabiy til yaratilishi kerak. O'qish va matbuot ishlari ana shu lahjalar tilida olib borilishi kerak. Bu nazariyaga asoslanilsa, hozirgi o'zbek milliy tili urnida lahja tillar – Xorazm tili, Farg'ona tili, Samarqand tili kabilar maydonga kelib, yagona o'zbek xalqi va millati tarqalib ketgan bo'lardi.

O'zbek xalqining ijodiy ko'tarinkiligi burjua millatchilarining bu kabi puristik, panturkistik qarashlarini har tomonlama yoyishga imkon bermadi. Adabiy til va atamaologiya sohasidagi noto'g'ri qarashlar jamoatchilik tomonidan qattiq qoralandi.

O'zbek milliy adabiy tilining rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'rni. Hamza Hakimzoda Niyoziyning adabiy faoliyati endigina boshlangai paytlarda o'zbek adabiy tili o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilayotgan, milliy til kurtaklari endi rivojlanib, xalq tili milliy til shaklida rasmiylasha boshlagan edi.

H. H. Niyoziyning o'z asarlarini xalqning jonli so'zlashuv, tilida yozishi va ijodiy yo'li ayrim millatchilariga yoqmad. Mahalliy o'zbek burjuaziyasining ideologlari shoirning o'zbek adabiy tilidagi usulini mensimay, guyo uni o'taketgan «soddalik», adabiyot qoidalarini «bilmaslik» va undan «chetga chiqish», adabiy an'anaga «muvofig kelmaslik»da aybladilar. H. H. Niyoziy bu tuhmatlarga javoban 1916-yili o'zining «Qizil gul» nomli milliy ashulalar tuplamida bunday deb yozdi: «Bu uchinchi bo'limdagi she'rlarda ba'zi o'zun-qisqaliklarni hamda «adabiyotdan yiroq»ligini ko'rib, «adabiyot ilmida deyarli xabarsiz kishi ekanmi?» deyuvchi zotlarga qarshi biz, bu adabiyotdan xabarsizlik emas, qora elimizning tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun bo'lsa kerak, deymiz... Haqiqatda qasida

o'zbek tilida ekan, biz o'zbek tiliga yaqinlashtirmoqqa kirishdik. Bu to'g'rilarda qusurlarimiz afularin rijo va niyoz etamiz».

Milliy adabiy tilning shakllanishida bu birdan-bir to'g'ri yo'ldir. H. H. Niyoziy badiiy tilning yangi tarixiy sharoitda jonli o'zbek tili asosida yangicha yo'l bilan rivojlanishiga zamin hozirladi, ikkinchi tomondan, xalq madaniyatining rivoji uchun katta yo'l ochib berdi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining ijodiy faoliyati bilan burjua millatchilarining har qanday ko'rinishlariga qarshi qattiq va keskin kurash olib bordi. Bu kurash natijasida hozirgi o'zbek tili rasmiy ravishda o'zbek millatining adabiy tili sifatida shakllandi, chiniqdi va o'sdi.

Milliy madaniyatning atoqli arbobi Hamza ona tilining qadr-qimmatini yuksak pog'onaga ko'tardi, o'zbek milliy tilining rivoji uchun katta xizmatlar qildi. Mazmunan boy, shaklan puxta va o'tkir tilli original poetik va nasriy asarlar yaratdi. U leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ajralib turuvchi bu asarlarida sun'iylikka, g'ayri tabiiylikka yo'l qymadi.

H. H. Niyoziy o'zigacha bo'lgan o'zbek adabiy tili boyligidan foydalandi, o'z navbatida, butun ijodiy faoliyatini o'zbek adabiyotining va o'zbek adabiy tilining takomiliga va rivojiga bag'ishladi. Uning she'riyati, chinakam xalqchilik ruhida yozilgan dramatik asarlari o'zbek tilining lug'at tarkibini boyitish, grammatik qurilishini yaxshilash va takomillashtirishda muhim rol uynadi.

H. H. Niyoziy o'zbek tili o'zbek xalqining birdan-bir aloqa va fikr almashuv vositasi bo'lish bilan birga, mehnatkashlarning dushmanlariga qarshi kurash quroli ekanini to'la ravishda namoyish qildi.

H. H. Niyoziy o'zining dastlabki she'rlaridan mazmun jihatdan ham, shakl jihatdan ham, til jihatdan ham o'zbek adabiyoti mumtozlari Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy va boshqalarning she'rlariga taqlid qilib, lirik she'rlar yaratdi. Nihon taxallusi bilan yozilgan devondagi she'rlar shoirning o'zbek tilini boyitish yo'lidagi birinchi qadamini, til taraqqiyotiga uning qushgan dastlabki hissasini ko'rsatuvchi muhim hujjatdir. Lekin o'zidan oldin o'tgan shoirlar ijodiga naziralar yozish va bu bilan eski o'zbek adabiy tili ramkasi doirasida chegaralanib qolish to'xtovsiz usib borayotgan ong va tushunchani, yuksak tuyg'ularni ifodalash talablariga javob bera olmasligini H. H. Niyoziy borgan sayin ravshanroq tushuna boshladi. SHoir badiiy ifodaning ixcham va qulay ko'rsatkichini topishga, yangi nutq oborotlari yaratishga intildi. Shu maqsadda u turli millat xalqlarining tillariga murojaat qildi. Tojik tilida lirik she'rlar yozdi, engil milliy ashulalar yaratishda ozarbayjon va tatar adabiy tillaridan o'rnak oldi. Chunonchi, ayrim so'z yoki so'zlar birikmasi: *baliq, banga, savgi, o'lsa, o'lursa, qilmamish, qo'ymisham* kabi, shuningdek, ba'zi bir grammatik ko'rinishlar: junalish kelishigi qo'shimchasining hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *-ga (-qa/-ka)* shaklining *-a* shaklida ishlatilishi: *Yusuf kan'ona, bois hijrona, tishlar marjona* kabilar.

H. H. Niyoziy asarlarida hozirgi tatar adabiy tili unsurlarini uchratamiz. Ulardan poetikadagina emas, balki nasriy asarlarida ham foydalandi: *Engi qilgan, bir tug'on uchun, qart umrga, yuku akirin-akirin, ani, sanamilar* kabi so'z va so'z birikmalari. Xususan, unint «Pushti gul» nomli asarida tatar tili unsurlari yorqin ko'rinadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy rus xalqi madaniyati bilan o'zbek madaniyati o'rtasida kuchli aloqa o'rnatishga va hamjihatlik, hamkorlik yo'li bilan ish ko'rishga astoydil kirishdi. Bu esa H. H. Niyoziyning o'z ijodi va badiiy asarlari tilida katta ijobiy natijalarga erishuviga sabab bo'ldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1914–1925-yillar davomida maktab o'quvchilari uchun darsliklar – «Engil adabiyot», «Manzum axloqiy hikoyalar», «Qiroat kitobi» kabi pedagogik asarlar yaratdi. Ularning tili sodda va tushunarli bo'lib, buni «Toshbaqa bilan Chayon» masali misolida ko'rish mumkin:

Ayniqsa, uning 1916–1917-yillarda yozgan badiiy asarlari tilida keskin burilish yuz berdi. «Oq gul», «Qizil gul», «Sariq gul», «Safsar gul», «Atir gul» nomli milliy ashulalari to'plamining tili bunga yorqin misol bo'ladi. Masalan:

Og'a, sog' borsangiz, avval, dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq onamlarga salom ayting.

Ko'zi qon hamshiram birla akamlarga salom ayting.

(H. H. Niyoziy. Tanlangan asarlar, 16-bet.)

H.H.Niyoziy asarlari tilining fonetikasi va morfologiyasida Farg'ona shevalarining ta'siri ko'zga tashlanadi: *ag'dan*, *bardan* (u yoqdan, bu yoqdan), *kelib yurishg'a dimlatgan ekan* (dimlattan ekan – buyurgan yoki tayinlagan ekan), *har palla* (har gal) *ko'ngling unaydur* (unaydur – istaydi) kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi morfologik shakllardan farq qiluvchi ko'rinishlar ham ishlatilgan. Chunonchi, *-lik* qo'shimchasi bir qancha vazifada qo'llangan: a) *-lik* o'rnida – *bekaslik*, *rozilik* b) *-lik* o'rnida – *kuchlik bir azobdir*; v) *-gina* o'rnida – *o'zumni anchalik tutib* kabi.

Kelishik qo'shimchalari turli variantlarda ishlatilgan: 1) qaratqich kelishigining *-ning* qo'shimchali shakli kam uchraydi, uning vazifasini ko'pincha tushum kelishigining ko'rsatkichm *-ni* o'taydi: *meni shu dardimni, seni ko'nglingga*.

2) tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni*, *-i*, *-n* shakllarda ishlatilgan: *boshini, seni, eshondi tanishlarini sababi bor ekan, tayyorlanganin, o'zlarin* kabi;

3) jo'nalish kelishigining *-g'a/-ga//-qa/-ka* qo'shimchali ko'rsatkichidan tashqari, *-a* qo'shimchali ko'rsatkichi ham ancha keng qo'llangan: *o'z menga, murod-maqsadga, tilakka, amirg'a, mengga, yuzingg'a, joylariga, olmoqq'a, so'ylashqa, era, hijrona, mastona* kabi;

4) o'rin-payt va chiqish kelishiklari ko'rsatkichlari oldidan *n* orttirilishi ham xarakterli bo'lgan: *oldinda, qoshinda, qo'linda, ishinda, umrlarinda, kursisinda; yuzlarindan, yuzlarindin* kabi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.1905-1917-yillardagi ijtimoiy sharoit qanday edi?
- 2.Umumturk tilini yaratish uchun qaysi turkiy til vakillari boshchilik qilishdi?
- 3.Bu davr o'zbek adabiy tili qanday tamoyillar asosida rivoj topa boshladi?
- 4.O'zbek tiliga so'z qabul qilishda qaysi o'sullaradan foydalanildi?
5. Milliy adabiy tilni yaratish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

7.O'zbek milliy adabiy tilining rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziy qo'shgan xizmatlar nim adan iborat edi?

Zaruriy adabiyotlar:

- 1.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995.
- 2.Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1966, 59-bet
- 3.B.Turdialiyev. Hamza va XX asr boshlari adabiyoti. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 1989.
4. B.Turdialiyev. 1905-1907 yillar vaqtli matbuotining tili haqida// O'zbek tili va adabiyoti. 6-son.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Hamza. Tanlangan asrlar. – Toshkent: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1988.
- 2.Hamza. Qizil gul. O'zFA Sharqshunoslik instituti, Hamza fondi, inv. № 7628, 8-10-betlar.

13-ma'ruza: O'ZBEK ADABIY TILINING XX ASRNING 20-YILLARIDAN KEYINGI DAVRDAGI TARAQQIYOTI

Reja:

- 1.O'zbek tili fonetik tizimidagi o'zgarishlar
- 2.O'zbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar
- 3.O'zbek adabiy tili morfologiyasidagi yangiliklar
- 4.O'zbek adabiy tili sintaksisidagi yangiliklar
- 5.O'zbek tilshunosligining yuzaga kelishi va rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: 1.O'zbek adabiy tilining XX asrning 20-yillaridan keyingi davrdagi erishgan yutuqlari xususida. 2.1917 yildan keyin fonetikamizda yuz bergan o'zgarishlar. 3.Morfologiya sohasidagi o'zgarishlarning o'zbek adabiy tili doirasiga kiritilishi.4.O'zbek adabiy tilining sintaktik sathidagi yangiliklar. 5.O'zbek tilshunosligining taraqqiyot yo'li borasida.

Hozirgi o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining tarixan ishlangan va hozirgi talabga moslashgan shaklidir. XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zbek xalqi boshqa xalqlar qatori yangi taraqqiyot yo'liga kirdi. U o'zining shaklan milliy, mazmunan yangi madaniyatini misli ko'rilmagan darajada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xalq xo'jaligi va madaniyat sohasidagi ulug'vor o'zgarishlar milliy tillar, oldiga yangi vazifalar quydi. XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zil-kesil millat bo'lib tashkil topgan o'zbek xalqining milliy tili taraqqiy qildi. Natijada o'zbek adabiy tili yangi tushunchalarni anglatuvchi o'z va iboralar bilan boyidi, uning grammatik qurilishi yangi normalar bilan to'ldirilib, ancha silliqlashdi.

XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zbek adabiy tilining fonetikasida ham, leksikasida ham, grammatikasida ham, orfografiyasida ham o'zgarishlar bo'ldi.

O'zbek tili fonetik tizimidagi o'zgarishlar. XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zbek adabiy tilining fonetik tizimi imkoniyatlari birmuncha kengaydi. Bu davrda o'zbek tili fonetikasida quyidagi o'zgarishlar yuz berdi:

a) unli va undoshlar tizimida: *i, e, o* unlilaridagi farqli holat; *l, r* undoshlarida yumshoqlik (palatilizatsiya) hodisasi yuz berdi; *v, f* tovushlari lab-lab, lab-tish; *j, dj* tovushlari sirg'aluvchi, qorishiq sifatida farqlandi;

b) boshqp tillarning ba'zi o'ziga xos tovushlari talaffuz me'yorlariga mos holda o'zbek tiliga kirib keldi va kelmoqda singarmonizm funktsional cheklandi va o'z mavqeini yo'qotdi;

g) urg'u tizimida o'zgarishlar bo'ldi. O'zbek tilida urg'u bog'liq urg'u hisoblanadi. Boshqa tillarning ta'sirida o'zbek tilida erkin urg'u ham paydo bo'ldi: *oblast, ruchka, lektsiya* (urg'u birinchi bo'g'inda), *dastur, gazeta* (urg'u ikkinchi bo'g'inda) kabi.

O'zbek tili fonetikasida dastlabki yillardayoq paydo bo'layotgan o'zgarishlar ma'lum darajada yozuvni takomillashtirishni taqozo etardi. Oktyabr to'ntarishi bilan o'zbek yozuvini takomillashtirishda chinakam davr boshlandi. Madaniy qoloqlikni tugatish va barcha xalqlarni ijtimoiy qurilishga jalb qilish yozuv masalasini tezroq hal qilishni talab etdi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi bir necha asr mobaynida arab yozuvidan foydalanib keldi. Lekin bu yozuv o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini to'la ifodalay olmas edi. SHuning uchun savod chiqarish nihoyatda mashaqqatli edi.

To'ntarishning dastlabki yillaridayoq boshqa yozuvga o'tishga imkoniyat yo'q edi. SHu sababli yozuv sohasidagi dastlabki vazifa o'zbek tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda arab yozuvini takomillashtirish, soddalashtirish tarzidagina qo'yilishi mumkin bo'ldi. Bu vazifa 1922 yilda amalga oshirildi va bu yozuvni takomillashtirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi. Bu davrda o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yozuvni takomillashtirish bilan yozuv masalasini to'la hal qilib bo'lmasligini, latin yozuviga o'tish zarurligini ko'rsatdi. Natijada 1929 yilda latin yozuviga o'tildi. Latin yozuviga o'tish madaniy hayotni amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu yozuvni takomillashtirishdagi ikkinchi eng muhim qadam bo'ldi. 1929 yilda 9 unlili tizim asosida olingan yozuvga 1934 yilda jiddiy o'zgarishlar kiritildi. Ayrim unlilarni ifodalovchi harflar qisqartirildi va imlo qoidalari qaytadan ko'rib chiqildi. Bular uchinchi qadam bo'ldi, ya'ni rus grafikasi asosidagi yozuvga o'tish uchun shart-sharoitlar tayyorladi. Natijada 1940 yilning may oyidan boshlab o'zbek yozuvi latinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasiga asoslangan yangi yozuv tizimiga ko'chirildi. Rus grafikasi asosidagi yangi yozuvning qabul qilinishi o'zbek xalqining sobiq ittifoqdagi barcha xalqlar bilan bo'lgan ilmiy, madaniy va do'stlik munosabatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib qoldi.

O'zbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar. Ma'lumki, 30- yillarning boshlaridayoq o'zbek tilining ilmiy-texnika atamaologiyasini yaratishga ehtiyoj sezildi, turli sohalar buyicha paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi so'z va atamalar bilan lug'at tarkibini to'ldirish zaruriyati tug'ildi. Buning uchun xalq shevalariga murojaat qilindi. Adabiy tilga lahjalardan ko'plab so'z va atamalar olindi. Ular hozir madaniy va xo'jalik qurilishining turli sohalarida ishlatilmoqda.

Masalan: *tenglama*, *o'nlik*, *yuzlik*, *uchburchak*, *to'g'ri chiziq* (matematika), *undosh*, *unli*, *atov*, *atoqli ot* (tilshunoslik), *g'allakorlik*, *paxtakorlik*, *suvlik*, *botqoqlik*, *mevalik* (qishloq xujaligi) kabi.

O'zbek adabiy tili leksikasi semantik jihatdan ham rivojlandi. Leksikaning bu rivoji eski so'zlarni yangi ma'noda qo'llash, so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish asosida yuz berdi. Bu narsa jamiyatimiz ijtimoiy qurilishi, kishisining yangi hayotiy munosabatlari, axloq me'yorlari, urf-odatlar bilan bog'liqdir. Masalan, *ishchi* so'zi eski o'zbek tilida va qadimgi turkiy adabiy tilda «xizmatkor, malay» kabi ma'nolarda qo'llangan. Hozir *ishchi* deganda zavod-fabrikada ishlaydigan kishi tushuniladi. *Vatan* so'zi tor ma'noda hovli-joy ma'nosini, keng ma'noda vatani bildiradi; *er* so'zi planeta ma'nosidan tashqari, uchastka, tuproq, davlat, mamlakat, o'rin, past, oyoq osti ma'nolarini ifodalaydi. Ma'lumki, ba'zi so'zlar rus tiliga turkiy tillardan qabul qilingan. Jumladan, *mayoq*, *stakan*, *tovar*, *sulki*, *o'choq* kabi. Bunday so'zlar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda va undan oldinroq rus tili zaminida o'z ma'nosini kengaytirgan holda o'zbek tiliga o'zlashdi. Masalan, *o'choq*. (*ochag*)– *pech* so'zi asl ma'nosidan tashqari, manba, biro narsaning tarqalish manbai; biror tashkilot; uy-xonadon, oila kabi ma'nolar kasb etgan: *bilim o'chog'i* (*ochag znaniy*), *kadrlar o'chog'i* (*kuznitsa kadrov*), *madaniyat o'chog'i* (*ochag kulturi*), *tarbiya o'chog'i* (*ochag vospitaniya*) kabi. *Mayak* so'zi cho'qqi, chegara belgisi, bayroq ma'nosidan tashqari, dengiz qirg'ogiga urnatilib, kemalarga yo'l ko'rsatuvchi minora, namuna bo'ladigan narsa kabi ma'nolarni ham bildiradi: *O'zbekistan – SHarqdagi mayak* kabi.

Rus tilining bevosita ta'siri natijasida *kalkalash* (aynan tarjima) yo'li bilan o'zbek tilida juda ko'p yangi so'z va atamalar yuzaga keldi: *yoqilg'i* (*goryachiy*), *to'g'arak* (*krujok*), *tug'rukxona* (*rodilnīy dom*), *mo'z yorar* (*ledokol*), *yo'ldosh* (*sputnik*), *payvandchi* (*svarshik*), *tenglama* (*urovnenie*), *aniqllovchi* (*opredelenie*) kabi.

YUqoridagi kabi so'z va atamalar hayotimizning barcha sohalaridagi turli-tuman tushunchalarni ifoda etish zaruriyati bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kalkalash yo'li bilan paydo bo'lgan so'z va atamalarning qaysi davrda vujudga kelganligini rus tilidagi tarixiy sanasiga asoslanib belgilasa bo'ladi. Masalan, *shanbalik*– 1920 yilda, *besht yillik*– 1929 yilda, *staxanovchi* – 1935 yilda, *cho'lquvar* – 1954 yilda, *kolxoz*, – 1920 yillarda paydo bo'lgan.

Rus tilidagi yangi-yangi frazeologik birliklar, maqollar aynan tarjima qilyb ishlatilmoqda. Masalan: *tinchliksevar xalqlar*, *shaklan milliy*, *mazmunan tanqid* va *o'z-o'zini tanqid*, *hechdan kech yaxshi*, *birinchi qaldirg'ochlar*, *dala malikasi*, *zangori kema*, *sun'iy yo'ldosh*, *zangori olov* kabi. Bular o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan.

Fan va texnikaning beqiyos rivoji tufayli o'zbek tiliga rus tili orqali chetdan juda ko'p yangi so'z va atamalar qabul qilindi. Rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlar o'zbek tilshunosligida maxsus lug'at qilib nashr etildi .

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zlarning ma'no xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bunday faktlar umumxalq o'zbek tili leksikasining o'sish yo'llari va rivojlanishini ko'rsatadi.

O'zbek adabiy tili morfologiyasidagi yangiliklar. Hozirgi o'zbek adabiy tilining morfologik qurilishi ham bir qancha yangi grammatik ko'rinishlar bilan boyidi. O'zbek tilining ichki va tashqi manbalardan foydalanishi asosida uning morfologik tizimida paydo bo'lgan yangiliklar quyidagilardan iborat:

1. Ko'plik qo'shimchasi *-lar* ko'plik, umumiylik, chog'ishtirish ma'nolaridan tashqari, tubandagi vazifalarni ham bajaradi:

a) sifat yasashda ishtirok etadi: *bolalar bog'chasi* (bolalarning bog'chasi deb ishlatmaymiz), *ishchilar shaharchasi* (ishchilarning shaharchasi emas) kabi;

b) biror narsa-jismning jamini, sorti, xilini anglatadi: *suvlar ichdim, qalamlar oldim, gazetalar o'qidim* kabi;

v) hurmat ma'nosini bildiradi: *akamlar keldilar, oyimlar ketdilar* kabi.

2. Hozirgi o'zbek tilida kelishiklarning vazifasi ham ancha kengaydi. Ma'lum bir vazifada qo'llanib kelgan qo'shimcha yoki kumakchili qurilmani qo'llash hodisasi tez-tez uchramokda. Masalan: *Biz kecha boqqa (bog'da) to'plandik. Ishlaringizga (ishlaringizda) muvaffaqiyat tilayman. SHunday deyishga (deyishdan) uyaldim. Otabek irg'ib otga (otni) mindi va Qutidordan so'radi. Telefonda gaplashmoq, telefon orqali gaplashmoq, telefon bilan gaplashmoq* kabi.

Bular, o'z navbatida, tilning funktsional imkoniyatlari chegarasi kengayganligini ko'rsatadi.

3. Ot kategoriyasidagi ba'zi so'z yasovchi qo'shimchalarning funktsional rivoji ham morfologiyada sodir bo'layotgan o'zgarishlarning muhim bir qismini tashkil qiladi: *-chi, -li, -lik, -cha, -ma, -lashtirish, -dosh, -chilik* kabi. Bulardan *-chilik* qo'shimchasi eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, uning ma'nosi ko'pincha *-vul* qo'shimchasi bilan berilar edi: *chingovul, kiptovul, tustovul* kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-chilik* qo'shimchasining qo'llanish doirasi ancha kengaydi: *dehqonchilik, chovarchilik, xizmatchilik* kabi. Ba'zan nutqda *-chilik* qo'shimchasi o'rnida *-lik* qo'shimchan ishlatiladi. Bu ikkala qo'shimchaning ma'no farqiga etmaganlikdan kelib chiqadi. *-lashtirish* qo'shimchasi o'zlashtirilgan baynalmilal, ba'zan o'zbekcha so'zlarga qo'shib keladi. U 20- yillardan e'tiboran ishlatila boshladi: *elektrlashtirish, kollektivlashtirish, soddalashtirish* kabi.

4. O'zbek tilida ayrim fe'l ko'rinishlarini yasovchi qo'shimchalarning vazifasi kengaygani holda, ba'zilariniki qisqarmoqda, ba'zi qo'shimchalar ma'nolarida farqli holat ro'y bermokda. Masalan, *-yapti* qo'shimchasining vazifasi kengayib borgani holda, *-yotir, -ajak* qo'shimchalarining qo'llanish doirasi cheklanmoqda. Kelib chiqish negizi bir bo'lgan *-guncha, -gancha* qo'shimchalarining ma'nolari farqlanmoqda. Hozirgi tilda *-guncha* payt ravishdoshini yasaydi, *-gancha* esa qiyoslash, chog'ishtirish ma'nolarini bildiradi.

5. O'zbek tili lug'at tarkibiga rus va baynalmilal so'zlar kelib qo'shilishi natijasida ular bilan bog'liq holda bir qancha qo'shimchalar ham o'zlashtirildi: *-izm, -ist, -er, -ka, -al, -iv, -on, -izatsiya, -fikatsiya* kabi. Masalan: *ijobiy, sub'ektiv, ko'rsatkich, mexanizatsiya, kanalizatsiya, elektrifikatsiya*.

6. Rus tilining ta'sirida o'zbek adabiy tilida kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash ko'paydi. Qo'shma so'zlar yasashda asl o'zbek so'zlari bilan bir qatorda boshqa tillardan kirgan so'z va atamalar ham teng huquqli tarkib sifatida ishtirok

qildi: avto-, agro-, vodo-, geo-, gidro-, -log, -logiya, -mer, mikro-, -moto, radio-, tele-, teplo-, ultra-, foto-, -xod. Masalan: avtopoyga, aeromayak, gidroinshoot, mikroo'g'itlar, radioto'lqin, radioeshittirish, telyomarkaz, teletomoshabin, ultrabinafsha, fotomuxbir kabilar.

7. Eski o'zbek tilida qisqartma otlar uchramaydi. Dastlabki yillarda ba'zan so'zlashuv tilida *TO'M* (to'liqsiz o'rta maktab) qisqartmasi qo'llanilar edi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida abbreviaturalar (qisqartma otlar) bevosita rus tilining ta'sirida paydo bo'ldi: *sanbat*, *O'zdavnashr*, *O'zkitob*, *O'quvpeddavnashr*, *BMT* kabilar.

8. So'zlarni takrorlash bilan juft otlar yasaldi. Reduplikatsiya yo'li bilan paydo bo'lgan juft otlar eski o'zbek adabiy tilida ham uchraydi. XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda esa jonli tildan adabiy tilga kirgan ko'plab yangi juft so'zlar paydo bo'ldi: *ot-pot*, *pala-partish*, *ish-pish*, *osh-posh*, *apil-tapil*, *qora-qura*, *patir-satir* kabilar.

9. Eski o'zbek adabiy tilida familiyalar, taxalluslar *qizi*, *o'g'li*, *zoda*, *-iy* vositasi bilan berilsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida rus tilining ta'siri bilan *-ov*, *-ev*, *-ovna*, *-ovich*, *-evich* kabi qo'shimchalar vositasida hosil qilinadigan bo'ldi: *Solijon Hasanovich Ochilov*, *Zaynab Sayfiyevna SHonazarova* kabi.

Bular o'zbek adabiy tili morfologiyasidagi ayrim grammatik ko'rinishlarning ixchamlashganligini va boyiganligini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisidagi o'zgarishlar haqida. XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zbek tili sintaksisida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Masalan, ma'lum bir bo'lakni ta'kidlab, ajratib ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan holda so'z tartibida o'zgarish yuz bermoqda. Bu hol ko'pincha diktora, konferans va notiqning tantanali nutqida uchraydi: *Ashulani ijro etadi*, *Efirda kuylaydi Laylo SHarapova*. *She'rni o'qiydi muallifning o'zi* kabi.

Ergash bog'lanishning ot boshqaruvli tipi hozirgi tilimizda samarali qo'llanmoqda. Bu xil boshqaruv eski o'zbek adabiy tilida ham uchraydi. Lekin bunday boshqaruv tiplari rus tilining samarali ta'sirida aktiv tus oldi. Masalan: *yaxshilikka – yaxshilik*, *harakatda – barakat*; *Paxtadan mo'l hosil! Maktabdan ishga! Hamma paxta terimiga! Jahonga tinchlik!*

Hozirgi o'zbek adabiy tilida kirish so'z, ibora va gaplar ham ancha rivojlandi. Masalan: *To'g'ri, yomon odam jazosini tortishi kerak*, – *dedi Saida* (A. Qahhor). *Bu student o'tgan yili musobaqada ikkinchi o'rinni olgan edi, shaxmatga juda berilgan.*

Hozirgi o'zbek tili sintaksisida nominativ va so'z-gaplarning har xil turlari kelib chiqdi. Bu xil gaplar XIX asrning oxirigacha deyarli uchramaydi. Masalan: *Tong. Quyosh ko'kka qizil lentalar yoydi. Salom, brigadir! Salom, salom. Bormilar?* («*Mushtum*»).

Ravishdosh va sifatdosh oborotlar bilan bog'lovchili qoliplar parallel qo'llanadigan bo'ldi. Masalan: *Boshim og'rib, ishga chiqa olmadim – Boshim og'riganligi sababli ishga chiqa olmadim.*

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gap qurilmalarining turli tiplari paydo bo'ldi. Masalan, *-ki* bog'lovchisi bilan birikkan turli tipdagi ergashgan qo'shma gaplar: *Baxtim borki, har narsa go'zal ko'rinadi mening ko'zimga* (H. Olimjon). *Ishqilib, uni qo'lga kirgizingki, boshqa nonko'rlarga namuna bo'lsin* (S. Ayniy).

O'zbek tilining sintaktik qurilishida sodda qurilmalardan murakkab qurilmalarni qo'llashga o'tish kabi rivojlanish jarayonida yuz bergan ba'zi o'zgarish va yangiliklar XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda paydo bo'lgan, yangi davr milliy adabiy tilining qurilishiga mos keladigan o'zgarishlardir.

O'zbek tilshunosligining yuzaga kelishi va rivojlanishi. O'zbek tili o'zbek xalqining yagona aloqa vositasi sifatida asrlar osha xizmat qilib kelgan bo'lsa-da, 1917 yilgacha o'zbek tilining qurilishi va xususiyatsi ilmiy asosda deyarli o'rganilmagan. To'ntarishgacha tilshunoslikka doir yozilgan asarlar chuqur ilmiy asosga ega bo'lmagan.

1917 yilgacha va to'ntarishdan so'ng rus tilshunoslarining ko'rsatgan yordami va bevosita rahbarligi tufayli o'zbek tili sohasida bir qator malakali yosh olimlar etishib chiqdilar. Ular o'zbek tilining turli sohalariga bag'ishlab yirik ilmiy ishlar, darsliklar, lug'atlar, qo'llanmalar yaratdilar. Natijada o'zbek tilshunosligi fani tug'ildi.

Sho'ro hokimiyatining dastlabki yillaridayoq o'zbek tilshunosligining muammolimasalalarini to'g'ri hal qilish uchun asosiy e'tibor maxsus markaz tuzishga va kadrlar etishtirishga qaratildi. Natijada 1925 yilda O'zbekiston Xalq Maorifi komissarligi huzurida ilmiy markaz tuzildi. Bu markaz qoshida o'zbeklarni o'rganish qo'mitasi barpo etildi. 1929 yilda O'zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot institutining tarkibiy qismi sifatida til-adabiyot sektori tuzildi. 1931 yilda O'zbekiston madaniy qurilish instituti (etildi. 1934 yilda mazkur institutning til-adabiyot sektori O'zbekiston Fanlar Qo'mitasi huzuridagi til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. SHu tarzda o'zbek tilshunosligi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. O'z ob'ekti va metodiga ega bo'lgan va bir-biridan farq qiladigan tilshunoslik fanining bo'limlari yuzaga keldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.XX asrning 20-yillaridan keyingi davrda o'zbek tili fonetik tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
- 2.Bu davrda o'zbek tili leksikasidaqanday o'zgarishlar berdi?
- 3.O'zbek adabiy tili morfologiyasidagi eng muhim yangiliklar nimadan iborat edi?
- 4.O'zbek adabiy tili sintaksisida ham o'zgarishlar sodir bo'ldimi?
- 5.O'zbek tilshunosligi qachon va qandoy mezonlar asosida yuzaga keldi?

Zaruriy adabiyotlar:

- 1.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Alijev O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995.
- 2.A.Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
3. B.To'ychiboyev. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Toshkent, 1996.
4. H.Ne'matov. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T.:O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.B.To'ychiboyev, O'zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
- 2.B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi, "Nasaf", 2005.

